

L.M. ABDUNAZAROV

MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI



Toshkent - 2020

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich

**MARKAZIY OSIYO
GEOGRAFIYASI**

5110600 – Tarix o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lif yo'nali shida
5111300 – Ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti o'zga tilli guruhlarda)
ta'lif yo'nali shida tahsil olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tafsiya
etilgan

Toshkent-2020

UO'K 911.3:33(575)

KBK 65.04(543)

A 15

Abdunazarov, L.M.

Markaziy osiyo geografiyasi [Matn] : darslik / L.M.Abdunazarov.
- Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020. - 208 b.

ISBN: 978-9943-6739-3-9

Taqrizchilar:

A.A.Isayev – geografiya fanlari nomzodi, dotsent Andijon davlat universiteti geografiya kafedrasi.

N.Sh. Erkaboyeva - pedagogika fanlari doktori, dotsent. QDPI Pedagogika fakulteti.

V. Yu. Isaqov- biologiya fanlari doktori, professor QDPI Geografiya o'qitish metodikasi kafedrasi

Ushbu darslik Markaziy Osiyo davlatlari haqida umumiy tushunchalar beradi. Unda Markaziy Osiyoning tabiiy sharoitiga, hamda, iqtisodiy-regional xususiyatlariga tavsif berilgan, bundan tashqari jadval ma'lumotlar va Markaziy Osiyo nomenklaturasi keltirilgan. Darslik pedagogika insitutlarining geografiya o'qitish metodikasi, shuningdek tarix, milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari, filologiya, mutaxassisligi bo'yicha ta'lif olayotgan bakalavrular uchun darslik sifatida tavsija etiladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 356-sonli buyrug'iga asosan chop ettirilmoqda

ISBN: 978-9943-6739-3-9

© L.M. Abdunazarov

© “Shafoat Nur Fayz”, 2020

SO‘Z BOSHI

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxslar qilib tarbiyalash, ertangi kunimizga mustahkam zamin yaratishdir. Zero, dunyoqarash xarakteridagi sistemalik bilimlarga ega bo‘lish, gumanitar va iqtisodiy-ijtimoiy fanlar assoslarini, hozirgi kun davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarning mustaqil tahlil qila olish, vatan tarixini bilish, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadiriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lish bugungi kunda oliy ta’lim muassalarini bakalavrлarining tayorgarligiga qo‘yilayotgan umumiy malakaviy talablardandir

Tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxshi tasavvurga ega bo‘lish, tabiat va jamiat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamонавиј ilmiy asoslarda, hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi geografiya fanini o‘qitishdan ko‘zlanayotgan maqsad va vazifalardir. Davlat pedagogika institutlarining geograf bo‘lmagan talabalarga Markaziy Osiyoning tabiiy sharoitini va xo‘jaligining asosiy xususiyatlari hamda mazkur oilada joylashgan mamlakatlar haqida bilimlar berishdir.

Markaziy Osiyo geografiyasi kursini o‘rganish jarayonida talabalar o‘lkaning tabiiy sharoiti asosiy xususiyatlarini, yer yuzasinig tuzilishi iqlimi, ichki suvlari, tuprog‘i, o‘simligi va hayvonot dunyosini o‘rganish orqali tabiiy geografik sharoitining asosiy xususiyatlarini bilib oladi.

Aholisining soni joylashishidagi asosiy qonunyatlar sabablari, tabiiy resurslarni iqtisodiy jihatdan baholash, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini hududlar bo‘yicha joylashishini asoslab bera olishni, tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida kelib chiqadigan geoekologik muammolar va ularning sabablarini, o‘lkada transportni rivojlantirishning asosiy muammolarini tushuntirib bera olishlari lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari yashab kelganlar. Tabiiy sharoit va muhim Markaziy Osiyo VA SERVIS INSTITUTI

ANBOROT RESURS MARKAZI

No 60 697

xalqlari madaniyati, urf-odati, an'ana va marosimlarida ham mushtaraklik, umummiylikning mavjud bo'lishiga olib kelgan.

Mazkur darslik yozishda G.R.Pardayev, I.A. Hasanov, P.N. G'ulomovlarning «Markaziy Osiyo geografiyasi» o'quv-qo'llanmasi asos bo'lib hizmat qildi. O'quv qo'llanma chop etilgan boshqa nashrlaridan statistik, kartografik OAV lari va internet ma'lumotlari, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari uchrashuvlari doirasida qabul qilingan qaror va hujatlar asosida yangilanganligi bilan farq qiladi.

Darslik faqat talabalar uchungina emas, balki geografik bilimlar bilan qiziquvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin, degan umid-damiz. O'quv-qo'llanma yuzasidan fikr va mulohazalar uchun avvaldan o'z minnatdorchiligidan bildiramiz.

I-BOB
MARKAZIY OSIYO O'LKASINING
TABIATIGA UMUMIY TAVSIF

Kirish. Fanning Maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Fanining maqsad va vazifasi.
2. Fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta'limgagi o'rni
3. Markaziy Osiyo o'lkasining o'rganilish tarixi
4. Markaziy Osiyoning geografik o'rni, chegaralari
5. Markaziy Osiyo o'lkasining tabiiy xususiyatlari

Fanni o'qitishdan **maqsad** – Markaziy Osiyo tabiiy sharoiti va iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari xamda mazkur o'lkada joylashgan mamlakatlar xaqida bilimlar berishdir.

Fanning vazifasi – «Markaziy Osiyo» tushunchasining mohiyati, mazmuni, chegaralari haqida bilimlar berish; Markaziy Osiyoning geologik tuzilishi, Yer yuzasining asosiy shakllari, iqlimi, ichki suvlar, tuproq va o'simlik qoplamini hamda hayvonot dunyosi haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari, ularning turlari, ulardan foydalanish darajasi, tabiatini muhofaza qilish, mintaqadagi asosiy qo'riqxonalar va ularning faoliyati xaqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyo aholisi, uning joylashishi, tarkibi, urbanizatsiya darajasi xaqida bilimlar berish; Markaziy Osiyo iqtisodiyot tarmoqlarinig tuzilishi, joylanishi va rivojlanish xususiyatlari haqida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish; Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy va iqtisodiy geografik sharoitining asosiy xususiyatlarini ochib berish.

1. "Markaziy Osiyo geografiyasi"ni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakanlavr;
2. Markaziy Osiyo aholisining joylashishidagi asosiy qonuniyatlari va sabablari;
3. Iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini xududlar bo'yicha joylashishidagi muammolari;
4. Markaziy Osiyoda joylashgan har bir davlat geografik sharoitining asosiy xususiyatlari bo'yicha **bilimga**;

5. Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, Markaziy Osiyo sharoitining asosiy xususiyatlari, er yuzasining tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, organik dunyosi, aholisi va iqtisodiyot tarmoqlarini **aniqlay olish ko'nikmalariga**;

6. Markaziy Osiyoning tabiiy va ma'muriy chegaralarini xaritada tasvirlay olish;

«Markaziy Osiyo» atamasi mohiyati, Markaziy Osiyoning chegaralari, o'lchamlari, geografik o'rni, qo'shni mamlakatlar bilan tarixiy geografik yaqinligi, tabiiy-resurs va demografik salohiyati. Hozirgi vaqtdagi siyosiy-iqtisodiy xolati, O'zbekiston, Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон ва Turkmaniston Respublikalari—Markaziy Osiyoning muhim siyosiy-iqtisodiy geografik sub'yektlari sifatida, Markaziy Osiyo respublikalarining geografik tavsifi, rivojlanish muammolari va istiqbollari, tashqi iqtisodiy aloqalari va iqtisodiy rayonlari.

«Markaziy Osiyo geografiyası» matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 1-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. «Markaziy Osiyo geografiyası» fani aniq va tabiiy fanlar turkumiga kiradi. Predmetlararo bog'lanishni to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi xususiyatlarini hisobga olishi juda muhimdir.

Markaziy Osiyo Yevrosiyoning tarkibiy qismi bo'lib, u juda uzoq tarixiy geologik rivojlanish davomida takrorlanmas tabiiy hududiy hosila tarzida shakllangan. Markaziy Osiyo tabiiy-geografik o'lkasi Yevrosiyo materigining o'rtasida, g'arbda Kaspiy dengizidan, sharqda to Savr tog'larigacha, shimolda 53° - 54° shimoliy kenglikda, janubda Hindikush, Safedko'h, Bandi-Turkiston, Turkman-Xuroson, Nishapur, Elburs tog' tizmalari suv ayirg'ichlari orasidagi berk havzada joylashgan. O'lka O'rta dengiz bo'yidagi iliq mo'tadil va subtropik tabiatli mamlakatlar kengliklarida yotadi. Markaziy Osiyoning g'arbiy chegarasi Elburs tog'ining 54° 15 sharqiy uzunlik qismidan boshlanib. Kaspiy dengizning sharqiy qирғоqlari orqali Mang'ishloq qo'llitig'iga qadar davom etadi. So'ngra chegara shimol tomon yo'nalib, Ustyurtning shimoli-g'arbiy Dung'istov, Chog'ray platosi, Cho'chqa va Mog'ojar tog'lari orqali Ural daryosiga tutashib ketadi. Magnitagorsk shahriga (geotizim tamoyiliga ko'ra O'rol-

To‘rg‘ay daryolari suvayirg‘ichidagi Ozyorniy qishlog‘iga) qadar boradi. G‘arbiy chegaraning umumiy uzunligi 2600 km (geotizim tamoyiliga ko‘ra 2350 km), shundan 900 km Kaspiy dengizi qirg‘oqlariga to‘g‘ri keladi. Lekin chegaraning shimoli-g‘arbiy qismini ayrim darslik va ilmiy adabiyotlarda goh Urol, goh Emba daryolari orqali o‘tkazilganini ham ta‘kidlash lozim. Markaziy Osiyoning shimoliy chegarasi haqida 3 xil mulohaza mavjud. Birinchi mulohazaga ko‘ra u Qozog‘iston past tog‘larining Orol havzasini bilan Ob daryosi suvayirg‘ichiga to‘g‘ri keladi. Uchinchi fikrga binoan, chegara Qozog‘iston past tog‘larining shimoliy etaklari orqali o‘tadi.

Fikrimizcha, Markaziy Osiyo tabiiy-geografik o‘lkasining shimoliy chegarasini Orol-Irtish suvayirg‘ichidan o‘tkazilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Bu geosistema konsepsiysi nuqtayi nazaridan to‘g‘ri yondashuv bo‘lib, munozaraga barham beradi. Bu chegara g‘arbda Ozyoniq qishlogida (51° shimoliy kenglik, 61° sharqiy uzunlik), sharqda Torbog‘atoy tizmasining sharqiy qismidagi Joir tog‘iga (47° shimoliy kenglik, 85° sharqiy uzunlik) borib taqladidi. Chegaraning uzunligi 1900 km.

Markaziy Osiyo tabiiy geografik o‘lkasining sharqiy chegarasi Pomir, Tyanshan, Jung‘oriya Olatog‘i va Torbog‘atoy tog‘ tizmalari suv ayirg‘ichlari orqali o‘tadi. Bu chegara Kaspiy-Orol-Balxash berk havzasini chegarasiga to‘g‘ri keladi. Lekin hozirgi vaqtida Markaziy Osiyoning sharqiy va g‘arbiy chegaralari (iqtisodiy geografik jihatdan) Markaziy Osiyo respublikalarini ma’muriy chegaralari doirasidagina ko‘rilmoxda. Bunday yondashuvni faqat o‘lkashunoslik nuqtayi nazaridan to‘g‘ri deb hisoblash mumkin. Tabiiy geografik jihatdan chegarani bunday o‘tkazish noto‘g‘ri.

Markaziy Osiyo tabiiy geografik o‘lkasining sharqiy chegarasi Savr, Sharqiy Jung‘oriya, Jung‘oriya, Boroxoro, Iren-Xabirga, Qarat, Xoliqtog‘ tizmalari suv ayirg‘ichlari, Xontangri tog‘ tuguni, Ko‘kshag‘al, Otboshi tizmalari suvayirg‘ichi orqali o‘tib, Farg‘ona tizmasiga tutashadi, so‘ngra Oloyning sharqiy qismi va Sariko‘l tizmasi suvayirg‘ichi bo‘ylab o‘tib, Hindikush tog‘lariga tutashadi. O‘lkaning janubiy chegarasi geosistema yondoshuviga ko‘ra, Muztog‘dan (Shingshal dovonidan -4832 m) boshlanib, sharqdan g‘arbgan Hindikush, Safedko‘h, Nishapur tizmalari suvayirg‘ichlari bo‘ylab o‘tib, Elburs tog‘i orqali Kaspiy dengizining janubi-sharqiy-chekka sohiliga kelib tutashadi.

Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasining yuqorida ko'rilgan chegara ichidagi maydoni -3.300.000 kv.km. atrofidadir.

Har bir tabiiy geografik o'lkanning tabiiy chegaralari bo'lgani kabi, o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlari ham bo'ladi.

Markaziy Osiyo o'kasining tabiiy xususiyatlari quyidagilaridan iborat:

1. Markaziy Osiyo juda katta ichki o'lkadir. U Yevrosiyo materigining markazida subtropik mintaqaning cho'l, mo'tadil mintaqaning cho'l, chala cho'l va dasht zonalarida, subtropik iqlimi O'rta dengiz bo'yli mamlakatlari kengligida joylashgan. Ammo Markaziy Osiyo tabiiy sharoiti O'rta dengiz bo'yli mamlakatlarnikidan farq qiladi, chunki Markaziy Osiyo okean va ochiq dengizlardan juda uzoqda joylashgan. Eng yaqin okean - Hind okeanigacha masofa 1000 km, buning ustiga iliq Hind okeani bilan o'lka oralig'ida baland Himolay-Paropomiz tog'lari bo'lgani uchun uning ta'siridan bahramand emas, iliq nam havo massalari yetib kelmaydi. Aksincha, ancha olisda joylashgan Shimoliy Muz okeani hamda Sibirning quruq va sovuq havo massalari Markaziy Osiyo shimolida tabiiy to'siq -baland tog'lar bo'limganligi uchun bu yerga bemalol kirib keladi. Atlantika okeani va O'rta dengiz juda uzoqda bo'lsa ham g'arbiy shamollar tufayli o'lkamiz tabiatiga ancha kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo hududi ichki o'lka bo'lganligidan tipik kontinental iqlimli o'lklar qatoriga kiradi. Uning asosiy qismi mo'tadil, janubiy qismi subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan; o'lkanning mo'tadil mintaqadagi katta qismida iqlim qurg'oqchil, qish ancha sovuq, subtropik mintaqadagi qismida esa yoz quruq, issiq, qish esa nisbatan iliq bo'ladi. O'lkada asosan chala cho'l, cho'l, voha va tog' landshaftlari ko'pchilikni tashkil etadi. Iqlimda o'ziga xos keskinliklar mavjud. Cho'llarda yog'in miqdori 70-80 mm dan tog'larda 1000 mm gacha boradi. Qishda shimoli-sharqiy qismida -50° li sovuqlar, yozda esa janubida $+50^{\circ}$ li jazirama issiqlar kuzatiladi.

2. Markaziy Osiyo hududi berk havzadan, ya'ni «oqimsiz o'lordan» iborat. Bu o'lkadagi daryolarning birortasi ham ochiq dengizlarga yetib borolmaydi va ular bilan bog'lanmagan. Bu daryolar o'lka ichidagi ko'llarga quyiladi yoki chala cho'l va cho'llarda qurib tugab qoladi. Demak, Markaziy Osiyo ko'llari va tekisliklari eroziya ba-

zislardir. O'lkaning ayrim qismlari har xil balandlikda yotgan bir qancha ichki eroziya bazalariga ega. Bluar Kaspiy (-26 m), Orol (33 m), Balxash (340 ni), Issiq ko'l (1607,6 m).

3. Markaziy Osiyoning yana muhim xususiyatlardan biri yer yuzasining o'ziga xosligidir. O'lka hududi kelib chiqishi va yoshiga ko'ra murakkab relyefga ega bo'lib, u katta tekislik va botiqlardan (ayrim qismlari dengiz yuzasidan pastda joylashgan -Kaspiy bo'yida -26 m Qoragiyo (Botir) botig'i -132 m, Sariqamish botig'i -54 m), plato va qirlardan, adirlar, o'rtacha balandlikdagi tog'lar va doimiy qor va muzliklar bilan qoplanib yotgan baland (6000-7000 m dan baland) tog'lardan iborat. Markaziy Osiyo hududida tekislik va tog'lar bir tekisda joylashgan emas. Janubi, shimoli-sharfini tog'lar ishg'ol qilgan. Ularning maydoni 20% ni tashkil etadi. Ulardan g'arbda, shimoli-g'arbda va shimalda pasttekislik, tekislik, plato va qirlar joylashgan. Ular o'lka maydonining 80% ni egallagan. Tog' sistemalari o'zlarining uzun tarmoqlari bilan Markaziy Osiyoning tekislik qismiga kirib borib, uning tabiiy sharoitning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Hindikush, Paropamiz va o'lka janubidagi boshqa tog'lar orografik to'siq bo'lib, Markaziy Osiyo ni Janubiy Osiyoning tipik subtropik iqlimiga ega bo'lgan boshqa qismlaridan ajratib turadi. O'lkaning shimoli va shimoli-g'arbi tekisliklardan iborat bo'lganligi uchun g'arbdan nam, iliq shamollar, shimaldan sovuq quruq shamollar bermalol kirib kela oladi.

4. O'lka o'ziga xos gorizontal tabiat zonalarning mavjudligi va ularga mos keladigan balandlik mintaqalarining rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

5. O'lka-tektonik faol va kuchli zilzila rayoni. Qadimgi tog'larning yosharayotganligi, yosh tog'larning ko'tarilayotganligi bilan ajralib turadi.

6. Markaziy Osiyo -keskin tabiiy tafovutlar o'lksi. Hududning tar-kib topishidan tortib, o'simlik va hayvonot dunyosigacha tabiatning bar-chaga komponentlari o'lkanning turli qismlarida keskin farq qiladi.

7. Markaziy Osiyo faqat gidrografik berk o'lka bo'lib qolmas-dan, ekologik sharoiti jihatidan ham berk o'lkadir. Bu xususiyat o'l-kada xo'jalikning turli sohalarini rivojlantirishda, albatta, diqqat mar-kazida turmog'i lozim.

8. Markaziy Osiyo jahon fani, madaniyati, ma'naviyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan juda ko'p buyuk allomalar vatanidir.

Markaziy osiyo tabiatini geografik o‘rganish tarixi

Geografiya Yer shari yuzasi tabiatni, aholisi, xo‘jaligini tavsiylovchi fan sifatida uzoq davr mobaynida shakllanib kelgan. Qadimdayoq uning negizida qishloq xo‘jaligi geografiyasi hamda mamlakatshunoslik yo‘nalishlari rivojlanma borgan. Asrlar mobaynida uzoq joylarga dengiz hamda quruquk sayohatlari bilan bog‘liq bo‘lgan xaritalarni tuzish va ularga aniqlik kiritish geografiya fanining muhim vazifasi bo‘lib hisoblanganning rivojlanishi bilan Markaziy Osiyo fani ham vujudga kela boshlagan.

Ibtidoiy jamiyat davrida ham Markaziy Osiyoda yashagan odamlar bu hudud tabiatni haqida birmuncha tasavvurlara ega bo‘lganlar. Ilk geografik tasavvurlar tabiatning yangi resurslarini izlab topish va o‘zlashtirish, tabiiy sharoiti qulay yerlarga joylashish, obikor dehqonchilik, ov kasbkorligi va chorvachilik vositasida tabiatning ko‘zga yaqqol tashlanib turgan oddiy xususiyatlarini bilishga intilishlar bilan takomillasha borgan.

Dastlabki geografik tasavvurlarning rivojlanishida obikor dehqonchilikning vujudga kelishi muhim rol o‘ynagan. Obikor dehqonchilik ayrim joylarning relyefi va yer-suv sharoiti, ob-havosi, iqlimi, o‘simgilik va hayvonot dunyosi haqidagi boshlang‘ich bilimlarning vujudga kelishi hamda shakllanishiga olib bolgan.

Antik davrda (miloddan avvalgi IV va milodiy IV asrlar davomida) Markaziy Osiyo haqidagi geografik tasavvurlar yanada ken-gaygan va chuqurlashgan. Afsuski, tarixiy sabablarga ko‘ra ilk mahalliy qo‘lyozmalar deyarli saqlanib qolmaganligi o‘lkamiz xalqlarining qadimiy geografik tasavvurlarini mukammal aniqlash va uni ilmiy tahlil qilishga imkon beradi. Ular yunon va arab istilolari davrida yo‘q qilib yuborilgan. Markaziy Osiyoning tabiatni, xo‘jaligi va xalqlari haqidagi ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan ilk yozma mabardan biri zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto» (Ovista) dir. U eramizdan oldingi VII-VI asrlarda paydo bo‘lgan. Unda Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatlar Xorazm, Sug‘diyona, Marg‘iyona, Baqtriya va boshqalar eng boy, tabiatni xilma-xil va ko‘rkam mamlakatlar sifatida tilga olinadi. Unda o‘lkamizning qadimiy vohalari, vodiylari va tog‘lari tasvirlanadi.

Markaziy Osiyoda eroniylarning eramizdan oldingi VII-IV asrda uzoq vaqt hukmronlik qilishi natijasida bu o'lsa geografiyasini haqida ancha keng ma'lumotga ega bo'lganlar. Biroq Markaziy Osiyo haqidagi antik davr geografik tasavvurlari birmuncha to'liq aks ettirilgan va bizgacha yetib kelgan asosiy manbalar qadimgi grek (yunon) va qisman xitoy yozma manbalaridir.

Gerodotning qadimgi fors manbalari asosida to'plagan geografik ma'lumotlari, Ptolemeyning Markaziy Osiyoning tekislik qismi tabiatini va aholisi, asosiy karvon yo'llari va yirik shaharlari haqidagi yozganlari, uning 27 ta xaritadan iborat «Dunyo atlasi», xitoy sayyohi Chjan-Syanning xilma-xil tarixiy va geografik ma'lumotlari shular jumlasidandir.

Antik davrda Markaziy Osiyoning tekislik qismi, vohalari, shaharlari hamda yirik tabiiy obyektlarigina nisbatan durust tasvirlangan; sharqiy tog'li qismi, ichki hududlari va kichik tabiiy obyektlari haqidagi geografik ma'lumot yetarli emas.

Markaziy Osiyo tarixi, geografiyasini haqidagi tasavvurlar bir-biri bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan, bir-birini to'ldirib kelgan.

Antik davr geografik ma'lumotlari mukammal bo'lmay, nisbatan uzuq-yuluq ekanligi, o'lkaning ko'pdan-ko'p obektlari haqida ma'lumot yo'qligi, mahalliy olimlar geografik merosining saqlanib qolmaganligi antik davrning o'ziga xos xususiyatidir.

Markaziy Osiyo hududi haqidagi eng qadimgi va antik davr geografik tasavvurlari ancha cheklangan bo'lishiga qaramay ular Markaziy Osiyo haqidagi dastlabki geografik ma'lumotlarni bergen va keyingi bosqich O'rta asrlarning bilimlari va umumlashmalari uchun zamin yaratgan.

Markaziy Osiyo to'g'risidagi geografik tasavvurlarning O'rta asrlarda rivojlanishi (V-XVII asrlar). Ilk o'rta asrlarda (V-VII asrlar) o'lsa tabiatiga qiziqish, uni kuzatish, tabiatdan xo'jalik maqsadlarida foydalanish jarayoni ancha kuchaydi.

Markaziy Osiyo geografiyasini haqidagi ma'lumotlar bir tomonidan, shu yerlik mahalliy olim va sayyohlar tomonidan to'plangan. Ikkinci tomonidan, bu o'lkada bo'lgan chet ellik sayyohlar tomonidan yozib qoldirilgan. Bu ma'lumotlar o'lsa tabiatining xilma-xilligi va tabiiy sharoitining bir muncha qulayligini aks ettiradi. Lekin shunga qaramasdan ilk O'rta asrlar geografiyasini tarixiga oid ma'lumotlari.

motlar ancha cheklangan. Buning sababi, avvalo, ilmiy-adabiy asarlarning asosiy qismi arab istilolari vaqtida yo‘qolib ketganligi, qolaversa, mavjud ayrim manbalar (masalan, O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari) yetarlicha o‘rganilmaganligidir.

Ilk O‘rta asrlarga oid əbadiy-badiiy manbalar, jumladan, «Devo-nu lug‘ati turk»da (Mahmud Qoshg‘ariyning asari, XI asrda).

Yagona fanlar tizimini ifodalovchi hozirgi zamon geografiyasi qadimiy tasviriy geografiyadan tubdan farq qiladi. Bugungi geografiya ma’lumotlar yig‘uvchi tavsifiy fandan turli-tuman tabiiy, iqtisodiy, siyosiy ma’lumotlar asosida ilmiy xluosalar chiqaruvchi, umumlashmalar yaratuvchi, ilmiy bashorat qiluvchi fanga aylangan. U ayni paytda tabiiy, xo‘jalik va aholining hududiy komplekslari, ya’ni geografiya tizimlarni (sistemalarni) har tomonlama tadqiq etuvchi fundamental fandir.

Hozirgi kunda geografik bilimlarsiz, tabiatdan, tabiat boyliklari-dan oqilona foydalanib bo‘lmaydi. Insonning tabiatni o‘zgartirishida, uning boyliklaridan foydalanishda yo‘l qo‘ygan xatolari zamirida ko‘pincha geografik qonuniyatlardan bexabarlik yoki ularga amal qilmaslik yotadi. Tabiatdan foydalanishda, uni muhofaza qilish ishida geografik bilimlar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy to‘g‘ri tashkil qilish, chet ellar bilan iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalarni oqilona yo‘lga qo‘yish masalalari ham geografiyada muhum o‘rin tutadi. Aholi geografiyasi masalalari va demografik muammolarni to‘g‘ri hal qilish ham ko‘p jihatdan geografik bilimlarga asoslanadi. Biz geografiyaning rivojlaniш tarixini bilmay turib uning hozirgi ahvoli, vazifalari haqida tasavvurga ega bo‘lishimiz qiyin.

Markaziy Osiyo geografiyasi tarixini bilmay turib, o‘lka geografiyasining asosiy mazmunini, yutuqlari va ayrim kamchiliklarini, konstruktiv geografiyaning Markaziy Osiyo o‘lkasiga oid muhim regional muammolarni va kelgusida hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalarni tushunib olish mushkul.

Markaziy Osiyoda geografiyaning taraqqiyot tarixini bir o‘lka hududining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy dunyosi tarixi asosida quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganamiz.

1. Markaziy Osiyoda qadimgi dunyo geografiyasi (eramizning V asrigacha).

2. Markaziy Osiyo to‘g‘risidagi geografik tasavvurlarning o‘rta asrlarda rivojlanishi (V-XVIII asrlar).
3. Markaziy Osiyo haqidagi geografik tasavvurlarning XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida rivojlanishi.
4. Geografik tasavvurlarning Markaziy Osiyo mustamlaka davrida rivojlanishi.
5. Markaziy Osiyo haqidagi tasavvurlarning «sho‘rolar» davrida rivojlanishi (1917-1991)
6. Mustaqillik yillarda Markaziy Osiyoda geografiyaning taraqqiyoti.

Markaziy Osiyoda qadimgi dunyo geografiyasi (eramizning

V asrigacha). Markaziy Osiyo eng qadimgi (ibtidoiy) odam yashagan makonlarga boy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot juda erta boshlangan ko‘hna o‘lkalardan biridir. Markaziy Osiyo o‘lkasi tabiatining o‘ziga xosligi, relyefining, tuproq-iqlim sharoitining qulayligi bu yerda bir necha yuz ming yil avval odamlar yashay boshlashiga imkon bergen. Oxirgi 15-20 yil ichida Markaziy Osiyoda arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ilk tosh asriga oid makonlarning ochilishi haqli ravishda bu hududni odamzotning ilk ajdodlari paydo bo‘lgan mintaqaga kiritish imkonini berdi. Demak, ajdodlarimiz Markaziy Osiyoda 700 ming yildan beri yashab keladi. Jahon madaniyatining o‘choqlari (Nil bo‘ylari, Furot va Dajla, Hind daryolari havzalari) ta’sirida Oromiy xati asosida shakllangan qadimgi yozuv Markaziy Osiyoga, aniqrogi, Xorazm, Baqtriya, Sug‘diyona va Parfiyaga miloddan avvalgi VII-VI asrlarda kirib keldi. Markaziy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik madaniyati va chorvachilik bundan rosa 5-6 ming yil avval paydo bo‘lganligi isbotlangan. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi ta’sirida Markaziy Osiyo hududida bundan 4 ming yil avval qadimgi shahar madaniyati shakllangan. O‘zbekistonning janubidagi Sopollitepa madaniyati fikrimizning dalilidir. O‘zbekiston diyorida shahar paydo bolishi jarayoni o‘zining mahalliy ildiziga ega ekanligi va ilk shaharlarning shakllanish jarayoni o‘z davriga (bundan 3,5-4 ming yil avval) to‘g‘ri kelishi isbotlangan.

So‘nggi bronza va ilk temir (miloddan avvalgi 2 minginchiligi yilarning oxiri va 1 minginchiligi yillarning boshlari) davriga kelib Markaziy Osiyoda sug‘orma dehqonchilik vohalari shakillangan. Dehqonchilik va shahar hunarmandchiligi qadimgi Baqtriya (Tojikiston bilan Surxondaryo hududida), Sug‘diyona (Qashqadaryo va Zarafshon vo-

halarida), Xorazm, Parfiya, Marg'iyona (Murg'ob), Choch, Parkan va boshqalarda rivojlangan. Antik davrga kelib (miloddan avvalgi IV yozilgan) keltirilgan tabiat manzaralari va hodisalari tasviri ma'lum geografik ahamiyatga ega. Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri tabiatga faqat moddiy boyliklar manbai va inson yashovchi makon deb emas, balki ruhiy (estetik) boyliklar manbai va mangu nafosat ramzi deb ham qarashdan iborat. VIII asrning oxiri - IX asrning boshi Markaziy Osiyoda katta ilmiy geografik kashfiyot-larga tayyorlanish bosqichi bo'ldi. IX -XII asrlar Markaziy Osiyo tabiatini haqidagi geografik tasavvurlarning rivojlanishida o'ziga xos mustaqil davrdir. Bu davrda o'lkamizda fan, madaniyat va xo'jalik taraqqiyotining yuksak darajaga yetganligi bilimlarning jadal to'planiши, kengayishiga va chuqurlashuviga katta ta'sir ko'rsatdi. Markaziy Osiyoda buyuk qomusiy olim va mutafakkirlar yetishib chiqdi. Bu davr olimlari Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nosir Forobi, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy merosi, jumladan, tabiatshunoslikka oid tadqiqotlari olamshumul ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda Markaziy Osiyodagi tabiiy geografik tasavvurlar astronomiya, geodeziya, geologiyaga oid bilimlar va ijtimoiy fikrlar bilan birgalikda rivoj topdi. O'rta asr muallifarining ajoyib xaritografik va geodezik merosi katta e'tiboriga loyiqidir. Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniyning dunyo xaritalari shular jumlasidandir.

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoning janubiy va markaziy qismlari yirik vohalar, Amudaryo va Sirdaryo vodiylari va Orol dengizi atroflari geografik jihatdan nisbatan yaxshi o'rganildi. O'lkaning sharqiy tog'lik qismlari va shimoliy qismi haqida ma'lumotlar ancha kam edi.

Markaziy Osiyolik tadqiqotchi olimlarning IX-XII asrlarda o'lka tabiatini haqida to'plagan bilimlari antik davrning mumtoz bilimlaridan va V-VIII asrlar geografik tasavvurlaridan juda kengligi, chuqurligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi.

Buni shundan ham yaqqol ko'rish mumkinki, Forobi, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar Markaziy Osiyo tabiatini tasvirlash bilangina cheklanmay, uning muhim qonuniyatlarini aniqlash va keng izohlab berish bilan ham shug'ullanganlar. Ular tabiatning bir butunligi, doimo o'zgarishda va rivojlanishda ekanligi haqidagi, xususan, Mar-

kaziy Osiyoning geologik va tarixiy rivojlanishi to‘g‘risidagi fikrlari o‘z ilmiy va tarixiy ahamiyatini hanuz yo‘qotmagan.

IX-XII asrlar olimlarining tabiatni o‘rganish uslublari to‘g‘risidagi qarashlari ham ma’lum uslubiy ahamiyatga ega. Bu jihatdan Beruniyning tabiiy-geografik qarashlari, Qizilqum, Qoraqum va Amudaryo paleogeografiyasi, minerallar, ularning tarqalish qonuniyatları, allyuvial jinslarning yotqizilish qonuniyatları haqidagi original fikrlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

XIII-XVII asrlarda Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ijtimoiy sharoitning bir necha bor keskin o‘zgarishi va u bilan chambarchas bog‘liq holda fan bilan madaniyatning goh ravnaq topib, goh chuqur inqirozga yuz tutishi bilan kuzatitdi. Shuni nazarda tutib, bu katta tarhibiy bosqichdagi ilmiy geografik tasavvurlarni quyidagi 4 mustaqil davrlarga ajratib o‘rgangan ma‘qul:

1. Mo‘g‘ullar istilosi davri (1220-1360-y).
2. Temuriylar hukmronligi davri (XIV asrning 60-yillaridan XVI asrgacha).
3. Shayboniylar hukmronligi davri (XVI asr).
4. A’shtarkoniylar hukmronlik davri (XVII asr).

Mo‘g‘ul feodal bosqinchilarining deyarli bir yarim asr davom etgan hukmronligi (XIII-XIV asrning o‘rtalari) Markaziy Osiyo xo‘jaligi, madaniyati va fani rivojiga juda katta putur yetkazdi. Bu davr mahalliy geografik tasavvurlarning ham inqirozi davridir.

Markaziy Osiyoda temuriylar hukmdorligi davrida (XIV asr oxiri va XV asr) markazlashgan davlatning vujudga kelishi ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy hayotning rivojlanishi uchun bir muncha qulay sharoit yaratdi. Temur davrining o‘lka geografiyasiga bevosita eng barakali hissa qo‘sghan vakili Hofizi Abrudir. Uning asarlari umumiy geografiya va o‘kashunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Atoqli astronom va ma’rifatparvar olim Mirzo Ulug‘bek hokimiysi yillari (XV asrning birinchi yarmi) Markaziy Osiyoda tabiatshunoslik fanlarining jadal rivojlanishida yuksak bosqich bo‘di. Ulug‘bek astronomiya maktabi, tabiiy geografiya, ayniqsa, matematik geografiya va kartografiyaning rivojlanishida juda muhim rol o‘ynadi. Umuman XV asr Markaziy Osiyo madaniyatida, fanida o‘ziga xos ikkinchi uyg‘onish davridir. Ulug‘bek va Abdurazzoq Samrqandiy bu davrning eng yirik namoyandalaridan hisoblanadi. Ab-

durazzoq Samarcandiy Hindistonga sayohat qilib, «Hindiston» kito-bini yozgan.

XV asr oxiri va XVI asrning boshida yashab ijod etgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar Mirzolarning ajoyib ilmiy merosi Markaziy Osiyo haqidagi geografik tasavvurlarning kengayishi va chuqurlashuvida alohida o'rin tutadi. Boburning «Boburnoma» asari hududiy qamrovi, geografik fikrlarning teranligi, tabiat tasvirining ravonligi, faktik materiallarga boyligi, umuman, geografik mohiyati jihatidan o'z davrining eng yuksak asaridir. Bu asarda hatto bir qancha tabiiy geografik qonuniyatlar ham qayd etilgan. Bular tabiatning tarkibiy qismlari (komponentlari) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ekspozitsiya, tabiatning o'zgaruvchanligi, hududiy tafovut qonuniyatları va hokazo.

XVII asrda Markaziy Osiyoning bir qancha mayda xonliklarga (Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklariga) bo'linib ketishi va umuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotning noqulay bo'lib qolishi Markaziy Osiyo tabiatni to'g'risidagi geografik bilimlarning to'planishi va takomiliga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman, XIII-XVII asrlarda geografik bilimlar rivoji goh sust, goh jadal sur'atlar bilan bo'lsada, beto'xtov davom etdi. Bu davrdagi ilmiy adabiyotlar o'lkashunoslik materiallariga juda ham boy bo'lган. XVII asrdan boshlab Markaziy Osiyon geografik jihatdan o'rganishda mahalliy va umuman sharq mualliflari safiga rus sayyoohlari ham qo'shila bordi. Markaziy Osiyo -Rossiya diplomatik va savdo aloqalarining yo'lga qo'yila borishi munosabati bilan o'lkamizga rus sayyoohlari kelishiga imkon tug'ildi.

Markaziy Osiyo haqidagi geografik tasavvurlarning XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida rivojlanishi XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda iqtisodiy-ijtimoiy sharoit o'lkada fan va madaniyatning rivojlanishi uchun noqulay bo'lgan. O'lkaning bir necha xonliklarga bo'linib ketganligi va ular o'rtasidagi ziddiyatlar, Eron istilolari, nihoyat din axillarining ilmiy-madaniy hayotga bo'lgan salbiy ta'siri o'lkada boshqa fanlar qatori geografiyaning ham inqirozga yuz tutishiga sabab bo'gan.

Dengizlar orqali o'tuvchi yirik savdo yo'llarining vujudga kelishi ham Markaziy Osiyoda qadimgi karvon yo'llarining mavqeini ancha tushirib yubordi. Natijada Markaziy Osiyon Sharq bilan

G‘arb o‘rtasidagi mashhur savdo markazi sifatidagi mavqeい ancha pasayib ketdi. O‘lkadagi umumiyl iqtisodiy-ijtimoiy tanglik ta’sirida o‘rta asrlarda rivoj topgan yirik iqtisodiy, ma’muriy va ilmiy-madaniy markazlar -Xiva, Buxoro, Samarqand, Andijon kabi shaharlarning shuhrati pasaydi, ulardagi ilm-fan ishlari susaydi yoki deyarli barham topdi. Hatto o‘rta asr buyuk mutafakkirlarining boy ilmiy merosi, ilg‘or g‘oyalari unutila boshlandi. Feodalizm ta’qibi ostida ko‘plab fan-madaniyat axillari Markaziy Osiyon tashlab ketishga yoki og‘ir sharoitda yashab ijod etishga majbur bo‘ldilar. Ayrim olim va adiblarga badiiy asarlar vositasi bilan xalqni o‘tmish ilmiy mero-sidan bahramand qildilar, yuksak ilmiy g‘oya va ilm-ma’rifani targ‘ib etdilar, ona-tabiatni kuyladilar. Bu davrda yerli olimlar tomonidan maxsus geografik asarlar deyarli yaratilmadi. Markaziy Osiyo olimlari ijodiga sharq xalqlarining buyuk shoiri, faylasufi va mutafakkiri Mirzo Abduqodir Bedilning ilmiy qarashlari barakali ta’sir ko‘rsatdi. Bedilning 1703-yilda yaratilgan «Chor unsur» («To‘rt unsur») kitobi geografik jihatdan juda muhim ma’lumotlar va nazariy bilimlarga egadir. Bu kitobning oxirgi bobida muallif to‘rt unsur (komponent) - havo, suv, yer va olov to‘g‘risida chuqur fikr yuritadi. O‘simpliklar, hayvonlar va odamning paydo bo‘lish masalasida o‘z qarashlarini bayon etadi. Asarda Markaziy Osiyo tabiatni, Amudaryo haqida ham muhim geografik ma’lumotlar bor. Mirzo Bedil o‘z asarlarida (Irfon-1721) tabiatning bir butunligi, abadiyligi, beto‘xtov o‘zgarishda va o‘z-o‘zidan rivojlanishda ekanligi, bu o‘zgarishlar aylanma harakat tarzida ro‘y berishi to‘g‘risida juda muhim umumlashmalar yaratdi.

XVIII asrning birinchi yarmida rus geografiyasini va kartografiyasini rivojlana bordi. Ruslarning hududiy geografik tadqiqotlari ko‘lamni tobora kengaya borib, Markaziy Osiyon ham qamrab ola boshladи. Rossiyaning Markaziy Osiyo xo‘jaligiga va tabiatiga bo‘lgan qiziqishiga bir qancha omillar sabab bo‘lgan edi. Rossiya, avvalo, Markaziy Osiyoda o‘z iqtisodiy mavqeini oshirishga intildi, xonliklar bilan uzviy ravishda savdo-sotiq va diplomatik aloqalarni olib bordi. Ikkinchidan, Xitoy va Hindistonga Markaziy Osiyodan o‘tadigan qadimiy savdo yo‘lini tiklab, bu davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish ehtiyoji tug‘ildi. Nihoyat ~~Markaziy Osiyoga turli maqsadlarda~~ ekspeditsiyalar uyuştirish, bir qancha geografini tadqiqotlar olib borish zaruriyati tug‘ildi. Tabiiyki, Markaziy Osiyon o‘rganish uning

Rossiyaga qo'shni shimoli-g'arbiy qismlaridan boshlandi va bu jarayon tobora sharqqa tomon surila bordi.

Ruslarning Markaziy Osiyoga XVIII asrda uyuştirgan ekspeditsiyalarining ko'pchiligi diplomatiya, harbiy va savdo maqsadlarida o'tkazilganligi sababli ular tarkibida tabiatshunoslar kam ishtirok etgan. Shuning uchun o'lka tabiatni to'g'risida muhim ilmiy geografik ma'lumotlar kam to'plangan. XIX asrning boshlarida Markaziy Osiyon kompleks o'rghanish davom etdi. Biroq o'lka tabiatini mukammal ilmiy geografik tadqiq qilish 1820-1830-yillardagina boshlandi. Ekspeditsiya materiallarining ko'plab to'plana borishi 1830-yillarga kelib dastlabki umumlashma asarlarning vujudga kelishiga imkon berdi. Ularda Turon tekisligining geografik o'rni va tabiiy chegaralari aniqlandi, tabiat zonalari ajratildi va tasvirlandi. Ustyurt platosi va qumli cho'l tiplari, sho'rxoklari batafsil ta'riflandi, hatto ular xo'jalik nuqtayi nazaridan umumiy tarzda baholandi. Biroq bu asarlar Rossiyaning Markaziy Osiyo haqidagi bilimlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira olmadi.

O'lka tabiatini yanada chuqurroq, instrumental va statsionar usullar bilan o'rghanishga bo'lgan ehtiyoj tufayli XIX asrning 30-yillarda maxsus Orenburg korpusi tuzildi. Uning maqsadi, Markaziy Osiyo hududi va Kaspiy dengizini geografik va kartografik jihatdan o'rghanish uchun uyuştirilgan ekspeditsiya ishlariга rahbarlik qilishdan iborat edi. Orenburg korpusi ekspeditsiyalari tomonidan Kaspiy havzasining 12 ta xaritasi tuzildi, uning sharqiy qirg'oq bo'yiga kompleks geografik tavsif berildi. Bu xilma-xil ma'lumotlar asosan harbiy-statistik mazmundagi ko'pdan-ko'p ocherk va to'plamlarda jamlandi.

XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyoning tog'li qismini o'rghanish jadallahshdi. Tyanshan tog'lari va Issiqko'l havzasini tadqiq etildi. Bu davrda avvaliga Markaziy Osiyo bilan diplomatik hamda savdo aloqalarini yo'lga qo'yish, so'ngra uni Rossiya imperiyasi ta'siriga tortish maqsadida 50 dan ortiq ekspeditsiya va elchilar safari uyuştirildi.

XIX asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo g'arbiy Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, Angliyaning ham diqqat markazida bo'lgan. Ingliz josuslari va sayyoohlari o'lkamizga janubdan - Hindiston tomonidan kirib kelganlar. Angliya Rossiya bilan raqobatda Markaziy

Osiyoga tezroq kirib kelish va uni asta-sekin egallash payiga tushib, birin-ketin o'laning janubiy tog'li qismiga harbiy razvedka maqsadidagi ekspeditsiyalarni uyuştirdi.

Shunday qilib, XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tanglikka qaramay, o'lka tabiatni to'g'risida tayyeb geografik va kartografik ma'lumotlar to'plandi. Bu davr, umuman olganda, geografik ma'lumotlarni to'plash, tabiatni tasvirlash bosqichidan iborat bo'ldi.

Geografik tasavvurlarning Markaziy Osiyoda mustamlaka davrida rivojlanishi. Bu davr Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi arafasidan to 1917-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

XIX asrning 50-yillari Markaziy Osiyo hududini geografik jihatdan jadal o'rganish davrining boshlanishidir. Bu vaqtida Qozog'iston hududining katta qismini egallagan chor Rossiyasi Markaziy Osiyoning boshqa qismlarini ham bosib olish maqsadini ko'zlab, bu yerlarga uyuşhtirilgan ekspeditsiyalarni rag'batlantirib turdi. O'lka tabiatini har tomonlama tadqiq qilish chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatiga bo'yundirilgan edi.

1840-1860-yillarda butun Qozog'istonni, 1860-1870-yillarda Markaziy Osiyoning qolgan qismlari, Qo'qon, Buxoro va niroyat 1873-yilda Xiva xonligining Rossiya tomonidan bosib olinishi o'lka tabiatini va tabiiy resurslarni keng ko'lamda o'rganishga sharoit yaratdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoga ko'plab kompleks ekspeditsiyalar uyuşhtirildi va yangidan-yangi ma'lumotlar to'plandi. Bu davrda o'lka geografiyasining eng muhim qonuniyatları aniqlanadi va ularning to'g'ri ekanligi keyinchalik tasdiqlanadi. Bundan tashqari o'lka tabiiy sharoitiga baho berish, uning tabiiy boyliklarini izlab topish, ancha mukammal geografik, geologik, grobotanik xaritalar tuzish yuzasidan ham katta ishlar qilindi. Bu davrda sayyoh-larning marshrutlari o'laning tog'li qismini, Zakaspiyni turli yo'naliishda kesib o'tdi. Ustyurt, Orol bo'yłari, Amudaryo bo'yłari, Qozog'istonning dashtlari o'r ganildi va o'lka geografik xaritasidagi yuzlab «oq dog'lar» yo'qoldi.

Markaziy Osiyodagi izlanishlarda qiyosiy geografik va ekologik uslublarining keng qo'llanishi eksperimental tadqiqot usullaridan

keng foydalanishi, ilmiy izlanishlar saviyasining keskin oshishi muhim geografik qonuniyatlarning kashf qilinishi va yuksak g'oya-larning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Tabiiy fanlarning turli sohalari -geologiya, geomorfologiya, meteorologiya, glyatsiologiya, botanika va zoologiyaga oid katta faktik material to'plandi. Biroq o'lkaning tuproq qoplami va suv boyliklari o'rghanish ancha orqada qoldi.

Topografik plan olish ishlari ancha kengaydi. Triangulyatsion va astronomik punktlarni aniqlash asosida dastlabki birmuncha aniq geografik va ofografik xaritalar tuzildi.

Muhim ilmiy umumlashmalar yaratildi. Chunonchi, I.V. Mushketov Turkiston, Ichki va Markaziy Osiyo tushunchalarining hajmi va mazmunini belgiladi, ilk bor o'lkaning tabiiy chegaralarini belgilab asoslab berdi.

V.Mushkelov va N.A.Seversevlar o'lkaning dastlabki ray-onlashtirish sxemalarini ishlab chiqdilar, Turon cho'llarining topologik tasnifi yaratildi. N.A.Severev, V.A. Obruchov tomonidan Markaziy Osiyo tog' florasi va faunasining shakllanish g'oyasi olg'a surildi, cho'l florasi va faunasining asosiy manbalari hamda migratsiya yo'li aniqlandi. Cho'l qumlari genezisi va geomorfologiyasiga oid yangi fikrlar sistemasi vujudga keldi (I.V.Mushketov, V.A.Obruchev).

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo tog'larida tabiiy sharoit va ayrim landshaft komponentlarining balandlik mintaqalani-shi qonuniyati o'rGANildi. Markaziy Osiyo tabiatini o'rghanish asosida yirik monografik asarlar yaratildi (I.V. Mushketov, N.A. Severev, B.A. Fedchenko, N.A. Krasnov).

Markaziy Osiyo tabiatini va tabiiy resurslarini o'rghanishda 1900-1917-yillar o'ziga xos bir kichik bosqich bo'ldi. Bu bosqichda Toshkentda tashkil qilingan ilmiy va jamoa tashkilotlarining faoliyati o'lka tabiatini o'rghanishda katta ijobiyl ro'l o'ynaydi.

1910-yilda Toshkentda tuzilgan «Gidrometrik bo'linma» yerlarni sug'orish manbai bo'lgan daryolarning to'yinishi va oqim me'yorini aniqlashga katta e'tibor qaratdi.

1897-yilda Toshkent shahrida tashkil etilgan Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo'limi va boshqa jamiyatlar ham o'lka tabiatini o'rghanish bo'yicha samarali ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar.

XX asrning boshida Markaziy Osiyoda geografik tadqiqotlarning rivojlanishida Rossiya Geografiya jamiyatni Turkiston bo‘limi, Aholini ko‘chirish boshqarmasi va Yerlar holatini yaxshilash bo‘limining ilmiy faoliyati yetakchi rol o‘ynadi.

XX asr boshida Turkistonda Geografiya jamiyatni 120 ta ilmiy safar va ekspeditsiya, Aholini ko‘chirish boshqarmasi 39 ta, Yer holatini yaxshilash bo‘limi 29 ta tuproq-botanik ekspeditsiya o‘tkazdi. Bu ekspeditsiyalar natijasida o‘lkaning 2 mln km² dan ortiq qismi o‘rganildi.

«Aholini ko‘chirish boshqarmasi» tadqiqotlaridan ko‘zda tutilgan maqsad, o‘lkadagi aholi yashamaydigan «bo‘s sh yerlar» ni aniqlash, ularning tabiiy sharoitini o‘rganish, tuproq-botanik va suviqlim sharoitiga iqlisodiy baho berish hamda bu yerkarda Rossiyaning Yevropa qismidagi yersiz dehqonlarni ko‘chirib keltirish edi. Izlanishlar natijasida Markaziy Osiyoga 1,25 mln Yersiz dehqon ko‘chirib keltirildi. Kelgindi dehqonlar Chu vodiysi, Qoratog‘ etaklari, Jambul, Chimkent viloyatlari, Farg‘ona vodiysining sharqiy qismlarida va boshqa yerdalarda o‘rnashdilar.

«Aholini ko‘chirish boshqarmasi»ning ekspeditsiyalariga geograf tuproqshunoslar S.S.Neustruev va L.I. Prosolov, geobotaniklar O.A. va B.A. Fedchenkolar bevosita rahbarlik qildilar. Bu ekspeditsiyalar natijasida ko‘p rayonlardagi tabiiy sharoitning balandlik mintaqalari strukturasi tasvirlandi va ularning o‘ziga xosligi ko‘rsatildi. Bir xil nom bilan ataluvchi balandlik mintaqalari va gorizontal zonalar tabiatini bir-biridan farq qilishi, ya’ni ularning bir xil emasligi aniqlandi; o‘lka janubiy qismi tuproq-o‘simlik sharoitining old Osiyo va O‘rta dengiz bo‘yi o‘lkalari sharoitiga, shimoliy qismi sharoitining esa G‘arbiy Sibir, Oltoy va Markaziy Osiyo sharoitiga o‘xhashligi qayd qilindi. Markaziy Osiyoning yangi tuproq tiplari: bo‘z tuproqlar, sur-qo‘ng‘ir tuproqlar, och-qo‘ng‘ir tuproqlar ajratilib, asoslab berildi.

Markaziy Osiyoda 1894-yilda tuzilgan «Yerlar holatini yaxshilash bo‘limi» ham tuproq va o‘simliklarni o‘rganish sohasida tadqiqotlar olib bordi. Izlanishlar 1908-1911-yillarda Sirdaryo havzasida, 1912-1916-yillarda esa Amudaryo havzasida olib borildi. Bu davrlarda uyuştirilgan 30 dan ortiq ekspeditsiyalarga tuproqshunoş olim N.A.Dimo rahbarlik qildi. «Yerlar holatini yaxshilash bo‘limi»

ko‘proq obikor yerlar va sug‘orishga mo‘ljallangan cho‘l massivlari sharotini har tomonlama o‘rganish va ular holatini yaxshilash bilan shug‘ullanadi. N.A.Dimo rahbarligidagi tadqiqotlar natijasida obikor vohalar tuproqlarning shakllanishi jarayoni aniqlandi. Markaziy Osiyo tuproqlarining tasnifi yaratildi va sug‘orishga yaroqli ko‘p yerlar maydoni ilk bor hisoblab chiqildi.

Markaziy Osiyo tabiatini o‘rganishda Rossiya Geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limi tomonidan 20 yil davomida (1897-1917) uyuştirgan 40 ga yaqin ekspeditsiyasi va ilmiy ekskursiyalari ning natijasi salmoqli bo‘ldi. Bular orasida geograf L.S. Bergning Orol dengizini kompleks o‘rganish yuzasidan olib borgan tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. Izlanish natijalari L.S. Bergning «Orol ekspeditsiyasining ilmiy natijalari» nomli asarida jamlandi.

Markaziy Osiyo geografiyasi rarixida XX asr boshida (1902-1907) chet elliq olimlar-Pompelli, Devis, Xetington va boshqalarning o‘lkamizdag‘i sayohatlari yakunlari ham ma‘lum o‘rin tutadi. Ular Markaziy Tyanshanning geologiyasi, orografiyasi, geomorfologiyasi va muzliklariga oid yangi umumlashmalarni bayon etdilar.

XX asr boshida o‘lkada statsional gidrometeorologik tadqiqotlar boshlandi. Bu davrda Turkiston harbiy topografiya bo‘limining ishlari va maxsus tuproq-botanik, geologiya hamda glyatsiologik tadqiqotlar tufayli o‘lka kartografiyasi ham katta yutuqlarga erishdi. Bu davrda rossiyalik tadqiqotchilar olib borgan ishlari qanchalik katta natialarga erishgan bo‘lmisin, asosiy maqsad Markaziy Osyoning tabiiy boyliklaridan metropoliya manfaatlari uchun ko‘proq foydalanishga, ruslarni ko‘proq ko‘chirib kelib, mustamlakachilikni yanada mustahkamlashga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo haqidagi geografik tasavvurlarning sho‘rolar davrida rivojlanishi (1917-1991). Sho‘ro davri geografik tadqiqotlari quyidagi o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi:

1. 1917-yil oktabrdan so‘ng Markaziy Osyoning tabiiy boyliklarini talashni endi sho‘rolar hukumati davom ettirdi. O‘lka boyligidan meteoropoliya manfaatlari uchun samarali foydalanish niyati da Markaziy Osyoda geografik tadqiqotlar sur’ati oshirilib, ko‘lam kengaylirildi. Geografik tadqiqotlarda yangi metodlar-geofizika, geokimyo, ekologik uslublarning qo‘llanilishi tabiiy landshaftlarning tar-

qalishi va rivojlanishinigina emas, balki fizik, kimyoviy va biologik mohiyatini ham chuqur tahlil qilishga imkon berdi.

2. Umumiy geografik va maxsus hududiy tadqiqotlar ko‘lami juda kengaydi. Ilmiy ekspeditsiyalar o‘lka hududini turli yo‘nalishda kesib o‘tib, o‘lka xaritasidagi hududlar tabiiy sharoitiga iqtisodiy ji-hatdan barham berdi, tabiiy resurslarni aniqlash va ulardan o‘z maqsadlarida foydalanish yo‘llarini belgilash tadqiqotchining hamisha diqqat markazida bo‘ldi. Bu davrda o‘z maqsadlariga erishishni te-zlashtirish maqsadida o‘lkada mahalliy ilmiy tashkilot va muassasalar tashkil etildi. Shulardan dastlabkisi 1918-yilda Toshkentda tashkil etilgan. Turkiston Markaziy Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti) tabiatshunos va geograflar tayyorlash, geografik tadqiqotlarni uyushtirish va o‘tkazish, shuningdek, yangidan-yangi ilmiy yo‘nalishilani yaratishda katta rol o‘ynaydi. Keyinchalik Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog‘iston Fanlar akademiyasining ko‘plab ilmiy-tekshirish institutlari va bo‘limlari, shuningdek, o‘lkadagi oliv o‘quv yurtlari hamda ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari ham o‘lka tabiiy sharoiti va resurslarini o‘rganishga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ularning ilmiy faoliyati yer tuzish, obikor dehqonchilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish, yer osti boyliklarini izlab topish, yer-suv resurslarini baholash kabi masalalar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Sho‘rolar davrida Markaziy Osiyo tabiatini o‘rganish asosan 3 yo‘nalishda: ekologo-geografik, qiyosiy-geografik va regional-land-shaftshunoslik yo‘nalishlarida rivojlandi. Bu davrdagi muhim geografik tadqiqotlarni o‘rganish, geografik xulosalarni tahlil qilish, geografik g‘oyalar rivojini kuzatish sho‘rolar davrini quyidagi 4 ta bosqichga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi.

1. Sho‘rolar hokimiyatining dastlabki yillari (1917-1928).
2. Ikkinci jahon urushidan oldingi davr (1929-1940).
3. Ikkinci jahon urushi yillari (1941-1945).
4. Urushdan keyingi yillar (1946-1990).

Sho‘rolar hokimiyatining dastlabki yillari. Bu bosqichda o‘lka tabiiy sharoitini hokimiyatning talablaridan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari nuqtayi nazaridan o‘rganishga va sanoatni eng muhim mahalliy tabiiy xomashyo resurslari bilan ta’minlashga asosiy e’tibor berildi. Markaziy Osipyoni umumiy geografik ji-hatdan

yeterli o'rganilmaganligi sababli inqilobdan oldin boshlangan geografik tadqiqotlar davom ettirildi, o'lka xaritasidagi so'nggi, «oq dog»larni tugatish, xalq xo'jaligi va ilmiy maqsadlar uchun geografik xaritalar yaratish ishlari olib borildi.

Dastlabki yillar Markaziy Osiyo tabiiy sharoiti va resurslari haqidagi geografik tasavvurlarning kengayishi va chuqurlashuvida Fanlar akademiyasi (FA) va SAGU (Markaziy Osiyo Davlat universiteti) tadqiqotlari natijalari katta bo'ldi. FA ning O'rla Osiyodagi ekspeditsiyalari ko'proq cho'llar va tog'lar yer bag'ridagi sanoat xomashyosini (neft, ko'mir, temir, oltingugurt va b) izlab topish va zaxirasini aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, universitet olimlari ishtirokidagi ekspeditsiyalarda tabiatning barcha komponentlari o'rganildi.

Markaziy Osiyo tuproqlari va o'simlik qoplamining tasnifi tuzildi, ularning mintaqaviy regional va mahalliy qonuniyatlari aniqlandi, ko'plab aniq tuproq va o'simliklar xaritalari tuzildi, juda ko'p rayonlar yer suv sharoitida xo'jalik nuqtayi nazaridan baho berildi. R.I. Abolin fitosenologik g'oyalari rivojlantirildi. D.N. Kashkarov rahbarligidagi zooekologik va biosenologik tadqiqotlarning boshlanishi o'lka tabiiy geografiyasi rivoji tarixida muhim voqeа bo'ldi.

Urushdan oldingi besh yilliklar (1929-1941) davrida Markaziy Osiyo tabiatи ayrim komponentlar bo'yicha ham, tabiiy komplekslar bo'yicha ham keng va chuqur o'rganildi. Hududiy geografik tadqiqotlar o'lka xaritasidagi so'nggi «oq dog»larni tugatish va maxsus hamda umumiy geografik xaritalar tuzish bilan yakunlandi.

O'lka tog'li qismining 1:2000000 va tekislik qismining 1:1000000 mashtabli geologik xaritalari tuzildi. Geologik-geomorfologik umumlashma va g'oyalarga boy uch tomil «O'zbekiston geologiyasi» hamda «Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy qismlari geologik xaritasining yaratilishi» katta voqeа boldi. Bu bosqichda S.S. Shuls Markaziy Osiyo - neotektonikasiga, V.I.Popov - politologiyasiga, N.P. Vasilkovskiy va Yu.A. Skvorsov -antropogen erosion - akkumulyativ geomorfologik sikllarga oid muhim nazariy xulosalar yaratdilar. O.K. Lange rahbarligida gidrogeologlar o'lka yer osti suvlarini aniqlash va ulardan xalq xo'jaligida foydalanishda katta ishlар qildilar.

30-yillarda gidrometeorologik va iqlimiylardan tadqiqotlarni rivojlantirishda ham samarali bosqich bo'ldi. (A.A. Skvorsov, V.A. Jorjio, V.A. Butayev, V.L. Shuls). Bu davrda Markaziy Osiyo tupoqlari geografik jihatdan ham o'rganilib, tupoqlar genezi, tarqalishi, tasnifi va melioratsiyasiga oid muhim ma'lumotlar to'plandi.

P. Gerasimov Markaziy Osiyoning janubida Turon tupoq-iqlim o'lkasini kontinental subtropiklarning shimoliy qismi sifatida talqin qildi. Bu g'oyani A.N. Rozanov bilan E.P. Korovinlar 1938-yilda geografik jihatdan yanada rivojlantirdilar.

Ye.P. Korovin «Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'iston o'simliklari» asarida o'simliklar va ularning ekologik sharoiti yordamida o'inka landshaftlarining eng muhim mintaqaviy regional va tipologik qonuniyatlarni tahlil qildi.

Kashkarov va Korovinning o'tgan asrning 30-yillari yaratgan «Markaziy Osiyo cho'llarining tiplari», «Cho'llar hayoti» kabi yirik asarlari katta amaliy va nazariy ahamiyatga molik sof geografik asarlardir.

R.A. Baranov va I.A. Raykovalar Pomirning tabiatini o'rganish va o'zlashtirish muammosi ustida muvaffaqatli kompleks tadqiqotlar olib borib, baland tog', sovuq cho'llarning eksternal sharoitida dehqonchilikni rivojlantirish haqidagi amaliy geografik ta'limotga asos soldilar.

R.I. Abolin Janubiy Qozog'iston tupoq-o'simlik qoplamini keng ekologik-geografik jihatdan o'rganishi natijasida 1929-yil ilk landshaft xaritalari namunalarini yaratdi.

Ikkinci jahon urushi yillari (1941-1945). Bu davrda ham Markaziy Osiyo tabiatini o'rganish va tabiiy resurslarini aniqlash borasidagi tadqiqotlar davom etdi. Kompleks va tarmoq geografik ekspeditsiyalari uyushtirildi, faktik ma'lumot to'plandi.

Urush yillarining ehtiyojlari geologik va botanik tadqiqotlar mavzularini amaliy maqsadlarga moslashtirish va yanada jadallash tirishni taqozo etdi. Urush yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida Qozog'istonning tabiiy sharoitini tasvirlashga va Markaziy Osiyoni kompleks tasvirlash hamda tabiiy geografik rayonlashtirishga bag'ishlangan ishlardan alohida ajralib turadi.

Urushdan keyingi yillar (1946-1990). Bu davrda Markaziy Osiyo tabiatini barcha komponentlar bo'yicha jadal o'rnatildi. Natijada ayrim komponentlar geografiyasini o'rganish bo'yicha yangi ilmiy

maktab va yo‘nalishlar vujudga keldi. Butun Markaziy Osiyonи kompleks tabiiy rayonlashtirish va geografik tasvirlashga bag‘ishlangan yirik asarlar yaratildi. Ulardan eng muhim Moskvada Fanlar akademiyasi nashr qilgan «Srednaya Aziya» monografiyasidir.

Bu davrda Markaziy Osiyo janubiy qismining kontinental subtropik tabiatga ega ekanligi haqidagi g‘oya qaror topdi. Bu esa katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi.

1960-yillardan keyin Markaziy Osiyoda amaliy geografik tadqiqotlarning rivojlanishi O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘ldi.

Yangi ilmiy yo‘nalishlar landshaftshunoslik, kosmik geografiya va kartografiya, biogeosenologiya, dinamik geografiya, antropogen landshaftshunoslik, sayyohlik geografiyasi va boshqalar ham rivojlana boshladi.

Geografik g‘oyalarning rivojlanishida o‘lkani tabiiy geografik rayonlashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan intensiv tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etdi. Markaziy Osiyonи tabiiy-geografik rayonlashtirish asosan ikki yo‘nalishda davom etdi. Moskva olimlari (N.A.Gvozdeskiy, E.M. Murzayev, I.S. Shukin va b.) o‘lkani rayonlashtirishning umumiy sxemasida geologik va geomorfologik hamda mintaqaviy tafovutlarni diqqat markazida tutsalar, Toshkentning yetakchi geograflari an‘anaviy ekologik-geografik tamoyilga sodiq qoldilar.

O‘tgan asrning 60-70-yillarda Markaziy Osiyo tabiatini kompleks geografik tasvirlashda yangi bosqich bo‘ldi. O‘ikaning eng muhim landshaft xususiyatlari kitoblarda, darsliklarda bat afsil bayon qilindi. Markaziy geografiya instituti tayyorlagan «Srednaya Aziya» (1968) va «Qozog‘iston» (1969) monografiyalarining bosilib chiqishi o‘lka tabiiy geografiyasi tarixida muhim voqeа bo‘ldi. Ularda o‘lka tabiatini o‘rganish natijalari yakunlandi va navbatdagi dolzarb muammolar belgilab berildi.

1962-yili Turkmaniston Fanlar akademiyasi Cho‘llar instituting tashkil etilishi munosabati bilan o‘lka geografiyasini, xususan, cho‘llarni har tomonlama o‘rganishda yangi sahifa ochildi. Institut olimlari tomonidan cho‘l yaylovlarni yaxshilash, yer osti suv manbaridan oqilona foydalanish, cho‘l relyefining o‘zgarishini o‘rganish va to‘zima qumlarni mustahkamlash, taqir yerlarni o‘zlashtirish,

cho'llashishning oldini olish kabi muammolarni tadqiq qilish keng yo'lga qo'yildi.

Barcha komponentlar bo'yicha maxsus xaritalar, atlaslar yaratildi. Biroq o'rta va yirik mashtabli landshaft xaritalari tuzish hanuzgacha muammo bo'lib kelmoqda.

1960-1990-yillarda dolzARB amaliy geografik muammolar-tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni oqilona o'zlashtirish hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, Orol muammosi va boshqalar geograflarimiz diqqat markazida bo'ldi.

Mustaqillik yillarda Markaziy Osiyoda geografiyaning tar-aqqiyoti. Jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichi avvalgilardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham geograflarimiz davr bilan hamnafas holda o'z tadqiqot obyektlari qamrovini kengaytirib, ulkan siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishlari lozim.

Bugungi geografiya ma'lumotlar yig'uvchi tasviriyl fandan turlituman tabiiy, iqtisodiy, siyosiy ma'lumotlar asosida ilmiy xulosalar chiqaruvchi, umumlashmalar yaratuvchi, ilmiy bashorat qiluvchi fanga aylangan. U, ayni paytda, tabiiy, xo'jalik va aholining hududiy komplekslari, ya'ni geografik tizimlarni (sistemalarni) har tomonlama tadqiq etuvchi fundamental fandir.

Hozirgi vaqtida geografik bilimlarsiz tabiatdan, uning boyliklaridan oqilona foydalanib bo'lmaydi. Insonning tabiatni o'zgartirishida, uning boyliklaridan foydalanishida yo'l qo'ygan xatolari zamirida ko'pincha geografik qonuniyatlardan bexabarlik yoki ularga amal qilmaslik yotadi. Ayniqsa, tabiatni muhofaza qilish ishida geografik bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish kuchlarini hududiy to'g'ri tashkil qilish chet ellar bilan iqtisodiy, siyosiy va boshqa aloqalarni oqilona yo'lga qo'yish masalalari ham geografiyada markaziy o'rIN tutadi. Aholi geografiyasi masalalari va demografik muammolarni to'g'ri hal qilish ham ko'p jihatdan geografik bilimlarga asoslanadi.

Milliy istiqlol sharofati bilan Markaziy Osiyo o'lkasidagi mamlakatlarda amalga oshirilayotgan Siyosiy-iqtisodiy islohotlar fan sohalaridan, shu jumladan, geografiyada ham mutanosib o'zgarishlarni talab etmoqda. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti hamda mamlakatshunoslik yo'nalishlari bilan bir qaforda, zamon talablariga javob bera oluvchi harbiy-siyosiy geografiyani,

bozorlar geografiyasini, turizm geografiyasini va shunga o'xshash yo'nalishlarni ham rivojlantirish talab qilinmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach respublika fan taraqqiyotida ham yangilanish boshlandi. Bugungi kunda O'zbekistonda o'z safiga 20 dan ziyod fan doktori va 150 dan ortiq fan nomzodlarini birlashlirgan geograflar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ular qatorida Z.M. Akromov karvonboshilik qilayotgan qishloq xo'jaligi geografiyasi muammolari bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy geograflar, A.Soliyev boshchiligidagi shaharshunoslar, O.B. Otamirzayev yetakchilik qilayotgan demograflar, A.A. Rafiqov boshchiligidagi meliorativ geografiya T. Mirzaliyev yetakchiligidagi atlas kartografiyasi mакtab vakillari faol mehnat qilmoqdalar.

Hozirgi mustaqillik davrida O'zbekiston hududini mukammal o'rganib, yer kadastrini yuqori sifatli qilib tuzishda va shu ishlар asosida xalq xo'jaligi tarmoqlarini ilmiy asosda tashkil etish, joylashtirish va boshqarishda geografiya fanining ahamiyati va geograflarimizning vazifasi kattadir. Bundan tashqari geograflarimiz O'zbekistonda ishlab chiqilib qabul qilingan quyidagi ustuvor fan yo'nalishlari dasturlari asosida ham faol izlanishlar olib bormoqdalar.

1. Ma'rifat va ma'naviyat dasturi. Yuksak ma'naviyat har qanday vaziyatda ham jamiyat tarraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Ma'naviy jihatdan qashshoqlashgan jamiyat buyuk porloq istiqbolga ega davlat bo'laolmaydi.

Mustaqil O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan hozirgi davrda totalitar tuzumdan meros bo'lib qolgan ma'naviy inqirozga xotima yasash, xalqning dunyoqarashini, etiqodini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlantirish kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifadir. Bu sohada Markaziy Osiyo hududini geografik jihatdan o'rgangan mahalliy geograflar ishlарini ko'rsatish, tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi.

2. APK (agrosanoat majmuasi) dasturi.

3. Energetika dasturi. Energetika (neft, gaz, ko'mir qazib olish, elektroenergiya ishlab chiqarish) iqtisodiyotimizning asosidir. O'zbekistonda hozir energetika industriyası poydevori yaratildi.

4. Xalq sog'lig'ini saqlash dasturi.

5. O'zbekiston cho'l mintaqasini kompleks 'o'rganish das-turi.

O‘zbekistondagi 29 mln ga dan ortiq cho‘l hududi to‘liq o‘rganilmagan, uni iqtisodiyotimizga xizmat qildirishimiz kerak. Cho‘lni o‘rganish bo‘yicha xalqaro markazlar tuzilishi ko‘zda tutilmoqda.

6. Fundamental fan dasturi. Geografiya sohasida istiqbolli fundamental izlanishlarga e’tibor qaratilishi lozim. Bular quyidagi-lardir:

- ✓ O‘zbekiston geograflari uchun asosiy muammo bu atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish;
- ✓ yechilishi zarur bolgan geografik muammolardan ekologik xavfsizlikni ta’minlash muammosi;
- ✓ cho‘llanish va tabiatni degradatsiyasi (cho‘llar maydonining kengayib borishi, tabiiy muhitning o‘zgarishi);
- ✓ tog‘li va tekislik hududlar muammolarini har tomonlama tadqiq etish va hal qilish;
- ✓ ko‘chmas mulk kadastrini tuzish. Bunda geograflarning faol qatnashishini ta’minlash. Ma‘lumki, «kadastr» (fransuzcha kadastr-aholini ro‘yxatga olish) voqelikning miqdoriy, sifatini hamda tasviriy jihatdan bir vaqtning o‘zida ifodalanishi bo‘lib, bozor iqtisodiyoti munosabatlarida munosib o‘rin egallashning muhim tamoyilaridan biridir. Shu tayyorgarlikni, intellektual yetuklik va teranlikni, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini, ularning yo‘nalishiga ko‘ra bilishni taqozo qiladi. Bu vazifani hal etishda fanning barcha sohalari vakillari bilan bir qatorda geograflarimiz ham yaqindan ishtirok etishlari lozim;
- ✓ aholini davolash, dam olishi va turistik sayohatlarni tashkil qilish muammosi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda fan uchun mablag‘ davlat tomonidan Davlat fan va texnika qo‘mitasiga beriladi, u esa davlat buyurtmачisi sifatida ilmiy tashkilotlarga budjetdan pul ajratadi. Fundamental izlanishlar uchun Davlat fan va texnika qo‘mitasida va O‘zbekiston FAda maxsus fondlar tashkil qilingan. Qo‘mita tanlovida qatnashib undan o‘tgan har bir shaxs, ilmiy tashkilot yuqorida keltirilgan 6 ta ustuvor yo‘nalishda ishlashi va mablag‘ bilan ta’minlanishi mumkin. Mustaqillik Markaziy Osiyo geograflariga Xalqaro ilmiy aloqalarni kuchaytirish imkonini beradi. Yevropa hamdo‘stligi mamlakatlari komissiyasi qoshida tashkil etilgan TEM-PUS-TASIS loyihasida bir qator mustaqil davlatlar bilan ilmiy aloqa

o'rnatish dasturi tuzilgan va chop etilgan. Bunday dastur Markaziy Osiyoda tashkil topgan mustaqil davlatlar - O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston va Qirg'iziston uchun ham mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi uchun mo'ljallangan loyihamda Yevropa Parlamenti komissiyasi bilan hamkorlikda bir qator yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ko'zda tutilgan, jumladan, geografiya, geologiya, atrof-muhit, tabiiy resurslarni boshqarish, turizm iqtisodiyoti, geograflar malakasini oshirish kabi aloqalar samarqandlik geograflar (SamDU) tomonidan amalga oshirib borilmoqda. O'zbekiston, Belgiya va Italiya oliv o'quv yurtlari o'rtasida tuzilgan shartnomma asosida har uchala tomon urbanizatsiya, turizm, landshaft ekologiyasi va tabiatni muhofaza qilish kabi masalalarga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishmoqda.

Xalqaro hamkorlik Turkmanistonda Cho'llar instituti, Qozog'istondagi Geografiya instituti va Markaziy Osiyo zaminidagi boshqa ilmiy tashkilotlar tomonidan ham olib borilmoqda.

Geologik tuzilishi

Markaziy Osiyoning geologik tuzilishi juda murakkab, bu yerda proterozoy erasidan to to'rtlamchi davrgacha hosil bo'lgan cho'kindi, magmatik va metomorfik tog' jinslari majmui uchraydi. Protetozoy va paleozoy tog' jinslari burmalangan va juda ko'p yoriqlar bilan parchalab yuborilgan.

Yer sharida litosfera yirik 7 ta va uncha katta bo'lмаган plitalardan tashkil topgan (3-rasm). Bu plitalar doimo turli tomoniga harakatlanadi va mantiyadagi moddalarning uyurma harakati, oqimini vujudga keltiradi. Litosfera plitalari chegarasida Yer yuzidagi yirik rel'ef shakllarini, vulkanik va seysmik mintaqalarini vujudga keladi¹.

Markaziy Osiyoning tog'li hududlarida, tekislik qismidagi qoldiq tog'larda bu tog' jinslari yer yuzasiga chiqadi. Turon plitasining tekisliklarida va tog'lar orasidagi botiqlarda esa katta chuqriliklarda yotadi va bu tog' jinslar ustini mezazoy hamda kaynazoyning uvoq tog' jinslari qoplab yotadi.

Proterozoy yotqiziqlari Markaziy Osiyoda Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlarida, Markaziy Qizilqumda, Qozog'iston

¹ V.Ettwein and M. Maslin. «Physical geography: fundamentals of the physical environment.» 11-12-bet.

past tog‘lari o‘lkasida ajratilgan. Bu yotqiziqlar slanetslar, gneytslar, paragneyslardan tashkil topgan.

Paleozoy yotqiziqlari turkumi asosan antiklinoriylarning yadrolarida tarqalgan bo‘lib, bu eradagi hamma davr yotqiziqlaridan tashkil topgan. Ular asosan slanetslardan, ohaktoshlardan, konglomeratlar, argilitlar, qumtoshlar, alevrolitlardan iborat.

Mezozoy gruppasi yotqiziqlari tog‘ massivlarini o‘rab turadi va asosan konglomeratlar, qumtoshlar, gillar, alevrolitlar, ohaktoshlar va tosh tuzlaridan iborat.

Kaynozoy yotqiziqlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Paleogen yotqiziqlari qumtosh, gil, alevrolit, ohaktosh, mergellardan tashkil topgan va tekisliklarda keng tarqalgan. Neogen yotqiziqlari ham keng tarqalgan bolib, asosan qumtoshlar, qumlar, gillar, alevrolitlar, ohaktoshlar, mergellardan iborat, ularda gips va chig‘anoq qo‘shilmalari ham uchraydi.

To‘rtlamchi davr yotqiziqlari kelib chiqishiga ko‘ra kontinental, allyuvial-prolyuvial, proallyuvial va dellyuvial bo‘lib, litologik tuzilishi va qatlamining qalinligi bir xil emasligi bilan ajralib turadi. Allyuvial yotqiziqlar asosan yirik daryo vodiyalarida keng tarqalgan bo‘lib, konglomeratlar, shag‘allar va qumlardan iborat. Usti uncha qalin bo‘lmagan lyosimon gil jinslar bilan qoplangan. Allyuvial-prolyuvial yotqiziqlar tog‘lar va tog‘oldi tekisliklaridagi daryo va soy yoyilmalarida tarqalgan va konglomeratlar, shag‘allar va lyosimon jinslardan tashkil fopgan. Prolyuvial yotqiziqlar vaqtincha oqar suvlar olib kelgan mayda shag‘allar va lyosimon jinslardan iborat bo‘lib, tog‘ etaklarida keng tarqalgan. Dellyuvial yotqiziqlar, asosan, lyosimon jinslar bo‘lib, tog‘lar yonbag‘ilarida tarqalgan.

O‘zbekiston hududidagi to‘rtlamchi davr yotqiziqlari Yu.A. Skvorsov va G‘.A. Mavlonovlar tomonidan stratigrafik bo‘linish sxemasiga ko‘ra 4 ta kompleksga Nanay (G_1) Toshkent (G_2) -Mirzacho‘l (G_3) -Sirdaryo (G_4) larga ajratilgan. Markaziy Osiyoda to‘rtlamchi davning bu komplekslarga kirmagan, bo‘limlarga ajratilmagan yotqiziqlari ham alohida ko‘rsatiladi. Bular qumlar va ko‘l kimyoviy yotqiziqlardir.

Tektonik tuzilishining o‘ziga xosligi, yer qobig‘ining qalinligiga va yer yuzasining tuzilishiga qarab Markaziy Osiyo hududi, tektonik

jarayonlarning kechishi keskin farq qiluvchi 2 ta katta tektonik o'lka-ga ajratiladi:

1. Tyanshan orogen o'lkasi.
2. Turon plitasi.

Markaziy Osiyoning orogen qismi, ya'ni uning sharqiy va janubiy qismlari neogen va to'rtlamchi davrlarda tektonik harakatning kuchli faollashishini boshidan kechirganligi uchun platformadan keyin hosil bo'lgan orogen o'lkasiga kiritiladi. U har xil katta kichiklikdagi tektonik tuzilmalardan iborat. Bularning asosiyilar Chotqol-Qurama, Nurota-Oloy, Hisor-Zarafshon sistemalaridagi tog' tizmalarini, Afg'on-tojik botig'i, Zarafshon, Farg'ona botig'lari hisoblanadi.

Turon plitasi ham har xil tektonik tuzilmalardan (ko'tarilma va botiqlardan) tashkil topgan. U Markaziy Osiyoning shimoli-g'arbini egallaydi va Sirdaryo, Amudaryo, Shimoliy va Janubiy Ustyurt sinklizalarini, Markaziy Ustyurt tekisliklarini o'z ichiga oladi.

Orogen va plitali tektonik tuzilmalar gersin va Alp tog' hosil bolish davrida vujudga kelgan, ularni turli katta kichiklikdagi va yo'nalishdagi yoriqlar kesib o'tgan. Bu yer yoriqlari bo'ylab ro'y berib turadigan harakatlar ta'sirida mazkur tektonik tuzilmalar har xil balandlikga ko'tarilgan, ba'zilari cho'kkan, natijada palaxsasimon relyef shakllari hosil bo'lgan. Gersen tog' hosil bo'lish davrida tektonik harakatlar bilan bir qatorda vulqonlar ham otilgan. Vulqon va yoriqlarda sodir bo'layolgan jarayonlar natijasida Markaziy Osiyoda mavjud rudali, rangli, nodir, qimmatbaho foydali qazilmalar hosil bo'lgan.

Arxey va proterozoy eralarida Markaziy Osiyo hududi dengiz ostida bo'lgan va cho'kindi jinslar to'plangan.

Markaziy Osiyoning ko'p qismini paleozoy erasidan tortib to neogenga qadar Tetis dengizi (iliq) qoplab yotgan. Bu dengiz g'arbda Janubiy Rossiya o'rnidagi dengiz orqali O'rta dengiz bilan va shimolda To'rg'ay bo'g'ozni orqali G'arbiy Sibir pasttekisligini bosib yotgan Shimoliy Muz okeani bilan qo'shilib turgan. Yuqori bo'r davrida dengiz bir oz chekingan Pomirda Kapetdog' tog' sistemalari o'rnda, Mang'ishloq yarim orolida hamda Qizilqumning ichki qismlarida orol va orolchalar ko'rinish turgan, Geosinklinal zonada hosil bo'lgan qalin dengiz yotqiziqlari ayrim joylarda vaqtiga vaqtiga bilan davom etib turgan tog' paydo bolish jarayonlarida burmalangan va

baland quruqliklar vujudga kelgan. Dengizning shimoliy qismi ko‘tarila boshlagan, dengiz janubga tomon asta-sekin chekingan. Silur davrida avjiga chiqqan kaledon burmalanishida Markaziy Osiyoda Qozog‘iston past tog‘larining g‘arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan ko‘tarilgan. Kaledon tog‘lari dengiz ichida yirik orol bo‘lib ko‘ringan.

Ural-Tyanshan geosinklinalning qolgan qismidagi geosinklinal holatda bo‘lgan va paleozoy oxiriga kelib, gersen tog‘lari hosil bo‘lganidan so‘ng geosinklinal o‘rnida tog‘li o‘lka paydo bo‘lgan. Toshko‘mir davrida boshlangan gersin burmalanishi vaqtida yanidan ko‘pgina tog‘ tizmalari ko‘tarilgan, quruqlik kattalashgan, dengiz esa yana janubi-g‘arbga chekingan. Bu burmalanishda g‘arbiy va janubiy Tyanshan tog‘lari, Qozog‘iston past tog‘larining sharqiy qismi, Torbog‘atoy, Savr, Jung‘oriya Olatovi, Markaziy Qizilqum tog‘lari ko‘tarilgan. Perm davriga kelib gersen burmalanishi tugagan. Shundan so‘ng tog‘lar yemirila boshlagan va paleozoy erasining oxiri va mezzozoy erasining boshlarigacha bu tog‘lar yassi tog‘larga aylanib qolgan.

Mezzozoy erasidagi kimmiri burmalanishi Markaziy Osiyoda kuchsiz bo‘lgan, uning natijasida, asosan, Kaspiy bo‘yidagi Mang‘ishloq yarim orolidagi past tog‘lar, Shimoliy Bolxon yassi tog‘lari, Mezzozoyning oxirida iqlim quruqlashgan.

Kaynozoy erasining paleogen davrida dengiz yana bostirib keladi, kimmiri burmalanishida ko‘tarilgan tog‘lar yemirilib ketadi, botiqqlarni va tekisliklarni dengiz bosadi hamda Qoratog‘ tizmasiga cha yetib boradi. Neogen davrida kuchli Alp burmalanishi ro‘y beradi. Bunda Orqa Oloy, Pomir, Hindikush, Parapomiz, Safedko‘h, Bandi Turkiston, Kapetdog‘ va Bolqon tog‘lari ko‘tarilgan. Tyanshan esa qaytadan ko‘tarilib yoshargan.

Alp burmalanishida Markaziy Osiyoning janubida vujudga kelgan baland tog‘lar Markaziy Osiyo dengiz havzasini janubdagagi dengiz havzasidan, o‘lka shimolida paydo bo‘lgan To‘rg‘ay supasi-mon platosi esa Shimoliy Muz okeani havzasidan ajratib qo‘ygan. Janubdagagi vujudga kelgan baland tog‘lar Hind okeanidan keladigan iliq va nam havo massalarini to‘sib Markaziy Osiyoga o‘tkazmagan; buning natijasida o‘lka iqlimi yanada qurg‘oqchillashgan va cho‘li tipi landshaft vujudga kela boshlagan. Neogenda Markaziy Osiyoning

sharqiy qismi ko'tarilishi bilan dengiz ancha qisqarib, g'arb tomonga chekingan. U Orol-Ashxobod meridianidan g'arbda Orol-Kaspiy-Sarmat dengizi havzasini tashkil etgan. Markaziy Osiyoning barcha tog' sistemalari Alp orogenezi tufayli hozirgi relyef qiyofalariga ega bo'lган. To'rtlamchi davr boshlarida ham tog' hosil bo'lishi davom etgan. Uchlamchi davr тог'oldi qiyaliklarida, qadimgi paleozoy tog' massivlarida, shuningdek, g'arbiy Tyanshan tizmalarida ko'tarilishlar yuz bergen. To'rtlamchi davrda dengiz havzalari yana qisqargan va relyef shakillarining tarkib topishida eroziya hamda muzliklar ta'siri kuchaya boshlagan.

To'rtlamchi davrda iqlimning o'zgarib turishi natijasida tog'larda to'plangan qor va muzliklardan juda ko'p oqar suvlar paydo bo'lган. Tog'larni kuchli darajada yemirgan bu suvlar juda ko'p uvalangan mahsulotlarni tog'oldi qiyaliklariga va tekisliklariga olib kelgan. Daryolar tekisliklarda adashib, turli o'zanlardan oqqan va natijada qalin qum hamda gil allyuviyalarini to'plagan. Keyinchalik shamol qumlarni o'yнатиб, qayta yoyib, cho'llardagi hozirgi relyef shakllarini vujudga keltirgan. Markaziy Osiyoda barcha tog' oldi qiyaliklari va adirlarida, shuningdek, yirik daryo vodiylarida uchraydigan tez uvalanuvchi, g'ovak, mayda donalardan iborat korbanatli bo'z tusli cho'kindi tog' jinsi lyossning kelib chiqishi munozarali. Ba'zi olimlar lyossni dengiz, ko'l, daryo, suv muzlik yotqiziqlari natijasida vujudga kelgan deb isbot qilishga urinadilar. Ko'p olimlar zol va tuproq gipotezasini ma'qullaydilar. Bizning olimlarimiz Markaziy Osiyo lyossini allvavial yo'l bilan hosil bo'lган, degan xulosaga kelganlar.

To'rtlamchi davrda Markaziy Osiyoning g'arbiy tekislik qismining geologik tuzilishida va relyefida iz qoldirgan muhim voqealardan biri Kaspiy dengizining trangressiyalari (suv bosishlaridir). Oqchag'il, Apsheron, Baku, Hazar va Xvalin trangressiyalari davrida Turon plitasining g'arbi qum gil yotqiziqlari bilan qoplangan. Eng kuchli Xvalin trangressiyasida Kaspiy suvi 50-80 metrga ko'tarilib, 56° sharqiy uzoqlikkacha yetib borgan.

Endogen tektonik kuchlar natijasida hosil bo'ladigan yer osti silkinishlariga zilzila deb ataladi. Zilzila yer po'stining ichki qismidagi tabiiy kuchlar ta'sirida sodir bo'ladigan silkinishlar tufayli

vujudga keladi. Silkinish paydo bo'lgan zilzila o'chog'i *epitsentr* deyiladi. Epitsentr dan to'lqin atrofga tarqaladi²

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo tog'larining hozirgi relyefi neogen va to'rtlamchi davrda vujudga kelgan. Tog'lar asosan denudatsiya, tekisliklar esa akkumlyatsiya jarayonlari natijasida hozirgi holatga kelgan o'lkalardir. Binobarin, Markaziy Osiyo tabiatи hozirgi holatining shakllanishi to'rtlamchi davr mobaynida ro'y bergan.

Markaziy osiyoning orografiyasi va relyefi

Markaziy Osiyoning orografik tuzilishi ancha murakkab. O'lkanning g'arbiy va markaziy qismini Turon tekisligi, shimoliy qismini qir va platolar, janubiy va sharqiy qismini baland tog' tizmalari ishg'ol qilgan. Umumiyl maydonining tahminan 80% i tekislik va pastliklar, qolgan 20% ini qir va tog'lar tashkil etadi. O'lkanning eng past nuqtasi Qoragiyo botig'i (-132 m) bo'lsa, eng baland nuqtasi Hindikush tog'idagi Tirichmir cho'qqisidir (7690 m). Markaziy Osiyoning Yer yuzasi janubdan, janubi-sharq va sharqdan shimolga, shimoli-g'arbg va g'arb tomonga asta-sekin pasayib boradi, Tog'-larda eroziya natijasida, baland tog'li yerlarda muzlik va sovuqdan nurash ta'sirida vujudga kelgan relyef shakllari ko'p uchraydi.

Turon tekisligi Qozog'iston past tog'laridan va Ural tog'laridan janubda joylashgan. Shimoli-g'arbd (Ustyurtning shimoli-g'arbiy chinki bo'ylab) Sharqiy Yevropa tekisligi va Ural bilan (Mug'ojarning sharqiy chekkasi va Orol orti pnepleni), shimolda g'arbiy Sibir (To'rg'ay platosining shimoli-sharqiy tik yonbag'ri bo'ylab), Qozog'iston past tog'lari bilan (uning g'arbiy chekkasi bo'ylab, shuningdek, Betpaqdala va Balkash-Olako'1 botig'inining shimoliy chekka qismlari bo'ylab) chegaralanadi. Janubi-sharqda va janubda Turon tekisligi Markaziy Osiyoning tog'lari bilan chegaralansa, g'arb tomonda Kaspiy dengizi suvleri tabiiy chegara hisoblanadi. Tekislik asosan 35°-48° shimoliy kengliklar va 51°-70° sharqiy uzoqliklar orasida yotadi. Maydoni 2 mln kv km ga yaqin, Dengiz sathidagi o'rtacha balandligi 100-150 m eng past yerlari Sariqamish, Oqchoqay (-78 m), Qoragiyo (Botir) botiqlaridir (-132 m).

² V.Ettwein and M. Maslin. «Physical geography: fundamentals of the physical environment» 15-bet.

Markaziy Osiyoning janub, janubi-sharq va sharqiy qismlaridagi tog‘ oldi qiya tekisliklar va adirlar dengiz sathidan 400-1000, hatto 1600 m gacha balandda joylashgan. O‘lkaning chekka shimolidagi Qozog‘iston past tog‘larining balandligi 1000-1200 m ga yetadi.

To‘rg‘ay, Unguzorti, Ustyurt va Betpaqdala platolari yassi baland tekisliklar bo‘lib, tepalari supasimon tekis, chetlari esa tik jarliklar -«chink»lar bilan tugaydi. Yirik orografik elementlar Markaziy Osiyoning tekislik qismida Turon plitasi fundamentining past-balandligini aks ettirgan holda joylashgan.

Markaziy Osiyoning tog‘li hududi tabiatiga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, bir necha mustaqil tog‘ tizmalariga bo‘linadi. Bular Savr va Torbog‘otoy, Jung‘oriya Olatog‘i, Tyanshan, Hindikush, Safedko‘x, Bandi-Turkiston, Nishopur, Parapomiz tizmalaridir. Bu tog‘ tizmaları Yevroсиyo materigining ichkarisida, okeanlardan uzoqda joylashgan, qo‘sni tekisliklardagi arid, sharoit ularda ham ko‘zga tashlanadi. Bu tog‘ tizmalarining hammasi ham tektonik faolligi, tog‘ relyefining yoshligi, katta mutloq va nisbiy balandliklar mavjudligi bilan ajralib turadi. Tog‘larning balandligi - Hindikush, Tyanshan va Pomirda 5000-7500 m, chekka tizmalarda 3000 m ni tashkil etadi. Bu hol tog‘ muzliklarining keng tarqalishiga olib kelgan.

Markaziy Osiyo tog‘lari materikni g‘arbdan sharqqa tomon kesib o‘tgan Yevropa-Osiyo tog‘ mintaqasiga kiradi. Pomir shu mintaqaning eng yirik tog‘ tuguni bo‘lib, undan sharqqa tomon ikkita tog‘ zanjiri ajralib chiqqan, biri janubi sharqqa -Himolayga tomon, ikkinchisi shimoli-sharqqa -Tyanshan, Jung‘oriya Olatog‘i, Torbog‘otoy, Savr va Janubiy Sibir tog‘lari orqali Oxota dengizigacha boradi. Tyanshan Xontagrining xitoycha tarjimasi bo‘lib, osmon tog‘lari -Tangritog‘ degan ma’noni bildiradi. Maydon jihatidan eng katta bo‘lgan bu tog‘ tizmasi Markaziy Osiyo tog‘li qismining markazida joylashgan va orografik tuzilishiga ko‘ra juda ham murakkabdir. Uning tog‘ zanjirlari kenglik bo‘ylab 300 km ga cho‘zilgan. Tyanshan shimolida Jung‘oriya Olatog‘idan Chuv-Ili botig‘i orqali ajralib turadi, janubiy chegarasi har xil o‘tkaziladi. Ko‘pchilik olimlar uni Torim botig‘i. Oloy vodiysi, Surxon vodiysi, Tojikiston botig‘i orqali, ayrimlari Farg‘ona botig‘ining janubidan o‘tkazadilar. Tyanshan orografik tuzilishiga ko‘ra Shimoliy Tyanshan, Ichki (yoki Markaziy) Tyanshan, G‘arbiy Tyanshan va Janubiy Tyanshan tog‘lariga bo‘linadi.

Shimoliy Tyanshanning asosini kenglik bo'ylab cho'zilgan Ketmon, Kungey Olatog'i, Qirg'iziston tizmalari undan shimoliy g'arbg'a cho'zilgan. Qoratog' Iliorti, Chuv-Ili tog'lari tashkil etadi. Ularning mutloq balandligi 4500 metrdan oshadi. Issiqko'l, Suvsamir, Talas botiqlari janubida Talas Olatog'i, Tereskey Olatog'i, Jung'or tizmalari joylashgan.

Markaziy Tyanshan Shimoliy Tyanshan bilan Ko'kshag'altog' oralig'ida joylashgan. G'arbda uni Farg'ona tizmasi o'rab turadi. Tog' oralig'ida botiqlar, uncha uzun bo'lman tog' tizmalari mavjud. Yuqori Norin, Norin, To'xtag'ul kabi botiqlarning mutloq balandligi 1000 metrdan 3000 metrgacha boradi. Markaziy Tyanshan bu tog'li o'lkaning eng baland qismi hisoblanadi. Uning sharqida G'alaba (7439 ra) va Xontangri (6695 m) cho'qqilari joylashgan. Tyanshanning eng katta muzligi Inelchek ham shu yerda joylashgan. Markaziy Tyanshan relyefi uchun xos narsa bu yerda sirlarning, ya'ni qadimgi tog'li o'lkaning peneplenlashgan qoldiq tog' shakllarining keng tarqalganligidir.

G'arbiy Tyanshanga Talas tog' tugunidan ajralib chiqqan Chotqol, Piskom, Qurama va Farg'ona tog' tizmalari kiradi. Bu tizmalarning mutloq balandligi 4500 m gacha boradi.

Janubiy Tyanshanning asosini kenglik bo'ylab cho'zilgan Oloy, Turkiston, Zarafshon, Nurota va Hisor, Boysun, Ko'hitangtog' tizmalari tashkil etadi. Ayrim olimlar Janubiy Tyanshanni Oloy tog' sistemasi deb ajratib, unga Qizilqumdag'i past tog'larni ham kiritadilar. Janubiy Tyanshanning sharqida tizmalarning balandligi 5000-6000 metrgacha boradi. Tog'lar orasida Farg'ona, Oloy, Zarafshon vodiyllari ham bor. Tyanshan sharqdan g'arbg'a tomon asta-sekin pasayib boradi, sharqi tor bo'lib, g'arbg'a tomon kengayib borib, yelpig'ich shaklida bir qancha tarmoqlarga bo'linib ketadi. Tog' burmalarini vujudga keltirgan tektonik bosimning asosan shimoldan kelganligi uchun tizmalarning janubiy yonbag'irlari tik va jarlik, shimoliy yonbag'irlari esa qiyadir. Tyanshan tog'lari tog' oralig'i tektonik botiqlarining ko'pligi bilan ham ajralib turadi.

Markaziy Osiyoning janubi-sharqida g'oyat murakkab bo'lgan Pomir tog'lari joylashgan, uning asosiy tizmalari kenglik bo'ylab cho'zilgan. Pomir tog' tizmalari Tyanshandagidañ ancha kalta bo'lsa ham lekin uning tizmalaridan balandroqdir. Baland tog'lar Pomir

tizmasining asosan sharqiy va markaziy qismida bo'lib, g'arbga tomon pasayib, tarmoqlanib ketadi. Pomirning Turkiston hududidagi eng baland cho'qqisi Ismoil Somoni 7495 metr. Pomirda Tyanshangagi kabi sirtlar, keng tektonik botiqlar va platolar yo'q.

Markaziy Osiyoning janubi-g'arbida Turkman-Xuroson tog' tizmasining bir qismi bo'lgan Kapetdog' joylashgan. U o'rtacha balandlikdagi tog' bo'lib (1000-2000 m), eng baland nuqtasi Rizo cho'qqisi 2942 metr. Relyefida nurash va eroziya jarayonlari natijasida paydo bo'lgan shakllar ko'p uchraydi. Tog'oldi zonasni qiyalik va adirlardan iborat, ularni soy va jilg'alar kesib o'tgan. Kapetdog'ni janubda Atrek vodiysi uni Nishopur tog'laridan ajratib turadi.

Relyefning asosiy tiplari, Markaziy Osiyoning tekisliklari relyefi tektonik, abrazion, erozion-akkumulyativ va zol jarayonlar ta'sirida shakllangan. Eng ko'p tarqalgan relyef tipi akkumulyativ tekisliklardir. Ular yer po'stining yangi cho'kkani yoki sekin ko'tarila-yotgan qismlariga to'g'ri kelib, Orol bo'yining katta qismini, Qizilqumning shimolini, Orolbo'yi Qoraqumini, Katta va Kichik Bo'rsiqni egallagan. Ular Kaspiydan Olako'lgacha cho'zilgan tog'larining etaklari bo'ylab cho'zilgan mintaqani hosil qiladi.

Platosimon tekisliklar va platolar nisbatan yoshroq akkumulyativ tekisliklardan 100-200 metr baland bo'lib, yemirilishi qiyin bo'lgan sarmat ohaktoshlaridan tashkil topgan. Bu tipdag'i relyef Markaziy Osiyoning g'arbida va shimolida keng tarqalgan, unga Shimoliy Balxon platosi, Mang'ishloq, Ustyurt, To'rg'ay platolari, Betpaqdalaning g'arbiy qismi kiradi. Bu platolarga tik, balandligi 50-80 metr, ayrim joylarda 150 metrgacha bo'lgan yonbag'irlar xos bo'lib, ular tektonik, denudatsion yoki abrazion jarayonlar natijasida vujudga kelganlar. Markaziy Osiyoning tekislik qismidagi qoldiq tog'lar, past tog'lar va gryadalar Hisor-Mang'ishloq yorig'i bo'ylab joylashgan. Bu relyef tipiga Qizilqum tog'lari, Sulton Uvays, Mang'ishloqdagi marza shaklidagi past tog'lar kiradi.

Markaziy Osyo tekisliklarida eng ko'p tarqalgan relyef tipi - gryada relyefidir. Gryada relyef tiplari Ung'uzorti qumtoshlari uchun ham, Qoraqum bilan Qizilqumning to'rtlamchi davr uvoq qumlari uchun ham xosdir. Gryadalar asosan allyuvial jarayonlar natijasida paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyo tog‘lari relyefi shakllarida geologik taraqqiyot tarixi, hozirgi zamon tektonik va erozion-akkumlyativ jarayonlar hamda geologik yotqiziqlar tarkibi o‘z aksini topgan. Relyefning asosiy xususiyatlaridan biri asosiy relyef tiplarining qavat-qavat bo‘lib joylashganligi va yuzasi kam parchalangan, yassi tekisliklarning keng tarqalganligidir.

Tog‘lardagi kam parchalangan va yassi to‘lqinsimon tekisliklar - sirtlar Markaziy Osiyo tog‘lari uchun xos relyef shaklidir. Sirtlar usti tekis, salgina to‘lqinsimon bo‘lib, qadimgi tog‘li o‘lkaning penepplenlashgan qoldiq shakllaridir. Ular tektonik harakatlarni natijasida qayta ko‘rilgan. Shuning uchun ular 2500-4000 metr balandliklarda ham uchraydi. Markaziy Tyanshan sirtlari eng tipik bo‘lib, ular keng bo‘ylama tog‘ oralig‘i vodiylari hamda uncha chuqur bo‘lmagan berk botiqlardan iborat. Ko‘p sirtlar relyefi qadimgi muzliklar vujudga keltirgan akkumlyativ relyefdirdi. Morenalar, g‘o‘la toshlar, ko‘llar, kichik botiqlar tez-tez uchrab turadi. Sirtlar Jung‘oriya Olatog‘ida. Savr va Torbog‘otoyda, G‘arbiy Tyanshanda ham keng tarqalgan. Salkam 3000 metr mutloq balandlikda joylashgan Oloy vodiysi yassi tekislikka misol bo‘ladi (uzunligi 130 km, eni 25 km).

Markaziy Osiyoda alp tipidagi relyef shakllari keng tarqalgan. Ularning shakllanishi yangi tektonik harakatlarning jadal ro‘y berishi, muzliklar ta’siri hamda sovuqdan nurash bilan bog‘liq. Bu relyef tipi uchun chuqur parchalanish, balandlikdagi farqlarning kattaligi, yonbag‘ri kalta, tik, chiqish qiyin bo‘lgan tog‘ cho‘qqilari xos. Muzlik. ta’sirida vujudga kelgan relyef tor va chuqur troqlar (muzlik o‘ygan vodiyi), past-baland morena terassalari ham uchraydi. Alp tipidagi relyef hozirgi zamon muzliklari tarqalgan Shimoli-G‘arbiy Pomirda, Xontangri, Matcho, Talgar tog‘ tugunlarida keng tarqalgan. Kapetdog‘da bu tipidagi relyef shakllari uchramaydi.

Erozion relyef tog‘larda keng tarqalgan. Bunday relyef, asosan, qadimda paydo bo‘lgan tekis yuzalarni suv oqimlari yemirib, parchalab yuborishi natijasida vujudga keladi. O‘rtacha balandlikdagi tog‘larda qiya yonbag‘irli, chuqur o‘yilgan vodiylar, daralar ko‘p uchraydi. Vertikal parchalanish 0,4-0,8 km dan 1,0-1,5 km gacha, G‘arbiy Pomirda esa to 2,2 km gacha boradi.

Markaziy Osiyo tog‘lari erozion relyefi, veqtikal parchalanishi, yonbag‘irlarining qiyaligi va vodiylari tubining kengligi har xil ekan-

ligi bilan bir-biridan farq qiladi. Erozion relyef shakllarining eng keskin ko‘rinishi G‘arbiy Pomirga xosdir.

Past tog‘lardagi erozion relyef tog‘lik hududlarning chekka qismlariga mansub. Uncha baland bo‘limgan tog‘lar yonbag‘irlarining qiyaligi 10° - 15° bo‘lib, keng daryo vodiylariga qo‘shilib ketadi. Yonbag‘irlarning ko‘p yerlarida qadimgi terassalarning keng maydonlari saqlanib qolgan. Tog‘lar tepalarining usti ko‘pincha ancha keng va yassi bo‘lib, ularning mutlaq balandligi 500-600 metrdan to 2000 metrgacha boradi. Daryo oralig‘idagi suvayirg‘ichlarning nisbiy balandligi 200-400 metrdan oshmaydi.

Past tog‘lar tog‘oldi akkumulyativ tekisliklarga asta-sekin ulanib ketadi. Tog‘ oralig‘idagi botiqlarning relyefi akkumulyativ bo‘lib, uzoq vaqt davomida suv va shamol keltirgan nuroq jinslarning botiq yerlarda to‘planishi natijasida vujudga kelgan. Botiqlarning chekkalarida qiyaroq prolyuvial tekisliklar bo‘lib, ular tog‘lardan oqib tushayotgan daryolar yoyilmalarining qo‘shilib kelishidan hosil bo‘lgan. Prolyuvial tekisliklarning chekka qismlari jarlar va vaqtincha oqar suvlarning tor vodiylari bilan parchalanib ketgan. Bu prolyuvial tekisliklar mahalliy geografik termin bilan adir deb ataladi.

Markaziy Osiyo tog‘larida relyef hosil qiluvchi jarayonlar hozirgi vaqtida juda tez kechmoqda va ular ko‘pincha halokatli darajacha bormoqda. Nurash natijasida maydalangan -tog‘ jinslarning yonbag‘ir bo‘ylab yuqoridan pastga sel, qor ko‘chkilari, vaqtincha oqar suvlar, zilzila yordamida siljishi, ayniqsa, jadal ro‘y bermoqda.

Iqlimi va ichki suvlari

Reja:

1. Iqlim haqida umumiy tushuncha.
2. Iqim hosil qiluvchi omillar.
 - a) Markaziy Osiyoda quyosh radiatsiyasi va uning taqsimlanshi.
 - b) Markaziy Osiyo iqlimining vujudga kelishida o‘lkaning geografik o‘rni.
 - c) Havo massalari va ularning harakati.
3. Joy relyefining iqlimga ta’siri.

4. Markaziy Osiyo iqlimiga Yer yuzasining holati va insonning xo'jalik faoliyati ta'siri.
5. Markaziy Osiyo iqlimi elementlarining taqsimlanishi.
6. Markaziy Osiyo ichki suvlari haqida tushuncha.
7. Markaziy Osiyo daryolari.
8. Muzliklar.
9. Ko'llari, suv omborlari.
10. Markaziy Osiyo yer osti suvlari.
11. Ichki suvlardan foydalanish masalalari.

Markaziy Osiyo o'lkasining juda kontinental, qurg'oqchil o'ziga xos iqlimi, asosan, quyidagi omillar ta'sirida vujudga kelgan: joyning geografik o'rni va Quyosh radiatsiyasi, havo massalarining harakati, joyning relyef tuzilishi, Yer yuzasining holati va insonning faoliyati. Biz quyida bu omillarning Markaziy Osiyo iqlimini shakllantirishi-dagi ta'sirini ko'rib chiqamiz.

O'lkaning geografik o'rni va Quyosh radiatsiyasi. Markaziy Osiyo Yevrosiyoning o'ziga xos tabiiy-geografik o'lkasi bo'lib materikning markazida, okeanlardan uzoqda, berk havzada joylashganligini, uning janubiy qismi subtropik mintaqada, shimoliy yarmi esa mo'tadil mintaqaning janubida ekanligini oldingi mavzulardan bilasiz. O'lkaning bunday joylashuvi quyoshdan ko'proq radiatsiya kelishini ta'minlaydi.

Quyosh nurining Yer yuzasiga ko'p yoki kam kelishi, eng avvalo, uning qanday burchakda tushishiga va kunning uzun-qisqaligiga bog'liq. Bular esa o'z navbatida, joyning kengligiga va yil fasllariga qarab o'zgaradi. Markaziy Osyoning chekka shimoliy nuqtalarida yozda peshin paytida Quyosh nuri yer yuziga $63,5^{\circ}$ burchak ostida tushsa, eng janubida u 81° li burchak ostida tushadi. 22-dekabrda esa (qishda Quyosh turishi kunida) bu burchaklar shimolida 13° , janubida esa 32° ga teng bo'ladi.

35° shimoliy kenglikda yil davomida Quyosh nur sochib turishi mumkin bo'lgan vaqt 4447 soatni tashkil qilsa, 50° hududining tog'lik shimoliy kengligida 4483 soatga yetadi. Lekin Markaziy Osiyo hududining tog'lik relyefi va bulutlilik darajasi bu raqamlarga ma'lum darajada o'zgartirishlar kiritadi va Quyosh nur sochib turgan soatlar miqdori Quyosh ko'rinish turgan soatlar miqdoriga nisbatan

kamroq bo‘ladi. Markaziy Osiyoning shimolida $47-50^{\circ}$ shimoliy kenglikda bunday soatlar miqdori 2600-2700 soatni tashkil etsa, $35-40^{\circ}$ shimoliy kengliklarda 2870-3130 soatni, tekisliklarda esa 3000 dan ko‘proqni tashkil etadi. Yer yuzida quyoshning shuncha soat nur sochib turishini biz faqat AQSH ning janubi-g‘arbida kuzatishimiz mumkin. Demak, Markaziy Osiyo hududi Yer sharida eng serquyosh o‘lkadir -bu o‘lka iqlimining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Markaziy Osiyo hududining quyi geografik kengliklarda joylashganligi va bu yerda quyoshli kunlarning ko‘pligi uchun uning hududi yoz oylarida juda ko‘p miqdorda Quyosh energiyasini oladi. Yalpi Quyosh radiatsiyasidan olayotgan issiqlik miqdori uning shimolida $120-125 \text{ Kkal/sm}^2$ ni, janubida esa $160-165 \text{ Kkal/sm}^2$ ni tashkil etadi. Markaziy Osiyo uchun xos xususiyat -bu uning hudудида yillik radiatsiya balansining uncha katta emasligidir. Tekislik cho‘l qismida u $40-49 \text{ Kkal/sm}^2$ ni, tog‘ oldida $50-54 \text{ Kkal/sm}^2$, vohalarda 56 Kkal/sm^2 , eng janubiy hududlarida esa $60-70 \text{ Kkal/sm}^2$ ni tashkil etadi. Tog‘larda esa qishning uzoq bo‘lishi va qorlar quyoshdan kelayotgan energiyaning 60-80% ini qaytarishini inobatga olsak, radiatsiya balansi kamayib boradi. Masalan, Qizilchada 2075 metr mutloq balandlikda u $32,5 \text{ Kkal/sm}^2$ ga teng bo‘lsa, qish oylarida Markaziy Osiyoning shimolida u manfiydir.

Havo massalari va ularning harakati. Markaziy Osiyo iqlimining shakllanishida tropik, mo‘tadil va arktika havo massalari juda faol ishtirok etadi. Yilning iliq davrida Markaziy Osiyoning tekislik qismi janubida havo harorati yuqori bo‘lgan muhitda past atmosfera bosimli hudud vujudga keladi. Chetdan bu yerga kirib kelayotgan havo massalari juda ham qizib ketgan yer yuzasi ta’sirida o‘z xususiyatlarini o‘zgartiradi, bu hol esa yuqori haroratli, quruq turon kontinental tropik havzasining yujudga kelishiga olib keladi. Natijada siklon jarayonlari Markaziy Osiyoning shimoliy yarmida kuzatiladi, janubida esa issiq, quruq, yog‘insiz, asosan, tinch ob-havo vujudga keladi. Siklon jarayonlari Markaziy Osiyo shimolida tez rivojlanib, kech bahor va yoz oylarida ko‘p yog‘in yog‘ishiga sabab bo‘ladi, yoz nisbatan qisqa, mo‘tadil kengliklar havosi hukmronligida o‘tadi. Vaqt-i-vaqt bilan janubdan kirib keladigan tropik havo qisqa muddatli bo‘lib, ta’siri uncha sezilarli emas.

Qish oylarida Markaziy Osiyo ob-havosiga Arktika havo mas-salari ta'sir etadi. U Shimoliy Muz okeanidan G'arbiy Sibir va O'rol orqali, shuningdek, shimoli-sharq tomonidan Sharqiy Sibir orqali kirib keladi. Bu havo sovuq, quruq va tiniq bo'ladi. Sibir antisiklonining g'arb tomonga cho'zilgan markaziy o'qi Markaziy Osiyoning shimoliy qismidan o'tadi, uning ta'siri o'lka shimolida ancha kuchli bo'lib, janubda -Ustyurtning janubi -quyi Amudaryo -Qoratov chizig'igacha bo'lgan hududlar iqlimida ta'siri sezilib turadi. Shuning uchun Markaziy Osiyoning shimolida qish uzoq davom etadi, sovuq qattiq bo'ladi, qor qoplami uzoq turadi. O'lkaning janubida esa sovuq faslda siklon harakatlarning rivojlanishi xos bo'lib, qishi yog'in-sochinli, o'zgaruvchan ob-havoli, qor qoplami yupqa va qisqa muddatli bo'ladi. Ayrim yillari Sibir antisikloni Markaziy Osiyo janubiga ham kirib borib, havoni sovitib yuboradi. Shuning uchun o'lkada havo haroratinning yillik farqi juda katta. Markaziy Osiyo iqlimining juda kontinentalligi uning o'zga xos xosusiyatidir. Bu ko'rsatkichga ko'ra Markaziy Osiyo faqat Sharqiy Sibirdan keyin turadi.

Markaziy Osiyo iqlimining yana bir xususiyati yozda harorating yuqoriligi va uning juda ham qurg'oqchilligidir. Bunga sabab, o'lkaning juda katta Yevrosiyo materigi markazida joylashganligidir. Ma'lumki, Markaziy Osiyoga g'arbdan va shimoli-g'arbdan ancha salqin, ko'pincha yog'ingarchilik keltiradigan mo'tadil havo massalari keladi. Lekin Markaziy Osiyoning nam beruvchi Atlantika okeanidan ancha uzoq joylashganligi (4000 km), yozgi haroratning juda ham yuqori va yog'insiz davrning uzoq cho'zilganligi o'lkada juda katta maydonga ega bo'lgan cho'llarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Joy relyefining iqlimga ta'siri. Markaziy Osiyo iqlimiiga xos bo'lgan xususiyatlar - serquyoshlik, kontinentallik, qurg'oqchilik o'lkaning tekislik qismida yaqqol namoyot bo'ladi. Tog'li qismida balandlik ta'sirida yon bag'irlarning Quyoshga nisbatan qanday joylashganligi, tog' vodiylarining chuqurligi va kengligi, ularning nam shamollarga nisbatan qanday joylashganligi, relyefning yana boshqa ko'p xususiyatlari iqlimning vujudga kelishi uchun tekislikdagidan farq qiluvchi o'ziga xos sharoit yaratadi. Toqqa ko'tarilgan sari havo tozalanib va tiniqlashib, Quyosh nurining ta'sisi kuchayadi havo bosimi kamayadi va harorat pasayadi (o'rtacha har 100 m ko'taril-

ganda harorat 0,5-0,6° pasayadi) yog‘inlar, ayniqsa, qor ma’lum balandlikda ko‘p yog‘adi, qor qatlamining saqlanish davri uzayadi. Tog‘ tizmalari havo oqimlari yo‘lini to‘sib, nam yoki qurg‘oqchil, iliq yoki sovuq iqlim tarkib topishiga sabab bo‘ladi. Tog‘ relyefi shu joydagi tog‘ iqlimini, maxsus tog‘-vodiylar havo sirkulyatsiyasini vujudga keltiradi, yil fasllarining boshlanish vaqtini suriladi va yoz qisqa, salqin, qish uzoq bo‘ladi (baland tog‘larda 9-10 oygacha). Ammo Markaziy Osiyo uchun xos bo‘lgan umumiyligi iqlimiyligi xususiyatlar tog‘larda ham asosan saqlanib qoladi, lekin iqlimdagisi keskinlik kamayadi. Markaziy Osiyo iqlimning shakllanishida o‘lkaning Hind okeani tomonidan baland tog‘lar bilan o‘ralganligi, shimol va shimoli-g‘arbining to‘siqsiz ochiqligi juda katta ta’sir ko‘rsatadi.

Yer yuzasining holati va insonning xo‘jalik faoliyati. Markaziy Osiyoda iqlimiyligi sharoit Yer yuzasining holati va insonning faol xo‘jalik faoliyatiga ham bog‘liq. Qumli, shag‘alli, lyossli, o‘simlik bilan qoplangan o‘simliksziz yerlarning hamda sug‘oriladigan yerlarning iqlimga ta’siri o‘zgacha bo‘ladi. Masalan, Markaziy Osiyoning tekislik va tog‘oldi hududlarida bahor oxiri va yoz boshida nam yetishmasligi tufayli tabiiy o‘simliklar qovjirab, tuproqning qurib qolishida, natijada Quyoshdan kelayotgan energiyaning asosiy qismi namni bug‘latishga emas, balki Yer yuzidagi havoni isitishga sarf bo‘ladi, shuning uchun Markaziy Osiyo Yevrosiyoda yoz eng qizib ketadigan hududlardan biri hisoblanadi. Bu uning tabiatiga xos bo‘lgan xususiyatdir.

O‘zlashtirilgan vohalarda energiya ko‘proq namni bug‘latishda sarf bo‘lgani uchun havo harorati yozda sug‘orilmaydigan hududlarga nisbatan bir oz (3° gacha) past bo‘ladi, havo namligining ortiqroq ekanligi esa issiq shamol kuchini va sonini kamaytiradi. Suv bilan yaxshi ta’minlangan, o‘simliklarga boy vohalarda o‘ziga xos iqlim tarkib topadi.

Iqlim elementlarining hududiy va mavsumiy taqsimlanishi. Markaziy Osiyoning tekislik qismi subtropik iqlimli cho‘l va mo‘tadil iqlimli cho‘l, chalacho‘l va dasht zonalarida yotadi. Lekin dasht va chalacho‘l zonalari uncha katta maydonni egallamaydi. Iqlimshunoslar subtropik mintaqasi cho‘llari bilan mo‘adil cho‘llar o‘rtasidagi chegarani Ustyurt platosining janubi -Quyi Amudaryo - Qoratog‘ yo‘nalishida o‘tkazadilar. Bu shimoliy va janubiy cho‘llar iqlimida

katta farq bo‘lib, ular yilning iliq va sovuq davrlarida ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Shimoliy cho‘llar qishda Sibir antisikloni ta’siri doirasida bo‘lgani uchun qish qattiq bo‘lib, uzoq davom etadi, sovuqli kunlar ko‘proq bo‘ladi va qor qoplami uzoqroq yotadi. Yozi ancha qisqa, juda ham issiq emas, yog‘in-sochin miqdori o‘simliklarning rivojlanishi uchun yetmasa ham yil davomida bir tekis taqsimlangan.

Janubiy cho‘llar qishi yumshoqligi, qor qoplamining uzoq turmasligi, sovuq kunlarning iliq kunlar bilan almashib turishi va o‘simliklarning vegetatsiyasi davom etishi bilan shimoliy cho‘llardan farq qiladi. Yog‘in-sochining 70-90% i qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi.

Markaziy Osiyoning shimolida yilning sovuq davri ob-havosini, asosan, Sibir antitsikloni belgilaydi. Uning g‘arbiy tarmog‘i o‘qi 50° shimoliy kenglikdan o‘tadi. Bu o‘qdan janubda qish oylari davomida sharq, shimoli-sharqdan esuvchi shamollar hukmron bo‘lib, juda sovuq, quruq Sibir havosini olib keladi. Yilning issiq davrida Markaziy Osiyoning shimoliy qismidan siklonlar o‘tadi va bulutli, yog‘inli ob-havo olib keladi. Shimoliy cho‘l zonasining janubida va g‘arbida siklonlar haroratning ko‘tarilishiga, kunlarning ilishiga va yomg‘ir yog‘ishiga sabab bo‘ladi. Birinchi antitsiklon Qozog‘iston yassi tog‘lari ustida sentabr-oktabr oylarida vujudga keladi. Antisiklonning kuchi asta sekin ortib, havo harorati pasaya boradi va yanvar, fevral oylarida harorat eng past bo‘ladi. Bu oylarning o‘rtacha harorati shimoliy cho‘l zonasining shimolida -15°C, -16°C dan janubda 8°C gacha o‘zgaradi, qattiq sovuq kunlari esa eng past havo harorati shimoli-sharqda -50°C va janubda -35°C, -40°C bo‘lishi mumkin. Qishning harorati rejimiga Kaspiy dengizi ham ta’sir etadi. Uning qirg‘oq bo‘ylarida havo harorati ichki cho‘l zonalaridagiga nisbatan 5°-7°C yuqori bo‘ladi.

Qish qattiq bo‘lishiga qaramasdan shimoliy cho‘l zonasida barqaror qor qoplami uning faqat shimoli-sharqida va Qozog‘iston past tog‘larining baland qismlarida kuzatiladi. Qolgan joylarda barqaror qor qoplami 50% qishda kuzatiladi, janubiy cho‘l chegarasida 25% ga tushadi. Qor qoplami bo‘lgan kunlar shimolda 160-140 kundan janubiy cho‘l chegarasida 30 kungacha kamayadi. Janubiy cho‘llarda qish butunlay boshqacha bo‘ladi. Siklonning tez-tez qaytalanib turishi

qishning yumshoq bo‘lishiga va qishda ob-havoning tez-tez o‘zgarib turishiga olib keladi. Janubiy Kaspiybo‘yi, Murg‘ob va Yuqori Amudaryo siklonlari iliq tropik havoni olib kelganda yomg‘irli iliq ob-havo tarkib topadi. Janubiy cho‘lda qor qatlami Sibir antitsikloni hukmronlik qilgan davrdagina saqlanib turadi va uning turishi 20-30 kundan oshmaydi, yanvarning o‘rtacha harorati janubda 0° dan yuqori bo‘ladi. Qizil-Artek vodiyisida $+5^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi. Iliq tropik havo harorati hatto qish oylarida ham havo harorati $+22^{\circ}\text{C}-25^{\circ}\text{C}$ gacha ko‘tarilib ketadi. Janubiy cho‘l mintaqasida qish ancha iliq harorat ancha baland bo‘lishiga qaramasdan Sibir antitsikloni kirib kelganda eng past harorat shimolda -32°C gacha, janubda -26°C gacha tushib ketganligi kuzatiladi. 1929-1930-yillarda qishda sovuq Ashxabadda -22°C , Kattaqo‘rg‘onda -30°C bo‘lgan.

Yilning iliq davrida ham janubiy va shimoliy cho‘llar bir-biridan keskin farq qiladi. Janubiy cho‘lda aprel oxiri va may boshlarida siklon jarayonlari juda susayib, mayning ikkinchi yarmidan boshlab ochiq, issiq va quruq ob-havo tarkib topadi. Yozga chiqib harorat juda ko‘tarilib ketadi. Bulutsiz kunlar soni katta bo‘lganligidan Quyosh energiyasining kelishi kuchayadi va juda quruq kontinental tropik havoning shakllanishiga imkon tug‘iladi.

Iyul oyining o‘rtacha harorati janubiy cho‘l zonasining shimolda $+27^{\circ}\text{C}+28^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, janubida $+31^{\circ}\text{C}+32^{\circ}\text{C}$ ni tashkil yetadi. Eng yuqori harorat esa $+46^{\circ}\text{C}+48^{\circ}\text{C}$, ba’zan $+50^{\circ}\text{C}$ gacha yetadi. Havoning namligi bunday paytlarda kunduz kuni soat 13 da 15-20 % gacha tushib qolishi mumkin.

Shimoliy cho‘l yozi janubga nisbatan qisqaroq, havo va tuproq usti harorati yuqori bo‘lmaydi, nisbiy namlik esa ayrim vaqtarda yog‘in-sochinning vujudga kelishi uchun yetarli darajada bo‘ladi. Iyul oyining o‘rtacha harorati shimolda $+20^{\circ}\text{C}$ bo‘lsa, janubda $+27^{\circ}\text{C}$ ni tashkil etadi, eng yuqori harorat 40-45 % dan oshmaydi. Yillik yog‘inning eng ko‘pi yoz oylariga to‘g‘ri kelsa ham qurg‘oqchiliklar bo‘lib turadi. Shunday kunlar o‘rtacha bir yilda 60 kunga boradi.

Markaziy Osiyo hududidagi tog‘lar yog‘in-sochin rejimiga, mifdoriga va olayotgan issiqlik resurslariga ko‘ra bir xil sharoitga ega emas. Masalan, Pomir-Oloy, Kapetdog‘ va G‘arbiy Tyanshan iqlimi y xususiyatlarga ko‘ra cho‘l zonasiga kiradi. Tog‘larda shimolga tomon nam miqdori ortib, issiqlik resurslari kamayib boradi. Agar Pomir-

Oloyda +10°C izoterma 3500 m mutloq balandlikdan o'tsa, Shimoliy Tyanshanda u 2500 metrdan, Torbog'otoyda 2000 metrdan o'tadi. Iqlimning quruqligi va havo haroratining balandligi tufayli qor chizig'i Pomirda juda baland 5000-5500 metrga to'g'ri keladi. Shimoliy Tyanshanda 3200 m dan namroq, ancha sovuqroq bo'lgan Torbog'otoyning shimoliy yonbag'irlarida 2500 m dan o'tadi.

Yog'in-sochin miqdori Markaziy Osiyo hududida joyning qaysi kenglikda joylashganligiga, tog' tizmalarining qanday joylashganligiga, yonbag'irlarining ekspozitsiyasiga, joyning mutlaq balandligiga va boshqa orografik xususiyatlarga bog'liq ravishda juda ham notekis taqsimlangan. Eng kam yog'in 100 mm dan kam o'lkanning markaziy tekislik qismida, G'arbiy Mang'ishloqda, Qorabo'g'ozgo'l atrofida va g'arbiy Balxashda yog'adi. Bunday kam yog'in Sharqiy Pomir uchun ham xosdir. Tekisliklar atrotlarida, ya'ni tog'oldi zonasida yog'in ko'payib 200-100 mm ga yetadi. Tog'larda esa 800-900 mm ni tashkil etadi. Markaziy Osiyoning tog'li hududlari orasida o'rtacha yillik yog'in miqdorining ko'pligiga ko'ra Hisor tizmasining janubiy va janubi-g'arbiy yonbag'irlari ajralib turadi. 1874 metr balandlikda joylashgan Xo'jaobigarmda o'rtacha yillik yog'in miqdori 1511 mm ni tashkil etadi. Qirg'iz tizmasi shimoliy yonbag'irning eng baland qismlarida, Ugom va Piskom tog'larida esa 2000 mm gacha boradi. Farg'ona tizmasining nam havo massalari yo'lida joylashgan janubi-g'arbiy yonbag'irlarida o'rtacha yillik yog'in miqdori 1000 mm dan ortadi.

Markaziy Osiyoning markaziy tekislik qismidan shimolga tomon ham yog'in miqdori ortib, o'lkanning shimoliy chegaralarida 200-250 mm ga, Qozog'iston past tog'larining baland yerlarida 300-350 mm ga yetadi.

Markaziy Osiyoda ko'pincha shimoliy shamollar esadi, qishda esa shamol, asosan, shimoli-sharqdan, yozda shimoli-g'arbdan esadi. Bu shamollar sovuq va qurg'oqchil o'lkalardan kelgani uchun quruq bo'ladi va deyarli yog'in keltirmaydi. O'lkanning tog'li hududlarida 2500-4000 m balandliklarda shamol yil davomida, asosan, janubi-g'arbdan esib turadi va o'lkaga yog'in olib keladi. Markaziy Osiyoda shamolning tezligi har soniyada tekisliklarda 3-4 m dan 5-6 metrgacha bo'lsa, tog'larda 1,5-3 m dan oshmaydi.

Mahalliy shamollar orasida Bekobod, Xovos shamollari mash-hur bo‘lib, ularning tezligi har soniyada 15-20 m dan 30-40 m gacha boradi.

Mahalliy shamollardan briz shamolini misol keltirish mumkin. Briz shamoli kichik ko‘llar bo‘yida yahshi esadi. Kunduzgi briz quruqlikdan dengizga, tungi briz aksincha dengizdan quruqlikka qarab esadi. Bunga sabab bosimning xilma-xilligidadir³

Yirik iqlimshunos olim B.P. Alisov Markaziy Osiyo hududida 5 ta iqlimi o‘lkani, L.N. Babushkin esa 3 ta kichik iqlimi o‘lkani ajratadi (Turon, Markaziy Qozog‘iston va Jung‘oriy-Tyanshan) va bunga asos qilib Markaziy Osiyoning ichki qismidagi iqlimning bir qator ko‘rsatkichlari bo‘yicha farqni oladi.

Ichki suvlari. Markaziy Osiyoning iqlimi g‘oyat quruq bo‘lishiga qaramasdan uning hududida daryo va ko‘llar juda ko‘p. A.L.Shulsning bergen ma’lumotlariga ko‘ra, 12000 ga yaqin daryo va 1000 dan orliq ko‘llar bor. Lekin ular o‘lkada nihoyatda notekis joylashgan. Tekislik qismida oqar suvlar juda kam. Tog‘larda esa 10000 dan ortiq daryo bor. Tog‘lardan oqib tushgan daryolar tekislikka kelishi bilan, asosan, ekin dalalarini sug‘orishga sarf bo‘ladi, bug‘lanadi, yer ostiga sizib ketadi va shunday qilib suvi asta-sekin kamayib ketadi. Shuning uchun Markaziy Osiyo daryolarining ko‘pchiligi ma’lum bir suv havzasiga quyilmasdan tugab qoladi.

O‘lkaning tog‘larida esa buning aksi, sertarmoq daryolar, kattakichik soy‘ va jilg‘alar juda ham ko‘p. Markaziy Osiyo tog‘larini o‘rab turgan tog‘oldi tekisliklarida ham gidrografik tarmoqlar bisyor, lekin ularning ko‘pchiligi bosh daryolar va ularning irmoqlaridan suv olib tevarak-atrofdagi yerkarta tarqatib beruvchi irrigatsiya shox-obchalaridan va ariqlardan iboratdir. Binobarin, Markaziy Osiyo tog‘lari yog‘in suvi yig‘iladigan asosiy joy bo‘lsa, tekisliklar suv sarf qiladigan va buglanadigan hududlardir. Oqim doimiy oqar suvlardan (daryolardan), vaqtincha oqar suvlar va qor suvlardan (tog‘oldi hududidagi yer osti suvlardan to‘yinadigan) tashkil topgan.

Markaziy Osiyoda ko‘llar va botqoqliklar ham g‘oyat notekis taqsimlangan. Ko‘llarning 80% dan ko‘prog‘i tekisliklarda, asosan, yirik daryolar vodiysida va deltalarda, vohalarning chekkalarida joy-

³ Strahler, Alan H, “Introducing physical geography” (150-157 betlar)

lashgan. Juda katta maydondagi cho'llarda esa tabiiy ko'l umuman yo'q desa bo'ladi. Tog'lik qismida ko'llar uning yuqori qismida 2000-3000 m balandlikda, ayniqsa, 3000 m dan yuqorida ko'p uchraydi. 1000-2000 m va undan pastda esa ko'llar kam. Botqoqliklar, asosan, yirik daryolar qayirlari va deltalarida, yoyilmalar atrofida va pastqam yerlarda uchraydi.

Markaziy Osiyo tog'laridagi muzliklar ham notekis taqsimlangan. Muzliklar Tyanshanda Xontangri tog' massivi, G'alaba cho'qqisi atroflarida va Pomirda Fanlar akademiyasi cho'qqisi yaqinida ko'p uchraydi.

O'lkadagi gidrografik tarmoqlarning bunchalik notekis taqsimlanganligi bu o'lkaning iqlimiylari va hidrologik xususiyatlari (serquyoshligi, juda kontinentalligi, tekislik qismining qurg'oqchilligi, berk havzaligi) bilan bog'liqidir.

Markaziy Osiyo hidrografik jihatdan ochiq dengiz va okeanlar bilan bevosita bog'lanmagan berk havzadan iborat: unga tashqaridan hech qanday suv kelib kirmaydi, shuning bilan birga uning suvi tashqariga chiqib ketmaydi. Markaziy Osiyo daryolari dunyo okeaniga tabiiy bog'lanmagan, Kaspiy va Orol dengizi havzasiga kiradi.

Markaziy Osyoning tog'li hududlarida o'rtacha 1 yilda 575 mm yog'in-sochin tushsa, shundan 374 mm bug'lanishga sarf bo'ladi. 201 mm esa oqimni shakllantiradi. Tekislik qismiga 96 mm yog'in shaklida va tog'lardan daryo orqali 201 mm oqim shaklida nam keladi. Tekislikka kelgan jami 297 mm namning hammasi bug'lanishga sarf bo'ladi.

Daryolar. Daryolarning to'yinishi. Markaziy Osiyoda daryolarning to'yinish sharoitlari har xil. Ularni to'yinish xususiyatiga qarab quyidagi 5 tipga bo'lish mumkin.

1. Muzlik va qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
2. Qor-muzlik suvlaridan to'yinadigan daryolar.
3. Qor suvlaridan to'yinadigan daryolar.
4. Qor-yomg'ir suvlaridan to'yinadigan daryolar.
5. Yer osti suvlaridan to'yinadigan daryolar.

Biroq bu to'yinish tiplari shartlidir. Ma'lumki, tog' daryolarining to'yinish jihatidan qaysi tipga kirishi shu daryolarning ma'lum bir kuzatish punktiga nisbatangina aniqlanadi. Chunki tog' daryolarining

to‘yinish sharoitlari ularning quyi oqimi tomon o‘zgarib boradi. To‘yinish sharoitlari u yildan bu yilga ham o‘zgarishi mumkin.

Birinchi tipdagi (muzlik-qor) daryolarning to‘yinishida, asosan, baland tog‘lardagi ko‘p yillik qor va muzliklarning erishidan hosil bo‘lgan suvlar ko‘p ishtirok etadi. Biroq muzliklarga yaqin bo‘lgan joylar e’tiborga olinmasa, bu tipdagi daryolarning to‘yinishida muzlik suvlarining miqdori har holda qor suvlari miqdoridan kam bo‘ladi (yillik oqimning 25-30% qismini tashkil etadi). Bu xil daryolarda oqim miqdori yillar davomida eng kam o‘zgaradi va to‘lin suv davri eng kech, asosan, iyul-avgust oylarida bo‘lib o‘tadi. Buning xalq xo‘jaligi uchun ahamiyati katta. Shu sababdan muzlik-qor suvlarini bilan to‘yinadigan eng yirik daryolar, asosan, Pomir-Oloy va Tyanshan tog‘ tizmalarining eng baland tizmalarida (Panj, Vaxsh, Zarafshon daryolari, Norinning yuqori qismi) joylashgan.

Ikkinchi (qor-muzlik) tipidagi daryolarning oqimi ko‘proq mavsumiy qor va kamroq miqdorda ko‘p yillik qorlarning erish hisobiga hosil bo‘ladi; muzlik suvlarining hissasi ancha kam-yillik oqimning 15% i gacha boradi. Bu tipdagi daryolarda oqimning miqdori u yildan bu yilga muzlik-qor suvidan to‘yinadigan daryolardagi nisbatan ko‘proq o‘zgaradi, to‘lin suv davrida suv sathi juda baland bo‘lmaydi, lekin bu davr ancha uzoq cho‘zilib, martdan iyungacha davom etadi. To‘lin suv davridagi oqimning eng ko‘p qismi may-iyun oylariga to‘g‘ri keladi. Bu tipdagi daryolarning suv yig‘iladigan maydonlari har holda ancha baland bo‘ladi. Bunday daryolar Sirdaryo havzasida eng ko‘p (Norin, Qoradaryo, Piskom, Chotqol va b.). Hisor tizmasining janubiy yonbag‘ridan oqib tushadigan birqancha daryolar To‘palang, Qoratog‘daryo, Kofirnixon ham shu tipga kiradi.

Uchinchi (qor) tipdagi daryolarning suv yig‘ilish maydonlari ancha pastda bo‘lib, ular asosan mavsumiy qorlar hisobiga to‘yinadi, ko‘p yillik qor va muzliklarning hissasi juda kam. Bu tipdagi daryolarda oqim miqdori yildan-yilga o‘zgarib turadi. To‘lin suv davri ertaroq, mart-may oylarida bo‘lib o‘tadi. Qashqadaryo, Sangardak, G‘ovasoy, Yassi kabi daryolar shu tipga kiradi.

To‘rtinchi (qor-yomg‘ir) tip daryolarining to‘yinishida baland tog‘ qorlari va muzliklari deyarli ishtirok etmaydi, lekin yomg‘ir suvlarini boshqa tipdagi daryolardagiga nisbatan ancha ko‘p bo‘ladi.

Bu tipdag'i daryolarda oqim yildan-yilga o'zgarib turadi, to'lin suv davri erta bahor boshida bo'lib o'tadi. Chunki ularning suv yig'ilish maydonlari past bo'ladi. Ohangaron, Aris, Kalas, shuningdek, Turkmaniston daryolari ana shu tipga kiradi.

Beshinchi tip (yer osti suvlaridan to'yinadigan) daryolar tog'larning etaklarida va tog'larning past qismlarida joylashgan. Bunday daryolarni mahalliy aholi Qoradaryo deb ataydi. Ular ham asosan aralash (mavsumiy qor, yomg'ir va yer osti suvlaridan) to'yinadi. Lekin yoz va kuz oylarida faqat yer osti suvlaridan to'yinadi. Ba'zilari yoz oxirida qurib qoladi.

Daryolarning toyinish xususiyati Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar xalq xo'jaligida muhim rol o'ynaydi.

O'rtacha ko'p yillik oqim miqdori Markaziy Osiyoda ham asosan iqlimi omillarga, eng avvalo, yog'in miqdori bilan bug'lanish miqdoriga bog'liq bo'ladi. Qolgan hamma tabiiy-geografik omillar - daryo havzasining relyefi, tuprog'i, o'simliklar qoplami va geologik tuzilishi o'rtacha ko'p yillik oqim miqdoriga ta'sir ko'rsatsa ham, ularning ta'siri, asosan, yog'in va bug'lanish miqdorlariga ta'sir etish orqali amalga oshadi.

Markaziy Osiyo tog'larida ko'p yillik o'rtacha oqimning miqdori bir xil emas. O'lkaning janubi-sharqidagi chetki tog' tizmalaring janubiy va janubi-g'arbiy yonbag'irlaridan suv oluvchi daryolar (Kofirnixon, Vaxsh hamda Surxondaryoning ayrim irmoqlari) suv yig'ilish maydonlari sersuvligi bilan ajralib turadi. Bu joylarda o'rtacha balandligi 3000 m bo'lgan suv yig'ilish maydonlaridan o'rtacha oqim moduli 40 l/son² dan ortiq, o'rtacha balandligi 3500 m bo'lgan suv yig'ilish maydonlarida esa u deyarli 50 l/son km² yetadi (1-jadvalga qarang). Markaziy Osiyoda o'rtacha oqim moduli 1 l/son km² ga teng bo'lgan suv yig'ilish maydonlari o'rtacha 1000 m dan ortiq balandlikda. Issiqko'1 havzasining g'arbiy qurg'oqchil qismida 2400 m da uchraydi. 1000 m dan pastda ham shunday oqim modulli yerlar bor. Bularga Chuv-Ili tog'lari va Qoratog' tizmasining janubi-g'arbiy, Hisor tog' tizmasining janubiy yonbag'irlari va Chirchiq havzasining shimoli-g'arbiy qismi kiradi.

1-jadval

**Markaziy Osiyo tog‘larida o‘rtacha
ko‘p yillik oqimning shakllanishi**

| No | Hududlar | Ko‘p yillik o‘rtacha oqim moduli 1 km ² da. Vujudga keladigan 1/son/km ² hisobida |
|----|--|--|
| 1 | Chekka baland tog‘larning janubiy, janubig‘arbiy hamda g‘arbiy yonbag‘irlarida, 3000 m mutloq balandlikda. | 40 |
| 2 | Chirchiq daryosi havzasining shimoli-g‘arbiy qismida, 3000 m mutlaq balandlikda | 20-30 |
| 3 | Turkiston va Oloy tog‘ tizmalarining shimoliy yonbag‘irlarida, 3000 m balandlikda. | 7-12 |
| 4 | Ichkarida joylashgan tog‘ tizmalarida (Markaziy Tyanshan, Sharqiy Pomir) | 2-5 |

V.L. Shulsning ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning tog‘li qismida har soniyada o‘rtalisa 5000 m³ dan ortiqroq yoki yiliga 160 km³ ga yaqin miqdorda oqim suvi hosil bo‘ladi. Tekislik qismida esa har soniyada 4900 m³ yoki yiliga 155 km³ ga yaqin miqdorda suv keladi. V.L. Shuls bunga 16 km³ yer osti suvlarini qo‘sadi. Demak, Markaziy Osiyoning tekislik qismiga har yili tog‘lardan 170 km³ suv kelar ekan.

Daryolar tog‘oldi tekisliklariga chiqishi bilan suvi kamaya boshlaydi, chunki ular suvi bu yerda sug‘orishga sarflanadi, bug‘lanib va yer ostiga singib ketadi.

Markaziy Osiyo daryolari suvining loyqaligi havzalarining litologik va relyef sharoiti hamda o‘simlik qoplamining holatiga bog‘liq ravishda o‘lkaning tog‘li qismida turli joyida turlichadir. Balxash ko‘li hayzasi, Talas, Chuv va Issiqko‘l hamda Chirchiq havzasidagi daryolar suvining loyqalik darajasi eng past 0,2 kg/m³ ga teng, ayrim soy va daryolarda 0,3-0,5 kg/m³ ga boradi. Norin daryosining yuqori oqimida 0,485 kg/m³, quyi qismida 1,26 kg/m³ ga, Qoradaryoning Farg‘ona vodiysiga chiqish joyida 1,98 kg/m³ ga boradi. Zarafshon daryosi suvining loyqaligi quyi qismida 0,880 kg/m³ dan uning yuqori qismida 1,73 kg/m³ ga boradi. Qashqadaryo havzasidagi daryolarning loyqaligi 0,42-3,2 kg/m³ ni tashkil etadi. Eng loyqa daryol-

ardan Vaxsh suvining loyqaligi daryoning tog‘lardan chiqish joyida $4,16 \text{ kg/m}^3$ ga teng. Panj suvi loyqaligi esa $1,5 \text{ kg/m}^3$.

Markaziy Osiyoda eng loyqa suvli daryolar Turkmaniston daryolaridir. Murg‘obning loyqaligi $5,4 \text{ kg/m}^3$, Tajanniki $1,6 \text{ kg/m}^3$, Atrekniki $21-22 \text{ kg/m}^3$, Murg‘ob irmoqlaridan Kushka daryosi suvi loyqaligi 28 kg/m^3 , Kosonsoyda esa 90 kg/m^3 dan ham ortiqdir.

Markaziy Osiyoning hududining maydoni va suv miqdori jihatidan bir-biriga teng bo‘lмаган Orol-Kaspiy va Balxash ko‘li havzalariga bo‘lish mumkin. Lekin hozirgi vaqtida Orol bilan Kaspiy o‘rtasida xech qanday bog‘lanish bo‘lмаганligi uchun ularni mustaqil havzalar deb qarash mumkin. Bunga Turkmanistondagi «berk» daryolar havzalarini ham kiritish mumkin.

Binobarin, Markaziy Osiyo daryolarini quyidagi 4 ta mustaqil havzaga ajratish mumkin:

1. Kaspiy dengizi havzasи.
2. Turkmanistondagi berk havza.
3. Orol dengizi havzasи.
4. Balxash koli havzasи.

Orol dengizi havzasи o‘zining kattaligi jihatidan yer yuzidagi berk havzalar orasida Kaspiy dengizi havzasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Bu havzaga, asosan, Amudaryo bilan Sirdaryo kiradi. Turkmanistondagi berk daryolar havzasiga, asosan, Murg‘ob, Tajan daryolari, Kaspiy dengizi havzasiga Markaziy Osiyodagi daryolardan Atrek daryosi va Balxash ko‘li havzasiga Ili, Qoratol va Oqsuv daryolari kiradi.

Markaziy Osiyo daryo tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlari dan biri shuki, ular bri-biri bilan bog‘lanmagан alohida, ko‘pincha mayda berk havzalarga bo‘linib ketadi. Chuv, Talas daryolari havzasи va Issiqko‘l havzasи, Zarafshon va Qashqadaryo havzalari ana shu turdagи berk havzalar hisoblanadi. Quyida Markaziy Osiyoning yirik daryo havzalari to‘g‘risida qiyosiy ma’lumotlar keltiramiz.

2-jadval

Markaziy Osiyoda asosiy daryo havzalari tavsifi

| Havzalar | Suv yig‘ilish maydoni km^2 | Suv yig‘ilish maydonida hosil bo‘ladigan o‘rtacha oqim miqdori m^3/son | O‘rtacha oqim moduli $1/\text{son}, \text{km}^2$ |
|---|--|---|--|
| Kaspiy dengizi (Atrek) | 29 700 | 22 | 0,74 |
| Markaziy Osiyodagi berk daryolar havzalari | 193 300 | 220 | 1,14 |
| Amudaryo | 227 300 | 2 500 | 11 |
| Sirdaryo | 150 100 | 1 200 | 8 |
| Chuv, Talas va Issiq ko‘l | 50 200 | 310 | 8,1 |
| Balkash ko‘li | 119 000 | 800 | 6,72 |

Muzliklar. Markaziy Osiyo hududidagi baland tog‘larda, asosan, 1000 mm dan ko‘p, nam havo yo‘liga ro‘para bo‘lgan ayrim yonbag‘irlarda esa 2000 mm gacha yog‘in yog‘adi. Baland tog‘larda yog‘in asosan qorlardan iborat bo‘lganligi uchun yoqqan qorning hammasi ham shu yili erib ulgura olmaydi va bir qismi keyingi yillarga qolib ketadi. Shu tarzda to‘planib qolgan eski qor uyumlari ko‘p vaqt o‘tishi bilan zichlashib muzliklarga aylanadi. Shuning uchun Markaziy Osiyoda iqlim qurg‘oqchil bo‘lsa ham; uning tog‘larida muzliklar vujudga keladi. Markaziy Osiyo tog‘larida 2500 dan ortiq yirik muzlik bor, kichkina muzliklarni ham hisobga olinsa, ularning soni 5000-7500 ga yetadi. Muzliklarning umumiy maydoni 16562 km^2 bo‘lib, bundan 8521 km^2 Tyanshanda, 8041 km^2 esa Pomirda joylashgan. Muzliklar Pomirning 11% qismini, Tyanshanning esa 5% ga yaqin qismini band etadi. O‘lka tog‘laridagi muzliklarning suv zaxirasi katta bo‘lib, 1750 km^3 ga teng. Bu o‘lkaning tog‘li qismida hosil bo‘ladigan umumiy yillik suv miqdoridan 11 martadan ziyodroq. Muzliklari yirikligi bilan ham ajralib turadi. Ular to‘da-to‘da bo‘lib joylashgan.

Markaziy Osiyoning eng katta muzliklari

3-jadval

| Muzliklar nomi | Joylashga o'rni | Uzunligi, km | Maydoni, km |
|------------------------------------|---------------------------|--------------|-------------|
| Fedchenko | Badahshon | 77,8 | 907,0 |
| Inilchek | Markaziy Tyanshan | 61,0 | 823,6 |
| Grumm-Grjimaylo | Badahshon | 36,7 | 160,0 |
| Rezaichenko (Shimoliy Inilchek) | Markaziy Tyanshanda | 35,2 | 98,0 |
| Garmo | Badaxshon | 27,5 | 153,7 |
| Katta Sovuqdara | Orqa Oloy tizmasida | 25,2 | 69,2 |
| Koyindi | Markaziy Tyanshanda | 25 | 89,9 |
| Zarafshon | Zarafshon daryosi boshida | 24,2 | 139,9 |
| Sugran | Badaxshon | 24,2 | 48,0 |
| Gando | Badaxshon | 22,5 | 55,0 |
| Geografiya jamiyatি | Badaxshon | 21,5 | 81,7 |
| Korjenevskiy | Orqa Oloy tizmasida | 19,5 | 89,1 |

O'zbekiston Gidrometeorologiya bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra (1993-yil), Pomir-Oloyda 11500 muzlik bo'lib, maydoni 7500 km² ga, hajmi 470 km² ga teng.

Eng katta muzlik markazlari Pomirda eng baland cho'qqilar va ularga yaqin yerlarda, Tyanshanda g'alaba va Xontangri cho'qqilari atrofida joylashgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyo muzliklari astasekin kamayib bormoqda. Ammo shu bilan bir qatorda bir talay muzliklar ma'lum darajada o'smoqda.

Ko'llar. Markaziy Osiyoda jami 1000 dan ortiq ko'l bor. Bu ko'llarning 80% i dan ortig'i tekisliklarda joylashgan. Bunga asosiy sabab, ularning tog'lardan oqib keladigan suvlar bilan chambarchas

bog‘liqligidir. Tog‘lardan kelayotgan daryolarning ko‘pchiligi bosh daryolarga yetib bora olmaydi, balki ko‘pincha toqqa yaqin tekisliklarda ko‘llar hosil qilish bilan tugaydi. Bu ko‘llarda tog‘lardan kelayotgan suvlarning havoga bug‘lanishi nihoyasiga yetadi. Shuning uchun o‘lkaning Qizilqum, Qoraqum kabi cho‘llariga oqar suvlar yetib bormaydi.

Markaziy Osiyoning tog‘li qismida ham ko‘llar ko‘p, lekin bu yerda ham ular notekis taqsimlangan. Ko‘llar, asosan, 2000-3000 m balandliklarda, ayniqsa, 3000 m dan yuqorida ko‘p uchraydi. 1000-2000 m balandlikdagi yerlarda eng kam, chunki bu yerlarda daryolarning nishabi katta bo‘lganligi uchun ular juda tez oqadi, bu esa ko‘llarning paydo bo‘lishiga imkon bermaydi. Tog‘larning yuqori mintaqalarida ko‘p daryo vodiylari nishabi kam va tagi yassi bo‘lgan tog‘lardan iboratdir. Bu ko‘llarning hosil bo‘lishi uchun juda qulay. Bunday ko‘llar Norin havzasining yuqori qismida, Pomirdagi daryo havzalarining ko‘pchiligidagi mavjud. V. Shuls va R. Mashrapovlarning ma’lumotiga ko‘ra, (1969) Markaziy Osiyodagi mavjud 1000 dan ortiq ko‘llar maydoni 100 ming km² ga yaqin. Lekin bu maydonning asosiy qismi Orol, Balxash va Issiqko‘llarga to‘g‘ri keladi.

Markaziy Osiyoning tekislik va past tog‘ (Qozog‘iston) hududlaridagi ko‘llarning ko‘pchiligi oqmas, uncha chuqur bo‘limgan ko‘llar bo‘lib, ularning sathi, suv hajmi yil davomida keskin o‘zgarib turadi. Turon tekisligidagi ko‘llarning ko‘pchiligi paydo bo‘lishi arid iqlim sharoitida daryolarning eroziya va akkumulyatsiyasi bilan bog‘liqidir. Bular esa o‘zan o‘rnidagi ko‘llar, deltadagi ko‘llar, daryolarning bosh daryoga yetib borolmaslidan hosil bo‘lgan ko‘llardir. Bu ko‘llar asosan kichik bo‘lib, qirg‘oqlari past, qamish bilan qoplangan bo‘ladi, ko‘pincha ularni sho‘rxoklar, yarim mustahkamlangan qumlar o‘rab turadi. Tekislikda antropogen ko‘llar ham ko‘p. Ular, asosan, pasttekisliklarga kollektor -drenaj suvlarnini yuborish natijasida vujudga kelgan. Aydar, Sariqamish bunga misol bo‘la oladi. Markaziy Osiyoning tekislik qismida tektonik ko‘llar juda kam bo‘lsa ham lekin ular katta ko‘llardir. Orol va Balxash ana shu turdagilarda ko‘llardir. Orol maydoni kamayib bormoqda. Hozirgi vaqtida uning maydoni 27 ming km² bo‘lib qoldi. Dengizko‘l katta tektonik botiqning eng chuqur qismini egallagan. Unda va Tuzkon ko‘lida tuz cho‘kishi kuzatiladi.

Tog‘li hududlardagi eng yirik ko‘llar, asosan, tektonik jarayonlar asosida vujudga kelgan cho‘kmalarda hosil bo‘lgan. Bular Is-siqko‘l, Sonko‘l, Chatirkо‘l, Qorako‘l va boshqalar. Umuman olganda tektonik ko‘llar soni tog‘larda kam. Tog‘dagi ko‘llarning ko‘philigi Morena ko‘llaridan iborat. Ular tog‘ vodiylarining muzlik morenalari bilan to‘silib qolishdan hosil bo‘ladi.

Tog‘larda tektonik harakatlar, zilzilalar natijasida tog‘ yonbag‘irlarining qulab tushishi va daryo o‘zanini to‘sib qo‘yishi natijasida ham ko‘llar paydo bo‘ladi. Sarez, Yashilko‘l (Pomirda) Serichelek (Norin havzasida), Iskandarkol (Zarafshon havzasida) va boshqalar shu yo‘l bilan hosil bo‘lgan to‘g‘on ko‘llaridir. To‘g‘on ko‘llar juda o‘zgaruvchan bo‘ladi, chunki ko‘l to‘g‘onidan quyida daryo o‘zanida eroziya kuchli kechadi. Natijada daryo o‘zanining chuqurlashuvi bilan to‘g‘on buzilib ketishi va qisqa vaqt ichida ko‘l suvi bo‘shab qolishi mumkin. Ko‘l to‘g‘onining buzilib ketishi daryo havzasining ko‘l hosil bo‘lgan joydan yuqorida qor hamda muzliklarning tez va ko‘plab erishi, jala quyishi tufayli suv sathining birdaniga ko‘tarilib ketishi natijasida ham bo‘ladi. Binga, 1998-yilda Qubbon ko‘lda, 1963-yilda Olmata yaqinidagi Orqa Ili tizmasining shimoliy yonbag‘rida 1788 metr balandlikda joylashgan Esik ko‘l to‘g‘onining urib ketishi oqibatida ko‘lning bo‘shab qolishi misol bo‘ladi. Ko‘ldan birdan suv chiqib ketishi sel tusini oladi, uning xalq xo‘jaligi, aholi uchun qanchalik zararli ekani ma’lum. Bunga 1966-yil bahorda Isfayramsoyda, 1998-yili Shohimardon soyda bo‘lib o‘tgan sel hodisalari misol bo‘ladi, Shuning uchun ko‘l to‘g‘onning to‘satdan suv urib ketishi aniq va xavfli bo‘lgan vaqtarda ko‘l suvini asta-sekin oqizib yuborish bilan falokatning oldini olish mumkin. Bunga misol qilib 1964-yil 24-aprelda Zarafshon daryosida yuz bergen Ayniy qishlog‘i yaqinida tog‘ yonbag‘rining qulab tushishi natijasida hosil bo‘lgan to‘g‘onni (uzunligi 750 m, eni 1000 m va balandligi 130-350 m) keltirish mumkm. To‘g‘on 1964-yil 6-may kuni asta-sekin ochilib, suvi chiqarib yuborildi. Ko‘lning chuqurligi 71,6 m ga, suv hajmi esa 90 mlн m³ ga yetgan edi. Markaziy Osiyo ko‘llari orasida shifobaxsh ko‘llar ham oz emas. G‘arbiy Turkmanistonidagi Mollaqora, Farg‘ona vodiyisidagi Axsikent, Jizzax shahri yaqinidagi Tuzkon va Dengizko‘l ana shunday ko‘llardandir.

Markaziy Osiyo ko'llari haqida ma'lumotlar

4-jadval

| Nomi | Maydoni, km ² | Uzunligi, Km | Eng keng joyi, km | O'rtacha chuqurligi, m | Eng chuqur yeri, m | Suv hajmi, km ³ | Sho'rligi g/l | Sathining balandligi, m |
|----------------------------------|--------------------------|--------------|-------------------|------------------------|--------------------|----------------------------|---------------|-------------------------|
| Orol 1966-yilga qadar | 68 321 | 414 | 292 | 16 | 69 | 1063 | 10-11 | 53 |
| 1996-yil | 30 300 | | | | | 266 | 35 | 36 |
| 2000-yil | 27 000 | | | | | | | 32,5 |
| Balkash | 17 806 | 605 | 74 | 5,63 | 26,5 | 100,3 | 1,6-5 | |
| Olako'l | 2 450 | 90 | 50 | | 34 | | Sho'r | |
| Issiqko'l | 6 820 | 182 | 58 | 27 | 707 | 1 732 | 5,8 | 1 609 |
| So'nko'l | 292 | 33 | 17 | | 22 | | | 3 016 |
| Chatirkо'l | 195 | 23,5 | 11,7 | | 3,8 | | | 3 530 |
| Qorako'l | 370,4 | 28,3 | 23,3 | 71,6 | 238,2 | 26,5 mlrd.m ³ | | 3 914 |
| Sarez 1913-yildan | 40 | 28 | | | 279 | 17 mlrd.m ³ | | |
| 1946-yildan | 88 | 61 | 3,4 | | 505 | | | |
| Sarichelak | 3,8 | 7,5 | 1,4 | 10 | 144 | | | 1 925 |

Markaziy Osiyo yer osti suvlari. Markaziy Osiyo hududi juda katta yer osti suvlari zaxirasiga ega. Uning hududida bir qancha artezian havzalari mavjud. Bular Qoraqum, G'arbiy Turkiston, To'rg'ay, Sirdaryo va boshqalardir. O'lka hududini gidrogeologik jihatdan 3 qismga, ya'ni tog'li, tog'oldi qiyaliklari va tekisliklarga bo'lish mumkin. Chunki har bir qismning o'ziga xos yer osti suvlari va to'ynish manbalari bor. Markaziy Osivoda 2 ta gidrogeologik o'lka - geosinklinaldagi burmali tog'lar va platformadagi artezian suvli kichik o'ikalari mavjuddir.

Tog‘larda yer osti suvlari asosan yog‘in suvlarining yerga singishidan hosil bo‘ladi. Tog‘oldi qiyaliklarida esa suv shu yerning o‘zida yumshoq, g‘ovak jinslar orasiga yaxshi singib o‘tgan suvlarga tog‘lardan kelgan yer osti suvlari ham qo‘shilishidan hosil bo‘ladi.

Tekisliklardagi grunt suvlar bir necha tipga bo‘linadi:

1. Birinchi tipga qum va gillardan tarkib topgan vodiy va allyuvial tekisliklardagi grunt suvlari kiradi. Bu tipdagagi grunt suvlarining asosiy to‘yinish manbai tog‘ va tog‘oldidan keladigan suvlardir. Makhalliy suvlarning salmog‘i uncha katta emas. Mirzacho‘l, Qarshi cho‘li, Farg‘ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chuv, Talas, Tajan, Murg‘ob vodiylari, Amudaryo va Sirdaryo deltalaridagi grunt suvlari shular jumlasidandir.

2. Ikkinci tip suv qadimgi strukturali tekisliklarda yakka-yakka holda uchraydigan yer osti suvlaridir. Biroq qatlamlararo suvlarni, shu jumladan, artezian suvlarni hosil qilishda uzoqdan keladigan grunt suvining ahamiyati katta. Markaziy Farg‘ona, Qoraqum va Orolbo‘yi Qoraqumi cho‘llari, Qizilqumning markazi va janubig‘arbi, Ustyurt platosi suv havzalari shu tipga kiradi.

Tog‘li o‘lkalardagi yer osti suvlari bir necha tipdan iborat. Bu yerda suvlar tog‘ jinslari yoriqlarida, yer tomirlari bo‘lgan yoki karst hodisalari ro‘y bergen joylarda uchraydi. Ba’zan ikki tomondan suv o‘tkazmaydigan qatlam bilan to‘silgan joylarda qatlalararo yer osti suvlarining bo‘lishi ham mumkin. Ular joylanish sharoitiga qarab bosimli va bosimsiz bo‘lishi mumkin.

Tog‘oldi qiyaliklari, yoyilma konuslar va tog‘ oralig‘idagi yirik botiqlar yumshoq, g‘ovak jinslar bilan to‘lganidan bu yotqiziqlar orasiga suv yaxshi singadi, bularning hammasi grunt suvlarini hosil qiladi.

Markaziy Osiyoda yer osti suvlarining zaxirasi yetarli. Masalan, Orol havzasida foydalanish mumkin bo‘lgan yer osti suvlari miqdori 4,4 km³ (O‘zboshgidromet, 1994). Yer osti suvlari bilan 2 mln ga yerni sug‘orsa bo‘ladi yoki ko‘plab shaharlarni, qishloqlarni, yaylovlarni ichimlik suvi bilan ta‘minlashda, shifoxonalarda, binolani isitishda, sanoat uchun kerak bo‘lgan yod, brom, litiy, radiy kabi ba‘zi bir noyob elementlarni olishda keng foydalanish mumkin.

Markaziy Osiyoda issiq, xilma-xil tarkibli yer osti suvlari bor.

Ular turli davr yotqiziqlari orasida, asosan yura, bo‘r va uchlamchi davr qatlamlarida turli chuqurlikda va turli jinslar orasida joylashgan va turli darajada minerallashgan. Mineral suvlari tarkibida karbonat kislota, vodorod sulfid, yod, brom, litiy, bariy va boshqa kimyoviy elementlar bor. Mineral suvlarning ba‘zilari chuchuk, ba‘zilari sho‘r. Ularning shifobaxsh ahamiyati katta. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning o‘zida 100 dan ortiq shifobaxsh mineral manbalar o‘rganilib chiqilgan (Chimyon, Polvontosh, Olamushuk, Chortoq, Jayronxona, Toshkent va b.). Qirg‘izistonda esa 25 tadan ortiq guruh issiq buloqlar bor. Bular Arashon, Olamedin, Yettogiz, Jalolobod va boshqalar. Issiq mineral suvlari Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmanistonda ham ko‘p va bular orasida radioaktiv suvlari ham uchraydi (Obigarm, Xo‘ja Obigarm). Markaziy Osiyoda suv bilan bog‘liq tabiiy ofatlar (sel, toshqin, qulash, surilma va boshqalar)ni o‘tganish va ularning oldini olish bo‘yicha amaliy ishlari muntazam olib borilmoga, Cho‘llarni suv bilan ta‘minlash muammolarini yechish sohasida ko‘p ishlari qilinmoqda. Yangi quduqlar qazilmoqda, kanallar va suv omborlari qurilmoqda. Bu esa suv resurslaridan to‘liq va oqilona foydalanish imkonini beradi. Markaziy Osiyodagi eng yirik kanallardan Qoraqum, Irtish - Qarag‘anda, Qarshi, Katta Farg‘ona suv omborlaridan Qayroqqum, Tuyamo‘yin, To‘xtag‘ul, Chorvoq kabilarni ko‘rsatish mumkin. Uzunligi 1000 km dan ortiq bolgan Qoraqum kanali yiliga Amudaryodan 10 km^3 dan ortiq suv oladi. Qoraqum kanali sug‘orib ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, uzunligi 458 km bo‘lgan va 1971-yilda ishga tushrilgan Irtish - Qarag‘anda kanali asosan aholini va sanoat korxonalarini suv bilan ta‘minlashga hamda sug‘orishga mo‘ljallangan.

Markaziy Osiyo hududidagi suv resurslaridan oqilona foydalmaslik oqibatida ko‘plab suv bug‘lanishga va yer ostiga sizilishiga sarf bo‘lmoqda. Oqibatda katta maydonlarni sho‘r bosmoqda, yerlar botqoqlanmoqda. Masalan, Qoraqum kanalining Amudaryo -Murg‘ob oralig‘ida suvning sizilishini kamaytiradigan chora-tadbirlar ko‘rilmagani hamda kanal qumli yerdarda qurilgani oqibatida har yili $1,5 \text{ km}^3$ suv yerga singishga sarf bo‘ladi. Sizilgan suv hisobiga vujudga kelgan ko‘llar maydoni 170 km^2 ga yetgan. Bunday ko‘llar zonasining kengligi ayrim yerdarda 50 km gacha borgan. Suv bilan olib kelinayotgan tuzlarning 70% ini sulfatli va xloridli tuzlar tashkil qiladi.

1960-yillarning boshlaridan Markaziy Osiyoning, ayniqsa, uning janubiy cho'l zonasida yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida yangi katta kanallar va suv omborlari qurilishi tezkorlik bilan olib borildi. Yangi yerlarni o'zlashtirish tufayli 1965-1990-yillarda Orol havzasida sug'oriladigan zamin maydoni 3 mln. hektarlarga ortdi. 1988-yilda Markaziy Osiyodagi 5 ta davlatda o'zlashtirilgan yerlar maydoni 9354 ming ga ni tashkil etdi. Agarda (Markaziy Osiyoda sug'orish uchun 1965-yilda jami bo'lib 63.2 km^3 suv olingan bo'lsa, 1980-yilda 102.9 km^3 , 1985-yilda 111.5 km^3 suv olindi). Binobarin, Orol havzasida mavjud bo'lgan o'rtacha suv hajmining, ya'ni 126.9 km^3 ning katta qismi sug'oriladigan dehqonchilikka sarflangan. Natijada Amudaryo va Sirdaryo orqali Orol dengiziga muntazam tushib turgan suv miqdori (52 km^3) 60-yillarning boshidan boshlab keskin kamaydi. 1980-yillaning o'rtalarida dengizga tushayotgan suv miqdori juda ham qisqarib, 1981-yilda 5,9, 1985-yilda 2,4, 1988-yilda 23 km^3 ni, 1998-yilda esa 20 km^3 ni tashkil etdi.

Yuqorida jarayonlar 1996-yilga kelib Orol dengizi sathining 17 m dan ortiqroq (2000-yilda 20 metrga) pasayishiga olib keldi. Suv hajmi 266 km^3 ga qisqardi. Maydoni 28 ming km^2 ga bo'lib qoldi (1966-yilga qadar 66 ming km^2 edi), suvning sho'rлиgi 40% dan ortib ketdi. Qirg'oqlari avvalgi o'midan dengiz tomon $40-100 \text{ km}$ gacha surildi. 1981-yilga kelib dengizda kema qatnovi butunlay to'xtadi. 1984-yildan esa dengizda baliq tutish to'xtatildi. Dengizning qurigan qismida paydo bo'lgan Orol qumining maydoni 2000-yilga kelib 38130 km^2 ni tashkil etdi. Orolning qurib borayotganligi uning atrofидаги yerlarda, ayniqsa, deltalarda cho'lga aylanish hodisasining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Daryolar suvining ifloslanib borishi Orol bo'yida sanitariya-epidemiologiya sharoitlarini keskin darajada mu'rakkablashtirdi. Oqibatda Orol bo'yida ekologik tanglik vujudga keldi. Olimlarning fikricha, Orol ekologik buhronini keltirib chiqargan sabablar quyidagilardir:

1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda noto'g'ri tutilgan yo'l. Shu narsa regionning tabiiy sharoitiga, xo'jaligiga, ijtimoiy munosabatlariiga uzoq vaqt davomida salbiy ta'sir ko'rsatdi.
2. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri joylashtirish. Bunda asosiy kamchilik suv talab, birinchi galda sholi maydonlarining kengaytirilishi, monokulturaga, ayniqsa, paxtaga keng yo'l berilishi.

3. Kam hosil, melioratsiya ishlarini o'tkazish qiyin bo'lgan yerkarni o'zlashtirish (Farg'ona adirlarini, tog'oldi toshloq yerkarni, suv oqimi bo'lmagan pastliklarni va hokazo).
4. Sug'orish tizimlarini qurishda loyiha ishlarini olib borishning, ularni qurish va eksplatatsiya qilishning sifatsizligi.
5. Sug'orish me'yorlarining balandligi. Masalan, 1980-yilda Qozog'istonda normadagiga nisbatan sug'orishga sarf qilingan suv 201% ni, Qирг'изстонда 122% ni, O'zbekistonda 164%, Tojikistonda 158%, Turkmanistonda 167% ni tashkil etgan.
6. Sug'orish me'yorlarining yetarli darajada ilmiy asoslanmaganligi qabul qilingan sug'orish normalarini belgilashda tuproqlarning va ekinlarning ko'p xususiyatlari inobatga olinmagan, sug'orish me'yorlari, asosan, eng ko'p suv talab qiladigan ekinga mo'ljalangan.
7. O'lka xo'jaliklarining alternativ rivojlanishiga va uning tabiiy sharoitiga ta'siri bashoratining yo'qligi.
8. Orol dengizi atrofida vujudga kelayotgan muammolarning yetarlicha muhokama qilinmaganligi.

Orol muammosini hal qilishda ikkita masalaga e'tibor berish kerak:

1. Orol bo'yida vujudga kelgan tang ekologik vaziyatni bartaraf qilish.
2. Orol dengizi sathini qulay bo'lgan bir mutlaq balandlikda saqlab qolish.

Bu ikkala masala ham bir-biri bilan uzviy bog'langan. Lekin ekologik tanglikni tezroq hal qilish zarur. Bu masalani hal qilish uchun Amudaryoning etaklarida qurib yotgan o'zanlar va ko'llarni suv bilan muntazam ta'minlash, sug'orishini rivojlantirish, tuproqni mustahkamlash uning unumli qatlamini saqlab qolish hamda Orolning qurigan qismida tuz va chang to'zoni ko'chishning oldini olish ishlarini amalga oshirish zarur. Orolni dengiz sifatida saqlab qolish uchun uning sathini 33,5 m mutloq balandlikda saqlab qolish lozim. Chunki dengiz 33 m da ikkiga bo'linib ketadi. Natijada Orol «dengiz» sifatida o'zining geografik nomini yo'qotadi. Orol sathini 33,5 mutloq balandlikda saqlab qolish uchun unga har yili kamida 20 km³ suv quyilib turilishi lozim. Lekin dengizga quyilayotgan suv tobora kamayib bormoqda.

Markaziy Osiyoda suv bilan bog'liq bolgan muammolardan yana biri bu Kaspiy dengiz sathining o'zgarib turishidir. Kaspiyning sathi pasayib, 1977-yilda 29 metrni tashkil etgan. Keyingi yillardan esa uning sathi ko'tarila boshladi. Rossiya-Fransiya ekspeditsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 1995-yilga kelib suv sathi salkam 3 metrga ko'tarildi. Har yili dengiz sathi 14-35 sm ko'tarilgan bo'lsa, 1994-yilda 40 sm ga ko'tarildi. Bu holdan Kaspiy bo'yи davlatlari bir necha o'n million AQSH dollari miqdorida zarar ko'rmoqda. Kaspiy bo'yida yashayotgan 3 mln aholi havotirda, chunki portlar, shaharlar, qishloqlar, neft konlari, zavodlar, yo'llar, millionlab hektar qishloq xo'jaligida band bo'lgan yerlarni suv bosib bormoqda.

Rossiya-Fransiya ekspeditsiyasining (1994-yilda ishlagan) xulosasiga ko'ra, Kaspiy dengizi sathining o'zgarishi davriy bolib, keyingi 50000 yil davomida dengiz sathi har 50-60 yilda pasayib va ko'tarilib turgan. Bu davrni 30 yildan ikkita bosqichga, ya'ni 30 yil pasayish va 30 yil ko'tarilish bosqichlariga bo'ladilar. Agar dengiz sathi, ularning fikricha, 1979-yildan buyon ko'tarilayotgan bo'lsa, u yana 2009-yilgacha ko'tarilishi lozim.

Bundan 30000-40000 yil burun Kaspiy sathi hoziridan 75 m yuqori bo'lgan. Kaspiy sathining ko'tarilish sababini mazkur ekspeditsiya quyidagicha izohlaydi:

1. Hududiy va global iqlimi o'zgarishlar sabab bo'lmoqda. Yer yuzi iqlimi ilimoqda, bu esa yog'in-sochinning ortishiga olib kelmoqda.
2. Yer geografik qobig'idagi o'zgarishlar sayyoramizning aylanish tezligidagi o'zgarishlar, kosmos ta'siri va h.k.
3. Kaspiy tubidan bir qancha tektonik yoriqlar o'tgan, ular vaqtini bilan faollahashi, natijada dengiz tubi ko'tariladi. Bu hol ham 60 yillik davriylikka ega. Kaspiy sathining o'zgarishi asosan ikkita omilga bog'liq.

Bu, asosan, Volga daryosi olib kelayotgan suv miqdori va bug'lanish miqdori. Bu ikkala omil Kaspiy havzasidagi iqlimi o'zgarishlarga qarab o'zgarib turadi. S. Radionovning 1989-yilda bergan ma'lumotlariga ko'ra Volga suv sarfining o'zgarishida 2 ta davr kuzatiladi: 1878-1936 va 1937-1977-yillar. Birinchi davrda dengizga yiliga o'rtacha hisobda 331 km^3 suv quyilgan bo'lsa, ikkinchi davrda u 272 km^3 ni tashkil etgan, 1975-yilga kelib Kaspiyga

daryolardan keladigan suv miqdori keskin kamayib, 200 km³ ga tushib qolgan. 1972-1977-yillarda o'rtacha bir yillik suv sarfi 227 km³ tashkil etgan, bu 1933-1940-yillarda kuzatilgan normal davrdagidan 21 km³ kamdir.

1978-yildan boshlab daryolarning suv sarfi sezilarli darajada ortdi. 1978-1985-yillarda o'rta hisobda yiliga 305 km³ ni tashkil etdi. Volga havzasida bo'layotgan iqlimi o'zgarishlar natijasida yillik suv sarfining bunday ortishi Kaspiy sathining yana ham ko'tarilishiga olib boryapti.

Tabiat zonalari

Reja:

1. Markaziy Osiyo hududining tekislik mintaqasining tabiat zonalari.
2. Markaziy Osiyo hududining balandlik mintaqasining tabiat zonalari
3. Markaziy Osiyo hududining tabiiy geografik rayonlashtirish

Markaziy Osyoning turli qismlarida quyoshdan keladigan yalpi radiatsiya miqdori turlicha, shimolida kamroq (100 kkal.sm), janubida ko'proq (160 kkal/sm). Bu esa haroratning, namlikning notejis taqsnnlanshiga va iqlim mintaqalarining hamda har bir iqlim mintaqasi ichida o'ziga xos tabiat zonalarining hosil bo'lisliiga olib keladi. Markaziy Osiyo hududida juda baland tog'lar joylashganligi sababli harorat va namlikning balandlik bo'yicha o'zgarishi tufayli balandligi mintaqalari vujudga kelgan. Binobarin, Markaziy Osiyo hududida tabiat zonalari kenglik (shimoldan janubga) va balandlik bo'yicha almashinib keladi.

Markaziy Osiyo hududi mo'tadil mintaqaning janubida va subtropik mintaqaning shimoliy quruq qismida joylashgan. Mo'tadil iqlim mintaqasida dasht, chalacho'l va cho'l zonalari, subtropik mintaqada subtropik cho'llar zonasini joylashgan.

Dasht zonasiga To'rg'ay platosining shimoliy qismi. Qozog'iston past tog'larining shimoliy va markaziy qismlari kiradi. O'lka okeanlardan uzoqda joylashganligi sababli iqlimi quruq, yog inlar kam, bahor va kuz qisqa. Yillik yog'in miqdori 300 mm. yan-

varning o‘rtacha harorati -17-18 C, iyulniki 20-24 C. Dasht zonasining shimoliy qismida qora tuproqlar, janubida toq kashtan tuproqlari tarqalgan. Dasht o‘simliklar, asosan, pakana qiyoq, chalov, betaga, zig‘ir, yo‘ng‘ichqa, aiyqtovon, yaltirbosh va boshqalardan iborat. Hayvonlardan kemiruvchilar ko‘proq tarqalgan. Dasht zonasini hozirgi paytda deyarli to‘liq haydab yuborilgan va ekinzorlarga aylantirilgan.

Chalacho‘l zonasiga To‘rg‘ay supasimon o‘lkasining janubiy qismi, Qozog‘iston past tog‘larining juda katta janubiy qismi kira-di. Quyosh nurlarini ko‘proq oladi, harorat yuqori, namlik yetish-maydi, qishi qattiq; yanvarning o‘rtacha harorati -16°C, ba’zan sovuq -48°C ga yetishi mumkin, yozi issiq, iyulnimg o‘rtacha harorati 23-26°C, yillik yog‘in miqdori 200-225 mm. Asosan, kashtan tuproqlar tarqalgan, qatlami yupqa, chirindi miqdori qora tuproqqa nisbatan kamroq. Dehqonchilikka nam yetishmasligi xalaqit beradi. Ayrim joylarda tuproq sho‘rlangan. Asosiy o‘simliklari burgan, qora shuvoq, ko‘kpek.

Cho‘l zonasiga Turon tekisligi va Balxashbo‘yi tekisliklari kira-di. Markaziy Osiyoda, asosan, qumli, toshli, gilli cho‘ilar tarqalgan. Cho‘llarning hosil bo‘lishiga asosiy sabab haroratning yuqoriligi, yog‘in miqdorining kamligi, oqar suvlarning yo‘qligi. O‘simlik qoplami siyrak, massasi kam, tezda qovjirab qoladi va chirindi hosil bo‘lmaydi. Tuproqlari. asosan, qumli, sur-qo‘ng‘ir, gilli, toshloq va bo‘z tuproqlar. Bo‘z tuproqlar sug‘orilganda yaxshi hosil beradi. Past joylarda sho‘rxoklar va sho‘rtoblar ham uchrab turadi. O‘simliklar, asosan, saksovul, yantoq, quyonsuyak, sho‘ra va shuvoqlardan iborat. Hayvonlardan chayon, falanga, gekkon kaltakesagi, bo‘g‘ta ilon, ko‘zoynakli ilon, efa iloni, echkemarlar yashaydi. Cho‘l zonasining o‘simlik va hayvonot dunyosi qurg oqchil sharoitga moslashgan. O simliklarning ildizi uzun. bargi kichik, ignasimon yoki butunlay yo‘q. Hayvonlar inlarida yashaydi yoki qum orasiga kirib ketadi, ba’zilari kunduzi uxbab, kechasi ovga chiqadi, ba’zilari yozda butunlay uyquga ketadi, ba’zilari umuman suv ichmaydi. ba’zilari vegan ovqati tar-kibidagi suvgaga qanoat qiladi.

Subtropik iqlim mintaqasi tabiat zonalari. Bu mintaqaga, asosan, Turkman-Xuroson tog‘lari va Atrek vodiysi kira-di. Bu yerlarda quruq subtropik iqlim vujudga kelgan. Tuproqlari bo‘z, tog‘ yonbag‘irlarida

changalzorlar, archazorlar va pistazorlar tarqalgan. Vodiylarda dehqonchilik qilinadi.

Tabiat zonalarining kenglik bo'yicha joylashish qonuni tog'li o'lkalarda buziladi. Tog'larda harorat va namlik miqdorining pastdan yuqoriga qarab o'zgarib borishi sababli tabiat zonalarini ham pastdan yuqoriga qarab almashinadi. Markaziy Osiyo tog'larining etagi cho'llarga borib taqalgaligi uchun balandlik mintaqalari cho'ldan boshlanadi va asta-sekin subalp, alp o'tloqlarigacha almashinadi.

Cho'l zonasasi ko'proq Markaziy Qizilqumdag'i tog' etaklari va yonbag'irlarida, Kopetdog', Sulton-Uvays tog'i etaklari tarqalgan.

Chalacho'1 zonasasi. Bu zonaga, asosan, tog' oldidagi adirlar kiradi, balandligi 500 m dan 1200 m gacha. Relyefi notejis, asosan, bo'z tuproqlar tarqalgan, o'simlik qoplamini rang va qo'ng'irbosh o'simliklari tashkil qiladi. O'rtacha yillik harorat 12-13°C. yozda 35-40°C, qishda harorat -15-20°C gacha pasayadi, yog'inlar bahor va qishda yog'adi.

Dasht zonasiga balandligi 1200 m dan 2000 m gacha boigan tog'lar kiradi. Yillik harorat adirdagidan 3-4°C past, yog'ilar kuz. qish va borrhorda yog'adi, tuprog' bo'z va jigarrang, chirindiga boy. Bu zonada bug'doyiq, shuvoq, chalov, toshkakra kabi efemer o'simliklar o'sadi.

O'rmon-dasht va o'rmon zonasiga dengiz sathidan 2000 m dan 2700 m gacha balandlikda bo'lgan joylar kiradi, tog'-qo'ng'ir o'rmon tuproqlari tarqalgan. O'simlik qoplami buta va daraxtlardan iborat, ba'zi joylarda chirindi miqdori 12 foizga yetadi. Yog'in miqdori 800 mm dan 1000-1200 mm gacha boradi, yozda ham yomg'ir yog'adi, asosiy yog inlar qish, bahor va kuzda yog'adi. Asosiy o'simliklari turli mevalar – yong'oq, olma, o'rik, pista hamda bir necha tur archa, zarang, na'matak va boshqalar.

Subalp va alp o'tloqlari zonasiga balandligi 2700 m dan yuqori bo'lgan yaylovlari kiradi. Bu zonadan faqat yozda go'shtdor Hisor qo'yulari uchun yaylov sifatida foydalilanadi. Tuprog'i och va to'q qo'ng'ir rangli. Yillik o'rtacha harorat 6-8°C, yog'in miqdori 600-1000 mm, issiq kunlar kam, havo iyul-avgust oylarida isiydi. Subalp o'tloqlariga balandligi 2700-2800 m dan 3000-3200 m gacha bo'lgan joylar kiradi. Tuprog'i och jigarrang va och qo'ng'ir. Boshoqlilar va chim hosil qiluvchi o'simliklar ko'p tarqalgan. Daraxtsimon o'simliklardan o'rik, archa, chetan, o'tlardan shashir, kuziniya, yaylov espori-

yeti, betaga, geran, gulizardak va boshqalar o'sadi. Alp o'tloqlari 3200 m dan baland bo'lgan joylarda tarqalgan. Tuprog'i to'q jigar rang, qo'ng'ir. Kserofit o'simliklar ko'p. Yog'ingarchilik yil davomida bo'lib turadi, havoning nisbiy namligi ko'pincha 80-90 foiz atrofida bo'ladi. Asosiy o'simliklar navro'zo't, arlao't, ajriqbosh. yaylov rang, yaylov qo'ng 'irboshi va boshqalar.

Qor va muzlar (nival) zonasiga tog'larning doimiy qor va muzlar bilan qoplangan eng baland joylari kiradi. Harorat doim past, yog'inlar yil bo'yi yog'adi, yog'gan qor erib ulgurmaydi. Bu zona «qor chizig'i»dan yuqorida joylashgan.

Markaziy Osiyo hududining tabiiy geografik rayonlashtirish

Markaziy Osiyo Yevrosiyo materigining o'ziga xos tabiiy tarixiy o'lkasidir. Uning materikda tutgan o'rni, orografiyası, shimoldan janubga va g'arbdan sharqqa tomon katta masofada cho'zilib yotgанилиги о'лка tabiatining xilma-xil bo'lishiga olib keldi. Markaziy Osiyo tabiiy komplekslarini o'rganganda ularning makonda bir xil emasligi, ular o'rtasida o'zaro bog'liqlik, bir-biriga ta'sirining har xil ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun Markaziy Osiyo hududi tabiatini chuqur bilish niyatidagi izlanishlarini olimlar uning geografiyasiga oid materiallarni o'rganishdan, umumlashtirishdan va uning hududini ilmiy asoslangan majmuali tabiiy-geografik rayonlashtirishdan boshlashga harakat qilganlar.

Tabiiy geografik rayonlashtirish geografik izlanish metodlaridan biridir. Tabiiy geografik rayonlashtirish deganda, hудудларни ularning tabiiy geografik xususiyatlariiga qarab turli katta-kichiklikdagi regional biriklarga ajratish tushuniladi. Tabiiy geografik rayonlashtirishda tabiatda obyektiv mavjud bo'lgan va taksonomik jihatdan bir-biri bilan bog'liq regional tabiiy geografik komplekslarga (o'lkalar, provinsiyalar va h.k.) ajratiladi, har bir kompleks tabiatining o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi, ularning tabiatini tasvirlanadi hamda kartaga tushiriladi. Tabiiy geografik region nafaqat tabiiy sharoiti bilan, balki o'ziga xos tabiiy resurslar bilan ham boshqalaridan ajralib turadi. Shuning uchun tabiiy geografik rayonlashtirish har bir hududning o'ziga xos sharoiti va resurslarini baholashga imkon beradi. Uning ilmiy va amaliy ahamiyati, ayniqsa, hozirgi vaqtida tabiatda ekologik muvozanatni saqlash va ekologik buhronning oldini olish dolzarb masala bo'lib turganda juda kattadir.

Tabiiy geografik rayonlashtirishni (tabiiy hududiy komplekslarning) taksonomik birliklar sistemasida amalga oshirish mumkin. Taksonomik birliklarni qanday belgilar asosida ajratish, ularning tasniflari va nomlari hozircha munozarali bo'lib, yagona bir fikr yo'q.

Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan qanchalik muhim ahamiyat kasb etishiga ilgaridan etibor berib kelingan. Shuning uchun ham o'lka hududini tabiiy geografik rayonlashtirish bilan ko'p olimlar shug'ullanган. Ular dastlab tarmoq tabiiy geografik, ya'ni geomorfologik, iqlimiylar, tupoqlar geografiyasi, geobotanik va zoogeografik rayonlashtirishga e'tibor beriganlar. Keyinchalik kompleks tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalari vujudga kela boshladi.

L.S. Berg, R.I. Abolin, I.P. Gerasimov, A.N. Rozanov va Ye.P.Korovin, V.N. Chetirkin, L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirishga muhim hissa qo'shganlar.

L.N. Babushkin va N.A. Kogay (1964-1965) lar ko'pgina mualliflar ishlarini o'rganib va ulardan foydalanib hamda Markaziy Osiyo tabiatini uzoq vaqt tekshirish asosida regionning yangi tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasini ishlab chiqdilar. Mazkur sxemaga ko'ra Markaziy Osiyo Yevroсио materigining bir qismi, uning alohida tabiiy geografik o'lkasi deb olinib, Turon, Markaziy Qozog'iston, Jung'oriya-Tyanshan, Pomir-Tibet va Eron provinsiyalariga bo'lingan. Provinsiyalar tekislik va tog'oldi qiyaliklari tog'li kichik provinsiyalarga ular esa okruglarga (rayonlar guruhi) va niyoyat okruglарга rayonlarga bo'lingan.

Har bir tabiiy geografik birlik -o'lka, provinsiya, kichik provinsiya, okrug, rayon turli darajadagi tabiiy belgilar yig'indisiga qarab ajratiladi. Shuning uchun rayonlashtirishda ajratilayotgan har bir tabiiy geografik birliklarning mezonlarini aniq belgilay bilish lozim. Quyida biz L.N. Babushkin va N.A. Kogaylarning rayonlashtirish sxemasida qo'llanilgan birliklarning mazmuni bilan tanishamiz.

Ko'pchilik olimlar tabiiy geografik rayonlashtirish sxemalarida materik ichidan moyas (mintaqa), geotip. sektor, zona kabi birliklarni ajratadilar. L.N. Babushkin va N.A. Kogay esa materik ichida to'g'ridan-to'g'ri tabiiy geografik o'lkani ajratishadi. Ular o'lkaza

quyidagicha ta’rif beradilar. Tabiiy geografik o‘lka tabiiy geografik rayonlashtirishning yirik birliklaridan biri, u materikning katta qismidan iborat bo‘lib, geomorfologiyasi, iqlimi va gidrogeografiyasining umumiyligi bilan hamda gorizontal zonalarining balandlik mintaqalari bilan ma’lum darajada bog‘liqligining o‘ziga xosligi bilan boshqalardan ajralib furadi. Bu talablarga Markaziy Osiyo toliq javob beradi, shuning uchun ular bu hududni alohida tabiiy geografik o‘lka deb hisoblaydilar. O‘lkani ajratishda L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar tabiiy geografik sharoitning kenglik zonalariga bo‘linishini ham ino-batga olganlar.

L.N. Babushkin va N.A. Kogayning tabiiy geografik rayonlashtirishida qabul qilingan taksonomik sistemasi uchinchi pog‘onasi tabiiy geografik kichik provinsiyadir. Ular Markaziy Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi ichida tabiiy sharoitiga ko‘ra bir-biridan ajralib turadigan Turon, Jung‘oriya-Tyanshan va Markaziy Qozog‘iston tabiiy geografik provinsiyalarini ajratadilar. Tabiiy geografik provinsiya L.N. Babushkin va N.A. Kogaylar fikricha quyidagi o‘ziga xos xasusiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

1. Yer yuzasining zonalarga bo‘linish sistemasida va tabiiy geografik o‘lkalar orasida o‘ziga xos belgilari bo‘lishi kerak.
2. O‘ziga xos iqlim rejimiga (yog‘in-sochinning yil davomida taqsimlanishida), termik sharoitiga ega va shular asosida nurash hamda tuproq hosil bo‘lish jarayonlarining o‘ziga xos bo‘lishi kerak.

Mazkur rayonlashtirish taksonomik birligining 4-pog‘onasi kichik provinsiyadir.

Mualliflar tekislik va tog‘lardan iborat bo‘lgan Markaziy Osiyo o‘lkasining Turon va Jung‘oriya-Tyanshan provinsiyalari doirasida tekislik va tog‘oldi tog‘ kichik provinsiyalarini ajratadilar. Kichik provinsiyalarning har biri boshqalardan:

- ✓ morfostrukturasiga (yirik relyef shakllari-tog‘ zanjirlari, tizmalar, tog‘ vodiylari, qirlar, pasttekisliklari va h.k.) ko‘ra hududining umumiyligi;
- ✓ vujudga kelishi va rivojlanishi tarixining umumiyligi;
- ✓ hududining o‘ziga xos zonal tipga (gorizontal yoki vertikal) ega ekanligi bilan ajralib turadi.

L. N. Babushkin va N.A. Kogay Turon provinsiyasidagi kichik provinsiyalar chegaralarini landshaft belgilariga qarab ajratishadi. Chegarani Kapetdog'ning shimoliy tog'oldi tekisligining Qoraqum bilan tutashgan yeridan, Mirzacho'lning allyuvial tekisliklar va Nurota tog'oldi prolyuvial tekisliklarining Qizilqum bilan tutashgan yeridan, Qashqadaryoning allyuvial tekisliklarining Dengizko'l yassi tog'ligi bilan tutashgan joylaridan o'tkazadilar.

Taksonomik birlikning 5-pog'onasi okrug. Tekislik va tog' oldi -tog' kichik provinsiyalari doirasida bir-biridan yer usti yot-qiziqlarining xarakteri, litologik tuzilishi, tog' tizmalarining umumiy yo'nalishi, tog' yonbag'irlarining quyosh nuriga nisbatan joylashishi, chetdan keladigan havo massalarining ta'siriga ko'ra farq qiladigan hududlar mavjud. Shu munosabat bilan tekislik va tog'oldi -tog' kichik provinsiyalari doirasida okruglar ajratiladi.

Okruglar asosan hudud makroiqlimining o'xshashligiga, geologik tuzilishiga va tabiiy-tarixiy jihatdan o'xshashligiga qarab ajratiladi. L.N. Babushkin va N.A. Kogay tekislik kichik provinsiya-sida 16 ta, tog'oldi tog' provinsiyasida 22 ta tabiiy geografik okrugni ajratadilar.

Taksonomik birlikning 6-pog'onasi tabiiy geografik rayon. Tabiiy geografik rayonlar geomorfologik va iqlimiyligi jihatdan bir xil hududlar bo'lib, bir-biridan litologik tuzilishi, balandlik mintaqalarining o'ziga xosligi bilan farq qiladi.

Tekislik okruglarida rayonlar asosan geologik-geomorfologik va iqlimiyligi xususiyatlarga qarab ajratiladi. Shuning uchun tekislik tabiiy geografik rayoni okrug hududida boshqa qismlardan geologik-geomorfologik yoki iqlimiyligi jihatdan ajralib turgan bir qismidir. Biroq tabiiy rayonlar ajratilganda birinchi galda issiqlik hamda namni saqlab turadigan va bundan kelib chiquvchi boshqa barcha oqibatlarga sabab bo'ladigan relyefga asosiy e'tibor beriladi. Rayonlar landshaft kartalari asosida ajratiladi. Shuning uchun tabiiy rayon landshaftlarning ma'lum majmuasidan iborat bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududini tabiiy geografik rayonlashtirish har xil masshtabda va maqsadda har xil tamoyil va uslublarni qo'llab amalga oshirilgani uchun rayonlashtirish sxemalarida kattagina farqlar mavjud.

Markaziy Osiyoning tabiiy resurslari

Reja:

1. Tabiiy sharoiti.
2. Agroiqlim resurslari.
3. Mineral resurslari

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar jamiyat taraqqiyotida eng muhim moddiy sharoitlardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirish va joylashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Qachonki Markaziy Osiyo davlatlari haqiqiy mustaiqlikka ega bo‘lgandan keyintabiyy resurslarni izlash, o‘rganish va ulardan oqilona foydalanish Respublika xo‘jaligini har tomonlama rivojlantirish uchun katta va keng istiqbollar ochib berdi.

Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti jarayoni davrida tabiatga taosir ortib bormqa. Bunday jarayonda Markaziy Osiyoda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ulardan tejab-tergab foydalanish va kela-jak-avlodlar manfaatlarini ham ko‘zlab ish yuritishni taqozo etadi. Tekshirishlar va hayot shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo tabiatini kishilarning yashashi, mintaqada ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish hamda kelajak istiqboli uchnu juda qulaydir.

Ular har xil geologik davrda va murakkab tektonik xarakterlar va tashqi kuchlar taosirida hozirgi relpef sharoiti vujudga kelgan. Markaziy Osiyo yer maydonini 70 %ni tekisliklar tashkil etadi. Ular mintaqaning markazi, shimoliy g‘arbi bo‘yi, vohalar va vodiy erlaridir. Respublika hududida tekislikning katta maydonini egallashi mintaqaga dehqonchiligiga keng miqyosida foydalanishga va tekslarda tog‘li yerlarga qaraganda transport va boshqa texnika vositalidan foydalanish ancha qulay.

Agroiqlim resurslari. Markaziy Osiyo yer resurslari bu muhim ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Markaziy Osiyo iqlimi kontinental, quyi mo‘otadir va subtropik iqlim mintaqasiga kirib, xudud boy agroiqlim resursga ega kunlar yoki vegetatsiya davri quyi Amudaryoda 190-200 kun, Farg‘ona ovdysiда 210-225 kun, O‘zbekistonning janubida 230-270 kundir. Mana shu sovuqsiž kunlar harorat umumiyligi yig‘indisi 4500-5500 °S haroratni tashkil qiladi.

mana shunday iqlim sharoitida issiq sevar, uzoq vegetatsiya davrini xohlovchi subtropik o'simliklar o'sishga ekinlar etkazib berish imkoniyatiga egadir. Yana eng muhimi, 1 yerdan 1 yilda 2-3 marta hosil olish imkoniyatiga egadir.

Markaziy Osiyo suy resurslariga ham boydir. Markaziy Osiyo hududidagi eng katta daryolar Amudaryo, Sirdaryo.yu Ili va ularning ko'pchilik irmog'i o'tadi, ular mintaqaning asosiy suv manbasi hisoblanadi. Markaziy Osiyo suv resurslari 25-30 mln gektarni sug'orish imokniyatiga egadir. Suvdan oqilona foydalanishni taqozo etadi. O'zbekiston va Turkmaniston hududida yer osti suv manbalari ham majuddir. Ulardan keng foydalanishni taqozo etadi. Bunday iqlim sharoitida suvdan oqilona va ilmiy asosda foydalanish zarur

Sug'oriladigan yerlarni asosiy qismi cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi. Markaziy Osyoning och tipik bo'z tuproqlari dengiz yuzidan 500 m balandlikda uchraydi, ular ko'proq sho'rlaydi, yilda sho'rini yuvish talab etiladi. Bu joylar asosan Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, Sherobod, G'arbiy Farg'ona va boshqa yerlardir. Tekisliklarda nam yaqin erlarda o'tloq botqoq tuproqlar uchraydi. Adirlarda bo'z tuproq, cho'l, qumoq qo'ng'ir tuproqlar tarqalgan. Qizilqum va Qoraqum hamda boshqa cho'llarda qum va qumoq tuproqlar ko'pdir. Tog'larda jigarrang, qo'ng'ir, o'tloqi dasht tuproqlardir. Har bir yerning xususiyatiga qarab tuproq meliorativ holatini yaxshilab borish va tuproqni baholash - yer kadastri ishlarini tezlashtirishni taqozo etadi.

O'simlik resurslari har bir o'simlik mintaqasida har xil tarqalgandir. Qumloq erlardan yaylov sifatida foydalaniladi. Ulardan 3-5 s dan ko'k massa olish mumkin. Adir yaylovlarida esa ko'proq 8-10 s ko'k olish mumkin. Tog'larda xashak zaxirasi ortiqir, gektaridan 15-19 s olish mumkin. Bu erda yozda echki, yirik shoxli mollar boqiladi. O'simlik turlari 90 % chorva mollar uchun oziqadir. O'simlik resurslari yaylovdan tashqari yovvoyi mevalardan tog' olchasi, bodom, pista, olma va boshqalar tog'li va tog' oldi yerlarida ko'p tarqalgan. Tog'larda shifobaxsh o'simliklar ham ko'p.

Markaziy Osiyo hududi geologik jihatdan ancha murakkab bo'lib, u davrda har xil geologik davrlarda xos har xil qazilma boyliklar mavjud bo'lib, mamlakatning xalq xo'jaligini rivojlantirishga va kelajakda ulkan mamlakatga aylanishiga bu boyliklar katta imkoniyatlar yaratadi.

Markaziy Osiyo juda katta mineral boyliklarga ega oltin, mis, molibden, volfram, qo'rg'oshin va rux, tabiiy gaz qimmatbaho toshlar jihatidan jahonda birinchi o'rnlarda turadi. Bundan tashqari fosforit, tuz, oltingugurt, alyuminiy xom ashyosi pardozlash va qurilish materiallarining katta zaxirasi mavjud.

Mineral resurslari. Markaziy Osiyo o'lkasi turli foydali qazilmalarga boy. Yoqilg'i-energetika boyliklari neft, gaz va ko'mir asosan mezozoy va uchlamchi davrning dengiz yotqiziqlari orasida topilgan. Asosiy neft konlari Kaspiy dengizi bo'yida; Chelekenda, Nebit-dagda, Qoturtepada, yangi yirik konlari Mang'ishloqda, Tengizda, Ko'kdumaloqda, Mingbuloqda ham topilgan. Gaz ham asosan neft chiqadigan hududlarda uchraydi. Yangi ko'mir konlari Mang'ishloqda (qo'ng'ir ko'mir), To'rg'ay platosida (qo'ng'ir ko'mir), Tyaaqirda (toshko'mir) ochilgan. Farg'ona vodiysida, Is-siqliko'Ining sharqida, Ichki Tyanshanda, g'arbiy Tyanshanda, Hisorda, Qozog'iston past tog'larida katta ko'mir konlari bor. Qarag'anda toshko'mir havzasini zaxirasining ko'pligi va toshko'mir sifatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ekibastuz ko'mir hayzasida esa ko'mir qatlamlari qalin, 8 m gacha yetadi va ochiq usulda qazib olinadi.

Markaziy Osiyo hududida bir necha rudali (temir, titan, marganes, xrom) rangli (mis, qo'rg'oshin), nodir (volfram, molibden, qalay, vismut, simob, surma) qimmatbaho (oltin, kumush) metall konlari bor: Olmaliq, Qo'ng'iroq va Jezqazg'anda mis konlari, Qoramozor va Qoratov tizmalarida polimetall konlari.

Qozog'iston past tog'larida Oloy va Markaziy Osiyo tog' tizmalarining shimoliy yonbag'irlarida, Hisor va Zarafshon tizmalarida, Nurota tog'larida va ko'p joylarda nodir metall konlari bor. Yirik oltin konlari Qozog'iston past tog'larida, Nurota tog'larida, Darvoz tizmasida, Qizilqumda, Tyanshanda joylashgan. Yirik temir ruda konlari Qozog'istonda ochilgan.

Kimyoviy xomashyolardan osh va kaliy tuzlari, oltingugurt konlari ham Markaziy Osipyoda yetarli. Bunday konlardan Qorabo'g' ozgo'l g'arbiy Qozog'iston, Xo'jaikon alohida o'rinn tutadi.

Markaziy Osipyoda binokorlik materiallari juda ko'p bo'lib, deyarli hamma yerda uchraydi. O'lkada issiq mineral buloqlar ham ko'p.

II BOB. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI

Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi

Reja:

1. Markaziy Osiyo davlatlari taraqqiyotida inson omili.
2. Markaziy Osiyo aholisining umumiy soni va uning o'sish darajasi.
3. Markaziy Osiyo aholisining tabiiy o'sishi, uning geografik joylashuvi va zichligi.
4. Markaziy Osiyo davlatlari aholisining ijtimoiy tarkibi.
5. Markaziy Osiyo davlatlarida mehnat resurslari va aholining bandlik darajasi
6. Markaziy Osiyo davlatlari demografiyasiga oid muammolar.

Markaziy Osiyo davlatlarida inson omili belgilovchi o'rinda tutradi. Markaziy Osiyo davlatlarining haqqiy boyligi va mulki uning mehnatsevar saxiy, vatanparvar va mehnatparvar hamda mehmondo'st xalqidur. "Jamiyatning eng oily boyligi bo'lgan xalq abadiy qadiryatlarning qudratli salohiyatini o'ziga jalg qilgan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarisah jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi, deydi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov (1997-yil) Inson salohiyati mehnat zahiralarini shakllantirishda ijtimoiy demografik vaziyat hal qiluvchi rol o'ynaydi. Markaziy Osiyoda bu vaziyat qanday ahvolda ekanligi mavzu bayonida bayon etilgan. Markaziy Osiyo davlatlarining demografik xususiyatlariha oid ma'lumotlar ancha yetarli b'olib, ularda keltirilgan sonli raqamlar bir – biridan farq qiladi. Shunga qaraganda demografik xususiyatlari belgilovchi qonuniyatlar deyarli bir xilda. Shuning uchun aholiga xos bo'lgan xos va xususiyatlarni o'rganganda unga xos bo'lgan qoqnuniyatlarni bilishga etiborni qaratishimiz kerak.

Markaziy Osiyo aholisi haqidagi ma'lumotlarni 1897; 1920; 1926; 1930; 1959; 1970; 1989-yildagi aholi ro'yxatining materiallari dan va keyingi yillarda chiqqan statistik ko'rsatishlar asosida ta'sir etildi. Bu regionda ham boshqa joylardagi kabi aholining umumiyl o'sishi, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, geografik hususiyatlar bilan bo'glik. Jumladan Turkistonning bosib olinishi, Harbiylarning ko'chib kelishi, shaharlarning vujudga kelishi, jahon urushhlarinin oqibatlari, milliy va diniy qarashlar davlatlarning parchalanib ketishi va boshqalar. Aholining umumiyl ko'rsatikichini belgilovchi omillar. Masalan: O'zbekistonning aholisi 1940-1945 yillarda 1,4 umumiyl soni jihatdan olganda, 1917-1940-yillarda 2,7 %ga 1960-1970-yilda -3,3 -3,8%ga; 1999-yilda 2,0%ga va keyingi yillarda o'rtacha 1,8%ga o'sdi.

Markaziy Osiyoda aholining umumiyl soni 69 mln.kishi shu jumladan O'zbekistonda 31,5 mln.kishi, Qozog'istonda 17,7 mln. kishi va Qirg'izistonda 6 mln.kishi, Turkmanistonda 5,4 mln, Tojikistonda 8,5 mln.kishi aholishunoslarning bashoratiga qaraganda 2030-yilga borib Respublikalarda aholining soni quyidagicha taqsimlanan ekan:

| | |
|----------------|--------------------------|
| O'zbekistonda | 36 mln.kishi, |
| Qozog'istonda | 20,7 mln.kishi, |
| Tojikistonda | 11,2 mln.kishi, |
| Turkmanistonda | 6,2 mln. kishi va |
| Qirg'izistonda | 8,2 mln.kishi. |

Markaziy Osiyo regionida umumiyl aholi soni 82 mln. kishiga yetadi. Aholi o'sishining barcha davatlarda bir xilda emasligiga regionda shakllangan tarixiy geografik ananaviy va ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Region aholisining asosiy qismi O'zbekiston Respublikasida yashaydi (45 %). Aholining ko'payishi turli davrda turlicha. Markaziy Osiyo davlatlari aholisining yuqori suratlar bilan o'sishi Qozog'istondan tashqari asosan tabiiy o'sish hisobiga bo'lmoqda. Tabiiy o'sish ko'rsatkichiga ko'ra Markaziy Osiyo davlatlari MDH da oldingi o'rinda turadi. Tabiiy o'sish ko'rsatkichi bo'yicha keyingi yillarda Turkmaniston yuqori ko'rsatkichiga ega 26,9 kishi. O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'izioston va Qozog'iston Respublikalarida ming kishi hisobiga tabiiy o'sish 26,6; 25,6; 21,4 va 11,8 kishini tashkil etgan. A.Ro'ziyev (2000-yil)

ma'lumoti bo'yicha tabiiy o'sish koeffisenti Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonda hamda Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalarida 33:8; 31:7; va 33:9 hamda 26:8 va 19:9 ga teng.

Markaziy Osiyo Respublikalarida tabiiy o'sish bir xilda emas. Birgina 1990-1997 yillarning o'zida O'zbekiston aholisi 13,3 %ga ko'paydi. Qozog'istonda esa aholi sonida kamayish bo'ldi. Buning aqsosiy savbabi tibbiy o'sishini kamayib borayotganligi. 1987 yil 10000 kishiga 18,1 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkish 1994-1997 yillarda 8,8 va 5,0 kishiga teng. Qozog'istonning qishloq joylarida bu ko'rsatkich 20,4 kishini tashkil etadi. Shuningdek, Tojikistonda 1970-1990 yillarda tibbiy ko'payish yuqori bo'lib, MDH davlatlari orasida yetakchi o'rinni egallagan. Keyingi yillarda mam-lakatdagi o'zaro kelishmovchiliklar oqibatida aholining tibiy va mehnat o'sishida, kamayishlari kuzatildi.

Markaziy Osiyo aholisining geografik joylashuviga ham ob'yektiv va sub'yektiv omillari ta'sir ko'rsatgan. Vodiy va vohalar qadimiy, shaharlar va viloyat markazlarida aholi ko'p va zinch yashasydi. Regionning barcha hududlarida shahar aholisiga qaragan-da qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil qiladi. Ya'ni umumiyl aholining 39,8% shaxarlarda qolgan 60,2% esa qishloqlarda yashaydi. Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarida urbanizasiya jarayoni juda sekin kechmoqda. Urbanizasiya darajasi bo'yicha Qozog'iston Markaziy Osiyo davlatlari ichida eng yuqori ko'rsat-kichga ega.

Yangi ma'dan konlarining topilishi va ishga tushurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va yirik irrigatsiya – melioratsiya ishlarining amalga oshirilishi bilan aholi joylasuvida o'zgarishlar bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo hududida aholining zinchligi bir kv.km ga 17 kishiga to'g'ri keladi. Jumladan har bir kv.km.ga:

| | |
|----------------|--------------------------|
| O'zbekistonda | 71, |
| Qozog'istonda | 7, |
| Tojikistonda | 62, |
| Turkmanistonda | 12, |
| Qirg'izistonda | 32 kishi to'g'ri keladi. |

5-jadval

Markaziy Osiyo Respublikalarida shahar va qishloq aholisi quyidagicha taqsimlangan (foiz hisobida).

| Nº | Davlat nomi | Shahar aholisi | Qishloq aholisi |
|----|----------------|----------------|-----------------|
| 1 | O‘zbekistonda | 51 | 49 |
| 2 | Qozog‘istonda | 50,5 | 49,5 |
| 3 | Tojikistonda | 27,3 | 72,7 |
| 4 | Turkmanistonda | 50,4 | 49,6 |
| 5 | Qirg‘izistonda | 34,4 | 65,6 |

Aholining zichligining davlatlar orasida keskin farq qilishi aholining milliy tarkibi, hududlari kattaligi tabiiy o‘sish koefisenti va boshqalar bilan bog‘liq.

Aholi zichligi har bir davlat geografik hududlarida ham keskin farq qiladi, asosan aholining o‘rtacha zichligi. O‘zbekistonda bir kv.km ga Andijon viloyatida – 552,5, Qaraqalpog‘istonda - 94, Navoiyda – 7,3, Farg‘ona iqtisodiy rayonida 413,8 (MDH mamlakatlarda ichida eng yuqori o‘rinda turadi) kishini tashkil qiladi.

Aholining jinsiy, yosh va milliy tarkibi muhim demokratik ko‘rsatkich hisoblanadi. Aholining jinsiy va yosh tarkibi istiqbolini belgilash aholini takror barpo qilish uchun zarur ko‘rsatkichdur. Turli sabalarga ko‘ra ularning salmog‘i o‘zgarib turgan. Masalan: O‘zbekistonda 1939-yilda erkaklar 52,0%ni, ayollar 48,0% ni tashkil etgan bo‘lsa, 1989-yil erkaklar 49,0% va ayollar 51,0% tashkil etgan. 1999-yil har 1000 erkakka 1018 ayol to‘g‘ri kelgan.

Aholi yosh tarkibidagi yuqori ko‘rsatkichlar mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning istiqbollarini belgilab beradi. Past ko‘rsatkichlar aholining qarib borishini ko‘rsatadi.

Aholining milliy tarkibi tashqi omillar hamda davlat siyosati rivojlanishining turli bosqichlarida o‘zgarib turadi.

2013-yil ro‘yxati bo‘yicha: O‘zbekistonda o‘zbeklari 24 858 159 kishidan oshgan. O‘zbekistondan tashqarida, jumladan: Tojikistonda 1054726; Qirg‘izistonda 796291; Qozog‘isfonda - 534968; Turkmanistonda -479000 o‘zbeklar yashaydi. O‘zbekistonda

umumiy aholining 82,9% ni o‘zbeklar, 2,7 %ini ruslar, 4,8% tojiklar, 2,7% qozoqlar, 0,9%ini qirg‘izlar, 0,6%ini turkmanlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi. Qozog‘iston Respublikasida 2015-yilgi ma‘lumoti bo‘yicha qozoqlar 66,1 %, ruslar 21,5%, ukrayinlar 1,7 %, nemislar 1,4 %, o‘zbeklar 3,7% va boshqa millat vakillari 5,6 %ni tashkil etgan. Tojikistonda aholining milliy tarkibini tojiklar 84,26 %, o‘zbekllar 13,94%, ruslar 0,46% va boshqaqlar. Qirg‘izistonda (2014-y) qirg‘izlar 72,6% ni tashkil etadi.

MOD mustaqillik yillarda aholining savodxonligini oshirish, ularga kasbiy yo‘nalish berish va madaniy darajasini ko‘taishga katta etibor bermoqda. Masalan: O‘zbekistonda “Talim to‘g‘risidagi qonun”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va boshqalar asosida ish olib borilmoqda.

MODda mehnat resurslari – mehnat qilish qobuliyatiga ega bo‘lgan kishilardan iboratdir. Mehnat resurslarini shakllanishiga aholining yoshi va jinsiy tarkibi, tabiiy o‘sish rejasi va boshqa ijtimoiy holatlar ta’sir ko‘rsatib turadi. Mehnat resurslarining taqsimlanib turishi MODda turlichadir. Masalan: 1995-yilda: Mehнат resurslarini har bir davlatning umumiy aholisisiga nisbatan foiz hisobida taqsimlanshi. Respublikalarda: O‘zbekistonda -49.8%, Tojikistonda-48.3%, Qirg‘izistonda-52.4%, Qozog‘istonda-55.1% ga teng. MODda 51,2% ga teng.

Aholining bandlik darjasи umumiy aholi soniga nisbatan % hisobida.

6-jadval

| Nº | Tarmoqlar | MOD | O‘zbekiston | Tojikiston | Turkmaniston | Qirg‘iziston | Qozog‘iston |
|-----------|---------------------|------------|--------------------|-------------------|---------------------|---------------------|--------------------|
| 1 | Qishloq xo‘jaligida | 41,7 | 26,7 | 54,5 | 44,2 | 42,0 | 20,0 |
| 2 | Sanoatda | 19,2 | 13,0 | 16,8 | 19,2 | 19,2 | 22,3 |
| 3 | Xizmat soxasida | 39,1 | 60,3 | 28,7 | 6,3 | 38,7 | 55,8 |

Respublikalarda aholining xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha bandligi ham turlichadir. Jumladan O‘zbekistonda moddiy ishlab chiqrishdan jami : 39,7%i, mehnat resurslari bilan band keyingi yillrga nomoddiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar salmog‘i ortib bormoqda.

Aholining tez sur’atlar bilan ko‘payish tarkibida ish bilan bandligining barqaror ravishda o‘sishining ta’minlashni taqazo etadi. Shuning uchn aholi bandligining tizimini takomillashtirish mehnat bozori munosabatlarini tartibga solish, aholining qayta tayyorlash va malakasini oshirish lozim.

Markaziy Osiyoda aholi demografiyasiga oid muommolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biderdir. Ayniqsa, regionda tabiiy o’sisning turlicha ekanligi va hududlar bo‘yicha noteks tqsimlanganligi (Umumiy soni, zichligi ijtimoiy tarkibi va boshqalar) mehnat resurslari va ish bilan bandlik darajasining nomutanosibligi, yoshi va bilimidagi farqlashlar va h.k. Markaziy Osiyodagi har bir mustaqil Respublikada bozor iqtisodiyoti strategiyasini ro‘yobga chiqarishda aholini ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli va samarali chora tadbirlarni amalga oshirish zarur. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov aytganidek “Respublikamiz boshqa mintaqalar havas qilsa arziyidigan ming-minglab ishchi kuchlariga, qadimdan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan mehnatsevarlik, insonparvalik singari ma’naviy boyliklarga egadir”. Bu baho MOD dagi boshqa halqlarga ham tegishlidir. Shubhasiz o‘ylab qilingan har bir ish ijobiy tarzda samarasini beradi.

Markaziy Osiyoning iqtisodiyoti

Reja:

1. Dunyoning siyosiy kartasida Markaziy Osiyo mamlakatlari.
2. Markaziy Osiyo tushunchasi, uninig mohiyati va mazmuni.
3. Sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududida xo‘jalikning mazmuni va mohiyati.
4. Istiqlolning dastlabki davrida hudutda xo‘jalikning holati.
5. Markaziy Osiyoda xo‘jalikning tarmoqlari va ularning iqtisodiyotda tutgan o‘rni.
6. Mintaqada xo‘jalikning rivojlanish xususiyatlari.
7. Markaziy Osiyo mamlakatlariga xos bo‘lgan umumiy muammo-
lar.

Dunyoning siyosiy kartasi tarixiy yillar davomida global miqiyosidagi turli xil ja'rayonlar ta'sirida shakllanib turadi. Jumladan buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyoning bo'linib olinishi, birinchi va ikkinchi jahon urushlari natijasida davlatlarning vujudga kelishi, siyosiy ongning o'sishi, ma'naviyat va mafkuraning takomillashuvi bilan ma'lum bir tuzumning parchalanishi, mustamlaka tuzumining yemirilishi bilan o'nlab mustaqil davlatlarning barpo bolishi kabi jarayonlar bunga misol bo'ladı.

Bunungi kunga kelib jahonda 227 ta mamlakatlar mavjud bo'lib, shundan 58 tasi Afrikada, 50 tasi Amerikada, 49 tasi Osiyo qit'asida, 46 tasi Yevropada, 24 tasi Avstraliya va Okeaniyadadir.

Tadqiqotchilarining tahviliga ko'ra dunyoning siyosiy kartasi shakllanishiga ko'ra to'rtta davrni o'z ichiga olgan:

1. Qadimgi davr – davlatlar paydo bo'lishidan to' eramisning V asrigacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan siyosiy karta;
2. O'rta asrlar davri milodning V-XVI asrlarini o'z ichiga olgan siyosiy karta;
3. Yangi davr XV-XVI asrdan XX asrning birinchi jahon urushi yillarini o'z ichiga olgan siyosiy karta;
4. Eng yangi davr – birinchi jahon urushi hoziri kunlargacha bo'lgan durni o'z mazmuniga olgan siyosiy karta.

Bu davrni yana 3 ta bosqichga bo'lishadi;

1. 1917-1939-yil siyosiy kartasi;
2. 1930-1990-yil siyosiy kartasi;
3. 1990-yildan boshlanib, hozirga qadar davom etayotgan jarayon, voqealar asosida vujudga kelgan siyosiy karta.

Eng yangi davrning uchinchi bosqichida, ya'ni 1990-yildan boshlab dunyoning siyosiy kartasi mazmuniga butun dunyo hamkorligining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy hayotidagi tub yangi o'zgarishlar katta ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, SSSR parchalandi, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi paydo bo'ldi; Sharqiylar Yevropadagi Sobiq sotsialistik davlatlar demokratik inqiloblar natijasida yangi mustaqil rivojlanish yo'liga o'tdilar; 1991-yilda sotsialistik lagerga kiruvchi davlatlarning Varshava shartnomasi, o'zaro iqtisodiy yordam kengashining faoliyati to'xtadi va sotsialistik tizim tugallandi. 1990-yil 3 oktyabrda Germaniya davlatining birlashib ketishi, Yuoslaviyaning parchalanishi va oqibatda Sloveniya, Bosniya,

Gersogovina, Makedoniya, Xorvatiya, Yugoslaviya Ittifoqi Respublikasining siyosiy mustaqilligini e'lon qilinishi; 1990-yil mayda Yaman Arab Respublikasi va Yaman Halq demokratik Respublikasining birlashib ketishi, Chexoslovakianing 1993-yil 1 yanvarda Chexiya va Slovakiyaga bo'linishi va milliy Mustaqil davlatlar vujudga kelishi va boshqalar dunyoning yangi siyosiy kartasini tuzishga asos bo'ldi.

Markaziy Osiyoning siyosiy kartasi keyingi ikki asr davomida bir necha bor o'zgargan va o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan. Uni mazmuniga ko'ra quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqich-sobiq Markaziy Osiyo va Qozog'iston hududlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishiga qadar bo'lgan davr. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida uchta yirik davlat Qo'qon va Xiva xonligi hamda Buxoro amirligi bo'lgan. Ikkinci bosqich-Mustamlaka davrini o'z ichiga olgan. Bu davrda hozirgi hududning katta qismi Rossiya imperiyasining Turkiston general gubernatorligi tarkibida qolgan va Xiva xonligi va Buxoro amirligi hamda Qo'qon uyezdidan iborat bo'lgan. Uchinchi bosqich-1917-1922-yillarni o'z ichiga olgan. Bu davrda Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi, Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari kabi mustaqil davlatlar bo'lgan. To'rtinchchi bosqich-1924-1991-yillarni o'z ichiga olgan. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida 5 ta Ittifoqdosh Respublika tuzildi. (O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qиргизистон va Qozog'iston Sovet Sotsialistik Respublikalari). Beshinchi bosqich-1991-yildan boshlab, hozirgi kunlarni ham o'z ichiga oladi. Bu davrda istiqlol tufayli Markaziy Osiyodagi Ittifoqdosh Respublikalar o'rniда mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qиргизистон va Tojikiston kabi mamlakatlar tashkil topdi.

Qozog'iston Respublikasida 16 dekabr 1991-yil;

Qиргизистон Respublikasida 30 avgust 1991-yil;

Turkmanistonda 27-oktyabr 1991-yil;

Tojikiston Respublikasida 9 sentyabr 1991-yil ;

O'zbekiston Respublikasida 1 sentyabr 1991 yil Milliy Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, dunyo siyosiy kartasi doimi global darajadagi jarayon va voqealar tufayli o'zgarib turadi. Bunday, o'zgarishlar ko'p millatli etnik milliy jatrayonlarning rivoji, yo'nalishiga mamlakat va xalqlar o'rtasida iqtisodiy, siyosiy ma'daniy va ijtimoiy

munosabatlarning ko‘lamiga bog‘liq holda davom etadi. Shuning uchun ham qayerda boshqarish (boshqarish arabchada siyosat ma’nosini anglatadi) o‘zgarsa, hamda ustunlikka intilish kuchaysa, o‘sha hududlarda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqeя va hodisalar rivojlanadi, farqlanishlar sodir bo‘ladi, bu esa bir butun davlatning parchalanishiga olib keladi.

Markaziy Osiyodagi Mustaqil davlatlar ham davlat qurilishini takomillashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirishda o‘ziga xos tamoyil va yo‘nalishlarni belgilamoqda, boshqarish shakli va mazmunini tamlamoqda. Ularning ijobiy yoki salbiy tomonlarini vaqt ko‘rsatadi. Bu borada davlat arboblari, siyosatshunoslar, mutaxasislar ham muhim o‘rinni egallaydilar.

Turon, Turkiston, Turkiston gubernatorligi Markaziy Osiyo, Markaziy Osiyo kabi atamalarni uchratamiz. Bunday nomlanishlar tarixiy yillar davomida o‘z mazmunini topgan bo‘lib, ularning birligi tabiiy – geografik o‘lka sifatida qo‘llanilsa, boshqa birlari siyosiy – ma’muriy atama hisoblanadi. Haqiqatdan ham o‘rganilayotgan makon o‘z tarixiga ega. Chunki, bu hududda - Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va Murg‘ob daryolari vodiylarida bizning asrimizgacha va keyingi davrlarda bir necha buyuk davlatlar bo‘lgan. Jumladan, Baktariya, Marg‘iyona, Xorazm, Sug‘diyona, Buyuk Amir Temur imperiyasi, Xiva, Qo‘qon xonliklari, Buxoro amirligi va boshqalar, shuningdek, XVI-XVII asr boshlarigacha bu hudud bo‘ylab Osiyonni Evropa bilan tutashtirib turuvchi “Buyuk ipak yo‘li” o‘tgan. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab (dengiz yo‘llarining ochilishi va taraqqiy etishi bilan) “Buyuk ipak yo‘li”ning mavqeyi sustlashib ketdi. Natijada bu hududda joylashgan davlatlar dunyo bozoridan asta – sekin uzilib qoldi. Keyinchalik yana bu o‘lkaning boy tabiiy resurslari, ma’daniyati xorijiy davlatlarni o‘ziga jalb etdi.

Tarixda Amir Temurning “Mulki Turon, millati turk” degan iborasi bor. Bu iborada haqiqat bor, chunki turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar Evrosiyoning juda katta qismida yashashgan. Shu bilan birga boshqa tilda gaplashuvchi xalqlar bilan birga, doimo aloqada va munosabatda bo‘lib kelishgan. Albatta bu ibora o‘z davriga xos voqeя va mezon hamda mazmunga ega bo‘lgan.

Hozirgi kunda Turon bu past tekislikning nomi bo‘lib, Markaziy Osiyoning shimoliy – g‘arbiy va Qozog‘istonning janubiy g‘arbidagi

tekislikdir. Shimoliy -g'arbda Kasbiy bo'yи botig'i, shimolda Ural oldi bukilmasi va Ural bilan chegaradosh, uni G'arbiy Sibir tekisligidan Kustanay soyligi ajratib turadi. Sharqda markaziy Qozog'iston va Ti-yanshanning shimoliy va janubiy etaklari, Pomir tog'lari, janubda Kopetdog' oldi bukilmasi, g'arbda Kaspiy dengizi bilan chegaradosh. Maydoni 1,5 mln km².

Turkiston Turonning kunchiqar va kunbotar kengligi bo'yicha chamalanganda naq markazidir. Beruniy, Qoshg'ariy, Yassaviylar zamonidayoq Ulug'bek va Boburlar davrida ham Turon so'zi bilan birga Turonzamin va Turkiston iboralari ishlatalilgan. Ko'pincha Turkiston deganda butun Turonni, Turon deganda esa butun Turkistonni anglashilgan. Birinchi marta "Turkiston" atamasi mamlakat ma'nosida 539-yili arab xalifaligi vakillari bu hududga kelmasdanoq fors manbalarida uchray boshlagan. Ungacha yurtimiz Turon deb atalgan.

Turkiston - XIX asr va XX asr boshlarida sobiq Markaziy Osiyo va Qozog'istonni shuningdek Markaziy Osyoning Turkiy xalqlar yashovchi qismini o'z ichiga olgan tarixiy geografik oblast bo'lgan. Turkiston shartli ravishda G'arbiy yoki rus Turkistoni (Qozog'istonning janubiy qismi va Markaziy Osyoning Rossiyaga qo'shib olin-gan qismi), sharqiy yoki Xitoy Turkistoni (Xitoydag'i Sin'szan provinsiyasi tarkibiga kirgan) hamda Afg'on Turkistoni (Afg'onstonning shimoliy qismi)ga bo'lingan. 1867-yili Rossiya imperiyasiga qo'shib olingan G'arbiy Turkiston xududida Turkiston general gubernatorligini tashkil qilingan. 1886-yildan rasman Turkiston o'lkasi deb atala boshlagan. Inqilobdan so'ng 1918-yil aprelda g'arbiy Turkiston hududida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilgan. Markaziy Osiyoda milliy davlat chegaralanishining o'tkazilishi natijasida Turkiston nomi iste'moldan chi-qib, Markaziy Osiyo termini bilan almashtirilgan.

Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lka. Markaziy Osiyo berk havza bo'lib, Yevroсиyo materigining deyarli qoq o'rtasida joylash-gan. O'lkaning chegarasi juda murakkab. Shuning uchun ham turli tadqiqotchilar uning chegaralari va umumiy maydonini turlicha bel-gilaydilar. Jumladan N.L. Korjenevskiy bo'yicha Markaziy Osyoning maydoni 2 mln 213 ming km² bo'lsa, I.S. Shuxinda 2 mln 400 ming km², A.I. Kaminskiyda 2 mln 500 ming km², M.V. Qoriyev

bo'yicha 2 mln 687 ming km² dir. Bu albatta olimlarning o'lkanning shimoliy, janubiy, sharqiy va g'arbiy chekka nuqtalarini qayerdan olishliklari bilan bog'liqidir. Ba'zi bir olimlar Markaziy Osiyoning geografik o'rnnini belgilashda 4 ta sobiq Ittifoqdosh Respublikalarning hududini e'tirof etishadilar. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasining chegaralari ko'pchilik tomonidan ma'qullangan va o'quv adabiyotlarida aniq berilgan. O'lkaning eng shimoliy nuqtasi 53,8° shimoliy kenglikda, Ayrитov yaqinida, bo'lgan Safedko'x tog' tizmasi bilan Nishopur tog'lari tutashgan joyda – Xarirud vodiysida (34° shimoliy kenglik) g'arbiy nuqtasi Kaspiy dengizining Mang'ishloq yarim orolidagi Tupqarag'ay burnida (50,3° sharqiy uzunlik) va sharqiy nuqtasi Savir tog'larining etagidagi Qora Irtish daryosi vodiysida (85,6° sharqiy uzunlik) joylashgan. Shimoldan janubga 2200 km va sharqdan g'arba 2750 km ga yaqin masofaga cho'zilgan. Uning umumiy maydoni 3300000 kv. km atrofida.

Agarda Markaziy Osiyoning tabiiy geografik o'lka sifatida olinsa, uning hududida 4 ta Respublika (O'zbekiston, Turkmaniston, Qирг'изистон, Тоҷикистон) to'liq joylashgan. Qozog'iston Respublikasining ma'lum qismi shu tabiiy – geografik o'lkadir. Iqtisodiy geografik nuqtai nazardan 5 ta Respublikani umumiy holda Markaziy Osiyo mamlakatlari deb bo'lmaydi, shuning uchun ham Sobiq Ittifoq davrida Markaziy Osiyo va Qozog'iston Respublikalari deb nomlanar edi.

Istiqlol sharofati bilan Mustaqil Respublikalar tarixiy aloqalarni qayta tiklashga o'tdilar. Ona zaminni, tabiiy sharoiti, uzoq tarixi, kelib chiqishi, dini, urf-odatlari, an'analari, maqsadlari rivojlanish imkoniyatlari, muammolari bir bo'lgan qozoq, o'zbek, qирг'iz, tojik, turkman, qaraqalpoq va boshqa halqlar yangi hayot qurishda va o'zaro hamkorlik qilishga kirishdilar. Respublika raxbarlarining 1993-yil Toshkent va Ashxabotda bo'lib o'tgan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov Respublika nomlarini e'tirof etgan holda ularni umumlashtirib, "Markaziy Osiyo Davlatlari" deb yuritilishini taklif etdi va bunga barcha raxbarlar rozilik bildirdilar. Haqiqatdan ham ushbu zamindagi davlatlarni Markaziy Osiyo davlatlari deb nomlanishi ham iqtisodiy va ijtimoiy, ham tarixiy va siyosiy-ma'muriy jihatdan to'g'ri va asoslidir (biroq Markaziy Osiyo deganda Osiyodagi tabiiy-geografik o'lkanı tushun-

maslik kerak). Shu jihatdan olgan holda, Markaziy Osiyo davlatlari atamasi hozirgi kunga kelib ko‘pchilik tomonidan qo‘llab quvvatlandi va ushbu nom ham fanga va siyosatga kirib bormoqda. Shuni e’tiborgaolganda o‘quv rejasiga kiritilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy geografiyasi kursining nomini “Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy va siyosiy geografiyasi” deb atalishini maqsadga muvofiq va asosli deb o‘ylaymiz.

Qozog‘iston Respublikasi Respublika Markaziy Osiyoning shimolida joylashgan bo‘lib, shimolda Rossiya Federasiyasi, janub va janubi-g‘arbdan Qирг‘изистон, О‘zbekiston Respublikalari va Turkmaniston bilan sharq va janubi-sharqda Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni $2\ 724\ 902\ km^2$ (9-o‘rinda), aholisi 17 713 784 kishi (2016-yil. 64-o‘rinda). U maydoni va aholisining umumiy soni bo‘yicha MDH davlatlari orasida 2 va 4, hamda MO mamlakatlari orasida 1 va 2-o‘rinda turadi.

Tojikiston Respublikasi Mamlakat Markaziy Osiyoning janubi-sharqida joylashgan bo‘lib, u shimol va g‘arbda O‘zbekiston, shimol va shimoli-sharqda Qирг‘изистон, sharqda Xitoy, janubda Afg‘онистон bilan chegaradosh. Maydoni $142000\ km^2$ (93-o‘rinda), aholisi 8 547 400 kishi (2016-yil. 96-o‘rinda). MO davlatlari orasida maydoni bo‘yicha 5, aholisi bo‘yicha 3-o‘rinda turadi.

Turkmaniston Respublikasi. U Markaziy Osiyoning janubi, janubi-g‘arbida joylashgan. Mamlakat shimol, shimoli sharq va sharqdan O‘zbekiston, shimoldan Qozog‘iston, janubdan Afg‘онистон va Eron bilan chegaradosh. Turkmanistonning g‘arbiy chegarasi Kaspiy dengizi bilan tutash. Xududining maydoni $491200\ km^2$ (53-o‘rinda), aholisi 5 417 285 kishi (2016-yil. 118-o‘rinda). Markaziy Osiyo Respublikalari ichida maydoni bo‘yicha 2, aholisi bo‘yicha 4-o‘rinda turadi.

Qирг‘изистон Respublikasi. Respublika MO ning sharqida (o‘rtalig‘iz) joylashgan bo‘lib u shimol va shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston, g‘arb va janubiy g‘arbdan O‘zbekiston, janubdan Tojikiston, sharqdan-Xitoy Xalq Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni $199\ 951\ km^2$ (87-o‘rinda), aholisi 6 mln kishi (2015-yil. 110-o‘rinda). Markaziy Osiyo Respublikalari orasida maydoni jihatdan 4-, aholi soni jihatdan 5-o‘rinda turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning Markaziy qismida, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar oralig‘ida (katta qismi) joylashgan bo‘lib, shimoli va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston, sharq va janubi-sharqda Qirg‘iziston va Tojikiston, janubi va janubi-g‘arbda Afg‘oniston va Turkmaniston bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 448,9 ming kv.km (57-o‘rinda), aholisi 31 576 400 kishi (2016-yil. 41-o‘rinda). Markaziy Osiyo davlatlari ichida maydoni va aholisining soni bo‘yicha 3 va 1-o‘rinda turadi.

Milliy istiqlol sharofati bilan bu davlatlar o‘z Mustaqilligini qo‘lga kiritishda va ushbu Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyotiga o‘tishda o‘ziga xos tamoyil va yo‘nalishlarini tanlab ish tutmoqdalar.

Xalq xo‘jaligi mamlakatning eng murakkab iqtisodiy sitemasi bo‘lib, moddiy ishlab chiqarisahning barcha tarmoqlari va no ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari majmuidan iboratdir.

Markaziy Osiyo davlatlarining xo‘jaligi istiqlol davrigacha sobiq iqtisodning ixtisoslashtirilgan yagona xalq xo‘jaligi tizimi tar-kibida bo‘lib, maskura asosida boshqarilayotgan markazning ko‘rsatmalariga binoan shakllandи, joylashtirildi va iqtisoslashtirildi. Shuning uchun ham regionda xo‘jalikning nomutanosib tarkibi va hududiy joylashuvida notekisliklar, ishlab chiqarishda turli tumanlik hamda uzulishlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo hududning tabiiy iqtisodiy va ijtimoiy sharotilari talab va extiyojlari markazda unchalik etiborga olinmadidi. Chunki, aniq ko‘rsatmalar rejalar yuqorida berilar edi. Markaziy Osiyo sobiq ittifoq davrida arzon mehnat resurslari, xom ashyo va yarim xom ashyo yetkazib beruvchi mintaqqa hisoblanadi. Regiondagи Respublikalarda iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan tog‘-kon sanoat tarmoqlari paxta va boshqa qishloq xo‘jalik xom – ashysini dastlabki qayta ishlab beruvchi sanoat tarmoqlari shakllandи, rivojlantirildi va o‘ziga xos joylashtirildi. Bu bilan ular sobiq itti-foqning energetika, metallurgiya, kimyo qurilish materiallari, yengil va oziq – ovqat sanoat tarmoqlariga xomashyo yetkazib beruvchi aso-siy iqtisodiy zonaga aylantirilgan edi. Yillar davomida hududdagi Respublikalar ishlab – chiqarish hajmi bo‘yicha sobiq iittifoqning paxta, pilla, qorako‘l terilari, quritilgan va ho‘l mevalar, poliz ekinlari va hamda rangli va qimmatbaho metallar (mis, qo‘rg‘oshin, volfram,

uran, simob, surma, oltin va h.o) kabi qishloq xo'jlaigi va sanoat maxsulotlari ishlab chiqaruvchi rayon bo'lib keldi. Shuningdek neft, tabiiy gaz, elektr energiyasi, paxtachilik ishlab chiqarish majmuasida xizmat qiladigan mashina va asboblar yetkazib berishda ham Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi katta bo'ladi.

Sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududidagi xo'jlik tarmoqlarining ishlab chiqarishda qatnasuv va uning bohsqa hududlaridagi tarmoqlari bilan bog'langan holda olib borilganligi sababli Respublikalarda tarmoqlarni shakkantirish va rivojlantirishda ularga tobiylik sezilar edi. Birgina misol O'zbekistonda samolyot yasatish uchun 1500 dan ortiq kerakli uskunalarini paxta terish mashinasini barpo etish uchun yuzdan ortiq kerakli qismalarni sobiq ittifoqning turli hududlardagi korxonalardan olib kelishga majbur bo'lardi. Bu holatlar Markaziy Osiyo Respublikalarida xo'jalik tarmoqlarining sharoit va ehtiyojdan kelib chiqqan holda barpo etishga to'sqinlik qilib keldi. Bularning barchasi sobiq markazining ko'p yillar davomida olib brogan siyosati edi. Uning oqibatlari istiqlol tufayli Mustaqillikka erishgan Respublikalar iqtisodiyotoni qayta tiklash va rivojlantirishning dastlapki o'tis davrida o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Musatqillik yillarigacha hududdagi davlatlar sobiq ittifoqning 5% sanoat va 16% qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetkazib bergen Markaziy Osiyo mustaqil davlatlar hamkorligidagi davlatlar orasida koproq xom ashyo va yarim xom ashyo maxsulotlari ishlab chiqarishga iqtisoslasjganligi bilan farqlanib turadi. Uzoq yillar davomida regiondagi xop'jalik tarmoqlarining sobiq ittifoqdagi sihlab chiqarish tarmoqlari bilan bog'langanligi hozirgi kunda ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ishlab chiqrish bilan bog'liq ishlarni amlaga oshirish uchun MDHdagi davlatlar bilan shartnomalar tuzish va ularni amalgalarga oshirish kerak. Bular tezkorlik bilan hal bo'ladigan vazifalar emasligini davr taqazo etmoqda. Mustaqil davlatlar hozirgi kunga kelib o'z siyosati, iqtisodiyoti va davlat qurilishini tuzishda o'ziga xos yo'nalish va tamoyillarni belgilab olishgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi 5 ta tamoyil va o'ziga xos yo'nalishlarga asoslanib iqtisodiyotni shakkantirish, rivojlantirish hamda joylashtirishga qaratilgan ishlarni amalgalarga oshirayotir. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich otishga, xo'jalik yuritishda davlat nazoratining ustuvor yo'nalishlarini belgilashga qo'shni va xorijiy davlarlar bilan siyosiy,

iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning tenglik asosida yaxshilshga etibor qaratilmogda. Hududdagi barcha davlatlarda mulkni xususiy-lashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xo‘jalikning o‘z maqsadida vazifasidan kelib chiqqan holda shakllantirish, takomillashtirish hamda ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil qilsih va rivojlantirish uchun regiondagi davlatlar MDH va xorijdagi mamalkatlar bilan hamkorlik qilishga kirishdilar. Nufuzli xalqaro tashkilotlarga, aksionerlik uyushlamalariga a’zo bo‘ldilar. Kredit, investitsiya olmoqdalar, chet el investorlarini jalb qilmoqdalar. Yangi texnik va texnologiyalarni xo‘jalik tarmoqlariga olib kirishmoqdalar. Xo‘jalik yuritishda fan va texnika yutuqlariga kadrlar tayyorlashga etiborini kuchaytirmoqda.

Markaziy Osiyo hududida xo‘jalik tarmoqlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tabiiy, iqtisodiy, va ijtimoiy sharoitlar mavjud. Regionda ayniqlsa, mehnat resurslari zaxirasi yetarli. Gidro energetic, yer, mineral va boshqa resurslar bor. Xom ashyo va yarim xom ashyo maxsulotlar yetkazib berishga iqtisoslanishning o‘rniga maxsusltlarni qayta ishslash va tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashmoqdalar. Markaziy Osiyo xo‘jaligining asosiy tarkibi sanoat va qishloq xo‘jalik hamda ularning tarmoqlaridan iborat. Bu xo‘jalik tar-kiblari va ularning Respublikalar iqtisodiyotidagi hissasi turli tuman bo‘lib, ularning shakllanishi, rivojlanishi va joylashishi Respublikalarning tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy tabiiy, geografik sharoitlar bilan bog‘liq. Bu sharoitlar har bir Respublikada o‘ziga xosdir. Shuning, uchun ham Respublika iqtisodiyotida xo‘jalik tarmoqlarining o‘rni, milliy ishlab chiqarishdagagi salmog‘i turlichadir.

Regiondagi davlatlarning geografik o‘rni, tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoiti geodemografik vaziyati ularning iqtisodiyotini xo‘jalik tarmoqlarining rivojlanishini, ishlab chiqarishni hududiy joylanishini, shuningdek region iqtisodiyotida ularning o‘rnini belgilaydi. Jumladan hozoрги kunda ham MDH davlatlarida ham yetishtiriladigan paxtaning 95% sholi, meva, sabzavod, pilla qorakol terining 45% Markaziy Osiyo davlatlariga to‘g‘ri keladi. Bulardan tashqari ko‘plab rangli metallar, surma, mis, katta miqdorda neft, gaz qazib chiqariladi. Qozog‘istonda 2012 -yilda 80 mln t neft (Rossiyadan so‘ng ikkinchi o‘rinda MDH davlatlari orasida) O‘zbekiston va Turkmanistonda 62,9 va 80 mlrd.m³ gaz qazib chiqarilgan.

(MDHda Rossiyadan keyingi 3-2 o'rinda). Shuningdek, ko'mir qazib chiqarishda Qozog'iston Respublikasi MDH da 3-o'rinda, O'zbekiston dunyoda oltin zarihalari bo'yicha 4-o'rinda, qazib chiqarishda 9-o'rinda (90 tonna) turadi.

Markaziy Osiyo davlatlari qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirishda ham MDH va xorijiy davlatlar orasida o'ziga xos ko'rsatkichlarga ega. Bu borada Qozog'iston va O'zelkiston Respublikalarinig hissalari salmoqli.

Tarixiy Geografiya, Biogeografiya, Madaniyat Geografiysi, Siyosiy Geografiya, Atrof muhit muhofozasi, Iqtisodiy Geografiya, Sanoat geografiysi, Rekreatsion geografiya, Turizm va sport, Tibiiy Geografiya, Qishloq xo'jaligi, Mintaqaviy rivojlanish va rejalash-tirish, Transport geografiysi, Suv resurslari va b⁴.

Regiondag'i davlatlar orasida Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Milliy daromadi aholi jon boshiga hisoblanganda ancha yuqori. Mintaqada xo'jalikning rivojlanish xususiyatlari Respublikalar tanlab olgan tamoyil va yo'nalishlariga bog'liq. Ishlab chiqarishning ko'rsatkichlari tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, va geodemografik vaziyatlar bilan bir qatorda davlatning tanlagan chora-tadbirlari ham muhim ta'sir ko'rsatadi. So'ngi yillar oralig'ida neft, gaz qazib chiqarish, qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, Qozog'istonda neft, gaz qazib chiqarish, don, kartoshka, go'sht va sut yetishtirish miqdorlari kamayib borgan. O'zbekistonda esa aksincha. Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikistonda ham ko'rsatkichlar ko'lami kamaygan. Sut yetishtirish bo'yicha Turkmaniston bir o'z ortda xolos. Markaziy Osiyo Respublikalarida xo'jalikni rivojlantirishda ularning tabiiy geografik sharoitidan tashqari iqtisodiy geografik o'rni muhim ahamiyatga ega. Jumladan Qozog'iston Respublikasining Rosiya Federatsiyasining rivojlangan Volga bo'yisi, Ural, G'arbiy Sibir, Sharqiy Sibir, Iqtisodiy rayonlariga qo'shniliği va yaqinligi dengiz bilan tutashligi, transit, temir, avtomobil, havo yo'llarining bo'lishligi, yer va mineral resurslarga boyligi, tinch va rivojlangan mamlakatlarga chegaradosahligi va boshqalar, uning iqtisodiy jihatdan rivojlanganligini belgilaydi.

⁴ Strahler, Alan H, "Introducing physical geography" (4-6 betlar).

Shuning, uchun ham Markaziy Osiyodagi davlatlar Yevropa, Fors qo‘ltig‘i atrofidagi davlatlarga Hind va Tinch Okeani, qirg‘oq bo‘ylariga chiqishga katta e’tibor berishayotir. Bularning hammasi Markaziy Osiyodagi davlatlarda xo‘jalikni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Sanoati. Barcha respublikalar sanoatida undiruvchi sanoat tarmoqlarining ahamiyati katta. Bu tarmoqlar guruhiga kiruvchi yoqilg‘i-energetika, metallurgiya va kimyo sanoati salmog‘i, ayniqsa, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Turkmaniston respublikalarida ancha katta. Yoqilg‘i tarmoqlari orasida neft sanoatining ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Neftni qazib chiqarishda Qozog‘iston (80 mln. t), O‘zbekiston (5 mln. t) va Turkmaniston (6 mln. t) ajralib turadi. Tabiiy gaz qazib chiqarishda bu respublikalarning imkoniyati yanada kattadir. Bu borada, ayniqsa, Turkmaniston alohida ajralib turadi. Gaz zaxiralari hajmiga ko‘ra u sobiq Ittifoq respublikalari ichida Rossiyadan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Gazni qazib chiqarishda mintaqada Turkmaniston (80 mlrd. km³) va O‘zbekiston yetakchilik qiladi. Bu boyliklarni keng doirada o‘zlashtirish va ularni jahon bozorlariga olib chiqish endigina amalga oshmoqda.

Mintaqa respublikalari (Turkmanistondan tashqari) ko‘mirga ham ancha boy. Elektroenergetika sanoati mintaqaning barcha respublikalarida nisbatan yaxshi rivojlangan. Qozog‘istonda salkam 90 mlrd. kVt/soat, O‘zbekistonda esa 48–50 mlrd. kVt/soat elektroenergiya ishlab chiqariladi.

Metallurgiya sanoati Markaziy Osiyo respublikalarida bir tekis rivojlanmagan. Qozog‘iston bu o‘rinda keskin ajralib turadi (2,0 mln. tonna po‘lat, qo‘rg‘oshin, rux, mis, xrom ishlab chiqaradi). O‘zbekistonda 0,5 mln. tonna po‘lat va ko‘p miqdorda qo‘rg‘oshin, rux, mis, oltin, kumush va boshqa nodir metallar ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoatining mintaqaga respublikalaridagi asosiy o‘rnini qishloq xo‘jaligiga xizmat qilishdir. Shu sababdan, Qirg‘izistonni hisoblamaganda, barcha respublikalarda mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish mazkur sanoat tarmog‘ining bosh ixtisosи sifatida rivojlangan.

Mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy tayanch tarmog‘i hisoblanadigan mashinasozlik sanoati esa mintaqaga respublikalari orasida O‘zbekiston va Qozog‘istonda rivojlangan.

Mintaqaning barcha respublikalarida yengil va oziq-ovqat sanoatlari muhim o‘rin tutadi.

Qishloq xo‘jaligi. Markaziy Osiyo davlatlarining an’anaviy ishlab chiqarish sohasidir. Hudud dehqonchilik tarmoqlari qishloq xo‘jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib beradi. Markaziy Osiyo dehqonchiligining tarkibi respublikalarda bir-biridan farq qiladi. Jumladan, Qozog‘iston, Qирг‘изистонда donchilikning ahamiyati juda katta. Qozog‘iston don yetishtirish va uni eksport qilishda jahondagi eng yirik davlatlardandir. Sug‘orma dehqonchilikka asoslangan O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda esa donchilik bilan birga texnik ekinlar, eng avvalo, paxtachilikning ahamiyati kattadir.

Chorvachilikda mintaqaning deyarli barcha davlatlarida qo‘ychilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Uning ahamiyati, ayniqsa, Qozog‘iston, Qирг‘изистон, O‘zbekiston va Turkmanistonda katta. Qoramolchilik mintaqqa respublikalarining, ayniqsa, aholi nisbatan zinch yashaydigan vodiylarida, industrial markazlari atrof hududlarida ko‘proq rivojlangan. Mintaqada chorvachilikning tuyachilik (Qozog‘iston va Turkmanistonning cho‘l hududlarida), pillachilik, asalarichilik (O‘zbekiston va Tojikistonning tog‘ va tog‘oldi hududlarida), yilqichilik (Qozog‘iston, Turkmaniston, Qирг‘изистон) kabi tarmoqlari ham muhimdir.

Transportida katta maydonli o‘lka bo‘lganligi sababli temiryo‘l, avtomobil va quvur transporti eng ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyo davlatlarini Xitoy orqali Tinch okeani, Eron orqali Fors qo‘ltig‘i, Kavkaz orqali Qora dengiz bilan bog‘lovchi yangi yo‘llar qurilmoqda. Ilgarilari respublikalarning ichki aloqalarini tashkil qilishda xizmat qilib kelgan avtomobil transporti so‘nggi vaqtarda tobora ko‘proq xalqaro iqtisodiy aloqalarda ham samarali xizmat qilmoqda.

Suv transporti tarmoqlari faoliyati mintaqada tubdan cheklangan. Quvur transporti esa tobora rivojlanmoqda. Havo transporti ham barcha respublikalar ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynaydi.

Ichki tafovutlar. Markaziy Osiyo mintaqasini geografk joylashuviga ko‘ra tekislik va tog‘li respublikalar guruhlariga ajratish mumkin. Bunda, asosan, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston respublikalari birinchi, Qирг‘изистон va Tojikiston respublikalari ikkinchi guruhga kiradi. Ammo iqtisodiy-geografk xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli, biz ular bilan O‘zbekistonning qo‘shni respublikalari sifatida alohida tanishib chiqamiz.

Sovet Ittifoqining parchalanishi natijasida mustaqil davlatlar shakllandi. Shu jumladan Markaziy Osiyo zaminida Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston davlatlari tarkib topdi. Ularni Mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va jahondagi juda ko'p mamlakatlar, nufuzli tashkilotlar tan olishdi, diplomatik munosabatlar o'rnatishdi. Tarixi, zamini, etnik kelib chiqishi, dini urf-odatlari, orzu-umidlari, maqsadlari, tabiiy sharoit va resurslari, istiqbol imkoniyatlari bir bo'lgan qozoq, qirg'iz, tojik va o'zbek, turkman va qoraqalpoq halqlari yangi hayot qurishga va bu borada o'zaro hamkorlik, qilishga harakat qilmoqdalar.

Mazkur davlatlar uzoq va yaqin o'tmishda yaqin yaxlit bo'lgan, A.Temur ta'kidlaganidek, ularning mulki Turon, millati turk bo'lgan. Markaziy Osiyo xalqlari jahon fani va ma'daniyatining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan.

XX asrning 90 yillaridan boshlab bu zaminda vaziyat o'zgardi. Dunyo siyosiy kartasida Mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu davlatlar hozirgi kunda va kelajakda ijtimoiy, ma'naviy jihatdan o'zaro bir – biriga yaqinlashishni hamkorlikni parchalanishga qarshi qo'ydilar. Tarixiy va zamin birligi, tenglik asosida iqtisodiy, texnikaviy va madaniy aloqalarni qayta tiklash va rivojlantirishga harakat qilmoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlari ma'lum bvir geografik o'lkada joylashganligi uchun uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari deyarli bir xil bo'lib, ba'zi tomonlardan bir oz farqlanadilar, shuning uchun ham bu o'lkaning tabiatini, tabiiy resurslarini, iqtisodiy va boshqa geografik imkoniyatlarini, davlatlar iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bog'liq boshqa muommolarni alohida – alohida hal qilib bo'lmaydi. Markaziy Osiyo davlatlarida umumiylilik shu qadar ko'pki, uni birlgilikda qarash va birlgilikda yechish davr taqazosidir.

Markaziy Osiyo hududining geografik o'mi va tabiiy resurslarini birlgilikda o'rganish, ulardan foydalanishni hamda muommolarni birlgilikda hal etish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning geografik va iqtisodiy jihatdan taqsimlanishi, mazmuni shi qadar o'ziga xoski, buni yakka tartipda yechib bo'lmaydi. Jumladan Markaziy Osiyoning tabiiy va iqtisodiy, madaniy, ichki va tashqi aloqalari mazmuniga, mohiyatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan: Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, Eron bilan, Kaspiy dengizi bilan bo'lgan che-

gara va qo'shnichilik aloqalarini olaylik. Shimolda Rossiyaning iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan Volga bo'yи, Ural Shimoliy Kavkaz, G'arbiy Sibir kabi yirik iqlisodiy rayonlari bilan bog'langan. Bu ayniqsa Qozog'iston Respublikaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Yoki Markaziy Osiyo davlatlari Kasbiy dengizi orqali Rossiya va G'arbiy Yevropadagi hamda O'rta dengiz bo'yи mamlakatlari bilan bog'lanish imkoniyatlariga egadirlar. Shuningdek, Xitoy orqali Tinch okeaniga, Eron, Afz'oniston, Pokiston orqali Osiyoning janubidagi davlatlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlariga egadirlar.

Markaziy Osiyo hududining g'arbiy qismmini yirik neft-gaz mintaqasi kesib o'tgan. U Sayyoramizdag'i yirik neft-gaz mintaqasi (Fors qo'lting'idan toki G'arbiy Sibirigacha cho'zilgan) tarkibiga kiradi. Shuningdek MDHdagi tabiat resurslarining 2-4%, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 47%, va haydaladigan yerlarning 20% shu o'lkada mavjuddir. Region uchun suv resurslarning tanqisligi xos bo'lib, bu borada Qirg'iziston va Tojikiston qulay imkoniyatga ega.

Markaziy Osiyo davlatlari uzoq yillar davomida xom-ashyo yetkazib beruvchi mavqega ega bo'lgan. 80-yillarda Sobiq SSSR sanoat maxsulotining 5 %, qishloq xo'jalik mahsulotlarini 16 % ini ishlab chiqargan. Shuningdek sanoatda texnologik siklning to'liq darajaga ega emasligi, uning tugallanish darajasi unchalik rovijlanmaganligi bilan ajralib turgan. Shuning uchun ham bularni Mustaqilik yillarda yaxshilash har bir davlatning, qolaversa, shu mintaqadagi barcha mamlakatlarning hal etilishi lozim bo'lgan muommoli vazifasidir.

Resurslarning zahirasi taqsimlanishi ulardan foydalanishni birgalikda olib borishni taqazo etadi. Masalan Amu daryo suvidan foydalanish faqat O'zbekiston uchun emas shu jumladan Tojikiston va Turkmaniston uchun, Sirdaryo suvidan foydalanish faqat O'zbekiston uchun emas, balki Qirg'iziston, Tojikiston Qozog'iston uchun ham muhimdir. Bunday foydalanish barciha tabiat resurslari uchun ham xos. Jumladan Qoraqum va Qziliqum, Kasbiy orol dengizlaridan foydalanish neft va gaz hamda boshqa foydali qazilmalarni qzib olish va ulardan foydalanish Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarning birgalikda hal qilish lozim bo'lgan ishidir.

Yoki qishloq xo'jaligining chorvachilik, donchilik ham texnika ekinlarini rivojlantirish uchun Markaziy Osiyodagi davlatlar o'z'maqsadlaridan kelib chiqqan holda birgalikda ish olib borishlari lozim.

Markaziy Osiyo hududi xilma – xil shakl va ko‘rinishga ega bo‘lgan yer sayyorasining bir qismi bo‘lib, unda kechadigan hodisa va jarayonlar tabiatga, butun borliqqa xos bo‘lgan qonuniyatlar asosida sodir b’oladi. Shulardan biri Markaziy Osiyo hududi bo‘lib, uning asosiy qismi dunyodagi eng katta berk havzaning (Yevroosiyo materigida) markazida joylashgan. Hududda kechadigan hodisa va jarayonlar bekr havzaga xos bo‘lgan qonuniyatlar bilan bog‘liq.

Shuning uchun, berk havzaga xos bo‘lgan qonuniyatlarni bilish ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bilish asosidagina biz Markaziy Osiyo hududidagi ijtimoiy – iqtisodiy va ayniqsa, ekologik muommalarni bartaraft qilishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo hududi umumiylar mnaydoning 90% dan ortiq qismi berk havzadan iborat. Hozirgi kunda bu hududa o‘ziga xos ijtimoiy iqtisodiy va ekologik muommolar vujudga kelgan. Ularning kelib chiqish sabalari unga ta’sir etgan omillarni, shuningdek ularni optemallashrtirish uchun ko‘rilayotgan va qo‘llanilayotgan choratadbirlarning samaradorligini o‘rganish tadqiqotlar olib boorish hozirgi kun taqazosidir. Shu davrning asosiy muomolari Markaziy Osiyo hududida quyidagilardir.

Ijtimoiy demografik muommolar Markaziy Osiyodagi eng muhim muommo bo‘lib hisoblanadi. Chunki Markaziy Osiyo hududida 70 mln dan ortiq kishi yashamoqda. Tabiiy o‘sish aholining zichligi–joylashivi, bilimdonlik darajasi, kasbi, mehnat resurslari bilan ish bilan ta’minlanganligi va boshqa demografik ko‘rsatkichlar Respublikalarda turlicha. Shuningdek iqtisodiyotga rivojlanish darajasi moddiy texnika ba’zasi va ishlab chiqarish texnologiyasi bir xilda emas.

Kishilarning tabiatga va ishlab cjhigarishga bo‘lgan munosabati va ta’siri ham boshqa - boshqa. Ba’zi hududda ishlab chiqarish kuchlari mehnat vositalari xo‘jalik tarmoqlari moddiy texnika ba’za to‘planib qolgan, boshqa bir joyda esa uning aksi. Oqibatda inson – jamiyat tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda nomutanosibliklar bo‘ladi. Bu hol ham tabiiy, ham ijtimoiy ekologik muommolarni vijudga keltirmoqda, buni biz O‘zbekistonda, Qozog‘iston va boshqa Respublikalarda ham ko‘rmoqdamiz.

Iqlim bilan bog‘liq muommolar keyingi 10-15-yil orasida xududda ilish kuzatilmoqda. (CO_2 konsentrasiyasining ortishi va an-

tropogen omillar asosida). Suvga bo‘lgan talab keyingi chorak asrda ortib borayotir. Sug‘orib ekiladigan yerlar maydoni 1,5 barobarga ko‘payib, hozirgi kunda birgina O‘zbekistonda 4,5 mln ga dan ortib ketdi. Oqibatda yirik daryolarimiz suvlari Orolga to‘liq bormayotir. Orol dengizi sathi pasayib bormoqda.

Suvdan holis bo‘lgan yerlar oldingi qirg‘oq chizig‘idan 100-150 km dengiz tomoniga kirib bordi. Natijada harorat 1,5 gradusga ortdi, nisbiy namlik 10-15 %ga kamaydi. Orol dengizining 1960-yildagi maydoni 689000 kvadrat kilometr, suv satxi 53,4 metr bo‘lgan bo‘lsa, 2010-yilga kelib bu kattaliklar 13900 kv km va 31 metrni tashkil etdi. Oqibatda Orol yuzasida taqsimlangan modda va energiya miqdori keskin o‘zgardi. Orol, Orol atrofi va Orol havzasida ekalogik muammolar vujudga keldi.

Yer usti suvlaring ekologiyasida o‘zgarishlar yuz berdi. Agarda daryoni suvi Markaziy Osiyo regionida 125-128 kub/km ni tashkil etgan bo‘lsa, shundan qishloq xo‘jaligida 110 kub/km suv foydalanimoqda. Natijada 35-38 kub km suv yuqori darajada minerallashib qoldi.

Menirallashgan suvlар yana daryolarga va boshqa suv havzalariга quyilmoqda. Sanoat chiqindilari, tashlandiq suvlар toza suvning ifloslanishuviga sabab bo‘lmoqda.

Yer resurslaridan foydalanish va tuproqlarning ekologik holatida ham o‘ziga xos ko‘rsatkichlar mayjud. Tog‘ kon sanoatining rivojlanishi bilan antropogen buzilgan landshaftlar vujudga keldi va kelmoqda. Faqat O‘zbekistonda 1956-1960-yillarda shamol eroziysi natijasida 200.000 hektar maydon paxtazorlar nobud bo‘lgan.

Tuproqqa ishlov berishning qoloq usullaridan foydalanish natijasida tuproqning zinchashuvi kuchaydi, hosildorlik kamayib ketish hollari kuzatilmoqda. Pestisid va miniral o‘g‘itlarning tuproqqa ta’siri ularning miyordidan ortiqcha ishlatalishi natijasida ortib bordi.

Masalan: paxtachilikni rivojlantirish uchun O‘zbekistonda har hektar yerga 300 kg azot, 200 kg fosfor, 110 kg kaliy o‘g‘itlari solinadi. Ayrim joylarda undan ham ko‘p foydalaniladi.

Sug‘orishni to‘g‘ri tashkil etmaslik va suvdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida ham suv resurslarini, sug‘oriladigan yerlarning egologik holati yomonlashdi, chuchuk suv tanqisligi yuzaga kelmoqda. Su’niy sug‘orish natijasida inson tabiatga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Masalan: paxta suvni ko‘p talab qiladi. Har gektar ekin maydoniga 5-8 ming kub metr suv sarf qilinadi. Birgina O‘zbekistonda chigit ekilgan maydon 1,3 mln ga atrofida. Sug‘orish tizimini to‘g‘ri tashkil etmaslik natijasida dala maydonlariga berilayotgan suvning yarmi yetib bormaydi. Mutahassislarining hisoblashlaricha Markaziy Osiyoning ba‘zi bir joylarida meyoriy suvga nisbatan 5-7 marta ko‘p suv sarflanmoqda. Natijada yer shurlanishi kuchaymoqda va ayniqsa O‘zbekiston, Turkmaniston hududlaridagi har 3 ta sug‘orma yerkarda 1 ga sho‘rlangan yer to‘g‘ri keladi.

Chuchuk suv yetishmasligi muammosi turgan bir vaqtida shaharlarda suvdan foydalanish meyorlari oshgan holda buzulmoqda. Me'yorga nisbatan Dushanbeda 1,6 martaga, Toshkentda 2,0 marta dan ko‘p, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 3,0 marta ko‘p chuchuk suv iste'mol qilinmoqda.

Tuproqlarning pasporti (xossa va xusiyatlari tavsiyotlari yig‘indisi) ilmiy asosda o‘rganilmay turib, ularning suvga bo‘lgan talabchanligi hisobga olinmay turib, nazoratsizligi oqibatida behudaga suvlar sarflanmoqda. Natijada yerlarning melliorativ holati yomonla shidi. Jumladan, 1 gektar sug‘oriladigan yerga o‘simgilik turlarini inobatga olgan holda o‘rtacha 7-10 ming kub/metr suv sarflanishi kerak bo‘lgan holda, nazoratsizlik oqibatida Turkmanistonda-20; Qozog‘istonda-17.5; O‘zbekistonda-15; Tojikistonda-14.5 ming kub metr suv sarflanmoqda. Bu kabi salbiy holatlarni va yuzaga kelgan ekologik muammolarni hayvonot olami, o‘simgiliklar dunyosi diqqatga sazovar landshaftlar misolida ham keltirish mumkin va hokozo.

Markaziy Osiyo hududida tabiyat –inson-jamiyat-antropogen landshaft munosabatlarini yurgizishda juda katta extiyotkorlik bilan ish olib borish kerak. Shuning uchun, birinchi navbatda berk havzaga xos bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy qonunlarni bilib olish, ikkinchidan tabiatning insonga, insonning tabiatga, antrapogen landshaftning tabiatga va insonga bo‘lgan ta’siri, sir asrorlarini ilmiy amaliy, tadqiqotlar orqali to‘g‘ri anglab yetish, uchuncuidan tabiiy va ijtimoiy sharoitlarni ilmiy asoslab o‘rganish va pasportini tuzish, to‘rtinchidan ekologik ta’lim, tarbiya va madaniyatni yaxshilash, beshinchidan berk havzadagi hodisa va jarayonlarni, resurslarni dunyo mezoni bo‘yicha baholashni bilish zarurdir.



**III-BOB
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING
REGIONAL TAVSIFI**

**Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston,
Turkmaniston Respublikalari.**

Reja:


1. Qozog'iston Respublikasi.
2. Qirg'iziston Respublikasi.
3. Tojikiston Respublikasi.
4. Turkmaniston Respublikasi.

Qozog'iston Respublikasi



BAYROG'I

GERBI



Qozog‘iston Respublikasi haqida qisqacha ma’lumot:

| | |
|-------------------------|---|
| Rasmiy nomi | Qozog‘iston Respublikasi |
| Poytaxti | Nur-Sulton |
| Hududi | 2,724,902 km ² . Dunyoda 9-o‘rinda |
| Suvlik | 738 km ² , 2,95 % |
| Aholisi | 17 753 200 (2016 yil). Dunyoda 64-o‘rinda |
| Zichligi | 1 km ² joyga 6,51 kishi |
| Davlat tuzimi | Boshqaruvning prezidentlik shaklidagi unitar davlat |
| Davlat tili | Qozoq, rus tili |
| Dini | Islom, masihiylik |
| Pul birligi | Qozoq tenge |
| Mustaqillik kuni | 1991-yil 16-dekabr |
| Katta shaharlari | Olma-Ota, Shimkent, Ostona |
| Prezident | Qosim-Jo‘mart To‘qayev |
| Bosh vazir | Askar Mamin |
| YaIM (XQT) | \$ 458,187 mlrd. Dunyoda 44-o‘rin |
| Jon boshiga | \$ 25912 |
| Internet domen | .kz |
| Qisqartmasi | KZ, KAZ |
| Telefon prefiksi | +7 |
| Vaqt mintaqasi | UTC +5, UTC +6 |
| Chegaralari | Shimolda Rossyaga (chevara uzunligi-6846km), janubda O‘zbekiston (2203km), Qirg‘iziston (1051km) va Turkmaniston (379km), sharqda Xitoy (1521km) bilan chegaradosh. Qozog‘istoning g‘arbiy qismi kasbiy dengizi janubdan Orol dengizi bilan tutash (3000km). Chegaraning umumiyligini 15000 km dan ortiq. |

Qozog'iston Respublikasi ma'muriy-hududiy bo'linishi
1-yanvar 2018-yil

| Qozog'iston Respublikasi | Hududi ming km ² | Tuman | Shahar | | Aholi manzillari | | Aholi soni | Aholi zinchligi, 1km ² kishi |
|--------------------------|-----------------------------|-------|--------|---------------------------------------|----------------------------|------------|------------|--|
| | | | Jami | Respublika va viloyatga bo'yshunuvchi | Shahar tipidagi qishloqlar | Qishloqlar | | |
| Umumiy | 2724,9 | 177 | 87 | 40 | 30 | 6 693 | 18157078 | 6,5 |
| Akmola | 146,2 | 17 | 10 | 2 | 5 | 614 | 744386 | 5,1 |
| Aktobe | 300,6 | 12 | 8 | 1 | - | 372 | 834768 | 2,8 |
| Almata | 223,6 | 16 | 10 | 3 | - | 731 | 1947481 | 8,7 |
| Atirau | 118,6 | 7 | 2 | 1 | - | 165 | 594562 | 5,0 |
| G'arbiy Qozog'iston | 151,3 | 12 | 2 | 1 | 3 | 443 | 636852 | 4,2 |
| Jambil | 144,3 | 10 | 4 | 1 | - | 373 | 1110907 | 7,7 |
| Karaganda | 428,0 | 11 | 11 | 9 | 10 | 421 | 1384889 | 3,2 |
| Kostanay | 196,0 | 16 | 5 | 4 | 3 | 590 | 883640 | 4,5 |
| Qizilo'rda | 226,0 | 7 | 4 | 2 | 2 | 261 | 765171 | 3,4 |
| Mangistau | 165,6 | 5 | 3 | 2 | - | 61 | 626793 | 3,8 |
| Janubiy Qozog'iston | 117,3 | 15 | 8 | 4 | - | 836 | 2841307 | 24,2 |
| Pavlodar | 124,8 | 10 | 3 | 3 | 4 | 401 | 758479 | 6,1 |
| Shimoliy Qozog'iston | 98,0 | 13 | 5 | 1 | - | 673 | 569446 | 5,8 |
| Sharqiy Qozog'iston | 283,2 | 15 | 10 | 4 | 3 | 752 | 1395797 | 4,9 |
| Astona shahri | 0,7 | 3 | 1 | 1 | - | - | 872619 | 1246,6 |
| Olmata shahri | 0,7 | 8 | 1 | 1 | - | - | 1703482 | 2433,5 |

Qozog'istonning madaniyati va tarixi ko'p ming yilliklarda shakllangan va rivojlangan. Hozirgi Qozog'iston hududida miloddan avvalgi 4-1-ming yilliklarda qabilalar yaylov chovachiligi bilan shug'ullanishgan. Eramizdan oldingi III-I asrlarda Qano davlati vujudga kelgan. Milodning VI-VII asrlarida Turk xoqonligi, Ili va

Chuv daryolari havzasida turgashlar, keyinchalik qarluqlar davlati (766-940) tashkil topgan, hunarmandchilik, savdo rivojlandi, shaharlar (Toroz) paydo bo'ldi. Qozog'istonning janubida VIII-X asrlarda islom dini tarqaldi, IX-XI asrlarda Qozog'istonning g'arbiy va janubi-g'arbiy hududlari o'g'uzlar tarkibida bo'lган. X asrning birinchi yarmida Yettisuvda qarluqlar xoqonligi parchalanib, uning o'mida qoraxoniylar davlati vujudga keldi. 1219-21-yillarda Qozog'iston mo'g'ullar tomonidan bosib olindi va mo'g'ul uluslari tarkib topdi - Jo'ji, Chig'atoy, so'ng Oq o'rinda hayot boshlandi. Keyinchalik Amir Temur To'xtamishga qarshi yurish qildi (1391), so'ng oradan 200 yil o'tgach Abdullaxon II ham dashti Qipchoqqa yurish qildi. XIV asr oxiri-XV asr boshlarida Oq o'rda, No'g'ay o'rda, o'zbek xonligi kabi bir necha mulklarga bo'linib ketdi.

Manbalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, qozoqlarda davlatchilik 1470-yilda shakllangan. Yettisuv va Chuv daryo vodiy-sida qozoq sultonlari Jonibey va Gireylar ko'p sonli elatlarni «Qozoq» urug'iga birlashtirdilar. XVI asr boshlarida Qosimxon boshchiligidagi (1511-1523) qozoq xonligi mustahkamlandi, chegaralari kengaydi, qozoq elatinining shaklianishi nihoyasiga yetdi, aholi soni ortdi. Xonlikni Osiyo va Yevropadagi mamlakatlar yaxshi bilishgan. Keyinchalik qozoq xonligi juzlarga bo'linib, Katta juz (Yettisuv), O'rta juz (Markaziy Qozog'iston) va Kichik juz (g'arbiy Qozog'iston) deb atalgan. 1716-yilda qozoqlarning oxirgi xoni - Taukexak o'lishi bilan Qozog'iston hududida mustaqil ko'p sonli xonliklar vujudga keldi.

1729-yilda Jung'oriya xonligi Katta juzning ko'p qismini bosib oldi. Xavf ostida qolgan Kichik juz oqsoqollari 1721-1731 va 1731-1740-yillarda O'rta juzning xon va sultonlari Rossiya podsholigiga murojaat qilishib, ularni Rossiya tarkibiga qo'shib olishlikni so'rashdi. Murojaat qabul qilindi. Qozog'iston hududining janubiy qismlari Qo'qon va Xiva xonliklari tarkibiga kirdi.

Qozoq madaniyati, iqtisodining rivojlanishida qozoq-rus munosabatlari muhim ahamiyatga ega. 1860-yilda qo'qon xonligi yengilib Yettisuvning barcha qismi Rossiyaga qo'shib olindi. Podsho hukumati 1867-yilda. Turkiston general-gubematorligi tarkibida Yetisuv va Sirdaryo viloyatlari, 1868-yilda Orenburg general-gubematorligi tarkibida O'rol va To'rg'ay viloyatlari, g'arbiy Sibir general-guber-

natorligi tarkibida Akmolinsk va Semipalatinsk viloyatlarini tashkil etdi. Qozog'iston Rossiya sanoati uchun o'z tovarlarini sotish bozori va xomashyo bazasi bo'lib qoldi.

1917-yil noyabr-1918-yil fevralda Qozog'istonda sovet hokimiyyati o'rnatildi. Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari Turkiston ASSR tarkibiga kiritildi. 1920-yil 26-avgustda RSFSR tarkibida Qirg'iziston ASSR tuzildi. 1920-yil 4-12-oktabrda SSSR tarkibida Qozog'iston ASSR tuzildi, poytaxt Qizilo'rdaga ko'chirildi. 1929-yil mayda poytaxti Olmaota shahriga ko'chirildi. 1936-yilda SSSR tarkibidagi Ittifoqdosh Respublikaga aylantirildi. 1990-yil 25-oktabrda davlat suvereniteti to'g'risida deklaratsiya qabul qilindi. 1990-yil 10-dekabrda Qozog'iston Respublikasi deb nomlangan bo'lsa, 1991-yil 16-dekabrda Respublika Oliy Kengashi davlat mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qildi.⁵ Milliy bayrami 16 dekabr Mustaqillik kuni (1991). Davlat boshlig'i -prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat -2 palatatlari Parlament (Senat va Majlis). Ijroiya hokimiyat -Bosh vazir boshchiligidagi hukumat.

Qozog'istonning geografik joylanishi, tabiiy sharoiti va resurslari. Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimolida joylashgan bo'lib, shimolda Rossiya, janubda Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmamston Respublikalari, sharqda Xitoy bilan chegaradosh, g'arbda Kaspiy dengiziga tutashgan. Dunyo okeanlaridan O'zbekiston bilan deyarli bir xil uzoqlikda joylashgan. Respublikaning eng chekka shimoliy nuqtasi $55^{\circ} 26'$ shimoliy kenglikka, janubi esa $40^{\circ} 56'$ shimoliy kenglikka to'g'ri keladi. Chegarasining umumiyligi 15.000 km dan ortiq bo'lib, uning 12.000 km quruqlikka, 3.000 km dan ortiq qismi Kaspiy va Orol dengizlari qirg'og'iga to'g'ri keladi.


Qozog'iston mo'tadil mintaqaning O'rta va janubiy kengliklari da joylashgan. Uning yer yuzasi xilma-xil bo'lib, g'arbda Kaspiybo'yи pasttekisligi, Mang'ishloq yarim oroli (eng past botiq - Qoragiyo -132 m), undan sharqda Ustyurt platosi joylashgan. Shimol va shimoli g'arbda Urol tog'lariniug janubiy tarmoqlari mavjud. Qozog'iston hududida To'rg'ay platosi, Turon pasttekisligi, Katta va Kichik Bo'rsiq qumli cho'llari va Orolbo'yи Qoraqumi mavjud.

5. Қазақстан Республикасының президентинин жас түзелеше шайдалас меш – Қазақстан Республикасының азаматтығын. Қоғозистон -2019. С-95-96

Shuningdek, Qozog'istonda past tog'lar, Betpaqdala va Mo'yinqum cho'llari joylashgan. Respublikaning sharqi va janubi-sharqida Oltoy tog'larining janubiy tarmoqlari, so'ng Saure (3805 m), Tarbog'atoy (2922 m), Juno'oriya Olatovi (4463 m), Shimoliy va g'arbiy Tyanshanning Kungay, Qirg'iziston, Qorjontog', Qoratog' tog' tizmalari joylashgan.

Qozog'iston hududining katta qismi proterozoy va paleozoy, burmalanishiga mansub geologik tarixiy yoshga ega bo'lib, foydali qazilmalarga boy o'lka. Foydali qazilmalardan: magnetit rudalari, mis konsentranti, qo'ng'ir temirtosh, toshko'mir, qo'ng'ir ko'mir, neft, gaz, yonuvchi slanes, nikel, xromit, oltin, marganes, temir, alyuminiy, qalay rudalari, mirabilit, flyuoril va boshqa. rudali va norudali qazilmalar bor. Respublikada toshko'mir va qo'ng'ir ko'mirning 155 tadan ortiq konlari bor bo'lib, ularning umumiy zaxirasi 160 mlrd. tonnadan ortiq. Temir ruda zaxirasining 86%i Shimoliy Qozog'istonda joylashgan. Xromning zaxirasi va uni qazib olish bo'yicha Qozog'iston dunyoda birinchi o'rinda turadi.⁶

Qozog'iston



foydali qazilma boyliklari (tonna)

⁶ Қазақстан республикасының президенттін жас түлекке сыйлағы мен – Қазақстан республикасының заманымын. Қоғыстон -2019. С-46

Qozog'istonning iqlimi keskin kontinental. Respublikada 10°C dan ortiq haroratlar yig'indisi shimolda 2000-2100°C dan janubda 4300-45000° C gacha. Shimoliy rayonlarda vegetatsiya davri 130—135 kun, janubda 180-200 kun davom etadi. Yanvarning O'rtacha hararati shimolda -18°C bolsa, janubda -3°C. Shimoliy va markaziy rayonlarda hararat -45°C va -35°C gacha bo'ladi. Yoz shimolda iliq, janubda issiq. O'rtacha hararat shimolda 19°C, janubda 28-30°C. Yiilik yog'in miqdori dasht va o'rmon dashtlarda 250-400 mm, cho'1 va chalacho'lda 100-200 mm. Orolbo'yı Qizilqumi va Ustyurt: janubida 100 mm dan kam. tog'oldi va tog'larda yillik yog'in 400-1600 mm. Tog'larda umumiy maydoni 2000 km² atrofida bo'lgan 2700 dan ko'proq katta-kichik maydonni qoplagan muzliklar bor.

Qozog'istonda daryolar ko'p bo'lib, ularning ko'pchiligi Kaspiy, Orol dengizlari, Balxash ko'li berk havzalariga, Irtish va uning immoqlari esa shimoliy Muz okeani havzasiga kiradi. Asosiy daryolari-Irtish, Urol, Chuv, Ili, Sirdaryodir, Chordara, Buxtarma, Qopchig'ay kabi suv omborlari bor. Respublikada umumiy maydoni 45 ming km² bo'lgan ko'llar bor. Bular: Balxash, Zaysan, Tengiz, Olako'l, Sassiqko'l, Marqako'l va boshqalar. Hududda yer osti suv zaxiralari ko'p. Maydoni 50 ming km² atrofida. Qizilqum ostida 80-300 m chuqurlikda juda katta havza topilgan.

Qozog'iston tuproq resurslariga boy emas. Namlik ozua elementlarining yetishmasligi, sho'rланishning ko'pligi natijasida xo'jalikda ko'p joylardan foydalanimaydi. Shimolda 52' shimoliy kenglikkacha qoratuproq, 45°-52° shimoliy kengliklar orasida kashtan tuproq, undan janubda qo'ng'ir va bo'z-qo'ng'ir cho'l tuproqlar joylashgan. Shuningdek, qumli vataqir tog' qo'ng'ir, tog' kashtan, bo'z o'rmon, tog' o'tlog'i, subalp va alp tuproq tiplari mayjud.

Respublikada 15 ming turdan ortiq o'simliklar bor. Cho'l, chalacho'l va dasht o'simliklari: qora saksovul, shuvoq - hoqli, tol, ching'il, qamishlar o'sadi. Tekislik va tog' oldilarida efemer va efermeroidlar, tog' yonbag'rlarida na'matak. zirk, mevali daraxtlar o'sadi. Tog'lar igna bargli o'rmonlar, tog' tepalari subalp va alp o'tloqlaridan iborat. Shifobaxsh o'simlik turlari 250 dan ortiq.

Qozog'stonda sutemizuvchilarning 180 turi, qushlamning 500 turi, sudralib yuruvchilaming 52 turi, suvda 'va quruqda yashovchilarning 12 turi, baliqlarning 10 turi yashaydi.

Mamlakat yer resurslari zaxirasiga boy. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 222 mln ga atrofida, shundan yaylovlar 180 mln.ga, pichanzorlar 5,6 mln ga, haydaladigan yerlar 35 mln ga. Aholi jon boshiga hisoblaganda shudgor qilinadigan yerlar Qozog'istonda -2,3 ga; O'zbekistonda-0,18 ga teng.

Qozog'istonda ekologik muammolar ko'p. Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Respublikada Oqsuv, Jabalg'a, Olmaota, Borsakelmas, Qurg'alja, Marqako'l, Naurzum qo'riqxonalari, Bayenovul Milliy bog'i bor.

Aholisi va mehnat resurslari. Davlat maqomini beruvchi «qozoq» etnonimining kelib chiqishi haqida tarixchilar, etnograflar, lingvistlar turlicha fikr yuritishadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha «qozoq» etnonimi turkiy so'zdan olingen bo'lib, «erkin odam» ma'nosini anglatadi. Qozoqlar erkin, ozod yashashga harakat qilishgan, ko'chmanchi bo'lgan, chorva bilan shug'ullaniganlar, ko'p sonli hayvonlar, boy yaylov larga, mahsuldor yerlarga ega bo'lishgan.

Qozog'iston Respublikasida shahar va qishloq aholisining ta'lim darajasi quyidagicha:


| | Oliy ta'lim | O'rta maxsus | Boshlang'ich, o'rta ta'lim |
|-----------------|-------------|--------------|----------------------------|
| Qishloq aholisi | 18,7 | 32,4 | 49,0 |
| Shahar aholisi | 41,0 | 38,0 | 21,0 |
| Jami aholi | 29,1 | 33,3 | 37,6 |

Sobiq ittifoq davrida Qozog'iston hududida demografik vaziyatlarda ancha o'zgarishlar ro'y bergan. Aholining umumiy soni 1926-yilda 6,5 mln, 1956-yilda 13,0 mln, 1989-yilda 16,8 mln kishini tashkil etgan. Milliy tarkibida ruslarning soni ko'p bo'lgan.


Qozog'iston Respublikasida 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Aholining umumiy soni bo'yicha MDH davlatlari ichida to'rtinchisi, MOD orasida ikkinchi o'rinda, aholi zichligi bo'yicha oxirgi o'rinda turadi. Mustaqillik yiklarida aholi soni kamaydi. Masa-lan, 1997-yilda 15,5 mln kishi bo'sa, 2005-yilda 15,0 mln kishiga

tushib qildi. 2016-yilda esa 17713784 kishiga yetdi. Bu hol tabiiy o'sishning kamayishi va tashqariga migrantsiyaning ortishi bilan bog'liqidir. Respublikada aholining joylashuvi va zichligida ham farqlanishlar bor. Shimoliy va Janubiy hududlarda aholi zich, g'arbiy va Markaziy hududlarda aholi siyrak. O'rtacha zichlik 1 kv km ga 6,5 kishiga, janubdag'i tog'oldi hududlarda 150 kishiga to'g'ri keladi.

Aholining milliy tarkibi ham o'ziga xos bolib, jumladan, 1959-yilda umumiyligi aholining 32,5% ini qozoqlar, 42,4% ini ruslar, 7,2% ini ukrainlar, 6,6% ini nemislar va qolgan qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan bo'lsa, 1997-yilda qozoqlar 50,7% ni, ruslar 32% ni, ukrainlar 4,5%, o'zbeklar 2,3% ni, qolgan qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan. 2015-yil ma'lumoti bo'yicha qozoqlar 66,01%. Qozog'istonda tabiiy o'sish jihatidan MOD ichida eng kam.



Ishsizlar soni va ishsizlik darajasining o'zgarishi



2015-yilda yosh guruhlari bo'yicha ishsiz aholi

Respublikada shaharlashuv jarayoni katta. Aholining 57,1% i shaharlarda, 42,9% i qishloqlarda yashaydi. Sobiq ittifoq davrida Qozog'istonda 200 dan ortiq yangi shahar va qishloqlar bunyod etildi. Qarag'anda, Temirtov, Balxash, Jezqazg'an, Toroz, Ekibastuz va boshqalar. Yirik shaharlari: Olmaota, Qarag'anda, Chimkent, Pavlodar, Semipalatinsk. Keyingi yillarda aholini Markaziy va g'arbiy hududlarda joylashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Qozog'istonda sanoat tarmoqlarining, transportning va, ayniqsa, tog'-kon sanoati, yoqilg'i-energetika tizimining rivojlanishi aholining shaharlarda ko'proq taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bu, shuningdek, yoshlaming sanoat mehnatiga intilishi bilan bog'liq. 1985-1990-yillarda xalq xo'jaligi ishlab chiqarishda jami aholining 37% ish bilan band bo'lgan. Band aholining 47% i xotin-qizlardir.

Xo'jaligi. Qozog'iston -industrial agrar mamlakat. Yalpi ichki mahsulotning 37,9% i sanoatga, 18,1% i savdo va umumiy ovqatlanishga, 5,2 % i qishloq xo'jaligiga, 11,8% i transport va aloqaga, boshqa qismi xizmat sohalari hissasiga to'g'ri keladi.

Respublika xo'jaligini rivojlantirish uchun hududda juda katta imkoniyatlar mavjud, chunonchi, Qozog'iston katta yer maydoniga ega, uning ko'p qismi unumdar yerdan iborat. Sobiq ittifoq davridayoq xo'jalikka yaroqli yerlarning 33% i qishloq xo'jaligida, 54% i yaylovchilikda foydalanilgan edi. 16% haydaladigan yerlar hisoblanadi. Shuningdek, foydali qazilma konlar-rangli, qora va nodir metallar, neft, gaz va ko'mir, noruda xomashyolar juda ko'p. Qo'rg'oshin, xromit, kumush, volfram, vannadiy, boksit zaxiralari bo'yicha MDH davlatlari orasida birinchi; mis, fosforit, molibden va asbest ishlab chiqarishda ikkinchi; ko'mir, temir rudasi va elektroenergiya, oltingugurt kislotasi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Iqtisodiy ishlab chiqarish ko'rsatkichining hajmi jihatidan MDH davlatlari orasida Rossiya va Ukrainadan so'ng uchinchi o'rinda turadi.

Xo'jalikning asosiy tarmog'i -sanoat. Sanoatda yoqilg'i-energetika, qora va rangli metallurgiya, oziq-ovqat, mashinasozlik va metalIsozlik, kimyo va neft kimyosi, yengil, qurilish materiallari sanoati yetakchi tarmoqlar hisoblanadi.

Yoqilg'i-energetika sanoati 2 tarmoqdan: yoqilg'i va elektroenergiysi ishlab chiqarish sanoatidan iborat. Qozog'istonda 130 mln t atrofida ko'mir qazib olinadi, 400 ga yaqin toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir konlari mavjud. Asosiyлари Qarag'anda ya Ekibastuz havzasi. Neft zaxirasi bo'yicha Qozog'iston dunyoda 5-o'rinda turadi. Eng katta zaxirasi Kaspiy bo'yи va dengiz shelfidadir. (1 mlrd t). Mustaqillik davrida bir yilda 27 mln neft qazib olingan. Respublikada hozir bir yilda 8,0 mlrd m³ gaz olinmoqda.

Respublikada 8 ta GRES, 50 ta issiqlik elektr markazi, 20 ta GES va Ita AES ishlab turibdi. 1997-yilda 80 mlrd kvt/soat elektr en-

ergiyasi ishlab chuqarildi. Keyingi yillarda o‘rtacha 58,6 mlrd kvt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Elektrenergiyasining 80% i issiqlik elektrostansiyalariga to‘g‘ri keladi. Ust-Kamenogorsk, Buxtarma, Chordara, Qopchig‘ay GES lari bor. Mamlakatda yoqilg‘renergetika sanoatini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan choratadbirlar natijasida 1997-yilda 1996-yilga qaraganda gaz sanoatida o‘sish 20,3% ga, neft qazib olish 11,2%, gaz sanoati 20,3% ga ortdi.

Yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

| | 2013 | 2014 | 2015 |
|--|-------------|-------------|-------------|
| ko‘mir konsentrati jumladan ko‘mir, mln. tonna | 119,6 | 114,6 | 107,3 |
| Neft jumladan gaz kondensati, mln tonna | 81,8 | 80,8 | 79,5 |
| Tabiiy gaz mlrd m ³ | 42,2 | 43,2 | 45,3 |
| Elektrenergiya mlrd KvT soat | 92,6 | 94,6 | 91,6 |

Metallurgiya. Xalqaro mehnat taqsimotida rangli metallurgiya sanoati yetakchi tarmoq hisoblanadi. Rudali Oltoy, Sharqiyl va Markaziy Qozog‘stonda qo‘rg‘oshin, rux, mis, oltia, kumush, indiy, surma konlari mavjud. Mis Balxash va Jezqazg‘anda, qo‘rg‘oshin-rux Ust-Kamenogorsk, Chimkentda, alyuminiy Pavlodorda va boshqa joylarda olinadi. 1997-yilda rangli metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish 1996-yilga qaraganda 15,2% ga ortdi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan rangli metallarning 47% i qo‘rg‘oshin, rux, 30% i mis, 8% i titan, magnetit, volfram, molibden sanoati tarmoqlariga to‘g‘ri keladi.

Qora metallurgiya sanoati keyingi yillarda rivojlantirilmoqda. Yennakda, Oqto‘ba ferroqotishmalar zavodi, Sokolov-Sarbay, Lisa-kovsk, Kacharskda tog‘ rudani boyitish kombinatlari ishlab turibdi. Qora metallurgiya sanoatining asosiy markazlari Temirtov, Oqto‘ba, Qarag‘anda, Oqsuv shaharlaridir.

Mashinasozlikning asosiy tarmoqlari temirpress uskunalar, stanok, ekskavator, traktor, qishloq xo‘jalik va kimyo sanoati mashinalari ishlab chiqarish bo‘lib, asosiy markazları Qarag‘anda, - Olmaota, Pavlodar, Ust-Kamenogorskda korxonalaridir.

Kimyo sanoati uchun respublikada yetarli miqdorda fosforit, osh va kaliy tuzlari, neft, gaz mahsulotlari, oltingugurt hamda metalluriya chiqindilari mavjud. Qozog'istonda sariq fosfor, ammosof, oltingugurt kislotasi, karbit, sintetik kauchuk, plastmassa, soda, mineral o'g'tlar, sintetik kauchuk, kimyoviy tolalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Yirik markazlari: Qoratov, Chimkent, Toroz, Aterov, Pavlodar va Atirovda neftni qayta ishlash zavodlari bor.

Qurilish materiallari sanoatida: sement, ohak, g'isht, temir-beton konstruksiyalari; yengil sanoatda: terimo'yna, ko'n-poyabzal, jun, ip-gazlama; oziq-ovqat sanoatida: go'sht, yog' qandshakar, konserva va boshqa tarmoqlar rivojlangan. Asosiy markazlari: Olmaota, Qarag'anda, Paylodar, Oqto'ba, Toroz, Jezqazg'an, Semipalatinsk, Kustanay, Ostana va boshqa shaharlardir. Keyingi yillari yengil sanoat 5,3% ga, oziq-ovqat sanoati 28,0% ga ishlab chiqarishni ko'paytirdi.

Qishloq xo'jaligi. Sobiq ittifoq davrida Qozog'iston go'sht, jun va don yetkazib beruvchi asosiy region hisoblangan. 1954-1960-yillarda qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi bilan Qozog'iston g'alla yetishtiruvchi yirik respublikaga aylandi. Mamlakat huduning 44% i dan foydalaniлади. Biroq 1990-1995-yillarda ekin maydonlari 38% ga qisqardi. (13,2 mln ga). Shu yillarda qandlavlagi, kungaboqar, kartoshka, poliz ekinlari, go'sht, sut, tuxum ishlab chiqarish bir necha foizga pasaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish potensiali 2 barobar qisqardi. Buning asosiy sababi mulkchilik shakllari va masalasini to'g'ri hal qilmaslik, shuningdek, qishloq aholisining migratsiyasi (nemislarning ketishi) bilan bog'liq.

1995-yildan so'ng bu borada qatiy choralar ko'rildi va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida va ishlab chiqarishda birmuncha siljishlar bo'ldi. Olmaota, Toroz, g'arbiy Qozog'iston, Shimoliy Qozog'iston xo'jaliklarida go'sht, sut, tuxum yetishtirishda o'sishlar bo'ldi.

Qozog'istonda qishloq xo'jaligida foydalanimagan yerlarning 19% i haydaradi, 1% ga yaqini sug'oriladi. Dehqonchilikda g'alla-chilik yetakchi tarmoq hisoblanadi. Shuningdek, paxta, kungaboqar, zig'ir yekiladi, tokchilik, polizchilik rivojlangan. Chorvachilikda qoramol, cho'chqa, qo'y va echki, uy parrandasasi, tuya va yilqi boqiladi. Bahorgi bug'doy ko'p yetkaziladi. Kuzgi bug'doy, makka-

jo‘xori, kuzgi va bahorgi arpa ekiladi. Qishloq xo‘jalik ekinlari turi, chorvachilik tarmoqlarining joylanishi respublikaning tabiiy sharoiti, ayniqsa, agroiqlimiylar bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq.

Qozog‘iston Respublikasining 2015-yildagi un eksporti (%)

| | | | |
|---------------------|------|-------------------------|------|
| Afg‘oniston | 42,7 | O‘zbekiston | 44,9 |
| Qirg‘iziston | 2,5 | Boshqa davlatlar | 2,4 |
| Tojikiston | 7,5 | | |

Qozog‘iston Respublikasining 2015-yildagi bug‘doy eksporti (%)

| | | | |
|---------------------|------|-------------------------|------|
| Rossiya | 10,8 | Eron | 5,1 |
| Qirg‘iziston | 10,0 | O‘zbekiston | 36,4 |
| Tojikiston | 23,4 | Boshqa davlatlar | 14,3 |

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Respublikada barcha transport turlari mavjud bo‘lib, temir va atomobil yo‘llari meridional va uzunlik yo‘nalishlari bo‘yicha tashkil etilgan. Temir yo‘llarning uzunligi 15341 km, avtomobil yo‘llarining uzunligi 96529 km, shimolda asosiy temir yo‘l Petropavlovskdan o‘tadi. Magstral quvur yo‘llarining umumiy uzunligi 23275,7 km.

Kokchatov – Kustanay va Pavlodar—Ostona—Tobol yo‘nalishi. 1991-yilda Qozog‘ston Xitoy bilan, 1993-yilda Eron Turkiya bilan bog‘landi. Kaspiy Orol dengizlarida, Balxash ko‘li, Irtish, Uralda daryo kemalar qatnaydi. Mamlakatda 314 ta aeroport mavjud bo‘lib, shundan 67 tasi qattiq qoplamga ega. «Eyr Qazaqstan» havo yo‘llari kompaniyasi mavjud. Havo transporti Gemraniya, Turkiya, Eron, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan bog‘langan. Truboprovod va elektron transport turlari rivojlangan.

Transport tarmog‘ida 2015-yil bo‘yicha 21839,1 mln kishi tashilgan bo‘lsa, 3733,8 mln tonna yuk tashilgan.

Sobiq ittifoq davrida Qozog‘iston xomashyolarni eksport, tayyor buyumlarni import etishga moslashgan edi. Mustaqillik yillarda bu jarayon o‘zgardi. Tashqi savdoda Rossiya, Ukraina, Qirg‘iziston, o‘zbekiston, Germaniya, Xitoy va boshqa davlatlar bilan hamkorlik qiladi. Neft va neft mahsulotlari (58%, 2001), ferroqotishma va

metallar (24%), kimyo mahsulotlari (596), mashinasoziik (3 %), shuningdek, don, o'rmon, ko'mir, go'sht va boshqalar eksport qilinadi, mashnasozlik mahsulotlari vajihozlari (41 %, 2001), metall buyumlar (28%), oziq-ovqat mahsulotlari (8%) import qilinadi. Aso-siy savdo hamkorlari Rossiya (15% eksport, 35% import); Xitoy (10% eksport va 1.5% import); Germaniya (11%, eksport va 8% import); Fransiya (7% eksport va 6% import); Ukraina va boshqalardir.

Transport turlari bilan yuk tashish va yuk aylanmasi

| | 2013 | 2014 | 2015 |
|-------------------------------------|---------|---------|---------|
| yuk tashish mln.tonna | | | |
| Barcha transport turlari | 3 508,0 | 3 749,8 | 3 733,8 |
| shu jumladan: | | | |
| temir yo'l | 293,7 | 390,7 | 341,4 |
| Avtomobil | 2 983,4 | 3 129,1 | 3 174,0 |
| Daryo | 1,1 | 1,3 | 1,2 |
| Dengiz | 4,0 | 3,6 | 2,5 |
| Havo | 0,02 | 0,02 | 0,02 |
| gaz quvuri | 225,9 | 225,0 | 214,6 |
| yuk aylanmasi mlrd. tonna km | | | |
| Barcha transport turlari | 495,4 | 554,9 | 546,3 |
| shu jumladan: | | | |
| temir yo'l | 231,3 | 280,7 | 267,4 |
| Avtomobil | 145,3 | 155,7 | 16119 |
| Daryo | 0,03 | 0,03 | 0,03 |
| Dengiz | 2,7 | 2,5 | 1,6 |
| Havo | 0,06 | 0,05 | 0,04 |
| gaz quvuri | 116,0 | 116,0 | 115,4 |

Qozog'iston Respublikasi tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari (mlrd dollar)

| | 2013 | 2014 | 2015 |
|----------------------------|-------------|-------------|-------------|
| Ekspoprt | 44,1 | 37,4 | 27,8 |
| Import | 76,3 | 73,2 | 42,8 |
| Tovar aylanmasi | 120,4 | 110,6 | 70,6 |

Iqtisodiy geografik rayonlari: Qozog'iston 5 ta iqtisodiy rayonga ajratilgan:

1. Shimoliy Qozog'iston. Kustanay, Ko'kchatov, Pavlodar, Shimoliy Qozog'iston, Ostona viloyatlari kiradi. Respublika hududining 20,9%, aholisining 27,2% i to'g'ri keladi. 49% aholi shaharlarda yashaydi. Elektroenergetika, qora va rangli metallar qazib olinadi. Don yetishtirishga va chорvachilikka ixtisoslashgan. Bu rayonda Pavlodar-Ekibastuz. hududiy ishlab chiqarish kompleksi (HICHK) mavjud.
2. Sharqiy Qozog'ston (Semipalatinsk viloyati). Respublika hududining 10,2%, aholisining 10,8% i to'g'ri keladi. 57% aholi shaharlarda yashaydi. Rangli melallurgiya, gidroelektronika, don yetishtirishga iqtisoslashgan. Chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari qayta ishlanadi. Rekreatsion resurslarga boy.

3. Markaziy Qozog'iston (Qarag'anda va Jezqazg'an viloyatlari). Respublika hududining 15,9% i, aholisining 11,4% to'g'ri keladi. 82% aholi shaharlarda yashaydi. Yirik ko'mir va temir rudasi havzalari ravjud. Rangli metallurgiya, mashinasoziik, kimyo sanoati rivojlangan. Jezqazg'an-Balkash HICHK sanoat mahsulotining 1/5 qisimini beradi.

4.G'arbiy Qozog'iston (Oqtepa, g'arbiy Qozog'ston, Mang'ishloq, Atirau viloyatlari). Respublikaning 26,9% hududi ni, aholisining 12,7% ini tashkil etadi. 58% aholi shaharlarda yashaydi. Mamlakatning asosiy neft, gaz mintaqasi. Kimyo sanoati, xrom va nikel qazib chiqarish, chорvachilik, baliqchilik rivojlangan.

5. Janubiy Qozog'iston (Olmaota, Toroz, Qizilo'rda, Toldiqo'rg'on, Chimkent viloyatlari). Respublika hududining 26,1%, aholisining 37,9% i shu rayonda, 42% aholi shaharlarda yashaydi.

Rangli metallurgiya, kimyo sanoat tarmoqlari mavjud. Mashinasoziik tarmog'i bor. Paxtachilik, qand lavlagi yetishtirish, sholi ekish, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanishadi. Chimkent va Qoratov-Toroz HICH Ki bor.


Qirg'iziston Respublikasi



BAYROG'I

GERBI

Qirg'iziston Respublikasi xaritasi



- | | |
|-------------------|---------------|
| 1. Bishkek shahri | 7. Talas |
| 2. Batken | 8. Issiq-Ko'l |
| 3. Chuy | 9. Osh shahri |
| 4. Jalol-Obod | |
| 5. Norin | |
| 6. Osh | |

Qirg'iziston Respublikasi haqida qisqacha:

| | |
|-----------------------------------|---|
| Rasmiy nomi | Qirg'iziston Respublikasi |
| Poytaxti | Bishkek |
| Hududi | 199 951 km ² . Dunyoda 87-o'rinda |
| Suvlik | 3,6 % |
| Aholisi | 6 019 480 (2016 yil). 111-o'rinda |
| Zichligi | 1 km ² 29 kishi |
| Daylat tuzimi | Respublika |
| Davlat tili | Qirg'iz, rus tili |
| Dini | Islam |
| Pul birligi | Qirg'iz so'mi |
| Mustaqillik kuni | 1991-yil 31-avgust |
| Katta shaharlari | Bishkek, Osh, Jalol-Obod |
| Prezident | Sooronbay Jeenbekov Sharipovich |
| YalIM | \$ 18,001 mlrd (Dunyoda 135-o'rin) |
| Jon boshiga | \$ 2409 |
| Internet domeni | .kg |
| Telefon kodi | +996 |
| Vaqt mintaqasi | UTC +6 |
| Qisqartmasi | KGZ |
| Ma'muriy hududiy tuzilishi | 7 ta viloyat, 2 ta shahar, 40 ta tuman va 13 viloyat tipidagi shaharlar mavjud. |
| Chegaralari | Markaziy Osiyoning shimoliy sharqidagi davlat. G'arbda O'zbekiston (chevara uzunligi 1099 km), shimolda Qozog'iston (1051 km), janubda Tojikiston (870km) va Xitoy (858 km). Umumiy chegaga uzunligi 3878 km. |

Qirg'iziston hududi insoniyat tamaddunining qadimgi o'choqlaridan biri hisoblanadi. Hududda tosh davrida odamlar yashaganligi ma'lum. Miloddan ilgari 3-ming yillikning oxiri, 2-ming yillikning boshlarida mis va bronzadan yasalgan qurollar topilgan.

Qirg'iz xalqining shakllanishida Janubiy Sibir va Markaziy Osiyoning katta qismlarida yashagan juda ko'p elat, urug' va qabilalar

qatnashgan. Hududda dastlabki davlat miloddan avvalgi II asrga to'g'ri keladi, Sanog'imizdan oldingi II—VIII asrlarda gunnlar (xun-nlar) ta'qibidan xalos bo'lish uchun qirg'izlarning bir qismi Yenisey va Baykal ko'li hududlariga borib joy lash ishgan o'sha yerlarda o'zlarining birinchi davlatlarini va qirg'iz kag'anatini barpo etishgan. Madaniyati shakllangan, yozma ijodi vujudga kelgan. «Manas» xalq eposida qadimgi qirg'iz tarixiy voqealari, an'ana va turmush saqlanib qolgan.

V asrda asta-sekin o'troq yashashga moslashib bordilar. Qirg'iz urug'lari Tyanshangga kelib joylasha boshladilar. Sayxali Tosh dara-sidagi qoya toshlardagi tasvirlar, Bo'ron minorasi va O'zgandagi arxitektura majmuasi qirg'izlar madaniyatining yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

X asrning boshlashga qadar buyuk qirg'iz xonligi Janubiy Sibir, Mo'g'uliston, Baykal, Irtishning yuqori qismini, Qashqarning ma'lum qismini, Issiqko'l va Talasni o'z qaramog'iga qo'shib olgan edi. Qirg'iz xonligining taraqqiy etishi nafaqat bosib olish ishlari bilan, balki savdo-sotiq ishlarini xitoyliklar, tibetliklar, Janubiy Sibir hamda Markaziy va Markaziy Osiyo xalqlari bilan birqalikda olib bordilar.

XI-XII asrlarda qirg'izlamning qaramog'idagi joylar qisqarib bordi. Biroq bu hoi ular etnik mustaqilligini saqlashga va shu xalqqa moyil etnik guruhlarning jipslashuviga sabab bo'ldi. Qirg'iz etnogene-zining oxirgi bosqichi mog'ullar, ayrotlar, nayman va boshqa xalqlaming aralashuvi bilan bog'liq.

XVIII asrgacha Yenisey qirg'izlari Oltin o'rda, keyinchalik Ayrot va Jung'oriya xonliklari qaramog'ida bo'ldilar. Ularning ko'pchiligi Tyanshangga kelib joylasha boshladilar. Umuman olganda, XVI asrda qirg'iz xalqi etnogenezi shakllanib bo'lgan edi.

1863-yilda Shimoliy Qirg'iziston, 1876-yilda Janubiy Qirg'iziston Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olingan.

1917-yildan so'ng qirg'izlar sovetlar Respublikasi tarkibiga qo'shildi, 1918-yilda Turkiston ASSR ning qismi hisoblandi. 1924-yil 14-oktabrda Qora-Qirg'iziston (1925-yil 25-maydan Qirg'iziston) Muxtor oblasti barpo etildi va RSFSR tarkibiga kiritildi. 1926-yil 1-fevralaa Qirg'iziston ASSR deb nomlandi. 1936-yil 5-dekabrda Qirg'iziston SSR deb nomlanib, SSSR tarkibidagi suveren respublika maqomini oldi.

SSSR ning parchalanishi bilan 1990-yil sentabr oyida respublika Oliy Sovetining sessiyasida Qirg'iziston Respublikasi deb nomlandi.

1990-yil 15-dekabrdan Oliy Sovet Respublikaning suveren tetti-gi to‘g‘risida, 1991-yil 31-avgustda uning Mustaqilligi haqida Deklaratsiya qabul qildi. 1993-yil 5-mayda Mustaqil Respublikaning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Davlat qurilishi - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tamoyillari asosida boshqariladi. Davlat rahbari-Prezident; qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy organi-Parlament (Ulu Kengash). Ijro etuvchi Oliy hokimiyat-Ministrlar kabineti. U bosh Ministr tomonidan boshqariladi.

Geografik joylanishi, tabiiy sharoiti. Qirg'iziston keng vodiy va baland tog‘li mamlakat. Respublika hududi asosan mo‘tadil va qisman subtropik mintaqada ($39\text{--}43^{\circ}$ shimoliy kenglik), g‘arbdan sharqqa 900 km, janubdan shimolga 410 km masofada joylashgan.

Qirg'iziston tabiatini uning hududini dengiz sathidan balandligi murakkab tog‘li relyefi, Yevrosiyo inaterigining O‘rtasida joylashishgan dunyo okeanlaridan uzoqdaligi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qirg'iziston Tyanshan va Pomir tog‘ tizmalarining asosiy qismi egallagan bo‘lib, taxminan 90% hududi dengiz sathidan 1500 m dan balandda, shuning 1/3 qismi 3000 m dan balandda joylashgan. Eng baland nuqtasi 7439 m (g‘alaba cho‘qqisi), eng past, joyi 539 m. Qirg'izistonda 14 ta cho‘qqining balandligi 6000 m va 26 tasiniki 4807 ra balandlikdadir.

Tog‘ tizmalari ko‘philik hollarda kenglik bo‘ylab joylashgan. Qirg'izistonda Kungay va Terskay Olatovi, Molotog‘, Ko‘kshoaltog‘, Qirg'iziston, Talas Olatovi, Chotqol, Farg‘ona, Oloy, Turkiston tizmalari bo‘lib, ular orasida tog‘ oralig‘i vodiylari va botiqlari mavjud. Jami 23 ta yirik botiqlar bor (Farg‘ona, Issiqko‘l va b.lar).

Relyefi o‘ziga xos bolib, hududda tog‘oldi tekisliklari, erozion tog‘ yonbag‘irlari, past tog‘lar, tikqoyali O‘rta tog‘lar, parchalangan va tekislangan baland tog‘lar uni murakkablashtirgan.

Qirg'iziston hududining geosinklinal rivojlanishi Shimoliy Tyanshanda proterozoyda boshlanib, paleozoy erasining oxirida tuga-gan (Janubiy Tyanshan). Paleozoydan neogenning boshlanishi gacha uzoq yillar davomida denudatsiya jarayoni ketgan, Tyanshanda peneplenlashish yuz bergen. Paleogen oxiri-neogenda boshlangan intensiv

tektonik harakatlar hozirga qadar davom etmoqda. Kalledon jinslari Shimoliy Tyanshanda, Gersin jinslari O'rtta va Janubiy Tyansban tizmalarida uchraydi. Tog' oralig'idagi botiqlar mezozoy va kaynozoy kontinental jinslari bilan toigan. Tyanshanda 2 martadan ko'proq muz bosishlar bo'lgan.

Qирғизистон hududi tektonik faol hudud bo'lib, 8-9 balli seymik rayon hisoblanadi. Keyingi 2-3 asr davomida eng kuchli zilzila 1911-yıl yanvarda bo'lgan. Episentri shimoliy Tyanshan-da bolib, Chon-Kemin daryosi O'rtta oqimi hududida uning kuchi 10 ball (ba'zi bir manbalarda 12 ball) deb belgilangan.

Qирғизистонning Shimoliy Tyanshan qismida polimetall va noyob metallar, oltin, oltingugurt kolchegani; O'rtta Tyanshanda temir rудаси, polimetall, oltin, konlari; Farg'ona botig'ida neft, gaz konlari mavjud. Qирғиз ko'mirining geologik zaxirasi 31 nilrd t, temir zaxirasi 10 mlrd 1 atrofida. Mezozoy va Kaynozoy jinslari orasida tosh-tuz, gips, kaolin, bentonitli gillar, qurilish xomashyolari qazib olinadi. Respublikada simob va surma kabi foydali qazilmalar zaxirasi katta. Iqlimi kontinental. Yalpi radiatsiya miqdori 120-160 kkal/sm-quyoshli kunlar soati 1700-2965 soat. Hududining okean va dengizlardan uzoqligi, relyefining murakkabligi va balandligi iqlimning kontinental (yog'in miqdori kam, havoning quruqligi, bulutlikning namligi, sutkalik va yillik harorat amplitudasining kaittaliqi) lik xususiyatlarini orttiradi. Jumladan, Chuy vodiysidagi Konstantinovkada eng yuqori harorat amplitudasi $-86,8^{\circ}$ kuzatilgan. Susamir, Oqsoy va Is-siqko'l botiqlarida harorat amplitudasi $82,4^{\circ}$, $79,8^{\circ}$ va 49° ni tashkil etgan.

Qishda Qирғизистон Sibir antisikloni ta'sirida, bahor va kuzda G'arbiy va Shimoliy g'arbiy havo massalari ta'sirida bo'ladi. Yozda tropik havoning kirib kelishi bilan respublikada quruq, bulutsiz, issiq ob-havo bo'ladi. Toqqa ko'tarilgan sari ob-havo holati o'zgarib bora-di. Yanvarning O'rtacha haroratsi vodiylarda -1°C -8°C , past tog'larda -4°C , 6° o'rtta balandlikdagi tog'larda -20°C va baland tog'larda $-25-28^{\circ}\text{C}$ gacha bo'ladi. Samarali haroratlar yig'indisi 1000 m balandlikkacha $3100-4000^{\circ}$ gacha, Farg'ona botig'ida 4000-4500° ga teng. Sovuqsiz kunlar 180-225 kunni tashkil etadi.

Respublika hududiga yog'in-sochin asosan shimoliy-g'arbiy, g'arbiy va janubi-sharqiy havo massalari orqali olib kelinadi. Yillik

yog‘in miqdori 115 mm dan (Issiqko‘lning g‘arbi) 2500 mm gacha va undan ortiq (g‘arbiy Tyanshanning shimoli, shimoli-g‘arbiy va janubi-g‘arbiy havo massalari bilan yonbag‘irlariga).

Tog‘larda muzliklar bor. Yiriklari: Janubiy va Shimoliy Inilochekdir, Qirg‘izistonda 1923 ta ko‘l bo‘lib, suv sathining umumiy maydoni 6836 km². Eng yiriklari Issiqko‘l -6236 km², Sonko‘l -275 km², Chotirko‘l -175 km -maydonga ega.

Daryolari asosan Orol dengizi (76,5%), Tarim (12,4%), Issiqko‘l (10,6%) -va Balxash ko‘li havzalariga mansub. Eng uzun daryolari Norin (535 km) Chuv (221 km), Chotqol (205 km).

Tuproqlari cho‘l va chalacho‘l hududlarda bo‘z tuproq, daryo qayirlari va ko‘l sohillarida allyuvial, o‘tloqi va o‘tloqi-botqoq tuproqlar, tog‘laming cho‘l-dasht mintaqalarida qo‘ng‘ir tuproqlar, quruq dashtli mintaqada kashtan tuproqlar, tog‘laming semam yonbag‘irlarida qora tuproqlar, tog‘laming tepalarida tog‘-o‘rmon tuproqlarining har xil turlari uchraydi.

O‘simliklari cho‘l va chalacho‘l, tog‘ dashtlari, o‘rmon, baland tog‘ mintaqalariga xos bo‘lib, o‘simliklaming 3,5 mingdan ziyod turi o‘sadi. Mamlakat hududining 4% dan ko‘prog‘i o‘rmonzor. Yong‘oqzor, mevazor, o‘rmonlar maydoni 365t)00 ga.

Hayvonot olami turlarga boy har xil kemiruvchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, o‘rmonlarda qo‘ng‘ir ayiq, silovsin, bo‘ri, to‘ng‘iz, tog‘ takasi, qor qoploni va boshqalar yashaydi. Suv havzalarida baliqning 60 dan orliq turi uchraydi. Mustaqillik yillarida «insontabiat» munosabati bilan vujudga kelgan muammolarga e’tibor qaratilmoqda. Tabiat muhofazasiga, ekologik muhitning yaxshilanishiga qaratilgan hujjatlar qabul qilindi. (1992-1996), uzoqqa mo‘ljallangan dastur ishlab chiqildi. Hududda Issiqko‘l, Sarichelek, Beshorol qo‘riqxonalari, Ola-Archa milliy bog‘i bor.

Aholisi va mehnat resurslari. Qirg‘izistonda 80 dan ortiq millat va elat vakillari-qirg‘izlar, o‘zbeklar, ruslar, dunganlar, ukrainlar, nemislar, tatarlar, qozoqlar, uyg‘urlar, tojiklar va boshqalar yashaydilar. O‘rtacha zichlik -25 kishi/km². Aholining 80% dan ortiq qismi tor vodiylarda, tog‘oldi hududlarida yashaydilar.

Milliy tarkibi bo'yicha ma'lumot (2016)

| qirg'izlar % | ruslar % | o'zbeklar % | qozoqlar % | tojiklar % | uyg'urilar % | turklar % | boshqalar % |
|-----------------|-------------|----------------|---------------|---------------|-----------------|--------------|----------------|
| 73 | 6 | 15 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |

Aholi jinsiy tarkibida-ayollar 50,5% ni, erkaklar -49,5% ni tashkil etadi. Bolalar o'limi (yoshgacha 1000 ta tug'ilganlarga nisbatan); 1993, 1997 va 1999-yillarda: 31,9; 28,2 va 22,7 bola; 1993-1999-yillar oralig'ida O'rtacha yillik tabiiy o'sish ko'rsatkichi 82300 (1993); 67500 (1997) va 71200 (1999) ga teng.

Qirg'izistonda urbanizatsiya jarayoni sekin ketmoqda. Shaharlarda jami aholining 35,2%, qishloqlarda 64,8% i (2003) yashaydi. Ruslar ko'proq Shimoliy Qirg'izistonda, o'zbeklar O'sh va Janubiy viloyatlarda yashaydilar. Mustaqillik yillarida tashqariga ko'chib ketish 1993-yildan 51100 kishi bo'lgan bo'lsa, 1999-yildan 9900 kishi bo'mgan.

Mehnatga yaroqli aholi soni 2,5 mln kishidan ortiq. Biroq aholining bandlik ko'rsatkichi 1,7 mln kishi (1999). Band bo'Imagan aholi 7,4% ni tashkil etadi. Qirg'izistonda jami mehnat resurslarining 42,0% i qishloq xo'jaligida, 19,2% i, sanoatda va 38,7% i xizmat sohasida ishlaydi. Yirik shaharlari: Bishkek, O'sh, Jalolobod, To'qmoq.

Xo'jaligi. Qirg'iziston-agrar-industrial mamlakat. Yalpi milliy mahsulotda sanoat 20,5% ni, qishloq xo'jaligi 38,4% ni tashkil etadi.

Sanoatning yetakchi tarmoqlari: yoqilg'i-energetika, mashinasoziik, rangli metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoati.

Qirg'izistonda dastlabki energosistema 1934-yilda ish boshlagan. Respublika gidroenergiya resurslari bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiya va Tojikistondan so'ng 3 o'rinda turadi. Gidroenergiya pontensiali 142,5 mlrd kvt soat bo'lib, shun-dan 9-10% i o'zlashtirilgan. Yiliga 12,9 mlrd kvt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi (asosan GES tarda). Faqat Norin daryosi havzasining potensial resursi 56,9 mlrd kvt soatda 30 mlrd.kvl.soat elektr energiya ishlab chiqaradigan 22 ta GESni qurish mumkin. Norin daryosida

To‘xtag‘ul, Uchqo‘rg‘on, Kuripsoy, Toshko‘mir, Alamatdin GES lar kaskadi ishlaydi. To‘xtag‘ul GES ining quvvati 1,2 mln kvt ga teng. to‘g‘onining balandligi 215m. Yangi Kamparatin GES qurilishi loyihalashtirilgan.

Qo‘ng‘ir ko‘mir ko‘p. Qazib olishda O‘sh oblasti (Qizilqiya, Sulyukta.) yetakchilik qiladi. Jalolobodda Ko‘kyong‘oq, Toshko‘mir konlari bor. Toshko‘mir Issiqko‘l va Norin oblastlarida qazib olinadi. Respublikada 1990-yilda 3,7 mln t; 1993-yilda 1,7 mln t ko‘mir qazib olingan.

Qirg‘izistonda mahalliy ahamiyatga ega bo‘gan neft (100000 t/yil) va gaz (100 mln m³) qazib olinadi.

Mashinasozlik sanoati asosan II jahon urushi yillarida barpo etildi. «Stanoksozlik», «Olatov ishlab chiqarish birlashmalari» elektrotexnika, radioelektronika buyumlari ishlab chiqaradi. Ularning bo‘limlari Qorako‘lda, Qizilqiyada, Talas va Bishkek shaharlarida mavjud. Hisoblash texnikalari, dektrolampa zavodlari Moylisoyda, yarim o‘tkazgich material lar ishlab chiqaruvchi zavod Toshko‘marda, nasos zavodi o‘shda qurilgan.

Mashinasoziik korxonalari Chuv oblastida ancha zich joylashgan (qishloq xo‘jalik mashinalari, jumladan, xashak yig‘uvchi, presslovchi mashinalar ishlab chiqariladi). Bishkekda avtomobil yig‘uvchi zavod mayjud.

Qirg‘izistonda rangli metallar qazib olish XX asrnirg 30-yillarida boshlangan. Rangli metalluriya respublikaning asosiy eksport tarinog‘dir. Qirg‘iz surmasi dunyo bozorida xaridorgir. Haydar-kon shahri yaqinida simobli xomashyoning zaxirasi juda katta. Janubda qo‘rg‘oshin-rux konsentrati, oltin qazib olinadi, surm ishlab chiqariladi. Oltin va qalay ishlab chiqarish yangi tarmoq hisoblanadi.

Yengil sanoat butun sanoat ishlab chiqarishida band bo‘lganlar soniga ko‘ra 2-o‘rinda, va mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha 1-o‘rinda turadi. Respublikada gazlama ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatni, «8-mart» to‘quv fabrikasi, Qora-Bal gilam kombinati, jun ishlab chiqarish fabrikasi, teri ishlab chiqarish zavodi, charm poy-abzal markazlari mavjud (Bishkekda, o‘shda, Talasda, Alamatdinda va b.). Sobiq ittifoq tarkibida Qirg‘iziston Markaziy Osiyoda ishlab chiqarilgan terilaming yarmini, jun to‘qimalaming 90% ini, charm-poyabzalning 25% ini bergen.

Janubiy Qirg'izistonining o'sh oblastida ip gazlama, ipak matalar ishlab chiqarish, Chuv viloyatida ipyigiruv fabrikasi, trikotaj ishlab chiqarish korxonalari mavjud.

Ish bilan bandlik ko'rsatkichi bo'yicha oziq-ovqat sanoati 3-o'rinda turadi. Go'sht, sut, un, qand, tamaki, konditer mahsulotlari, spirtli ichimliklar viloyat markazlarida, Bishkekda va boshqa. shaharlarda ishlab chiqariladi.

Qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar .maydoni 10,1 mln.ga (mamlakat hududining 50,9%). 1 mln ga yer sug'oriladi. Qishloq xo'jaligida yetakchi tarmoq chorvachilikdir (yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 55% i) Bu yaylovlaming ko'pligi va qadimdan chorvachilikka ixtisoslashganlik bilan bog'liq. Mamlakatda: qoramollar soni 988000, cho'chqalar 88000, qo'y va echkilar 3765000, yilqlilar 360700 ta, uy parrandalafi soni 2.100.000 ta. Har bitta qo'yдан 3,1 kg jun olinadi, qoramollar sonida sigirlar ustunlik qiladi.

Sanoatlashgan markazlar atrofdagi tog'oldi va o'rta balandlikka ega bo'lgan tog'li rayonlarda go'sht-sut chorvachiliqi, baland tog'li hududlarda go'sht beruvchi chorvachilik, jumladan, qo'toslar yetishtirishga ixtisoslashgan. Ipakchilik o'sh va Jalolobodda mavjud.

Dehqonchilikning asosiy tarmoqlari paxta, tamaki, efir moyli ekinlar yetishtirish, yem-xashak ekinlari, g'alla, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlaridir. Ekin maydonlarining 50% iga g'alla, 41% i ga yem-xashak ekiladi. Texnika ekinlari ekin maydonlarining 5,6% i tashkil etadi. Shundan 1,6% i paxtachilik, 95% i qandlavlagi maydonlariga to'g'ri keladi. Kartoshka va sabzavot ekinlari maydoni 3,5% ni tashkil etadi.

Dehqonchilikning geografik joylashishi respublikaning agro-iqlimiy potensiali bilan bog'liq. Paxtachilik Qirg'izistonning Farg'ona vodiysi qisimidagi hududlarida yetishliriladi. Keyingi yillarda Talas vodiysida ham yetishtirilmoqda. Chuv oblasti qandlavlagi yetishtirishga ixtisoslashgan. 1985-yilga kelib ekilmay qo'yilgan edi. Muslaqiliik yillarida qandlavlagi qaytadan yetishlirilmoqda. 1993-yilda 2000001 ga yaqin qandlavlagi yetishtirilgan.

Shimoliy va Janubiy Qirg'izistonda tokchilik (uzumchilik) bilan shug'ullanishadi. Mevachilikda: olma, nok, o'rik, shaftoli, olcha, gilos, olxo'ri yetishtiriladi. Istiqbolda urug'chilikka, ayniqsa, ko'p yillik o'tlar yetishtirishga, shuningdek, ko'knorichilikka e'tibor qaraltilmoqda.

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Qirg'iziston tog'li mamlakat boigani uchun, asosiy transporti avtomobil transportidir. Uning umumiy uzunligi 28 ming km. (Shundan 19 ming km. umumiy foydalanish yo'llari). Yirik magistrallari Bishkek-Ribache-Norin-Torugart; Bishkek-O'sh; O'sh-G'ulja-Sari tosh-Xorug; Bishkek-Toshkent; Bishkek-Olmaota. Temir yo'llar uzunligi 47 km (2002) Ichki suv yo'llari uzunligi 460km. Qirg'iziston havo yo'llari, «ltck Eyr», «Oltin Eyr» milliy aviatsiya kompaniyalarining samolyollari dunyoning bir qancha mamlakatlarini bog'laydi. Qirg'iziston hududidan Buxoro-Toshkent-Bishkek-Olmaota gaz quvuri o'tgan. Moylisoy-Jalolobod-O'sh gaz quvuri mavjud.

Qirg'iziston Respublikasida 2015-yil bo'yicha transport tarmog'laridan foydalangan yo'lovchilar: **mln kishi km**

| | |
|-----------------|----------------|
| Umumiy: | 11012,5 |
| Temiryo'l | 40,8 |
| Avtobus | 8410,4 |
| Trolleybus | 95,6 |
| Taksi | 499,6 |
| Havo transporti | 1966,1 |

Qirg'iziston Respublikasida 2015-yil bo'yicha transport tarmog'larida tashilgan yuklar: **mln tonna km**

| | |
|------------------|---------------|
| Umumiy: | 2525,1 |
| Temiryo'l | 917,8 |
| Avtomobil | 1401,7 |
| Quvur transporti | 145,9 |
| Havo transporti | 57,4 |
| Suv transporti | 2,3 |

Qirg'izistonning eng yirik iqtisodiy va siyosiy hamrohi Rossiya. Importining 56% i va eksportining 22% idan ortig'i Rossiyaga to'g'ri keladi. Qirg'iziston-Qozog'iston iqtisodida qirg'izlarning 45% eksporti va 18% importi Qozog'istonga to'g'ri keladi. Shuningdek.

Qirg'iziston, o'zbekiston, Tojikiston bilan hamkorlik qiladi. Tashqi savdoda MDH davlatlari orasida Qirg'izistonning hissasi 8,3% ga teng.

O'zbekiston va Janubiy Qozog'istonga elektroenergiya beradi. O'zbekistondan tabiiy gaz, Qozog'istondan g'alla oladi.

Shuningdek, Qirg'iziston Xitoy, Turkiya, Germaniya, AQSH. Buyuk Britaniya, Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Pokiston bilan ham hamkorlik qiladi. Pokiston-Qirg'iziston elektr uzatish liniyasini qurish loyihalashdirilgan. Tajan-Mashhad temir yo'lining qurilishi bilan aloqalar yaxshilanadi. Turkiya-Qirg'iziston tovar almashuvi 10 mln dollar atrofida. Qirg'iziston Islom banki, Xalqaro bank. Xalqaro valyuta fondi bilan bog'langan. Asosan surma eksport. qiladi. Kubadan qand import qiladi. Iqtisodiy reformalar o'tkazishda AQSH, Yaponiya yordam bermoqda. Chetga oltin, paxta tolasi, oziq-ovqat, yengil sanoat mahsulotlari, elektr energiyasi, metall jihozlar, chetdan sanoat jihozlari, keng iste'mol buyumlari oladi.

Iqtisodiy geografik rayonlari. Qirg'ziston 7 ta iqtisodiy rayonga ajratilgan bo'lib, ular, o'z navbatida 3 ta zonani tashkil etadi.

1. Shimoliy Qirg'iziston (Chuv, Issiqko'1, Talas rayonlari).
2. Markaziy Qirg'iziston (Norin rayoni).
3. Janubiy Qirg'iziston (O'sh, Jalolobod, Quyi Norin va Qadamjoy-Haydarkon rayonlari).


1. Shimoliy Qirg'iziston. Mamlakat maydonining 25 qismi, aholining qismini tashkil etadi. Respublikaning asosiy xo'jalik zonasini sanoat mahsulotining 2/3 qismini (turli mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari) beradi. Mamlakatning 2/5 qismi donni, uzum va poliz ekinlarining asosiy qismni yetkazadi. Lalmikor dehqonchilik ustunlik qiladi. Chuv viloyati shimoliy Qirg'izistondagi eng rivojlangan iqtisodiy rayon. Bishkek-mamlakt poytaxti, iqtisodiy, madaniyat va ilmiy markaz, Qant shahri -sement sanoatining markazi. Issiqko'1 viloyatidagi Qumtorda oltin olinadi; elekrotexnika, oziq-ovqat, yengil sanoat, chorvachilik, qo'ychilik, go'sht-sut, qoramolchilik, yirik shoxli qoramollar, bog'dorchilik, baliqchilik, kurort xo'jaligi yaxshi tashkil etilgan. Talas viloyatida qo'ychilik, don xo'jaligi, dorivor ko'knori va ta-maki yetishtiriladi. Markazi-Talas shahri. Yog' va sir tayyorlanadi.

2. Janubiy Qirg'iziston Respublikaning 33% maydonini egalaydi, 45%; dan ortiq aholi shu yerda yashaydi. o'sh va Jalolobod viloyatlari. Gidroenergetika, tog'-kon sanoati (surma, simob. ko'mir, neft va gaz), paxtachilik, bog'dorchilik, ipakchilik, obikor yerlarda, lalmikor yerlarda donchilik, qo'ychilik rivojlangan. Ishlov beruvchi sanoat (oziq-ovqat, yengil, elekrotexnika) bu zonada unchalik rivojlangan emas, salmog'i ancha kam mehnat bilan ta'minlanish muammosi mavjud, yoshlari ko'p. Mehnat bozorida ishchi kuchi tezkorlik bilan ortib bormoqda.

3. Markaziy Qirg'iziston. Bu yerda respublika hududining 26%, aholisining jfj\$k/o mavjud. Norin viloyati. Asosan togii o'lka, aholi qo'ychilik bilan shug'ullanadi. Norin daryosi va uning irmoqlari gidroenergiya resursiga boy. Qirg'izistomning kambag'al va qoloq regioni. Bu yerdan Shimoliy Qirg'iziston tomon yoshlaming mi-gratsiyasi kuchli.

Tojikiston Respublikasi





Tojikiston Respublikasi xaritasi

1. So‘g‘d viloyati
2. Respublikaga bo‘ysunuvchi shahar va tumanlar
3. Xatlon
4. Tog‘li-Badaxshon

Tojikiston Respublikasi haqida qisqacha:

| | |
|-------------------------|---|
| Rasmiy nomi | Tojikiston Respublikasi |
| Poytaxti | Dushanbe |
| Hududi | 142 000. km ² . Dunyoda 93-o‘rinda |
| Suvlik | 0,3 % |
| Aholisi | 8 593 600 (2016-yil). Dunyo 95-o‘rinda |
| Zichligi | 1 km ² ga 60,19 kishi |
| Davlat tuzimi | Respublika, unitary |
| Davlat tili | Tojik tili |
| Dini | Islom |
| Pul birligi | Somoniy |
| Mustaqillik kuni | 1991-yil 9-sentabr |
| Prezident | Emomali Rahmon Nabihevich |

| | |
|-----------------------------------|---|
| Bosh vazir | Qohir Rasulzoda |
| Katta shaharlari | Deshanbe, Xo‘jand, Ko‘lob |
| Ma’muriy hududiy tuzilishi | 1 ta avtonom respublika, 2 ta viloyat, 18 ta shahar, 62 tuman (shu jumladan 13 respublikaga bo‘ysunuvchi), 57 ta posyolka, 370 qishloqlardan iborat. |
| YalM | \$ 17,555 mlrd Dunyoda 127-o‘rida |
| Jon boshiga | \$ 2247 |
| Internet domeni | .tj |
| Telefon kodi | +992 |
| Vaqt mintaqasi | UTC +5 |
| Qisqartmasi | TJ, TJK |
| Chegaralari | Janubdan Afg‘oniston (chevara uzunligi 1030 km) shimol va g‘arbda O‘zbekiston (910 km), shimolda Qирг‘изистон (630 km), sharqda Xitoy (430 km) bilan chagaradosh chegaraning umumiyligi uzunligi 3000 km. G‘arbdan sharqqa 700 km, shimoldan janubga 350 km |

Tojik xalqining tarixi Markaziy Osiyolik xalqlar: o‘zbeklar, qирг‘излар, turkmanlar tarixi bilan bog‘lanib ketgan. Ulaming qadimgi avlodlari: (baqtriyaliklar, sug‘dlar, saklar, massagetlar) hozirgi Markaziy Osiyo, qisman Xuroson va hatto Hindikush hududlarida yashashgan.

Amudaryoning yuqori qismida barpo bo‘lgan Baqtriya va Sug‘diyona davlatlari eramizdan oldingi VI-IV asrlarda Axamoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Bu imperiya miloddan oldingi 320 yilda Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) qo‘shinlari tomonidan parchalanib ketgan va uning bir qismi Salavkiylar, katta qismi Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan. Bu hududdan sharq bilan g‘arbni birlashtilib turuvchi «Ipak yo‘li» o‘tgani bo‘lib, bu joy orqali Tarim havzasida sotib olingan ipaklar grek-rimlarga, rim va vizantiyaliklarning xrustal va rang-barang shisha buyumlari Xitoya olib kelningan.

V asrda Baqtriya va Sugbdiyona hududlari hamda boshqa hududlarni eftaliylar (oq ginnlar) egallab olishgan. VI-VII asrlarda

feodal munosabatlar rivojlandi, madaniyat va xo‘jalik yaxshilanib bordi. Hududdan temir, mis, kumush, oltin, lazurit va boshqa madanlar qazib olina boshlandi, sug‘orish kanallari, korizlar orqali sug‘orma dehqonchilik shaklandi, davlatlar orasida savdo, ya’ni tovar ayirboshlash vujudga keldi. Xuddi shu davrda asosan sug‘d tili shakllandi.

VI asrning II yarmida Tojikiston hududi Turk xoqonligi, VII—VIII asrlarda arablar tomonidan egallandi va bu hududda islam dini joriy qilina boshlandi.

IX-X asrlarda Tojikiston hududining ma’lum qismi Tohiriylar va Somoniylar davlati tarkibida, IX-XII I asrlardan g‘aznaviylar, qoraxoniyalar, g‘uriylar, qoraxitoylar, xorazmshohlar davlatlari tarkibida boMgan. IX asrning oxirida (874) bog‘dod xalifaligiga qaram «boMmagan hududda tojik feodal davlati-Somoniylar davlati barpo etildi. Somoniylar davrida tojik xalqining shakllanish jarayoni tugallandi, uning tili hukmron tilga aylandi.

Somoniylar davlatining 100 yildan ortiq hukmronlik davrida shaharlar qurildi, madaniyat, hunarmandchilik rivojlandi. Fors-tojik she’riyatining asoschisi Rudakiy, «Shohnoma» asarining yaratuvchisi Firdavsiylar shu darvda yashashgan va ijod qilishgan. Biroq feodal hukmronlarining o‘zaro urushlari natijasida davlat parchalanib ketdi. Oqibatda 999-yilda bu hududni turkiy tilda so‘zlashuvchilar egallab olishdi. XII asrda bu hududda Saljuqlar (turk tilida so‘zlashuvchi) davlati barpo etildi.

1219-1221-yillarda mo‘g‘ullar istilosи tufayli bu hududda madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga jiddiy zarar yetkazildi.

XIV asrning II yarmidan boshlab bu hudud Amir Temur va temuriylar tomonidari boshqarildi. Shaharlar qurildi, obodonchilik ishlari rivojlandi, dehqonchilik tiklandi, fan, madaniyat o‘sdi. .

XVI asr davomida Markaziy Osiyo ko‘chmanchi qabila boshlig‘i Muhammad Shayboniyxon, Abdullaxonlar (1557-1598) tomonidan boshqarildi. 1598-yilda Abdullaxon II Ashtarkoniylar tomonidan o‘ldirildi va ular Markaziy Osiyoning katta qismini va Balx viloyati ga XII asrgacha hukmronlik qilishdi. O‘zaro urushlar kuchaydi, natijada Xiva xonligi tashkil topdi, XIII asrda Markaziy Osiyoda xonliklar soni ko‘paydi, mustaqil ish yuritildi, o‘zaro urushlar olib borildi. Hozirgi hududda Hisor, Ko‘lob, Korategin, Darviz, Vaxan,

Shug'non knyazliklari vujudga keldi. Bu asrda tojiklarning ko'p qismi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi hududlarida yashadilar, ayrim kichik-kichik qismlari mustaqil tog'lik knyazliklarida istiqomat qildilar.

XIX asrning II yarmida Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olindi. Turkiston general-gubernatorligi vujudiga keldi. Unga tojik va Pomirning Shimoliy rayonlari qaradi. Tojikistonning markaziy va janubiy rayonlari Buxoro amirligiga qaradi. 1917-yil noyabr, 1918-yil fevralda Shimoliy Tojikistonda sho'ro hokimiyyati o'matildi va Turkiston ASSR tarkibiga kirdi. Qolgan hududi Buxoro amirligi tarkibida bo'ldi.

1924-yil Markaziy Osiyoda «milliy davlat chegaralanishi» natisida Tojikiston O'zbekiston SSSR tarkibida Muxtor Respublika, 1929-yil SSSR tarkibida Ittifoqdagi Respublikaga aylantirildi.

1991-yil 9-sentabrda Mustaqillik to'g'risida deklaratсиya e'lon qilindi va «Tojikiston Respublikasi» nomini oldi.

Tojikistonda 1991-yil sentabrdan 1997-yilgacha o'zaro muxolif kuchlar orasida qurolli to'qnashuvlar bo'ldi, mamlakat hayo-tida be-qarorlik vujudga keldi. 1997-yilda tinchlik o'matildi. Tojikiston 1992-yildan BMT a'zosi; 1992-yil 6-yanvarda O'ZRni tan oldi va 1-oktabrdan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Milliy bayrami 1991-yil 9-sentabr Mustaqillik kuni.

Tojikistonning joylanishi, tabiiy sharoiti va resurslari. Har qanday hududiy birlikning tabiiy va iqtisodiy geografik o'mi, xususiyatlari, avvalo, uning qayerda joylashganligi bilan bog'liq. Ma'lumki, Tojikiston Respublikasi Yevrosiyo materigining deyarli markazida va dunyo okeanlaridan ancha uzoqda joylashgan. Shu sababli dengizga tutash hududlarga xos bo'lgan barcha qulayliklardan mahrumdir.

Tojikiston Respublikasi shimol, shimoli-g'arb va g'arbdan O'zbekiston, shimaldan Qirg'iziston, sharqdan Xitoy (430 km), janubdan Afg'oniston (1030 km) bilan chegaradosh. Bu hudud 36° $41^{\circ} 05'$ shimoliy kengliklar, $67^{\circ} 11'-15'$ sharqiy uzunliklar oraliq'ida joylashgan.

Respublika tog'li mamlakat bo'lib, hududining 93% ini 300 m dan 7495 (Somoni cho'qqisi) m. balandlikkaoha bo'lgan tog'lar tashkil etadi. Bular O'rta va janubiy Tyanshan tizmalari va Pomir-

Oloy tog‘ tizmalaridir. Tojikistonda Qurama (Boboi ob tog‘i, 3769 m), Mo‘g‘ultog‘ (1624 m) Oloy (5539 ra), Turkiston (5509 m), Zarafshon (5489 m), Hisor va Qorategin (4643 m) tizma tog‘lari, Zarafshon, Hisor, Vaxsh, Yovon, Quyi Kofimixon, Surxob, Yaxsuv vodiylari joylashgan. Shuningdek, unchalik baland bo‘lmagan Bobotog‘, Oqtog‘, Qoratog‘, Teraklitog‘, Sarsarak, Rangontog‘, Ilonlitog‘, Pomiming markazida Muzko‘l va janubi-g‘arbda shimoliy va janubiy Alichur tizma tog‘lari joylashgan. Hududda Farg‘ona va Tojikiston depressiyalari -tog‘lararo botiq bor. Farg‘ona vodiyisidan g‘arbroqda respublikadagi eng past hisoblangan tojik Mirzacho‘li (250-300 m) bor. Bularning hammasi Tojikiston hududining o‘ziga xos orografik xususiyatlarini va relyefining murakkabligini vujudga keltirgan. Tojikiston dunyoning zilzila ko‘p bo‘ladigan hududlaridan hisoblanadi. Falokat keltirgan zilzilalar Qoratog‘ (1907), Sarez (1911), Isfera (1977), Qayroqqum (1986) va Sharora(1989) va boshqa joylarda sodir boldi.

Paleozoy, mezozoy va kaynozoy eralarining jinslari qavatida, cho‘kmalarida ko‘pgina qazilma boyliklar uchraydi. Qurama, Pomir va Hisor-Oloy tizma tog‘larida, tog‘ oralig‘i botiqlarida turli xildagi foydali qazilmalar, jumladan, oltin, kumush, simob, surma, volfram, temir, rux, qimmatli toshlar, ko‘mir neft, tabiiy gaz va boshqa konlar mavjud. O‘nlab shifobaxsh mineral buloqlarga boy.

Tojikiston janubda joylashganligi, quyosh nurlarining ko‘p tushishi, havo massalarining kirib kelishi sababli iqlimi o‘ziga xos o‘lka. Tojikiston hududida: subtropik (Hisor va Vaxshda, yozi issiq, qishi qisqa, yog‘in kam 150-200); mo‘tadil (O‘rta tog‘lar hududi, kuzi salqin, qishi sovuq, yog‘in 1500 mm); kon-tinental (yozi issiq, qishi sovuq, yog‘in 350-700 mm); baland tpg‘lar iqlim mintaqasi (qishi sovuq, yozi qisqa quruq, yog‘in 600-1000 mm) mavjud.

Respublika janubda joylashganligi sababli yillik radiatsiya miqdori 51 -176 kkal/sm² ni tashkil etadi. Quyoshli kunlar -2097-3166 soat. Vegetatsiya davri 195-315 kundan iborat. 5° dan ortiq harorat miqdori 6000° dan ko‘p. Tojikistonning qishi qisqa. Harorat O‘rta hisobda 0° dan yuqori, baland tog‘larda ba‘zan -50° dan past bo‘ladi. Yoz davomli, quruq va issiq. Tojikistonning eng issiq mavzei Shahritus tumani. (Ayvaj +48°) hisoblanadi.

Tojikistonning geografik o‘rni, orografiyasi, iqlim sharoiti uning ichki suvlarini hosil qiluvchi omillardir. Muzliklaming umumiyligi maydoni 8470 km², asosan tog‘-vodiylaridir. Garmo, Geografiya jamiyatি, Xirson, Zarafshon, Grum-Grajamayl, (Fedchenko muzliklari yirik tog‘ muzliklaridir.

Aholisi. Aholining soni jihatidan mamlakat Markaziy Osiyoda O‘zbekiston va Qozog‘istondan keyin uchinchi o‘rinda, aholining tabiiy o‘sishi jihatidan ham Turkmaniston va O‘zbekistondan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Respublika aholisiga xos xususiyatlar: ko‘p bolalik, kindik qoni to‘kilgan joyni muqaddas bilish, joydan-joyga ko‘chib yurishga odatlanmaslik, mehmondo‘stlik, mehnatsevarlik, qishloqsevarlik. Aholidagi bu xususiyatlar bo‘yicha tojik xalqi boshqa turkiy xalqlardan ajralmasdir. Aslida esa tojiklar turkiy xalqlar emas, balki forsiy tilda gaplashuvchi xalqlardandir. O‘z asnosida tojik xalqining etnik kelib chiqshi ham turkiy xalqlar bilan ancha yaqindir, bir xilqdir.

Yaqin o‘tmishda Markaziy Osiyoda aholining tabiy o‘sishi bo‘yicha Tojikiston birinchi o‘rinda turar edi. Biroq, so‘nggi 1990-1999-yillarda mamlakat ichkarisida yuz bergan nosog‘lom vaziyat aholi tabiiy o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Aholining yillik o‘rtacha o‘sishi 1990-1995 -yillarda Turkmanistonda 4,1 ga O‘zbekistonda 2,1 foizni tashkil qilgani holatda, bu ko‘rsatkich Tojikistonda 1,9 foizga teng bo‘ldi. 2016-yil 2,3 % ga tenglashdi. Aniq ma’lumotlarga qaraganda 1990-1995 yillarda Tojikiston aholisiga atigi 525 ming kishiga ko‘paygan. Holbuki, shu davrda Turkmaniston aholisi 821 ming va O‘zbekistonni 2240 ming kishiga ko‘paygan.

Mamlakat aholisi uning regionlari aro juda notejis joylashgan. Aholining aksariyat qismi daryo vodiylari va soy bo‘ylarida istiqomat qilishadi. Aholi zichligi ham regionlar bo‘yicha keskin farq qiladi va so‘nggi yillarda 4 marta ko‘paydi. M., 1939 -yilda har bir kv. km.ga 10,3 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, u 1959 -yilda 13,8, 1970 -yilda-20,3, 1979 -yilda- 27, 1989 -yilda-33, va 1995 -yilda 40,2 kishini tashkil qildi. 2016-yil 60 kishiga to‘g‘ri keldi.

Aholi zichligi uning geografik o‘rni orografiyik xususiyatlariga ko‘ra shimoliy va janubiy Tojikistonda, Ko‘xiston va Hisor, Vaxsh vodiylarda, sug‘orib ziroatchilik qilinadigan zoñalarda bir-biriga qarama-qarshi qutblar darajasida farq qiladi. Masalan, vodiylarda

aholi zichligi 400-450 kishiga to‘gri kelgani holda buning aksi o‘larqoq tog‘li Badaxshon Pomirda aholi zichligi 1-2 kishiga teng.

Tojik xalqi qishloqsevar xalq. Bu yerda aholining aksariyat qismi qadimdan qishloqlarda ishab kelgan. Tojikistonda 1979-89-yillarda shahar aholisi 2 foizga kamaygan bo‘lsa, u 1990-1995-yillarda birmuncha ko‘paydi, ya’ni 1995-yilga kelib umumiylar aholining 38,8 foizini tashkil etdi. 2016-yilda 27,3 % ni tashkil qildi. Biroq MDHga a’zo bo‘lgan davlatlarda esa umumiylar aholining 60 foizidan ortig‘i shaharlarda yashamoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyoning boshqa barcha davlatlarida ham shahar aholisining miqdori Tojikistonnikidan ancha baland. Masalan, Qirg‘izistonda aholining 34,4, O‘zbekistonda-51, Turkmanistonda-50,4, Qozog‘istonda-57 foizi shaharlarda yashaydi.

Aholining tabiiy o‘sishi yuqoriligi uchun mamlakat mehnat resurslariga boy. Respublika aholisining ko‘pchiligin mehnatga qobiliyatli yoshar tashkil qiladi. Biroq mamlakatda mehnat resursidan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan emas. Ayniqsa, uning tog‘li zonasidagi yuzlab aholi manzilgohlarida foydali mehnatga tortilmagan bir necha yuz ming ishsiz bor. Ularning ko‘pchiligi ayollar va mehnatga layoqatlari yoshlardir.

Tojikistonda shahar va qishloq aholisining nisbati kam, urbanizatsiya darajasining pastligi ko‘rsatib turibdi. Mamlakatda shaharlar soni nisbatan kam va borlari ham uncha katta emas. Mamlakatning yirik shaharlari Dushanbe, Xo‘jand, Tursunzoda, Qo‘rg‘ontepa shaharlardir.

Tojikiston ko‘p millatli davlat. Uning bosim xalqi tojik va o‘zbeklar. Tojiklar umumiylar aholining 84,26% dan ortig‘ini, o‘zbeklar esa 13,94% ini tashkil qiladi. Bu yerda yana son jihatdan eng ko‘p ishaydigan millat vakillari rus, tatar, mordva, ukrain, osetin va boshgalardir.

Aholi nihoyat darajada notekis joylashgan.

1-misol. Aholining aksariyat qismi past tekisliklar, daryo vodiylari va soy bo‘ylarida joylashgan. Chunki dehqonchilik asosan uning dengiz sathidan uncha baland bo‘lmagan hududlarida amalga oshiriladi.

2-misol. Aholining notekis joyo‘lashishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil uning orografik xususiyatlaridir. Birinchidan, tog‘li zonada

dehqonchilik qilish doirasi chegaralangan. Bu zonada madaniylashgan tuproq yerkarning kamligi, salqin iqlimi sharoit dehqonchilik qilishga qiyinchiliklar tug‘diradi. Ikkinchidan bu zonada shunday aholi manzilgohlari borki, ular bir-birlari bilan tabiiy to‘siq tarzida baland tog‘lar bilan ajralib turadi. Tog‘ va baland tog‘ tabiatini zonasida xo‘jalik yuritish murakkab ko‘chadi va o‘z navbatida aholi manzilgohlarining ham mamlakatning madaniy markazlari bilan aloqa qilishi tabiiy ravishda chegaralangan.

Xo‘jalik. Tojikiston agrar-industrial mamlakat. Iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi. Milliy daromadning asosiy qismi xalq xo‘jaligida band aholining 45% i qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. Sanoat mahsulotlari milliy daromadning 1/3 qismiga teng. Respublika qadimiy dehqonchilik oikasi hisoblanadi.

Tojikistonda qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlar 4,2 mln ga, shundan ekinzorlar 827631 ga, yaylovlar 3,2 mln ga. sug‘ori ladigan yerlar 1 mln ga atrofida. Beshkent vodiysida, Dang‘ara, Asht va Oydil dashtlarida yangi yerlar ishga tushirilmoxqda. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i dehqonchilik bo‘lib, jami qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 65% ni beradi. Ingichka tolali paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, moyli ekinlar, g‘allachilik rivojlangan. Tamaki ekiladi, sabzavotpoliz ekinlari yetishtiriladi. Paxta 218,6 ming ga, g‘alla va loviya ekinlari 418,7 ming ga (1997) ekilgan. Paxtadan umumiy hosil 350 ming t atrotida. Sitrus mevalari yetishtiriladi.

Chorvachilik qishloq xo‘jaligi mahsulotining 32% ini beradi. Yer maydonining 70% dan ko‘prog‘i yaylovlar bo‘lib, qoramollar, qo‘y va echkilar, yilqi va qo‘toslar boqiladi. Shuningdek, tovuqchilik, pillachilik, asalarichilik (yangi soha), baliqchilik, nutriya boqish (Vaxsh vodiysi ko‘llarida) bilan shug‘ullanishadi.

Respublika sanoatida yetakchi tarmoq yengil, oziq-ovqat, tog‘-kon, rangli metalluriya, mashinasoziy sanoati tarmoqlaridir. Yengil sanoatda paxta tozalash, ip va shoyi gazlama to‘qish, tikuvchilik, gilam to‘qish, oziq-ovqat sanoatida meva konservasi tayyorlash, vinochilik, paxta yog‘i ishlab chiqarish yetakchi tarmoqlar hisoblanadi.

Tojikistonda elektroenergetika sanoati rivojlangan. Yillik 17 mlrd kvt soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Norak (2,7 mln kvt), Rogun (3,6 mln kvt GES lari qurilgan va to‘liq qurib bitirilishi

arafasida. Tog‘-kon sanoatida rangli metallar, osh tuzi, qo‘ng‘ir ko‘mir, neft va gaz qazib olinadi va qurilish materiallari ishlab chiqariladi. Alyuminiy ishlab chiqariladi, rangli metallar boyitiladi. Kimyo sanoatida yetakchi tarmoqlar mineral o‘g‘it va plastmassalar ishlab chiqarishdir. Mahalliy elektrenergetika asosida va rangli metallar xomashyosi hamda mehnat resurslari bazasida Janubiy Tojikistonda HICHK barpo etilgan.

Transporti va iqtisodiy aloqalari. Respublikada avtomobil, temir yo‘l, havo, quvur, suv yo‘li va elektron transport turlari tarmoqlari mavjud. Mamlakat hududidagi temir yo‘llarning uzunligi 490 km, avtomobil yo‘llarining uzugligi 13000 km dan ziyod. Tor izli temir yo‘l Termiz-Qo‘rg‘ontepa-Evon va Vaxsh-Ko‘lob vodiylarini birlashtirgan. Qo‘rg‘ontepa-Ko‘lob temir yo‘li qurilgan.

Kelajakda Kofirnikon-Fayzobod, Panjakent-Samarqand temir yo‘li qurilishi loyihalashtirilgan. 1931-1932-yillarda O‘sh-Xorug‘ avtomagistrali qurilgan. 1940-yilda Dushanbe-O‘ratepa-Xo‘jand avtomobil yo‘li qurildi. Keyinchalik Dushanbe-Xorug‘ yo‘li ishga tushdi. Dushanbe-Toshkent havo yo‘li 1924-yilda ochilgan. 1991-yilda «Tojikiston» aviatsiya kompaniyasi tashkil etildi. MDH davlatlari g‘arbiy Yevropa mamlakatlari bilan havo yo‘llari orqali bog‘langan. Shuningdek, Afg‘oniston, Eron, Pokiston aloqa qilinadi. Suv va quvur transporti kam rivojlangan.

2014-yilda Tojikistonda transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish hajmi

| | (mln kishi) |
|------------------|--------------|
| Umumiy | 556,9 |
| Avtomobil | 545,1 |
| Temiryo‘l | 0,4 |
| Havo transporti | 1,1 |
| Elektr yo‘llarda | 10,2 |

**2014-yilda Tojikistonda transport turlari bo'yicha
yo'lovchi tashish aylanmasi hajmi**

(mln kishi km)

| | |
|------------------|----------------|
| Umumiy | 10305,1 |
| Avtomobil | 7305,5 |
| Temiryo'l | 17,8 |
| Havo transporti | 2933,5 |
| Elektr yo'llarda | 48,3 |

**2014-yilda Tojikistonda transport
turlari bo'yicha yuk tashish hajmi**

(ming tonna)

| | |
|-----------------|----------------|
| Umumiy | 74411,2 |
| Avtomobil | 67600,9 |
| Temiryo'l | 6807,7 |
| Havo transporti | 2,6 |

**2014-yilda Tojikistonda transport turlari
bo'yicha yuk tashish aylanmasi hajmi**

(mln tonna km)

| | |
|-----------------|---------------|
| Umumiy | 6180,3 |
| Avtomobil | 389,7 |
| Temiryo'l | 6173,0 |
| Havo transporti | 7,3 |

Mustaqillik sharofati tufayli MDH, Markaziy Osiyo, Xitoy, Pokiston, Saudiya Arabiston, Yaponiya, AQSH va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlik olib bormoqda. Chetga alyuminiy, paxta, elektr energiyasi, noyob metall va toshlar, rangli rudalar, meva konservalari, teri, jun eksport qiladi va chetdan iste'mol mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, transport vositalari oladi.

2014-yilda Tojikiston Respublikasining eksport aylanmasi 977,3 mln \$, import aylanmasi \$ 4297,4 mln ni tashkil qildi.

Tojikistonning iqtisodiy mintaqalari (rayonlari). Tojikiston iqtisodiyotida Janubiy Tojikiston hududiy ishlab chiqarish kompleksi muhim o'rinda turadi. JTHICHK janubi-g'arbiy Tojikistonda barpo etilgan bo'lib, hisor, G'arm, Qo'rg'on tepe va Ko'lob iqtisodiy rayonlarini o'z ichiga olgan. Maydoni 53,3 ming km², ya'ni respublika hududining 37,9% ni, aholisining 60% dan ko'prog'i shu ishlab chiqarish kompleksiga qaraydi. Bu kompleksda daryolarning gidroenergetik potensiali mamlakatdagi quvvatining 65,4%, Markaziy Osiyodagi quvvatning 35% iga teng. Faqat Vaxsh va Panj daryolaridan 144 mlrd kvl soat elektr energiyasi ishlab chiqarish mumkin. Mustaqillik yillarida Vaxsh daryosida Norak, Boyg'ozi, Sarband, Markaziy Sharshara GES lari ishlamoqda. Kelajakda Sangto'da va Sho'robod GES lari quriladi, Rochun GES i foydalanishga topshiriladi.

Bu kompleksda respublika yengil sanoatida ishlab chiqariladigan umumiy mahsulotning 40% dan ko'prog'i, oziq-ovqatning 22,5%. paxtaning 10% i ishlab chiqariladi.

Tojikiston 8 ta iqtisodiy rayonga ajratilga. O'z navbatida ular uchta iqtisodiy zonaga birlashtiriladi. (Janubi-g'arba Tojikiston, Shimoliy Tojikiston va Janubi-Sharqi Tojikiston) 8-sinf darsligida (M.Rahimov, X.Muhabbatov, M.Nurnazarov, .8-sinf. 20o') Tojikistoni 6 ta iqtisodiy rayonga ajratib berilgan. Yuqoridagi rayonlarni ajratishda qo'yilgan maqsad, vazifalar hisobga olingan bo'lib, ularning mazmuni bir-birlarini to'ldiradi. Biz ta'lim yo'nalishi bo'yicha ajratilgan rayonlarni berishni ma'qul deb bildik.

1. Sug'd iqtisodiy rayoni -Xo'jand, Konibodom, Isfara, Taboshar, Qayroqqum, Istaravshan, Panjikent, Sho'rob va boshqalami o'z ichiga oladi. Umumiy maydoni 26,1 ming km², aholisi 1,8 mln kishi. Yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ko'mir, neft, binokorlik materiallari ishlab chiqariladi. Yaqinda Tojikiston-Britaniya «Zarafshon» (oltin ishlab chiqarish) qo'shma korxonasi ishga tushdi. Paxtachilik, bog'dorchilik, tamakikorlik, chorvachilik ixtisoslashgan.

2. Hisor iqtisodiy rayoni -Dushanbe, Kofirnikon, Tursunzoda, Rohun shaharlari va rayonlarni o'z ichiga olgan. Maydoni 11,9 ming km², aholisi 1,3 mln kishi. Og'ir sanoat (mashinasozii, rangli metalluriya, elektroenergetika yetakchilik qiladi. Paxtachilik, bog'dor-

chilik, uzumchilik, chorvachilik, sabzavotchi likga ixtisoslashgan. Sitruschilik rivojlantirilmoqda. 1959-yil tashkil etilgan «Romit» qo'riqxonasida xongul, qo'ng.4r ayiq va boshqalar himoya qilinadi.

3. G'arm iqtisodiy rayoni -G'arm, Navobod shaharlari va G'arm, Tojikobod, Taviyadara, Darband va Jirg'atoj ma'muriy markazlarni o'z ichiga olgan. Maydoni 17,1 ming km², aholisi 211,5 ming kishi. Qishloq xo'jaligi, asosan, dehqonchilik va chor-vachilik. Kartoshka yetishtiriladi, bog'dorchilik rivojlangan (olma, bodom, yong'oq, olcha). Sanoat unchalik rivojlanmagan,



4. Vaxsh iqtisodiy rayoni - Qo'rg'ontepsha shahri va Vaxsh, Kolxozobod, Yovon, Panj va boshqa rayonlarni o'z ichiga olgan bo'lib, maydoni 12,6 ming km², aholisi 1,270 ming kishi. (1997). El-ektroenergiya ishlab chiqariladi. Kimyo, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoatlari rivojlangan. Ingichka tolali. Paxta yetka-zib beradigan asosiy rayon «Polvonto'qay» qo'riqxonasi bor.

5. Ko'lob iqtisodiy rayoni -Ko'lob shahri, Sho'robod, Mo'minobod, Ko'lob, Parxor, Dang'ara va boshqa ma'muriy joylami o'z ichiga oladi. Maydoni

ming km², aholisi 800 ming atrofida. Qishloq xo'jaligi va yengil, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari rivojlangan. Paxtachilik, g'al-lachilik, chorvachilik va pillachilikka ixtisoslashgan «Dashti jun» qo'riqxonasi mavjud.

6. Badabshon iqtisodiy rayoani -Xorug' shahri, Vanj, Ro'shon, Shug'non, Murg'ob va boshqa ma'muriy hududlami, ya'ni tog'li Badalishon Avtonom oblastini o'z ichiga olgan. Maydoni 63,7 ming km², aholisi 202.4 ming kishi. Chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanishadi. Sanoat sust rivojlangan. Shahar va ma'muriy markazlarida yengil va oziq-ovqat sanoatlarmoqlari mavjud.

Turkmaniston Respublikasi



Turkmaniston Respublikasi xaritasi

1. Axal viloyati
 2. Bolqon viloyati
 3. Dashog'uz
 4. Lebap viloyati
 5. Mariy viloyati

Turkmaniston Respublikasi haqida qisqacha:

| | |
|-------------------------|--|
| Rasmiy nomi | Tumaniston Respublikasi |
| Poytaxti | Ashxobot |
| Hududi | 491 200 km ² . Dunyoda 53-o'rinda |
| Suvlik | 4,9 % |
| Aholisi | 5 240 502 (2013-yil). Dunyoda 117-o'rinda |
| Zichligi | 1 km ² ga 10 kishi |
| Davlat tuzimi | Betaraf davlat |
| Davlat tili | Turkman tili |
| Dini | Islom |
| Pul birligi | Manat |
| Mustaqillik kuni | 1991-yil 27 oktabr |
| Katta shaharlari | Ashxabod, Turkmanobod, Dashog'uz, Turkmanboshi |
| Prezident | Gurbanguli Berdimuhamedov |
| Yaim | \$ 54,746 mlrd (Dunyoda 85-o'rinda) |
| Jon boshiga | \$15583 |
| Internet domen | .tm |
| Telefon kodi | +993 |
| Vaqt mintaqasi | UTC+5 |
| Qisqartmasi | TM, TKM |
| Chegaralari | Shimol va sharqda O'zbekiston (chegara uzunligi-1621 km), shimolda Qozog'iston (379km) sharqda va janubda Afg'oniston (744 km), janubda Eron (922 km), g'arbda mamlakat Kasbiy dengizi suvlari bilan tutashgan (1768 km). Chegaraning umumiy uzunligi 5434 km. |

Turkmanistonda odamlar quyi paleolit davridan boshlab yashagan. Miloddan avvalgi 6 ming yillarda bu hududda yashaganlar dehqonchilik bilan shug'ullanishgan, miloddan avvalgi 1 ming yillikda sinfiy jamiyat vujudga kelgan. O'sha yillarda Marg'iyona, Parfiya, Yunon-Baqtriya davlatlari bo'lган. Keyinchalik bu davlatlar Ahamoniy davlatiga qo'shib olingan. Miloddan avval V-IV asr oxir-

larida Turkmaniston hududini Aleksandr (Iskander) istilo qilgan. 224-yilda bu hududni somoniylar bosib olishgan va hukmronlik qilishgan. Sanog'imizning 1-asri O'rtalarida Orol dengizi bo'ylariga Xunlar kelib, tub joy chorvador qabilalar bilan aralashib ketishgan. Natijada Shimoliy Turkmanistonda alanlar etnogenezi shakllangan. V asr O'rtalarida eftaliylar bu hududda humkronlik qilishgan. VI asrgacha Turkmaniston hududida zardushtiyalar, otashparastlar, buddizm va boshqa dinlar tarqalgan. VI asr o'rtalarida turk xoqonligi, VII asrda arablar bu joylarni bosib olishgan va islom dinini tarqatishgan. IX-X asrlarda'bu oika Tohiriyalar, Somoniylar davlatiga qaragan. Hududda Urganch, Niso, Saraxs, Dahiston kabi savdo-hunarmandchilik markazlari vujudga kelgan. Turkmaniston hududi g'arb bilan sharqni bog'lovchi «Ipak yo'li» chorrahasida bo'lgan.

IX-XI asrlarda Sirdaryoning quyi va O'rta oqimlarida hamda Kaspiy dengizining shimoliy va sharqiy sohillarida turkiy o'g'uz qabilalari yashagan. 100-yilda Saljuqiylar davlati Turkmaniston hududini bosib olganlar, o'g'uzlar turkman xalqining shakllanishiga asos bo'lgan.

Turkmaniston XII asr va XIII asr boshlarida Xorazm davlati qaramog'ida bo'lgan. 1219-1921-yilda Chingizxon qo'shinlari Xorazmshoh davlatini zabit etgan. Hudud Oltin o'rda, Chig'atoy ulusi, Halokuylar O'rtasida bo'lib olingan. Keyinchalik bu davlat va shu hududdagi uluslar zaiflashib borgan, bir necha yarim feodal davlatlar vujudga kelgan. XIV asrning 70-80-yillarda hudud Temuriylar tasarrufga o'tgan. XV asrda turkman elatinining shakllanishi nihoyasiga yetgan. XVI-XVII asrlarda hududning ma'lum qismlari Xiva va Buxoro xonliklariga, boshqa qismi Eronga tobe bo'lgan. 1869-1885-yilda Turkmaniston hududini Rossiya bosib olgan. 1869-yilda ruslar Krasnovodsk (Turkmanboshi) shahriga asos solishgan. 1882-yilda Zakaspiy oblasti tashkil topgan (Ashxobod). 1880-1888-yillarda Zakaspiy temir yo'li qurilgan. 1917-yil noyabr-dekabrda sovet hokimiyyati o'matildi, 30-aprel 1918-yilda Turkmaniston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi. 1924-yil «Milliy davlat chegaralanishi» bo'lib, 27-oktabr 1924-yilda Turkmaniston SSR tashkil topdi. Shundan keyingi yillarda SSSR tarkibida bo'ldi.

1991-yil oktabrda Mustaqilik haqida deklaratsiya qabul qilinib, mamlakat Turkmaniston deb nomlandi. Turkmaniston 1992-yilda

BMT a'zosi. Milliy bayrami 27-oktabr Mustaqillik kuni. 1995-yil 12-dekabr Davlatning betaraflik kuni. Davlat boshlig'i-Prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyat-Majlis (parlament) ijrochi hokimiyat-Vazirlar Mahkamasi (hukumat) hisoblanadi. Turkmanistonning joylanishi, tabiiy sharoiti va resurslari. Turkmaniston hududi Markaziy Osiyoning 12,5% ini tashkil etadi. Uning maydoni Rossiya, Qozog'iston va Ukraina davlatlarinidan kichik bolib, o'z navbatida, Avstriya, Belgiya, Gollandiya, Gretsiya, Daniya, Portugaliya va Shvetsariya davlatlarining hududlarini birga qo'shib hisoblaganda ham ulardan kattadir. Hududning 45 qismi Turon pasttekishgida joylashgan.

Turkmaniston shimoldan Qozog iston, shimol va shimol sharqdan O'zbekiston, janubdan Eron va Afg'oniston bilan chegaralanadi. Mamlakatning katta masofa (800 km atrof) dagi chegarasi g'arbda Kaspiy dengizi orqali o'tadi. Uning mazkur geografik o'rni xalq xo'jaligi rivojlantirish uchun bir qator qulayliklar tug'diradi.

O'lka hududining 90,0% ga yaqinini tashkil etgan va 350000 km² maydondagi Qoraqum cho'li dunyoning eng katta chollaridan biridir. Cho'ldagi qavat-qavat qum tepalarining balandligi bir necha metrga yetadi.

Turkmanistonning relyefi, asosan, tekislikdan iborat Janubidagina tepaliklar va O'rtacha balandlikdagi tog'lar bor. Turkmaniston hududida Kushka shahri yaqinidagi Childuxtar ovuli Turkmanistonning eng chekka janubiy nuqtasi hisoblanadi, Kaspiy dengizining Turkmanistonga qarashli qo'ltiqlari janubda kam parchalangan, shimolida Qorabo'g'ozgo'l, Krasnovodsk, Daja, Cheleken yarim orollari va qum tekisliklari bor. Sohili past, qumli.

Respublikaning janubiy qismida Kapetdog' (Ko'p tog') tog'lari joylashgan (eng baland joyi Rizicho'qqisi 2942 m). Undan sharq g'arbda Kichik Bolxon (777 m gacha) va Kata Bolxon (1881 m gacha) tizinalari bor. Turkmanistonning janubi-sharqida Paropamiz tog'larining shimoliy davomi Badxiz qirlari (eng baland joyi 1267) va Qorabel (eng baland joyi 984 m) tepaligi joylashgan. Ular orasidan Murg'ob daryosi oqadi. Chekka janubi-shariqida Hisor tizmasining Ko'hitang tarmog'i (balandligi 3139 m Ayribobo tog'i respublikaning eng baland nuqtasi) bor. G'arbida Krasnovodsk platosi, shimoliq g'arbida Ustyurt platosining janubiy chekkasi, Ustyurtdan janubda Orqa uzboy bunnali rayoni yotadi. Kaspiy bo'yli pasttekishgida

Nebitdog' (39 m), Boyadog' (134 m), Qumdog', Manjuqli (27 m) va b. qirlar ko'tarilib turadi. Kapetdog'dan shimol va shimoli-sharqda Qoraqum cho'li, Amudaryo va Tajan daryolari oralig'ida Janubisharqiy Qoraqum cho'li joylashgan.

Turkmaniston hududida O'rta dengiz geosinklinal mintaqasida joylashgan va ikki yirik tektonik elementlar epipaleozoy Turon plitasi va Alp burmali oblastining bir qismini egallaydi. Kapetdog' bilan Turon plitasi o'rtasida Kapetdog' oldi bukilmasi bor. Turkmanistonning janubiy rayonlari yuqori seysmik zonada joylashgan. (Ashgabat, 1948). Muhim qazilma boyliklari neft va gaz, Qo'tirtepa, Borsakelmas va boshqa joylardan neft; Shodlik, Achak, Naipdan gaz qazib olinadi. Gaz Tashhovuz viloyatidan boshqa barcha neft-gaz konlarida mavjud. Neft asosan mamlakatning g'arbiy qismida-Kaspiy bo'yli pasttekisligida va Kaspiy dengizi shelfida uchraydi. Hisobga olingan gaz zaxirasi jihatidan Turkmaniston MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin 2-o'rinda turadi, Turkmaniston mineral tuzlar (xlorid, sulfat, Qorabo'g'ozgo'l), simob (Kapetdog'da), ko'mir, oltingugurt (Gaurdak) qurilish materiallari (jumladan, oyna va sement xomashyolari Baxarden, Bezmein), shifobaxsh mineral suvlarga (Cheleken yarim orolida) boy. Qoraqum cho'lida 50-250 m chuqrilikda ichimlik suv manbalari topilgan. Respublikada temir rudasi yo'q. Rangli metallar kam, faqat mahalliy ahamiyatga ega.

Iqlimi keskin kontinental, qurg'oqchil iqlim. Yoruglikka va issiqlikka boy o'cha. Yalpi radiatsiya 360 K/kal/sm² yil. Yillik va sutkalik haroratning farqi katta,-havo namligi, yog'ngarchilik kam, bug'lanish juda yuqori. Yozi issiq va quruq, qishi yumshoq, kam qorli, ba'zi yillari qish sovuq keladi. Yanvarning o'rtacha harorati Turkmanistonning shimoli-sharqida -5° dan Atrek rayonida 4° gacha. Mutlaq minimal harorat -32° (Toshhovuz vil). Iyulning shimoli-sharqida 28°, janubida +32°. Mutlaq maksimal 49,9° (Repetek stansiyasi).

Yillik yog'in miqdori yil davomida Amudaryoning quyi qismida 80 mm, Qoraqumda 150 mm gacha, tog' vodiy va adirlarda 200-300 mm, tog'da 400 mm va undan ko'proq. Shimoli-sharqiy, shimol va shimoli-g'arbiy shamollar respublika hududida hukmronlik qiladi. Kapetdog' tog' oldilarida yozda garmsel esadi. Mavsumlar almashinishi davrida chang bo'ronlari bo'ladi. Vegetatsiya davri 200-270 kun.

Turkmaniston hududining 80% da doimiy oqar suvlar yo‘q. Daryolar faqal janubiy va sharqiy rayonlaridagina bor. Eng katta va sersuv daryo-Amudaryo. Amudaryo suvi Qoraqum kanali orqali Kaspiy dengzigacha bo‘lgan. Yaylov chovrachiligidagi yer osti suvlar ahamiyatga ega. Ko‘llarning aksariyati sho‘r. Yaxan ko‘l suvi chuchuk bo‘lib, Nebitdog‘ shahrini ichimlik suv bilan ta’minlaydi.

Ustyurt, Krasnovodsk, Orqa Unguz platolarida surqo‘ftgir tuproqlar, tog‘ etaklari, tog‘ yon bag‘irlarining quyi qismida bo‘z tuproqlar, tog‘oldi tekisliklarda och tus bo‘z tuproq tog‘larning quyi mintaqasida tipik bo‘z tuproq, yuqoriroqda to‘q bo‘z tuproqlar, tog‘ tepalarida tog‘-qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan. Qoraqum cho‘lida katta maydonni qum egalagan; pastqam joylarda taqirlar va taqir tuproqlar, sho‘rxoklar, daryo vodiylarida o‘tloqi-bo‘z va allyuvial-o‘tloqi tuproqlar bor. Turkmaniston hududining 2% qismi sug‘oriladi, xolos.

O‘simliklarining aksariyati choiga xos. Qumli cho‘llarda o‘t aralash butalar (oq va qora saksovul, qandim, cherkez, quyonsuyak, astragallar), sho‘rxoklarda yulg‘un, sarisazan, shoxilak va boshqalar. Ustyurt platosida buta sbuvoqlar daryo vodiyybrida to‘qay o‘rmonlari, Kapetdog‘ oldidagi cho‘llarda va past tog‘larda chala buta o‘simliklari, (shuvoq va har xil efemer o‘tlar) tog‘larning 1500 m dan yuqori qismida archa, olcha, bodom, anor, youg‘oq, anjir, pista daraxtkri o‘sadi. Cho‘lning ko‘p qismida yil bo‘yi chorva boqiladi.

Cho‘lda kemiruvchilar, qushlar, sudralib yuruvchilar, tog‘larda bo‘ri, tulki, qoplon, arxar, bezoar echkisi, morxur, Amudaryo vodisida to‘ng‘iz, kiyik (xongul), qirg‘ovul va boshqalar yashaydi. Daryolari va suv omborlari baliq (baxri baliq, sazan baliq) turiga boy. Suv havzalari qirg‘og‘ida suy patrandalari ko‘p. Turkmaniston hududi Turkmaniston FA., «Cho‘l» institutining Xazar, Badxiz, Repetek va boshqa qo‘riqxonalari bor.

Respublikaning yer fondi 48,8 mln ga bo‘lib, aholi jon boshiga olganda me’yoridan ortiqcha. Shundan 6-7 mln ga yerdan obikor dehqonchilikda foydalanish munikin. Biroq suv tanqisligi sababli respublikada 1 mln ga yerda sug‘orib dehqonchilik qiladi.. Haydaladigan yer maydoni ham kam. Umumiy yer maydonining 73,0% i va qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 97% ni yaylovlar (36 mln ga) tashkil eladi. Sug‘oriladigan yerlarning 5 5%ga yaqiniga chigit ekiladi.

Turkmanistonda **yer resurslari** maydoni yetarli, 1 kishiga to‘g‘-ri keladigan haydaladigan yer kam, sug‘orib ekiladigan yerlar bo‘yicha O‘zbekiston dagi ko‘rsatkichga yaqin. Adir yerlar Turkmanistonda deyarli yo‘q (lalmikor).

Agroqlim resurslari subtropik ekinlarni yetishtirish uchun respublikaning chekka janubi vajanubi-g‘arbida yetarli.

Suv resurslarining asosiy qismini Amudaryo (95,0% ini) tashkil etadi. Murg‘ob, Tajan, Atrek suvlaridan sug‘orishda to‘liq foydalaniladi. Respublikada bir yilga o‘rtacha km² ga 0,94 ming m³ suv to‘g‘ri keladi. Bu MDH davlatlari ichida eng kam ko‘rsatkich hisoblanadi. Qoraqum kanalining qurilishi bilan Amudaryo suvi 1954-yilda boylangan. Kanalning suv sarfi 300 m³/ aq ga yetgan. Sun’iy suv omborlari qurilgan (Hauzxon, Tajan). Kanal atrofida 2.000.00 ga dan ortiq yangi yerlar o‘zlashtirilgan, 400000 ga dan ortiq maydonning sug‘orish va suv bilan ta‘minlash darajasi yaxshilangan. Kanal qurilishi bilan minglab kishilar ish bilan ta‘minlandi. Kanaldan transport, baliqchilik, rekreatsiyada foydalanilmoqda.

Kerki yaqinida Amudaryoning suv sarfi 6-8 ming m³/daq. Mutlaq maksimal sarf 9000 m³ daq (1958), mutlaq minimal suv sarfi 400 m³/daq. Qoraqum kanali Qoraqum daryosi suv sarfi 300 m³/daq bo‘lib, Amudaryo suvining 1/27 qismini oladi.

Murg‘obning suv sarfi 50 m³/daq. Atrofidagi ekin ekiladigan maydonning 1/4 qismini suv bilan ta‘minlaydi. Tajanning suv sarfi 31m³/daq. Suvi yozda quriydi Atnek daryosining suvi Tajandan kam. Dunyodagi eng loyqa daryo. 1 m³ suvida 25 kg loyqa bor bolib, u Amudaryonikidan 6 marta ko‘p demakdir. Turkmanistonda yer osti suvlaridan foydalaniladi. Taqirlarda yomg‘ir suvlarini to‘playdilar hovuz, sardobalar va h.o.lar mavjud.

Aholi va mehnat resurslari. Aholi ma’lum hududda yashayotgan kishilar Hiiruhi bo‘lib, u har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir.

Aholi geografik jihatdan o‘rganayotganda 3 narsaga e’tibor beriladi:

1. Aholi moddiy boylik ishlab chiqaruvchi kuch, barcha moddiy ne’matlarning yaratuvchisi.
2. Aholi ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulotlarning ma’lum qismining istc‘molchisi.

3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining asosiy qismi bo‘lib, o‘zi ham takror barpo qiluvchidir. Har qanday iqtisodiy geografik muammolarni hal qilishda aholiga xos bo‘lgan shu xususiyatlar o‘rganiladi.

Turkmanistonning etnogenezi yuqorida aytib o‘tilganidek, boshqa xalqlarnikiga o‘xshab uzoq yillar davomida va murakkab jarayonlar asosida barpo bo‘lgan. Ularning kelib chiqishi bo‘yicha hozirgi kungacha aniq bir fikr yo‘q, ba’zi-bir jihatlari xususida olimlar birlari bilan kelishmagan hollari ma’lum. Har holda ular qadimgi mahalliy avlodlari dax va massagetlardan, sarmat va alan qabilalaridan so‘ng turkiylar va o‘g‘uzlardan o‘ziga xos tashqi qiyofa va belgilarni olishgan O‘g‘uzlar X asrda mahalliy aholi bilan aralashib ketgan. Umuman XV asrda turkman elati shakllangan. Hozirgacha turkman atamasi haqida tushunchalar turli mazmunga ega. Turkman iborasi arab tilidagi adabiyotlarda X asrda berilgan bo‘lib, unda «turkka o‘xhash» ma’noni aytib o‘tishgan. Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» asarida Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr) Bolosog‘unga kelganda turk hukumdori sharqqa qochishga majbur bo‘lgan. Shaharda 24 kishi qolganligini yozgan. Iskandar bu kishilarni ko‘rganda «Turk-monand», degan ekan. Shundan keyin bu 24 odamning nomi «Turkman» bo‘lib qoldi, deydi.

Turkman elati O‘rta asrlarda vujudga kelgan. Faqat inqilobdan so‘ng turli qabila va urug‘ni tashkil etgan bu xalqlarni birlashtirib Turkmaniston davlati barpo etildi. Endilikda turkmanlarning urug‘ va qabilalarga bo‘linishiga barham berildi. Respublika hududida tekin va salakr, yovmo‘t vaersari sokurlar, tyoklan, qorabosh va choudor, takai aliili va boshqa qadimgi urug‘lar va qabilalar bilan birgalikda Nurota hududidagi o‘zbek turkmanlari (Nurota turkmanlari, bugajili, g‘ozoyoqli, qanjig‘ali, baraqlar, qora turkman va boshqalar) ham yashashadi. Hozirgi kunda ular bir butun turkman xalqini tashkil qilishgan. Ba’zi bir urug‘lar o‘zlarining etnografik xususiyatlarini saqlab kelishmoqda.

Turkmaniston aholisi 1959-yilgi aholi ro‘yxati bo‘yicha 1515 ming kishi bo‘gan. Ularning 924600 tasi turkmanlar bo‘lib, umumiy aholi sonining 61% m tashkil etgan hamda o‘scha davrda sovet ittiifoqida yashayotgan turkmanlarning 92% ni tashkil etgan.

1-yanvar 1968-yilgi ma'lumotiga ko'ra Turkmanistonda 2029 ming kishi yashagan. Umumiylar aholining 17% ruslar, 8% o'zbek, 5% qozoq, 2% tatar va 1,5% ukrain va armanlardan, taxminan 4% ga yaqin boshqa millat va elat kishilaridan iborat bo'lgan. Tabiiy o'sish aholi harakati va ayniqsa, tabiiy o'sish koeffitsiyenti bilan bog'liq. Turkmanistonning asosiy xalqi turkmanlar bo'ib, ularning soni 2537000 kishi (1990). Ular, shuningdek, O'zbekiston, Shimoliy Kavkaz, Astraxan viloyati va Rossiyadan bir nechta shaharlarda, Afg'oniston, Eron va Turkiyada yashaydi.

Aholining umumiylar soni 1995-yilda 4,5 mln. 1999-yilda 4990 ming kishini tashkil etgan. 2013-yilda 5240502 kishiga yetdi. Milliy tarkibida turkmanlar 78,57 %, ruslar 3,23 % o'zbeklar 9,38 %, qozoqlar 2,70 %, tatarlar 1,19 %, ukrainlар 0,22 %, ozarboyjon va armanlar 1,02 %, 0,43% dan tashkil topgan. 1990-va 1997-yillar oraliq'ida rusiyabon aholining 23% i ko'chib ketishdi. Mustaqillik yillarda aholining umumiylar soni ortib bormoqda. Aholining O'rtacha zichligi Markaziy Osiyo davlatlarida o'rtacha 13,3 kishi km² bo'lsa, Turkmanistonda bu ko'rsatkich 2013-yilda 1 km² ga 10 kishi to'g'ri kelgan. Turkmanistonda aholining o'sish sur'ati Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlanga qaraganda yuqori bo'lib, 1000 kishi hisobiga tabiiy o'sish koeffitsiyenti 26,9 mingga teng.

Turkmanistonda aholi zichligi juda kam bo'lishi bilan birga, ularning geografik joylashuvida ham katta tafovutlar mavjud. Aholi juda notekis joylashgan. Aholi zich joylashgan hududlar Murg'ob va Taj an daryosining quyi qismi-vohalarda, Amudaryoning O'rta va quyi qismlarida, Kapetdog' tizmasining tog'oldi qismlaridadir. (1 km² ga 100-200 kishi to'g'ri keladi). 350000 km² maydonni egallagan. Qoraqum cho'li hududida km² ga 1 kishidan ham kam odam to'g'ri keladi.

Aholining 50,4 % dan ortig'i shaharlarda yashaydi. Muhim shaharlari: Ashgabat, Turkmanobod, Toshhovuz, Mari, Turkmanboshi, Bayram-Ali, Tajandir. Sobiq ittifoq davrida Bolqonobod, Bo'zmain, Cheleken shaharlari bunyod etilgan. Ruslar asosan shaharlarda yashaydi. Turkmanlar asosan mamlakatning janubiy sharqiy va g'arbiy qismlarida joylashgan. O'zbeklar Toshhovuzda ko'p (aholi 1/3 qismi) Turkmanobod viloyati aholisining 1/10 qismi o'zbeklardir.

Shahar aholisining salmog'i yillar davomida o'zgargan. Jumladan, 1913; 1939; 1959; 1979; 1999 va 2016-yillarda shahar aholisining salmog'i: 11; 33; 46; 49 va 50,4% ni tashkil etdi.

Aholi umumiyligi qiyoslaganda ayollar 50% ni tashkil etadi. Ularning ishchi va xizmalchilar sonidagi hissasi 40% (1924-yilda 13% bo'lgan) ni tashkil etdi. Ular sanoatda (45%), ma'naviy va ma'rifiy (57%) tibbiyat, ijtimoiy ta'minot va sport sohalarida (72%) mehnat bilan bandlar.

Respublikaning aholisi va u bilan bog'liq bo'ladigan muammojar Markaziy Osiyo davlatlariga xos bo'lgan muammolarning o'zginasidir. Jumladan, aholining umumiyligi soni, aholi zichligi, tabiiy o'sish ko'rsatkichi, bolalar o'limi, hudud bo'ylab notejis taqsimlanish, ish bilan bandlik darajasi va boshqalar. Mustaqillik yillarda kadrlar masalasi ham respublika ahamiyatiga molik bo'lgan dolzarb nmsala bo'Mdi. Respublika ehtiyojidan kelib chiqqan holda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Xo'jaligi. Turkmaniston agrar-industrial mamlakat. Milliy daromad tarkibida sanoatning hissasi 50% ni, xizmat ko'rsalish sohasiniki -32%, qishloq xo'jaligining ulushi -18% dir.

Turkmaniston xo'jalik tarmoqlarining tashkil etilishi, rivojlantirilishi va joylashtirilishi inson, tabiiy sharoit va tabiiy resurslar bilan, shuningdek, davlat tuzilishi, tarixiy-geografik omillar bilan bog'liq. Turkmaniston xo'jaligini rivojlantirishda transport tarmoqlarining ahamiyati juda kattadir. Chunki mamlakatdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar xomashyolar, materiallar yoki umuman yuk va yo'lovchi tashishning asosiy vositasи -bu transport va transport tarmoqlaridir.

Turkmaniston 1991-yilgacha sobiq ittifoqda ishlab chiqarilgan nefting 4%, natriy sulfatning 40%, oynaning 5%, mineral o'g'itning 3%, osh tuzining 2%, paxtaning 10%, qorako'l terisining 20%, pillanning 10%, junining 3% ni bergen. Shunday yuqori ko'rsatkichga erishish turkman xalqining fidokorona mehnati, uzlusiz faoliyati bilan bog'liq. Sobiq itlifoq davrida hozirgi Turkmaniston ko'p tarmoqli sanoatga va yirik mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jaligiga ega bo'lgan industrial-agrar respublika dob qaralgan. Sanoat mahsulotining hajmi 1975-yilda 1913-yilga nisbatan 70 marta, 1940-yilga nisbatan 10,4 marta ko'paygan. 1980-yillarda yalpi ichki mahsulotning

50% i sanoatning ulushiga to‘g‘ri kelgan. Respublika xo‘jaligida sanoat, jumladan, og‘ir sanoat rivojlanib yetakchi tarmoq majmuasiga aylangan. Yetakchi tarmoqlari gaz va neft qazib chiqarish, energetika, kimyo, mashinasoziiq va boshqalar. Shuningdek, yengil, oziq-ovqat, qurilish materiallari sanobi mavjud bo‘lgan sobiq ittifoq davrida GRES, Issiqlik elektroenergiya markazlari barpo etilgan bo‘lib, hozirgi vaqtida ularning quvvati oshirilmoqda. Bular: Bo‘zmayin GRESi, Turkmanboshi, Nebitdog‘, Turkmanobod, Mari, Gugurtdog‘dagi elektr stansiyalaridir.

Turkmanistonda sanoat geografiyasining shakllanishi va rivojlani-shi tabiiy omillarga, shu jumladan, resurslarga bog‘liqdir. Ayniqsa, yoqilg‘i-energetika sanoatini rivojlantirish uchun resurs va xomashyo juda ko‘p. Dengizning shelf va sayozliklarida, qirg‘oq bo‘yi hududlarida, shuningdek, janubi-sharq va sharqiy luidudlarida neft va gaz zaxiralari juda mo‘l. Asosiy gaz konlari: Gazo‘choq, Naip, Shatlik, Gugurtdog‘ va boshqalar. Bularning bo‘lishi mamlakatda xilma-xil sanoatni rivojlan-tirishga yordam beradi. Regionda to‘liq siklga ega bo‘lgan sanoat tar-moqlariga: neft, gaz, kimyo, to‘qimachilik sanoati, agrosanoat hamda sanoat qurilish tarmoqlari mavjud.

Turkmanistonda sanoat tarmoqlari orasida yoqilg‘i-energetika sanoati majmuasi birinchi o‘rinda turadi. Neft qazib olish va uni qayta ishlash ko‘rsatkichi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda va butun sanoat fondining 45% ini tashkil etadi. Sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyoda qazib olingan neftning 4/5 qismi Turkmanistonga to‘g‘ri kelgan. Turk-maniston nefti sifatlari, ya’ni oltingugurt miqdori kam.

Mustaqillikning dastlabki yillarda xalq xo‘jaligini qayta qurish katta qiyinchiliklar bilan boshlandi. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishda ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar asosida tashkil et-ish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi korxonalami ishga tushirish, shuningdek, yosh mustaqil davlatlar bilan bu jarayonlarda hamkorlik o‘matishda jiddiy qiyinchiliklar bo‘ldi. Bularning barchasi mehnat unumdonligiga, mahsulotlaming sifatiga birmuncha salbiy. ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, 1990-yilda mamlakatda 5,4 mln t (1967-yilda 12 mln t neft olingan) neft qazib olingan bo‘lsa, u 1995 -yilda 4,1 ming t ga tushib qoldi. Shu yillar oraliq‘ida tabiiy gaz olish 84,3 mlrd m³ dan 55,6 lrd m³ ga, elektroenergiya ishlab chiqarish 15 mlrd kvt soatdan 10,5 mlrd kv soat yilga tushib qoldi.

Keyingi yillarda Dalvarzin-Zayli (Markaziy Qoraqum), Achaksoy, Bayramali, Kugurmada gazning eng katta zaxiralari borligi ma'lum bo'ldi. Umuman olganda, Toshhovuzdan tashqari respublikanining hamma hududlarida gaz zaxirasi mavjud.

Turkmanistonda ishlab chiqarilgan elektroenergiyaning 95% i IES larga to'g'ri keladi. Respublikadagi GRES va boshqa energiya markaziarining quvvatini oshirishga e'tibor qaratilgan.

Mamlakatdagi istiqbollni sanoat tarmoqlaridan yana biri neft-gaz-kimyo sanoat majmuasidir. Neft, asosan, Kaspiy bo'yidagi konlardan quvurlar orqali Turkmanboshiga keltiriladi. Neftning ma'lum bir qismi eksport qilinadi, qolganlari esa mahalliy korxonalarda qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar olinadi. Zavoddan chiqqan mazut va yo'ldosh gazlar mahalliy issiqlik elektrostansiyalarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neftni qayta ishlash zavodi Turkmanobod yaqinidagi Seydi sharqida o'tgan asrning 80-yillardan beri ishlab turibdi.

Gazning asosiy qismi gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Shuningdek, GRES lar asosiy yoqilg'i manbasi bo'Mib hisoblanadi (Mari GRESi) hiamda tabiiy gaz asosida azotli mineral o'g'itlar ishlab chiqariladi.

Turkmanistonda glauber (mirabilit) tuzi, osh tuzi, oltingugurt, brom, yod va boshqa, ya'ni neft kimyosi, tog' kimyosini vujudga keltiradigan resurslar mavjud. Gugurtdog' (Gaurdan.) oltingugurtli Turkmanobod kimyo kombinatida ishlatilib, u yerda superfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqarilmoqda. Qorabo'g'ozgolning xomashyosi asosida sulfat natriy (natriy sulfat) ishlab chiqariladi. Sobiq ittifoqda ishlab chiqarilgan sulfat natriyning 40% i shu regionda ishlab chiqarilgan. Cheleken rayonida gaz va neft kimyosi sanoati asosida yod va brom ishlab chiqariladi. Hozirgi kunga kelib Gugurtdog'da ham kimyo s'anoati shakllanmoqda.

Turkmanistonda sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan metall rudalari bo'Imaganligi sababli metallurgiya (qora va rangli) sanoati deyarli rivojlanmagan. Mashinasoziik sanoati mavjud, biroq kam taraqqiy etgan. Asosan tog'-kon sanoatiga, neft-kimyo va qurilish materiallari sanoatiga, shuningdek, transport mashinalariga oid mashinasoziik korxonalari mavjud. Metallni qayta ishlash zavodlari bor, Asosiy markazi; Ashxobot, Turkmanobod, Toshhovuz, Turkmanboshi, Gaurdak, Qizil Arvat va boshqa shaharlardir. Ashxobotdag'i zavodda

teplovozlar, avtomobillar, neft. nasoslari, ventilyatorlars traktor kultivatorlari, gaz plilalari ta'mirlanadi, qisman ishlab chiqariladi. Ashxobotda elektrotexnika mashinasozligi, metallni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud. Turkmanboshi va Turkmanobodda dengiz va daryo kemalarini ta'mirlash korxonalari bor.

Turkmanistonda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari viloyat inarkazlarida va viloyatga bo'ysinuvchi shaharlarda mavjud bo'lsada, lekin ular respublika hududida bir xilda taqsimlanmagan. Yengil sanoat mamlakat xo'jaligida yetakchi o'rinda turadi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoat korxonalari Turkmanboshi shahridan boshqa barcha viloyatlarda muvjud. Respublikada 800000 t dan -1,3 min t gacha paxta hosili olinadi. Paxta tolasi qayta ishlanadi, asosiy qismi eksport qilinadi. Yengil sanoatda junga ishlov berish, ko'ncilik, gilam to'qish, tikuvchilik tarmoqlari yaxshi rivojlangan. Ipakchilik yaxshi yo'lga qo'yilgan (ipak qurti boqiladi). To'qimachilik yengil sanoatning eng yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Ashxobot, Mari, Turkmanobod, Nebitdog'da to'qilgan gilamlar dunyo bozorida xardorgir mahsulotlar qatoridan o'rinn olgan.

Oziq-ovqat sanoati mahsulot ishlab chiqarish salmog'i bo'yicha yengil sanoatdan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. 1995-yilda milliy valyutada (manat) 1,019 mln manat mahsulot ishlab chiqarilgan. Paxta moyi, go'sht, baliq, sabzavot konservalari ishlab chiqariladi. Eng katta go'sht kombinali va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi. zavodlar Ashxobotda, Turkmanobodda, Mari va Toshhovuzda mavjud Yuqorida ko'rsatilganidek, mamlakatda ba'zi bir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar bor. Shu bilan birga ularni barpo etishga, shuningdek, agrosanoat majmuuni shakllantirish va rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud. Bular: sanoat tarmoqlari joylashgan hududlarning bir-biridan uzoqligi, aholining faol mehnat resurslarining bir tekisda joylashmaganligi, transport yo'llaridagi kamchiliklar va boshqalar.

Mamlakatda qishloq xo'jaligi sobiq ittifoq davrida bunyod etildi va rivojlantirilib borildi. Chunki qishloq xo'jalik xomashyolari «markaz»ga yuborilar va u yerda qayta ishlanib, tayyor mahsulot yana turkman bozoriga keltirilar edi. Turkmanistonda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar maydoni 37 mln ga (Respublika hududining

75,5%). Shundan haydaladigan yerlar 900 ming ga atrofida. 35-36,0 mln ga yer-yaylov va yem-xashak ekinlari maydoni hisoblanadi. Chigit har yili 500 550 mingga maydonga ekiladi.

Mamlakatda dehqonchilik qishloq xo‘jaligidagi yetakchi tarmoq. Dehqonchilikning asosini paxtachilik tashkil etadi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida paxta hosili yetishtirish bo‘yicha O‘zbekistondan so‘ng 2-o‘rinda turadi. Paxta (asosan ingichka tolali paxta) vohalarda va tog‘ yonbag‘irlarida yetishtiriladi. Respublikada bog‘dorchilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik hum dehqonchilikning muhim tarmog‘i hisoblanadi. Atrek daryosi va uning irmoqlari bo‘ylarida subtropik ekinzorlar mavjud. Mamlakatda 1,1 mln t don yetishtiriladi.

Chorvachilik ahamiyati jihatidan paxtachilikdan so‘nggi tarmoqdir. Qorako‘l qo‘ylari, mayin junli qo‘ylar, tuya, qoramol, axaltaka va yovmut otlari yetishtiriladi. Pillachilik, suv havzalarida baliq xo‘jaligi qisman rivojlangan.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Respublikada transport tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish uchun o‘ziga xos imkoniyatlar mavjud. Yo‘llar o‘tkazish uchun yer yuzasining tekisligi qulaylik tug‘diradi. Respublikada yo‘llarning temir yo‘l, avtomobil, quvur, suv, havo transport turlari mavjud. Temir yo‘llarning uzunligi 2,12 ming km. Umumiy foydalanadigan avtomobil yo‘llarining uzunligi 13,6 ming km. Shundan qattiq qatlamlı yo‘llar uzunligi 11,6 ming km.

2016-yilda Turkmaniston transportlari orqali tashilgan yuk va yuk aylanmalari % larda

| Transport turlari | Yuk tashish | Yuk tashish aylanmasi |
|--------------------------|--------------------|------------------------------|
| Umumiy | 1,9 | 0,1 |
| Avtomobil | 2,1 | 5,2 |
| Temiryo‘l | -1,3 | -4,2 |
| Havo transporti | 0 | 0 |

2016-yilda Turkmaniston transportlari orqali tashilgan yo‘lovchi va yo‘lovchi aylanmalari % larda

| Transport turlari | Yo‘lovchi tashish | Yo‘lovchi tashish aylanmasi |
|--------------------------|--------------------------|------------------------------------|
| Umumiy | 1,2 | 1,9 |
| Avtomobil | 1,2 | 1,7 |
| Temiryo‘l | 1,0 | 2,6 |
| Havo transporti | 2,4 | 2,8 |

Kaspiy dengizida Turkmanboshi-Boku dengiz paromi mavjud. Amudaryo va Qoraqum kanalida kema qatnaydi. Quvur transporti orqali gaz, neft haydaladi. Vishka-Turkmanboshi; Cheleken-Turkmanboshi neft quvurlari bor.

Turkmaniston chetga gaz, neft va neft mahsulotlari, paxta, mineral o‘g‘it eksport qiladi. Xorijiy davlatlardan mashina va uskunalar, qora metallar, transport vositalari, kiyim-kechak, poyabzal, don, qandshakar oladi (importi). Asosan Rossiya, Ukraina va MOD lari bilan savdo qiladi. Mamlakatning O‘zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi 2003-yilda 2002-yilga qaraganda 17,3% ga ortdi va bu O‘zbekistonning tashqi savdosidagi ulushining 1,3% ini tashkil etdi.

2016-yil bo‘yicha Turkmanistonda shahar va viloyatlar bo‘yicha tovar aylanmalari % larda

| | |
|--------------------|------|
| Mariy viloyati | 11,8 |
| Ashxabod shahri | 52,2 |
| Axal viloyati | 7,9 |
| Balgon viloyati | 6,9 |
| Dashog‘uz viloyati | 9,3 |
| Lebap viloyati | 11,9 |

Iqtisodiy geografik rayonlari. Turkmanistonda 5 ta: Kaspiy bo‘yi (g‘arbiy Turkmaniston); Kapetdog‘ etaklari; Janubiy Turkmaniston; O‘rta Amudaryo; Shimoliy Turkmaniston kabi iqtisodiy rayonlar ajratilgan. Ularning bo‘linishi ma’muriy-hududiy bo‘linishga,

ya'ni viloyatlarga to‘g‘ri keladi. Har bir rayon bir-biridan hududiy ishlab chiqarish majmuasi, geografik mehnat taqsimoti, ixtisoslashuvi bilan farqlanadi.

1. Kaspiy bo‘yi iqtisodiy rayoni. Respublika hududining 28% i va aholisining 1/10 qismini tashkil etgan. Rayonda neft, gaz zaxiralari ko‘p, oqar suvlar yo‘q deyarli. Aholisining 80% shaharlarda yashaydi, chunki tog‘kon sanoati, neft-kimyo sanoati yaxshi rivojlangan. Qo‘ychilik, baliqchilik rivojlangan. Rekreatsion resurslarga boy.

2. Kapetdog‘ etaklari. Asosan Ashxobot viloyati kiradi. Mamlakat hududining 1/5 qismi (19,6%), aholisining 25% i shu iqtisodiy rayonga to‘g‘ri keladi. 70-75% aholi shahar va shaharchalarda yashaydi. Gaz zaxirasi ko‘p. Sement xomashyolari mavjud. Qoraqum kanali asosida dehqonchilik (paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, chorvachilik, cho‘l yaylovlarida qo‘ychilik) ixtisoslashgan. To‘qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari (oyna ishlab chiqaradi) sanoati mavjud.

3. Janubiy Turkmaniston (Mari viloyati). Respublika hududining 18% ini, aholisining 23% ini tashkil etadi. Aholi zichligi har 1 km²ga 9 kishi. Sharapli, Qora Chop, Shatliq gaz konlari topilgan. Qorako‘l qo‘ylari boqiladi. Mamlakatda yetishtiriladigan ingichka to‘lali paxtaning 40% ini, qorako‘lning 50% ini yetkazib beradi. Yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Azotli o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi zavod mavjud. Mari GRESi bor. Paxta tozalash va yog‘ eks-traksiya zavodlari bor.

4. O‘rta Amudaryo iqtisodiy rayoni. (Turkmanobod viloyati). Mamlakat hududining 20% ga yaqinini, aholisining 21% ini tashkil etadi. Asosan sug‘orib dehqonchilik qilinadi. ChoMda qorako‘l qo‘ylari boqiladi (Sandiqli choMida). Mamlakatda yetishtirilgan paxtaning 20% ini, poliz ekinlarining 25% ni beradi. Oltingugurt, bariy, kaliy tuz konlari mavjud. Rux qazib olinadi. Turkmanistonda kema, ekskavator, lokomotivlar remont qilinadi. Neftni qayta ishslash, superfosfat zavodi bor.

5. Shimoliy Turkmaniston (Toshhovuz viloyati) iqtisodiy rayoni. Mamlakat hududining 13%i, aholisining 20% i shu rayonda joylashgan. Umumiy paxta hosilining (06rtta.pishar) 1/3 qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan. Pillaçilik, qo‘ychilikka ixtisoslashgan. Agrosanoat kompleksi mavjud. Foydali qazilmalar yo‘q deyarli.


O'zbekiston Respublikasi



GERBI



BAYROG'I



O'zbekiston Respublikasi xaritasi

- | | | |
|--------------------|----------------|--------------------------------------|
| 1. Toshkent shahri | 6. Namangan | 11. Surhandaryo |
| 2. Andijon | 7. Navoiy | 12. Toshkent |
| 3. Buxoro | 8. Qashqadaryo | 13. Xorazm |
| 4. Farg'onha | 9. Samarqand | 14. Qoraqalpog'iston Respublikasi |
| 5. Jizzax | 10. Sirdaryo | |

O‘zbekiston Respublikasi haqida qisqacha:

| | |
|--------------------------|--|
| Rasmiy nomi | O‘zbekiston Respublikasi |
| Poytaxti | Toshkent (1930-yildan) |
| Hududi | 448,900 km ² . (Dunyoda 56-o‘rinda) |
| Suvlik | 4,9 % |
| Aholisi | 31 807 000 (2016-Yil). (Dunyoda 41-o‘rinda) |
| Zichligi | 1 km ² 75,8 kishi |
| Davlat tuzimi | suveren demokratik Respublika |
| Davlat tili | O‘zbek tili |
| Dini | Islom |
| Pul birligi | o‘zbek so‘mi |
| Davlat tili | o‘zbek tili |
| Katta sha-harlari | Toshkent, Samarqand, Namangan, Andijon, Nukus, Buxoro, Farg‘ona |
| Prezident | Shavkat Mirziyoyev Miromonovich (2016-yil) |
| Bosh vazir | Abdulla Aripov Nig‘matovich (2016-yil) |
| YaIM (XQT) | \$ 198,823 mlrd (Dunyoda 64-o‘rin) |
| Jon boshiga | \$ 6343,5 |
| Internet domen | .uz |
| Qisqartmasi | UZ, UZB |
| Telefon pre-faksi | +998 |
| Vaqt mint-aqasi | UTC +5 |
| Mustaqillik kuni | 1991-yil 1-sentabr |
| Milliy Bayramlari | 1992-yil 2-iyulda Oliy Majlis qaroriga binoan ushbu kunlar bayram va dam olish kunlari deb e’lon qilin-gan: 1 Yanvar — „Yangi Yil Bayrami“ 14 Yanvar — „Vatan Himoyachilari kuni“ 8 Mart — „Xalqaro Xotin-Qizlar kuni“ 21 Mart — „Navro‘z Bayrami“ |

| | |
|----------------------------|---|
| | <p>9 May — „Xotira va Qadrlash kuni“</p> <p>1 Sentyabr — „Mustaqillik kuni“</p> <p>1 Oktyabr — „O'qituvchi va Murabbiylar kuni“</p> <p>8 Dekabr — „Konstitutsiya kuni“</p> <p>31 Dekabr — „YangiYil rasman“</p> <p>Ramazon Hayit (Iyd-al-Fitr) bayrami</p> <p>Qurban Hayit (Iyd-al-Adha) bayrami</p> |
| Xalqaro munosabatlar | <p>O'zbekiston - dunyoning 130 dan ortiq mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan.</p> <p>Toshkentda 45 ta xorijiy davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalar, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilotlarning vakolatxonalar, 3 ta diplomatik mavqega ega bo'lgan savdo vakolatxonalar faoliyat olib bormoqda.</p> <p>Bugungi kunda xorijiy mamlakat va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 46 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.</p> <p>O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib, turli xil ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan aloqalarni rivojlantirmoqda.</p> |
| Ma'muriy hududiy tuzilishi | 12 ta viloyat (Andijon, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Navoiy, Qashqadaryo, Samarqand, Surhandaryo, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent), Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasidan tuzilgan bo'lib, 119 ta shahar, 1085 ta shaharcha va 11013 ta qishloq aholi punktlari mavjud. |
| Eng baland nuqtasi | 4346 m Hazrati Sulton |
| Eng past nuqtasi | -12 m Mingbuloq botig'i |
| Chegaralari | Shimolda va ga'rbda Qozog'iston (chevara uzunligi 2203km), janubda Turkmaniston (1621km) va Avg'oniston (137km), janubiy-sharqda Tojikiston (1161km), sharqda Qirg'iziston (1099km) umumiy chevara uzunligi 6221km |

REJA:

1. Respublikaning tashkil topishi.
2. O‘zbekistonning joylanishi, tabiiy sharoiti va resurslari.
3. Aholisi va mehnat resurslari.
4. Xo‘jaligi.
5. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.
6. Iqtisodiy geografik rayonlari.

Respublikaning tashkil topishi. Hozirgi O‘zbekiston hududida iqtisodiy va ijtimoiy hayot uzoq yillar davomida shakllanib kelgan va takomillashgan. Mintaqada bir necha bor markazlashgan davlatlar barpo bo‘ldi. Xo‘jalik va fan rivojlandi. Ba’zi bir davrlarda o‘zaro va bosqinchilik urushlari bo‘lib, shu hududda yashayotgan xalqlarning tinchligi yo‘qoldi, davlat tuzilmalari o‘zgardi, joylar bo‘linib ketdi, shahar va qishloqlar, obod mahallalar vayron bo‘ldi, hayot deyarli so‘ndirildi.

O‘zbekiston hududida ibtidoiy odamlar quyi paleolit davridayoq (bundan qariyb 700 ming -1-1,5 mln yil muqaddam) yashaganlar. Farg‘ona vodiysining So‘x soyi sohilidagi Selung‘ur g‘orida va Ohangaron vodiysining Qizilolmasoy bo‘yidagi Ko‘lbuloq makonida topib o‘rganilgach yodgorliklar bunga asos bo‘ladi. Markaziy Osiyo hududlarida bundan taxminan 3-3,5 ming yillar muqaddam aholi O‘rtasida tabaqlanish sodir bo‘lgan.

Markaziy Osiyo hududida milloddan avval 1-ming yillikning I yarmida Sug‘d (Samarqand), Baqtriya (Baxtar) va Xorazm kabi tarixiy madaniy davlatlar tashkil topgan. Shaharlar bunyod etilgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiq rivojlangan. Bu davlatlarning hududlari atrofida dasht va tog‘oldi joylarda chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi yashaganlar. Chorvador aholini «tur»lar va ular yashaydigan hududlarni Turon deb ataganlar. Bu o‘lkada saklar, massagetlar yashashgan. O‘sha davrda dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi bilan sak va massaget qabilalari (chorvador) iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borishgan. Bu davrda Parfiya va Marg‘iyona davlatlari ham shakllangan edi, Miloddan avvalgi VI asr O‘rtalarida Ahomoniylar podsholiqi, miloddan avval 334-329-yillarda makedoniyalik Iskandar (Ale-

ksandr), so‘ng Salavkiylar Baqtriya, Sug‘d hududining katta qismini o‘zlariga tobe qilishgan. Yunon-Baqtriya davlati 120 yildan ortiq mustaqil yashadi. Baqtriya, Sug‘d va Marg‘iyonada ko‘plab shaharlar qurildi, dehqonchilik, chovachilik, hunarmandchilik rivojlandi.

Miloddan avval IV asrda Xorazm (Xuvarzm— ajoyib qal‘ali o‘lka), VI-I asrlarda Farg‘ona («parkana»-suv bo‘yi). miloddan avval 111 asr boshlarida Qang‘ davlati, miloddan avval II—I asr oxirida Kushon podsholigi bolgan (poytaxti Dalvarzintepa). Kushon podsholigi davrida, ya‘ni milodning I—III asrlarida Sharq va g‘arb mammakatlarida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar kengaydi. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati ortdi. V asrda eftaliylar hukmronligi davrida Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vodiylarida shaharlar bunyod etilgan, hunarmandchilik, dehqonchilik, to‘quvchilik, savdo rivojlangan. Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayan.

Milodiy 555-yilda Turklar («Turk»-kuchli, chidamli degani) Sirdaryo bo‘ylariga yetib kelishdi, so‘ng asrning II yarmida Samarqand, Kesh, Buxoroni egallahdi. V-VII asrlarda Sug‘dlar uyushmasi tashkil topdi ular Samarqand, Ishtixon, Kushoniya, Buxoro, Kesh, Naxshobda hunarmandchilik, savdo-sotiq, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanishdi. 654-yildan arablar Movarounnahrga (daryoning narigi tomoni ma’nosida) hujum qildilar va 705-715-yillari u butunlay arablarga tobe bo‘ldi. Islom dini aholi o‘rtasida targ‘ibot qilindi, Musulmon huquqi joriy etildi. X asr oxifida o‘lkaning katta qismi qoraxoniylar tasarrufiga o‘tdi. X-XI asrlarda Markaziy Osiyoda Qoraxoniylar, Tohiriyalar, Somoniylar, Qoraxitoylar hokimiyati o‘rnatilgan. So‘nggi asrlarda Xorazm davlati tiklanadi. XIII asr boshida uning hududi juda katta maydonga ega bo‘ladi. Shu bilan birga sinfiy kurash kuchayadi va ichki isyonlar davom etadi. 1219-1231-yillarda Chingizzon qo‘sishinlari Xorazmshoh hukmdorligini tugatadi. Mo‘g‘ullar Istilosi davrida Movarounnahr va Xorazmnинг iqtisodiy va madaniy hayotiga juda katta zarar yetkazildi.

XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahrda o‘zaro kurash kuchayib ketdi. Samarqandda Sarbadorlar hokimiyati o‘rnatildi. Keyin sarbadorlaming boshliqlari qatl qilindi. 1370-yilda Amir Temur Movarounnaxrning amiri deb e’lon qilindi. 1405-yilgacha,

ya'ni Amir Temur o'zining 35 yillik hukmronlik davrida Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'lltig'iga. qadar bolgan katta hududda o'z sultanatini yaratdi. Madaniyat yuksaldi, shaharlar obod bo'ldi, ilm-fan taraqqiy etdi. Bir-oq Amir Temur vafotidan so'ng, taxt uchun Temuriylar orasida 5 yil davomida o'zaro urushlar avj olib ketdi. 1500-yili Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbeklar xoni Shayboniyxon Samarqandga hujum qildi. XVI asrda Markaziy Osiyoda 2 ta xonlik-Buxoro va Xiva xonligi vujudga keldi. Shayboniylardan Abdullaxon II (1534-1598) Movarounnahmi birlashtirdi, osoyishtalik boshlandi. 1599-1753-yillarda Movorounnaxrga ashtarxoniylar hukmronlik qilishdi. 1709-yilda Qo'qon xonligi, tashkil topdi. XIX asrning I yarmida Qo'qon xonligi shimolda Rossiya bilan, g'arbda Buxoro va Xiva bilan, janubda Qorategin, Darboz, Ko'lob, sharqda Sharqiy Turkiston bilan chegaradosh bo'igan

Yilnomamizning oxirgi bir yarim asrlik tarixi davomida hozirgi O'zbekiston hududida juda ko'p voqeja va hodisalar yuz berdi. Bu hoi shu yillar davomidagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy qarashlar bilan, davr taqqozosi bilan bog'liqidir.

XIX asrda Rossiya Buyuk Britaniyaning Turkiston o'lkasi va Kaspiy dengizingin sharqiy tomonlarini egallab olishdan xavfsirab Markaziy Osiyoni bosib olishga kirishdi. Markaziy Osiyo Rossiya uchun eng arzon xomashyo manbai va tayyor sanoat mollarini yet-kazib beradigan bozor o'rnila zarur edi. 1865-yil 17-iyunda Toshkent shahri rus qo'shnirlari tomonidan egallandi. 1866-yil 18-oktabrda Jizzaxni bosib oldi. 1867-yil 11-iyunda markazi Toshkent shahri bo'lган Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston harbiy okrugi tuzildi. 1968-yilda Qo'qon xoni Rossiyaga tobe boldi. Umuman, 1865-1876-yillarda Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklari Rossiyaga tobe bo'lib, tovon to'lay boshladи. 1917-yilgacha Rossiyaga qaram bo'lган hududlarda sug'orish inshootlari va suv miqdori nazoratga olindi, paxta maydonlari kengaytirilib, g'alla yetishtirish kamaytirildi.

1887-yil Kogon va Samarqandga qadar temir yo'l qurildi. 1899-yilda Farg'ona vodiysi va Toshkent temir yo'li bilan bog'landi. 1906-yilda Toshkent-Orenburg, 1915-yilda Buxoro-Qarshi-Termiz; Buxoro-Qarshi-Shahrisabz-Kitob temir yo'li qurildi. Umuman rus kapitali

bu o'lkaga kirib keldi. Biroq xalqning turmushi tobora og'irlashib bordi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi umuman Rossiyaga qaram bolib qoldi. Biroq xalqning podsho Rossiyasi mustamlakachilariga qarshi kurashi ortib bordi.

1917-yilgi oktabr to'ntarishidan so'ng 1918-yilda Turkiston Muxtor SSR tuzildi. 1920-yil 6-8-oktabrda bo'lgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1-qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilindi. 1920-yil 26-30-aprelda Butun Xorazm Xalq vakillarining 1-qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilgan. 1923-yil 17-20-oktabrda Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi, 1924-yil 18-20 sentabrda Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi.

1924-yilda Turkistonda ASSR, BSSR va XSSR tugatilib, ulaming o'rniда O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (1929-yilgacha O'zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg'iz (Qirg'iz) avtonom oblasti (RSFSR tarkibida), Qoraqalpoq avtonom oblasti (dastlab Qozog'iston ASSR tarkibida). 1932-yilda Qoraqalpog'iston ASSR, 1936-yilda u O'zbekiston SSR tarkibida tashkil etildi. O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida 1924-1991-yillargacha bo'ldi. Uning mustaqilligi 1991-yil 29-dekabrdan o'tkazilgan Prezident saylovi va respublika mustaqilligi haqidagi umumxalq referendumida yana bir marta tasdiqlandi (98,2%).

O'zbekistonda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mayjud. Qonun chiqaruvchi organ-Respublika parlamenti. Oliy Majlis: qonunchilik palatasi va Senatdan iborat. Ijro etuvchi organ - Respublika hukumati-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunlar ijrosini ta'minlaydi. Bosh vazir rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sud hokimyatining oliv organi hisoblanadi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi e'lon qilingan. 1-sentabr Mustaqillik kuni.

O'zbekistonning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari. O'zbekistonning eng shimoliy chekka nuqtasi shimoli-sharqda ($45^{\circ} 36'$ shim, kenglik) Ustyurt platosida, janubiy chekka nuqtasi Termiz shahri yollida ($37^{\circ} 13'$ shim, kenglik), g'arbiy chekka nuqtasi Ustyurt platosida (56° sharqiy uzunlik), sharqiy nuqtasi Farg'onada vodiysining sharqida ($73^{\circ} 10'$ sharqiy uzunlik)dir. Shimol-janub chekka nuqtalari orasi 930 km, g'arb-sharq chekka nuqtalari oralig'i

1425 km. Respublika Markaziy Osiyoning O'rta qismida joylashgan. Sharq va shimoli-sharqda Qirg'iziston (1099 km), janub va janubi-sharqda Tojikiston (1161 km), janubda Afg'oniston (137 km), janubi-g'arbda Turkmaniston (1621 km) va shimoli-g'arb va shimolda Qozog'iston (2203 km) davlatlari bilan chegaradosh. Hududiy kattaligiga ko'ra O'zbekiston MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Ukraina va Turkmanistondan keyingi o'rinda va dunyodagi 55 o'rinda turadi. Respublika chegaralari siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha qulayliklarga ega, Chegarasi (6221 km)ning katta qismi tekisliklar orqali o'tgan. Bu hol iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishda qulayliklalar tug'diradi. Biroq O'zbekiston dunyo okeanlaridan ancha uzoqda joylashganligi sababli dengizga tutash hududlarga xos barcha quiayliklarga ega emas.

O'zbekiston hududining 71% dan ortig'ini tekisliklar tashkil etadi. Respublikamiz sharqiy va janubi-sharqiy qismining relyefi tog'likdir. Respublikadagi tekisliklar Turon tekisligining bir qismi hisoblanadi. Tekislikning asosiy qismi Ustyurt platosi, Quyi Amudaryo deltasi, Qizilqum cho'li va Shuningdek, Mirzacho'l, Qarnob, Qarshi, Malik gilli cho'lardan iboratdir. Tyanshan va Hisor-Oloy tog'larining g'arbiy va janubi-g'arbiy tarmoqlari O'zbekiston hududida joylashgan. Eng baland cho'qqi Hazrat Sulton (4643 m Xisor tog'ida)dir. Mingbulloq botig'i dengiz sathidan 12 m pastda joylashgan.

O'zbekiston hududining deyarli hamma qismida tektonik harakatlar faol davom etishi natijasida zilzilalar bolib turadi. Jumladan, 1240-yilda Urganchda, 1797-yilda Urgutda, 1868-yilda Samarcandda, 1889-yil va 1902-yillarda Andijonda, 1935-yil Boysunda, 1946-yil Chotqolda, 1866, 1868 va 1966-yillarda Toshkentda, 1976-yil Gazlida, 1980-yil Nazarbekda, 1985-yil Qayroqqumda kuchli va falokatli zilzilalar bo'lgan.

O'zbekistonda eng yirik suv arteriyalari bo'lib Amudaryo (uzunligi 1437 km) va Sirdaryo (uzunligi 2137 km) hisoblanadi. Bu ikkala daryo havzasiga yana Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Ohangaron, Sux, Isfara, Oqbo'ra, Isfayramsoy, Shohimardon, G'ovasoy, Kosonsoy, Zarafshon, Qashqadaryo (suvlari yetib bor-maydi), Surxondaryo, To'palangdaryo, Sheroboddaryolar ham kiradi. Daryolar, asosan, qor va muzliklardan, shuningdek, yomg'ir va yer osti suvlardan

to‘yinadi. Asosiy daryolar O‘zbekiston hududidan tashqarida boshlanadi. Ular respublikamizning suvgaga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirmaydi. Shuning uchun mamlakatimizda 40 dan ortiq suv omborlari qurilgan. Ularga Chorvoq, Ohangaron, Tuyabog‘iz, Tolimarjon, Pachkamar, Janubiy Surxon, Chimqo‘rg‘on, Kaltaqo‘rg‘on va boshqalarni kiritish mumkin. O‘zbekistonda yirik kanallar mavjud. Ular orasida Zang, Dalvarzin, Narpay, Paxtaarpa, Qilichniyozboy, Qizketgan, Janvibiy Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona, Katta Farg‘ona, Parkent, Tosoqa, Eski Angor, Janubiy Mirzacho‘l, Amu-Qorako‘l, Amu-Buxoro, Katta Andijon, Katta Namangan, Qarshi magistrali, Shimoliy Mirzacho‘l kanallarini ko‘rsatish mumkin. Mavjud kanallarning umumiy uzunligi qariyb 160 ming km, shundan 22 ming km xo‘jaliklararo kanallar, qolgan qismi ichki xo‘jalik tamroqlaridir.

Shuningdek, O‘zbekistonda Orol dengizi, Sudoche va Amasoy ko‘li va boshqa bir qancha kichik ko‘llar mavjud. Yer osti va mineral suvlarga boy. Iqlim quruq va issiq boiganligidan daryolarning suvi ularning O‘rtalig‘i va quyi oqimlarida asosan sug‘orishga, shuningdek, bug‘lanishga sarfbo‘ladi. Suvlardan oqilonra va tejab-tergab foydalanan hozirgi kunning eng muhim vazifalaridandir. Shundagina Orol, Orol atrofi va Orol, havzasida vujudga kelgan muammolarni bartaraf qilishga malum darajada ijobjiy yondashgan bo‘ladi.

Respublikaning 40% dan ko‘proq hududida yillik yog‘in 100 mm dan oshmaydi. Buning ustiga bu yog‘in sug‘orishga zaruriyat katta bo‘lgan yoz oylariga emas, balki kuz, qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Baland tog‘li yerlarga yog‘in bir oz ko‘p (400-500 mm) yog‘adi. Ammo vegetatsiya davri qisqa hamda relyefi murakkab bo‘lgan bu yerdalarda deyarli dehqonchilik qilib bolmaydi. Shuning uchun ham respublikada asosan sug‘orib (obikor) dehqonchilik qilinadi.

Obikor yerdalarda vegetatsiya davrinining uzunligi (210-240 kun), harotatning (26-35 gradus) yuqoriligi hamda havoda nam (20-35 %) ozligidan respublikada issiqsevar ekinlar: paxta, sholi, kanop kabi subtropik hamda citrus ekinlar yetishtiriladi, ba‘zi (makkajo‘xori, sabzavot, poliz) ekinlardan esa yiliga ikki marta hosil olinadi. Tabiat resurslari tabiiy sharoitdan farq qilib, ishlab chiqarishga bevosita jalb qilinadi va uning xomashyo hamda energetika bazasini tashkil etadi, Mineneral boyliklardan sanoat, qishloq xo‘jaligi va maishiy ehtiyojlarda, yer resurslaridan qishloq xo‘jaligida foydalaniлади.

O'zbekistonda hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'danlar bor bo'lgan joylar aniqlangan. 1000 dan ortiq kon qidirib topilgan. O'zbekistonda ko'mir, neft va gaz 197 kondensali, tabiiy gaz bo'yicha 155 ta istiqbolli kon qidirib topilgan, Qidirib topilgan gaz zaxiralari 2 trillion kubometrga yaqin, ko'mir 2 milliard tonnadan ortiq, neft va gaz kondensant zaxiralari o'z ehtiyojimizdan tashqari, ulami eksport qilish imkonini ham beradi. Respublikamiz hududining 60% ida neft, gazlaming istiqbolli zaxiralari mavjud. Ularning asosiylari beshta mintaqada joylashgan. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, janubi-g'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. 1992-yilda Namangan viloyatida istiqbolli Mingbuluoq neft koni ochildi. Respublikada neftning 90% dan ortiqrog'i favvora usulida olinmoqda.

Eng yirik gaz konlari Janubi-g'arbiy Hisor (Qashqadaryoda asosan) va Buxoro-Xiva neft va gazli mintaqalarda joylashgan bo'lib, ular Sho'rtan va Muborak guruhlariga kiruvchi konlardir.

O'zbekiston Respublikasida ko'miming katta zaxiralari ham mavjud. Uning geologik zaxirasi bo'yicha Respublikamiz Markaziy Osiyoda uchinchi o'rinda turadi. Respublikada ko'mir Angren, Sharg'i va Boysun konlaridan qazib olinadi. Ko'mir bilan birga kaozin, ohaktosh, kvarts qumlar, tosh qotishmalar ham qazib olinadi.

O'zbekiston hududida hozirgi kunga qadar 41 ta qimmatbaho metall konlari qidirib topilgan. Oltin konlari Navoiy, Samarqand va Toshkent viloyatlarida qidirib topilgan. Eng yirik konlar Qizilqumda-Muruntov va boshqalardir.

O'zbekiston Respublikasining foydali qazilma boyliklari zaxiralarining Davlat balansi holati (01.01.2016 yilga)

| No | Foydali qazilmalar | Miqdori |
|-----------|-------------------------------|----------------|
| 1 | Asl metallar | 97 |
| 2 | Radioaktiv metallar | 37 |
| 3 | Rangli va noyob metallar | 12 |
| 4 | Qora metallar | 5 |
| 5 | Ko'mir va Yonuvchi slanetslar | 7 |
| 6 | Tog'-kon xam ashyosi | 55 |
| 7 | Tog'-kimyo xom ashyosi | 34 |

| | | |
|----|-------------------------|-------------|
| 8 | Rangli tosh xom ashyosi | 30 |
| 9 | Qurilish materiallari | 764 |
| 10 | Yer osti suvlari | 619 |
| 11 | Uglevodorodlar | 235 |
| | Jami: | 1895 |


**O‘zbekiston Respublikasining foydali qazilma boyliklari zaxiralarining Davlat balansi holati
(mustaqillik yillarda)**

| Nº | Foydali qazilmalar | Miqdori |
|-----------|-------------------------------|----------------|
| 1 | Asl metallar | 64 |
| 2 | Radioaktiv metallar | 20 |
| 3 | Rangli va noyob metallar | 4 |
| 4 | Qora metallar | 3 |
| 5 | Ko‘mir va Yonuvchi slanetslar | 4 |
| 6 | Tog‘-kon xam ashyosi | 39 |
| 7 | Tog‘-kimyo xom ashyosi | 18 |
| 8 | Rangli tosh xom ashyosi | 14 |
| 9 | Qurilish materiallari | 383 |
| 10 | Yer osti suvlari | 364 |
| 11 | Uglevodorodlar | 94 |
| | Jami: | 1007 |

Shuningdek, respublikada Visokovoltnoye, O‘qjetpes (Navoiy viloyati), Oqtepa (Namangan) konlari kumush; Qalmoqqirda mis-molibden; Dalneyeda mis (Toshkent viloyati), Xondizada qorg‘oshinrux (Jizzax viloyati) konlari mavjud bo‘lib, ular asosida yirik zavod va kombinatlar barpo etilgan. Konlarda bir qator nodir va tarqoq holda uchraydigan metallar ham mavjud. Volfram konlari Janubiy Tyashanda, vismut Chotqol va Qurama tog‘larida mavjud, Janubiy Farg'onada 100 dan ortiq simob va 20 dan ortiq surma rudali konlar aniqlangan. Respublikada 30 ta uran koni bor.

Qora metallardan eng ko‘p tarqalgani temir, titan, magniy, xrom va boshqalardir. Temirning bir necha konlari va ruda ko‘rinishlari aniqlangan. Ular orasida muhimi Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi

Tebinbuloq titan-magniy koni hisoblanadi. Marganes konlari Zarafshon, Qoratepa, Lolabuloq va boshqa joylarda 198 mavjud. Magmatik xrom Qizilqumda, Farg'onada, ayniqsa, Tomditov va Sulton Uvaysda ko'proq uchraydi.



Respublika qurilish sanoati xomashyolariga boy. Respublikada 20 ta marmar, 15 ta granit va gabro konlari, tabiiy bezakbop toshlar konlari mavjud. Nurota va g'ozg'on marmarlari va granit mahsulotlari dunyoga mashhur. O'zbekistonda Jeroy-Sardara, Qoraqt, Shimaliy Jetimtov konlariда fosforitlaming zaxirasi juda katta.

Respublikada kaliy tuzining 100 yildan ko'proqqa yetadigan va 90 milliard tonna xomashyosi mavjud bo'lgan Xo'jaikon; shuningdek, Tubakat, (Qashqadaryo) Borsakelmas, Boybichakon va Oqqal'a konlari mavjud. O'zbekistonning umumiyl yer maydoni 448,9 ming kv km bo'lib, shundan 27,9 mln ga qishloq xo'jaligiga tegishli. Qishloq xo'jaligida foydalanishda bo'lgan yerlarning 15,9% haydaladigan yerlar. Respublikada umumiyl yer maydonining 5-6 mln hektari sug'oriladigan va lalmi yerlardir. Qolgan hududlar asosan yaylov va qisman tog' o'rmonlaridan iborat.

Sug'oriladigan yerlar 4 289,6 ming ga dan ko'proq bo'lib, shundan 1,6 mln ga cho'l zonasida, qolgan qismi sur tuproqli mintaqada, sug'oriladigan yerlar Farg'ona vodiysi, Zarafshon vodiysi, Amudaryoning quyisi qismida katta maydonlarni egallaydi. Lalmikor yerlar maydoni 767 ming ga dan ziyod bo'lib, ular asosan Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent va Jizzax viloyatlarida joylashgan. Cho'l yaylovlar O'zbekistonda eng katta maydon-22,8 ming ga ni tashkil etadi,

shundan 10 mln ga sur-qo'ng'ir tuproqli, qariyib 13 mln ga qumli yerlar va qumli tuproqlar. Cho'llarda o'simlik siyrak, u bahor faslidagina barq urib o'sadi.

O'zbekistonning o'simlik resurslari cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalarida gidrotermik va tuproq sharoitlariga bog'liq holda ta'minlangan.

O'lkada 4500 ga yaqin o'simlik turi mavjud. Mamlakatmizda o'simliklar o'smaydigan joy yo'q, Qumli va cho'l yaylovlarda har bir hektar maydondan yiliga o'rtacha 3-5 sentner, Ustyurt yaylovlarda har gektardan 2-4 sentner xashak yig'ib olish mumkin. Adir yaylovlarda har hektar maydondan 13 sentnergacha xashak yig'iladi.

O'zbekiston tog'lari yovvoyi mevalarga (tog' olchasi, tog' olmasi, tog' yong'og'i, pista, bodom, do'lana va boshqalarga) boydir. Tog'lardagi shifobaxsh o'simliklar (zira, zirk, yetmak, na'matak, ertman, omonqora va b.) tibbiy maqsadlar uchun ishlataladi. tog'dagi o'rmonlar, jumladan, archazorlar ildizlari bilan tup-roqni mustahkamlaydi. Tog' yonbag'irlarida bargli daraxtlar (tol, terak, chinor, zarang, shumtol va boshqalar) o'sadi.

O'zbekistonda sutehimizuvchilarining 97 turi uchraydi. Jayron, sayg'oq, burama shoxli tog' takasi, Buxoro bug'usi va boshqalar «Qizil kitob»ga kiritilgan. o'tgan asrning 50-yillaridan ondatra, nutriya iqlimlashtirilgan. O'zbekistonda 60 xil ovlanadigan qushlar bor, bulardan muhimlari kaklik, qirg'ovul, bedana, o'rdak, g'oz va boshqalar.

Aholi ko'payib uning faoliyati ortib borishi, fan-texnika taraqqiyoti tabiatni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilona foydalanimish muammosini qo'ymoqda. Tabiat boyliklarini qo'riqlaydigan bir qancha tashkilotlar barpo etilgan. Chunonchi, suv resurslarini suv xo'jaligiga qarashli maxsus boshqarma qo'riqlaydi. Qishloq xo'jalik vazirligida ham yer va suv muhotaza qilinadi. Hozir respublikada 600 ga yaqin suv tozalash inshoati, 200 dan ortiq gaz, chang ushlab qoladigan qurilma, 20 ta shaharda havo tozaligini kuzatib boradigan muassasa ishlamoqda.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sifatida O'zbekistonda ayni vaqtida 8 ta davlat qo'riqxonalari, 2 ta milliy bog', 1 ta ekomarkaz, 1 ta biosfera rezervati, 10 ta davlat buyurtmaxonalari, 5 ta tabiat yodgorligi hududlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bu hududlarda milliy hamda

xalqaro "Qizil kitob" larga kiritilgan, yo'qolish ehtimoli bo'lgan nabodot va hayvonot turlari davlat muhofazasiga olingan. Qo'riqlanadigan yerlarning umumiy maydoni 2 mln ga dan ortiq. Fan-texnika taraqqiyoti tabiatga keltirayotgan zarar ustida ishlayotgan bir qancha ilmiy-tadqiqot muassasalarini mavjud.

Respublikamiz Konstitutsiyasida tabiatni muhofaza qilish bo'yicha korxona, tashkilot, fuqarolar burchi va mas'uliyati aniq belgilangan. Tabiiy sharoit, tabiiy boyliklardan ongli ravishda foydalananish natijasidagina ularni yaxshilash va iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin ekanligi ko'rsatib berilgan.

Aholisi va mehnat resurslari. Moddiy va nomoddiy boyliklarni yaratuvchisi ham, ularni iste'mol qiluvchi ham, shuningdek, mehnat resurslarini takror barpo etuvchisi ham insondir. Shuning uchun ham aholini va uning demografik xususiyallarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: «Jamiyatning eng oliv boyligi bo'lgan xalq abadiy qadriyatlarni, qudratli salohiyatni o'zida jamlagan. Bu salohiyatni yuzaga chiqarish jamiyatimizni rivojlantirish va taraqqiy ettirishning juda kuchli omili bo'lib xizmat qiladi, inson omilining kuchli va ta'siri yuksak ma'naviyat, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi». O'zbekiston Respublikasi aholisi 2016-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra 31 575 300 kishini tashkil etdi. Mamlakatimiz aholisi turli davrlarda har xil ko'rsatkichlar bilan o'sib borgan. Aholining o'sish ko'rsatkichlari urush davri va undan keyingi yillaida pasaygan bo'lsa, so'nggi yillarda ko'payib borgan. 1979-1989-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, keyingi 10 yilda O'zbekiston aholisi 4,5 mln kishiga ko'payib, uning O'rtacha yillik o'sishi sur'ati 17,8 promilleni tashkil etdi.

Keyingi yillarda Respublika aholisining soni har yili 500 ming kishiga ko'payayotgan bo'lsa, buning mutlaq asosiy qismi tabiiy ko'payish hisobigadir. Tabiiy ko'payish koeffitsyenti 1991-2003-yillarda pasaydi. Masalan, 1991-yilda 28,3%, 2003-yilda 14,5% pasaydi. Tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining kattaligiga ko'ra O'zbekiston Hamdo'stlik Davlatlari orasida faqat Turkmanistondan keyingi o'rinda turadi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1989-2000-yillarda mamlakat aholisining bir yillik ko'payishi 1,95% ni taslikil

etgan. Aholining o'sish darajasi Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida eng yuqori. Sirdaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida birmuncha past bo'ldi.

Respublika aholisining ko'payishida tashqi migratsiyaning ham ulushi bor. Tashqi migratsiya natijasida 1980-yillar oxirigacha aholi soni ortib borgan bo'lsa, undan keyingi vaqtarda keluvchilar sonining kamayishi, ketuvchilar sonining o'sishi oqibatida ushbu jarayon manfiy natijaga ega bo'ldi. Tashqi migratsiyada ko'proq shahar aholisi qatnashadi. Jumladan, Chirchiq, Olmaliq, O'zbekiston aholisi ko'p millatliligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 125 dan ortiq millat va elat vakillari teng huquqli bo'lib yashaydilar. Respublikada, tabiiyki, mutlaq ko'pchilikni o'zbek millati tashkil qiladi va ulaming umumiyligi aholi salmog'idagi o'rni o'sib bormoqda. 1989-yil aholi ro'yxati bo'yicha o'zbeklar jami aholining 71,4% ini tashkil etgan. 2013-yili esa 82,9% i o'zbeklardir. Millatlarning soni ham va ulaming umumiyligi aholi soniga nisbatan ulushi ham birday emas. Jumladan,

2013-yillar oralig'ida ruslarning soni 809530 kishi, tojiklar 1449974 kishi bo'lган va boshqalar. Aholining umumiyligi soniga nisbalan ba'zi bir millatlarning ulushi kamayib bormoqda. Masalan, ruslar ularning salmog'i 2000-yilda 4,9%, 2013-yil 2,7% ga, tatarlarda 1,3% dan 0,7 %gacha tushgan. Aksincha, tojiklar, qoraqalpoqlarda o'sish mavjud. O'zbekistonda mahalliy millat vakillari hisoblangan o'zbeklar respublika aholisining 82,9% ini, tojiklar -4,8, ruslar -2,7, qozoqlar -3,6, qoraqalpoq -2,2%, qirg'izlar -0,9 va turkmanlar -0,6% ini tashkil etadi.

Mamlakatda aholining hududiy joylashuvi, harakati (migratsiya) va shaharlashuv jarayoni hamma joyda bir xilda emas va o'ziga xos sabablar natijasida bir-biridan farq qiladi. Qadimdan o'zlashtirib keltingan Farg'ona va Zarafshon vodiylari, Xorazm va Toshkent vohalari hozirgi kunda respublikada aholi zich joylashgan mintaqalardir. Qurg'oqchil tekislik, cho'l qismida esa agar oqar suv manbalari bo'lmasa, aholining O'rtacha zichligi hozirgacha ancha past darajada. O'zbekiston aholishung o'rtacha, zichligi 2016-yilda 1 km kv ga 71,0 kishidan to'g'ri kelgan bo'lib, u MDH.mamlakatlari aholisi o'rtacha zichligidan ancha yuqoridir. Aholining hududiy joylashuvi va zichligini respublika iqtisodiy rayonlari bo'yicha qarab chiqilganda, eng yuqori aholi zichligi Farg'ona (507) kishi/km² Andijon (680) va Na-

mangan (323) viloyatlarini birlashtirgan Farg'ona iqtisodiy rayoni hissasiga to'g'ri keladi. Unda har bir km kv maydonga O'rtacha 417,1 kishi joylashgan. Andijon viloyatida esa aholining O'rtacha zinchligi 680 kishiga teng bo'lib, u Navoiy viloyalidagi ko'rsatkichdan 88 baravar ko'pdir. (Navoiy viloyatida 8,2 kishi). Aholi zinchligi ko'rsatkichi Buxoro (45,3) viloyatlarida unchalik yuqori emas.

Respublika aholisining qishloq va shaharlarda joylashuvi ham farq qiladi. 2016-yil ma'lumoti bo'yicha qishloqlarda 49,4 % va shaharlarda 50,6 % aholi istiqomat qiladi.

O'zbekiston aholisining ichiki hududiy qayta taqsimlanishida, asosan, urushdan keyingi davrda amalga oshirilayotgan aholini rejali ko'chirib joylaslitirish tadbirlari katta rol o'ynamoqda. Bu tadbirlar tufayli dastlab Zomin, Boysun, Sherobod, Sariosyo, Dehqonobod, Yakkabog' tumanlarining tog' hamda tog'oldi mintaqalari aholisining katta qismi, keyingi vaqtarda esa Farg'ona vodiysi, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridan bir qancha aholi o'z istagi-ga ko'ra yangi yerkarta ko'chirilib joylashtirildi.

Respublikada ichki ko'chishning asosiy yo'nalishlaridan biri aholining qishloq joylaridan shaharlarga o'tib joylashishidir. Keyingi yillarda bu jarayon rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabati bilan yanada tezlashdi. Yaqin vaqlgacha O'zbekiston yoshlarining sanoat mehnatiga intilishi sust edi. Iqtisodiyotni qayta qurish, milliy sanoat kadrlarini tayyorlash zarurligi Respublikada sanoat rivojlanishini ancha kuchaytiradi.

1887-yilda aholining atigi 18,8% i shaharlarda yashagan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1926-yilda 22% ga, 1940-yilda 24,5% ga, 1956-yilda 33,6% ga, 1970-yilda 36,6% ga, 1979-yilda 41,2% ga teng bo'ldi. 1989-2005-yillarda shaharliklar sonining o'sishi pasaygan va urbanizatsiya ko'rsatkichi 40,7% dan 36,3% ga tushib qolgan. 2016-yilga kelib 51 % yetdi.

Hozirgi vaqtida respublikada 119 ta shahar va 1085 ta shaharcha, 11013 dan ortiq qishloq aholi manzilgohlari bor. O'zbekistonda hammasi bo'lib 17 ta katta shahar mavjud, ularda jami shahar aholisining 57,8% i yashaydi.

O'zbekistonda mehnat resurslarining soni, salmog'i va o'sish sur'atlari, ularning xalq xo'jalik tarmoqlarida, hududlarda taqsimlanishi hamda ulardan foydalanishning samaradorligi o'ziga xosdir. Ma-

lumotlarga qaraganda, respublikada mehnatga layoqatlilar jami aholining 61% ni tashkil qiladi. Mehnat resurslari har yili 300-350 ming kishiga ko‘paymoqda. O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarida ish bilan band bo‘lgan aholining xo‘jalik tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi jadval ma’lumotda berilgan (jadval ma’lumotini mustaqil tahlil qiling va xulosalar chiqaring).

O‘zbekiston Respublikasida ish bilan band bo‘lgan aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha (%) va soni (kishi) hisobida

| | | Sanoat | |
|---------|--------|---|---------------------|
| 4104555 | 13 % | | Qishloq xo‘jaligida |
| 8430125 | 26,7 % | | |
| 2936336 | 9,3 % | Qurilishda | |
| 1641822 | 5,2 % | Transport va aloqada | |
| 3441512 | 10,9 % | Savdo, Umumiy ovqatlanishda | |
| 1105073 | 3,5 % | Uy-joy madanyati Shaxsxiy xizmat ko‘rsatishda | |
| 2399586 | 7,6 % | Sog‘liqni Saqlash va sportda | |
| 4230849 | 13,4 % | Ta‘lim, madaniyat, Fan va ilmiy tadqiqotlar xizmatida | |
| 3283644 | 10,4 % | Boshqa tarmoqlarda | |

Umuman olganda, O‘zbekiston katta mehnat potensialiga ega. Hozirgi vaqtida ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning 1/3 qismi qishloq xo‘jaligida ishlaydi.

Respublikamizdagi aholining O‘rtacha yoshi 28,3 ga teng, bu esa yangi asrda mehnat faolligi va malaka tayyorgarligiga ega bo‘lgan kishilar ko‘pchilikni tashkil etishini bildiradi. Mustaqillik yillarda yuqoridagilarni hisobga olib, mamlakatda yangi ish o‘rinlarini

vujudga keltirishga katta e'tibor berilmoqda. Ularning asosiy qismini qishloq joylarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, nomoddiy sohalarda aholining bandligini oshirishga harakat qilinmoqda. Mehnat resurlaridan oqilona va samarali foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda.

**O'zbekiston Respublikasining ma'mariy-hududiy bo'linishi
(1.01.2019)**

| Ma'mariy birliklar | Poytaxti, markazi | Tashkil topgan sanasi | Hududi ming kv.km hisobida | Aholisi ming kishi hisobida |
|--|------------------------------|--------------------------------------|---|--|
| Qoraqalpog'ston Respublikasi. | Nukus | 0.01.1992 | 166,59 | 1869,7 |
| Viloyatlar Andijon | Andijon | 6.03.1941 | 4,24 | 3 669,9 |
| Buxoro | Buxoro | 15.01.1938 | 40,32 | 1875,2 |
| Jizzax | Jizzax | 29.12.1973 | 21,2 | 1312,9 |
| Qashqadaryo | Qarshi | 20.01.1943 | 28,57 | 3148,8 |
| Navoiy | Navoiy | 20.04.1982 | 111,0 | 958 |
| Namangan | Namartgan | 6.03.1941 | 7,44 | 2712,0 |
| Samarqand | Samarqand | 15.01.1938 | 16,77 | 3783,9 |
| Surxondaryo | Termiz | 6.03.1941 | 20,1 | 2792,7 |
| Sirdaryo | Guliston | 16.02.1963 | 4,3 | 815,8 |
| Toshkent | Toshkent | 15.01.1938 | 15,3 | 2856,9 |
| Farg'ona | Farg'ona | 15.01.1938 | 6,76 | 3643,6 |
| Xorazm | Urganch | 15.01.1938 | 6,1 | 1805,7 |
| O'zbekiston Respublikasi | | | 448,9 | 32656,70 |

Xo'jaligi. Xo'jalik murakkab tizimga ega bo'lib, u moddiy va nomoddiy boyliklar ishlab chiqarish majmuasidan iborat. Hozirgi O'zbekiston hududida asrlar davomida chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, sanoat shakllandi va rivojlanib keldi. Olimlaming ko'rsatishicha, O'zbekistonda iqtisodiyot o'z taraq-qiyotida 4 ta tar-

ixiy davrni kechirdi: birinchisi, tosh asridan to XIX asrning oxiriga qadar davom etgan an'anaviy iqtisodiyot bosqichi. Ikkinchisi, XIX asrning 2-yarmidan to oktabr to'ntarishiga qadar bo'lgan bozor iqtisodiyoti kapitalistik shak-lining yuzaga kelishi, ya'ni mustam-lakachilik davri (1865-1917). Uchinchisi, rejali iqtisodiyot bosqichi - sho'rolar hokimiyati davri (1917-1990). To'rtinchisi, rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri (1991-yil 1-sentabr Mustaqillikdan boshlanadi). Bu davrlarda xo'jalik va uning tarmoqlari o'ziga xos tarzda shakilandi, rivojlandi va joylashtirildi.

Xo'jalikni tashkil etish, rivojlantirish va joylashtirish ko'pgina omillarga bog'liq. Omillarning ichida asosiyлari tabiiy sharoit va resurslar, aholi va mehnat resurslaridir. Albatta ularning samarasи davlat tuzumi (qurilishi) bilan bog'liq. O'zbekiston mineral resurslarga boy mamlakat. Respublika Markaziy Osiyoda (Qozog'istonni hisobga olmaganda) tabiiy gazning 40% i, ko'mirning 55% i, paxta tolasining 75% dan ortig'ini beradi. Yer resurslari 44,89 mln ga. Shundan 32 mln ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlardir. 81,7 km³ suv resurslarga ega. O'zbekistonda mehnat resurslari 68,3 %. Davlat amalga oshirayotgan choralar tufayli 1996-yilda yalpi ishlab chiqarish (ichki) mahsuloti pasayishi to'xtab, uning o'sishi kuzatilmoqda. 2005-yildan bozor mexanizmlarining amal qilmishiga tayangan holda ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiya bazasiga o'tkazish, milliy iqtisodiyotda unumdorlikning uzlusiz o'sib borishiga erishish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish hal etilishi lozim bo'lgan asosiy masala bo'lib qoldi.

Sanoati. O'zbekiston iqtisodiyoli industrial sektorining yetakchi bo'g'ini sanoatdir. Uning 8,6 % i davlat, 91,4% i nodavlat korxonalaridir.

Sanoat yalpi ichki mahsulotining hajmi bo'yicha O'zbekiston MDH davlatlari O'rtasida 5-o'rinda turadi. Sanoatni rivojlantirish va joylashtirishda moddiy-texnika baza, mehnat resurslari, fan-texnika taraqqiyoti, energetika, transport, tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning ahamiyati katta.

O'zbekiston sanoatining tarkibi xilma-xil bo'lib, 100 dan ortiq tarmoqlarni birlashtiradi. Ular iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi: bular ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlardir.

Hozirgi vaqtida respublikada 42986 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritayotgan bo'lib, ulardan 40451 tasi qayta ishlash sanoati korxonalari, 1294 tasi tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash korxonalari, 333 tasi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari, 908 tasi suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridir.

Hisobot davrida 5019 ta sanoat korxonalari, shu jumladan qayta ishlash sanoati sohasida 4785 ta korxonalar yangidan tashkil etildi.

Mustaqillikning dastlabki yillardayoq respublikada iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi, vazifalar belgilandi. Natijada bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqichi o'tish davrida iqtisodiyotda, shuningdek, sanoat ishlab chiqarishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Sanoatning yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishdagi hissasi 1990-2000-yillar oraliq 'ida kamayib borgan bo'lsa (1990-yilda 26,3% ni, 2000-yilda 13,8%), undan so'nggi yillarda sanoatning hissasi ortib bormoqda. Hozirgi davrda davlat iqtisodiy siyosati va davlat dasturlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, investitsiyalar asosida yangi sanoat korxonalarini ishga tushirish, sanoat resursiari dan tejamli foydalanish, yangi texnologiyalar asosida mehnat unumdorligini oshirish kerakligi bosh vazifa qilib belgilangan.

Mnstaqillik yillari iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nodavlat sektori yetakchi o'rinni egalladi. Jumladan, nodavlat sektorining hissasi umumiylar yalpi ichki mahsulotda 75,8% ni, sanoat mahsulotining 8,4%, qishloq xo'jalikning yalpi mahsulotida 99,5% ni, qurilish ishida 91,0% ni aholiga pullik xizmat ko'rsatishda 54,7% ni, transport xizmatlarida 37,9% ni tashkil etadi. Nodavlat sektorida respublikadagi jami ish bilan band aholining 73,0% i mehnat qilmoqda.

Hozirgi kunga kelib respublikada bozor iqtisodiyoti talablari asosida O'rta va kichik korxonalar soni ortib bormoqda, tadbirkorlik, ishbilarmonlik takomillashmoqda, ishlab chiqarishda davlat sektorining faoliyati pasayib va aksincha, nodavlal sohasi rivojlanmoqda.

Sanoat mamlakatimiz xo'jaligining yetakchi tarmog'i bo'lib, tarixiy yillar va ayniqsa, mustaqillik yillarida yanada takomillashib o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan iborat bo'lgan majmualar shakllanmoqda. Respublikamiz sanoati ko'p tarmoqli tarkibga ega bo'lib, unda mamlakatimizning asosiy fondlarining 40% i, yalpi ichki

mahsulotning 17-21% yaratiladi. O'zbekistonda sanoatning tarkibi turli-tuman bo'lib, unda tarmoqlaming tutgan hissasi bir-biridan farq qiladi.

Respublika energetikasida issiqlik elektr markazlarining o'z ulushi bor. Bulardan eng yiriklari 1956-1979-yilda qurilgan Farg'on'a, Muborak (1985-1988), Toshkent (1939-1954) IEM laridir.

O'zbekistonda energetika tizimining umumiyligi quvvati 12,4 mln kvt dan ortiq bolib, 45 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarida yiliiga 56-57 mlrd kvt soatdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Qolgan elektr energiya IES lariga to'g'ri keladi. GES lar orasida eng yirigi Chorvoq GES (620,5 MVT), GRES (FES) bo'yicha eng quvvatlilari Sirdaryo IES (3000 MVT), Toshkent IES (1860 MVT) va Yangi Angren IES (1800 MVT) dir. Yangi Angren IES ning loyiha quvvati 2400 MVT dir. Respublika elektr energetikasi va ko'mir sanoatida xo'jalikni «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi boshqaradi.

Mamlakatimizda hozirgi davrda 15 mingga yaqin sanoat, 21,6 ming qishloq xo'jaligi, 13,9 ming kommunal va 4,2 mln maishiy iste'molchilar energiya bilan ta'minlangan. Elektr uzatish yo'llarining yalpi uzunligi 199,8 ming km dan ortiq.

O'zbekistonda 2015 yilda chet el kapitali ishtirokida 494 ta korxona ro'yxatdan o'tkazildi. 2016 yil 1 yanvar holatiga ularning umumiyligi soni - 5038 tani tashkil etdi.

Metallurgiya. O'zbekiston hududida metall olish va unga ishlov berish 4 ming yillik tarixga ega. Hozirgi kunda rangli, asl va nodir metallami qazib olish, boyitish va eritishni o'z ichiga oladigan rangdor metallurgiya, uning keng tarmoqlari O'zbekistonning dunyoviy ahamiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy sohalaridan biri hisoblanadi. Dastlabki davrlarda O'zbekiston rangli metallurgiya rudalarini qazib chiqarish, boyitish hamda tayyorlangan konsentratlarini boshqa respublikalarga tayyor mahsulot olish uchun jo'natish bilan shug'ulangan bo'lsa, endilikda u mazkur sanoat hamda ishlab chiqarish bosqichlarini o'z ichiga oluvchi to'la siklli sanoat tarmog'iga egadir.

Bu sanoatning yirik korxonalarini Olmaliq, Muruntov (Zarafshon), Navoiy tog' metallurgiya kombinatlari, qiyin eriydigan va issiqliq bardoshli qotishmalar kombinati (Chirchiq), Ingichka hamda Qo'yosh kom boshqarmalari va boshqalardir. Olmaliq tog'-kon met-

allurgiya kombinati rangdor metallurgiyaning yirik korxonalaridan biridir. Bu kombinat mis, polimetall rudalarini qazib olish, boyitish, mis, rux eritishkorxonalarini birlashiradi.

Mis Qalmoqqir va Sarichekuv konlaridan qazib olinadi hamda kombinat tarkibiga kiruvchi boyitish fabrikasida boyitiladi va mis zavodida eritiladi. Qo'rg'oshinkon va Oltinopkon polimetall konlaridan qazib olinadigan rudalar qo'rg'oshim, rux boyitish fabrikasida boyitiladi.

Olmaliq kon-metallurgiya konibinatining rux va qo'rg'oshin sanoati bilan bog'liq korxonalari tarkibiga sulfat kislotalari ishlab chiqaruvchi korxona ham kiradi.

O'zbekiston hududida oltin qazib olish miloddan avvalgi VI-V asrlarda mavjud bo'lgan. 1950-yillardayoq qidirish ishlari natijasida Qoraqo'ton, Bichanzor, Pirmirob, Rezaksoy, Ko'chbuloq, Muruntov, Marjonbuloq, Qizilolmalisoy, Sarmich va boshqa oltin rudali konlar topildi.

Mustaqillik yillarida «O'zbekiston» birlashmasi negizida qimmatbaho metallar davlat qo'mitasi tuzildi va u 1994-yilda «O'zolmosoltin» uyushmasiga aylantirildi. 1991-yilda Navoiy shahrida «Qizilqumkamyobmetalloltin» konsemi tuzildi va uning bosh korxonasi-Navoiy konmetallurgiya kombinatidir (1958). Uning asosiy ishlab chiqarish korxonalari Zafarobod, Nurobod, Zarafshon va Uchquduq shaharlarida joylashgan.

Zarafshonda 1993-yildan «O'zbekiston-AQSH», Zarafshon-Nyumont qo'shma korxonasi tashkil etildi va 1995-yildan mahsulot ishlab chiqarmoqda. Birnchi molibden quymasi volfram va molibden sanoatining yirik korxonasi— O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar kombinatida (Chirchiq) 1956-yili olingan. 1957-yildan qattiq qotishmalar ishlab chiqarila bosh-landi. Kombinat mahsulotlari elektrotexnika, po'lat eritish, kon burg'ulash sohalarida keng qollanildi. 1990-yildan O'zbekiston metallurgiyasida kamyob va kamyob-yer elementlari metallurgiyasi sanoati shakllanmoqda. Markaziy Osiyo Respublikalarida ishlab chiqarilgan rangdor metallarning 2/3 qismi O'zbekistonga to'g'ri keladi. Umuman olganda Respublikamizda rangdor metallurgiyaning mis, rux, qo'ro'oshin va oltin sanoati tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari juda yaxshi.,

Qora metallurgiya. O'zbekistonda qora metallurgiya sanoatiga Ikkinchı jahon urushi yillarida asos solindi.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxona Bekobod shahridagi «O'zbekiston metallurgiya kombinatı» aksiyadorlik ishlab chiqarish birlashmasidir. Zavodda 1944-yilda dastlabki metall olingan, Asosan temir—tersakni qayta eritish asosida ishlaydigan bu zavod o'z texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha tarmoqning yuqori rentabelli korxonalaridan hisoblanadi. Zavodda qora, metallurgiya mahsulolarining eng muhim turlari po'lat, cho'yan, po'lat quvur va po'lat prokat ishlab chiqariladi. Zavodda 50 ga yaqin turli iste'mol buyumlari ishlab chiqarilmoqda.

1990-yilda 1015 ming tonna po'lat va 955 ming tonna prokat tayyorlandi. 2005-yilda 607 ming tonna po'lat, 562,2 ming tonna prokat ishlab chiqarildi. 2007-yilda 656,4 ming tonna eritilgan po'lat va 619,6 ming tonna tayyor prokat. Toshkentdagı ikkilamchi qora metall «Vtorchermet» zavodi, shuningdek, Buxoro, Samarcand va Sirdaryo viloyatlarida temirtersaklarni qayta ishlovchi maxsus korxonalar hamda sexlar qurildi. Lekin O'zbekistonda qora metallurgiya mahsulotlariga talab ortib borayotganligiga qaramay, Bekobod zavodi mahalliy ehtiyojlarning juda oz qisminigina qondirmoqda.

Zavodni kełajakda yanada kengaytirish va qayta tuzishjarayonda ishlab chiqariladigan prokat turlarini mahalliy ehtiyojlarga qarab o'zlashtirish mo'ljallanadi.

Mashinasozlik sanoati. Respublikada mashinasoziik korxonalar XX asr boshlarida vajudga keldi. Sobiq ittifoqning dastlabki yillarida «Toshpaxtasanoat» mexanika zavodi (1927), «Qishloqmash» (1931) zavodlari ishga tushirildi. Urush yillarida ko'chirib kelingan korxonalar hisobiga mashinasoziik sanoati tarkibida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Keyingi yillarda paxtachilik va irrigatsiya qurilishi mashinalari ishlab chiqarish tiklandi va to'qimachilik, kimyo va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun yangi jihozlar ishlab chiqarildi.

Mustaqillik yillarida respublika mashinasozligida teran sifat o'zgarishlar yuz bermoqda, ishlab chiqarish quvvatlari o'smoqda. Mashinasozlik sanoatining hissasi 2012-yilda 17,5% ga yetdi. Mashinasozlik sanoati 15 tarmoqqa mansub 100 dan ortiq yirik korxonalaridan iborat. Ularning orasida traktorsozlik va qishloq xo'jaligi

mashinasozligi, to‘qimachilik mashinasozligi, paxta tozalash mashinasozligi sanoati, elektrotexnika sanoatining salmog‘i katla. 2000-yildan respublika mashmasozligida 40 dan ortiq nomdag'i asosiy mashina, mexanizm va asboblar ishlab chiqarilmoqda.

Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashmasozligiga respublika mashinasozligida ishlab chiqariladigan jami mahsulotning qariyb 20% to‘g‘ri keladi. 2005-yilda 2868 ta traktor, 1219 ta traktor kultivatorlari ishlab chiqarildi.

Avtomobilsozlik respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin shakllana boshladi. O‘zbekistondagi bir necha avtomobil tuzatish zavodlari, yengil mashinalarga xizmat ko‘rsatadigan «O‘zavtotexxizmat», O‘zavtoVAZ» ishlab chiqarish birlashmalari, korxonalar, tashkilotlar avtomobilarga texnika xizmati ko‘rsatib kelmoqda. 1992-yilda O‘zbekiston va Janubiy Koreyaning DEU korporatsiyasi bilan Asaka paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan Asaka avtomobil zavodi barpo etildi. («O‘zDEU» avto qo‘shma korxonasi) 2005-yilda 101010 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Shuningdek, 1941-yilda barpo etilgan Toshkent aviatsiya zavodida IL-114, AN-24, YAK-40 tipli samolyotlar ishlab chiqarilmoqda.

Radioelektrotexnika, elektrotexnika sanoati ham II jahon urushi yillarda shakllandı. Jumladan, Toshkent kabel zavodi dastlab aloqa, dalasimlari, Toshkent radiodinamika zavodlari generatorlar, qabul qiluvchi va kuchaytiruvchi radio lampalar ishlab chiqara boshladi. 1950-yilning O‘rtalarida elektrotexnika sanoati respublikada mashinasoziik sanoatining yetakchi tarmog‘i tarzida shakllandı.

1982-yili EHM ishlab chiqaradigan «ALGORITM» zavodiga asos solindi. 1990-yilda respublikadagi radioelektrolexnika, elektrotexnika sanoati sohasidagi ilmiy ishlab chiqarish korxonatari va tashkilotlarini birlashtirgan «Radioelektron asbob» Respublika davlat konsemi tashkil etildi. 1994-yili konsern «O‘zeltexsanoati» uyushmasiga aylantirildi. Uyushma tarkibida 50 dan orliq korxona va tashkilotlar, jumladan, «O‘zkabel» davlat aksiyadorlik jamiyati, «Foton», Chirchiqdagi «Transformator», «O‘zelektroapparat», «Signal», «Omiks» (Toshkent), «Andijonkabel» va.boshqa yirik korxonalar bor. Tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotning 80% i, elektronik mahsulotlaning 90-95% i Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog‘iston

va boshqa mamlakatlarga chiqariladi. O'zbekistonda Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Singapur va boshqa mamlakatlar firmalari bilan hamkorlikda 20 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etildi.

To'qimachilik mashinasozligi mahsulotlari «O'zbekto'qimachilik» birlashmasi tarkibidagi «Toshto'qitiachimash», «Qo'qonto-qimachiligi» korxonalarida ishlab chiqarilmoqda.

2016 yil 12353,5 mlrd. so'mlik yoki 2015 yilning tegishli davriga nisbatan 114,8% miqdorida to'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, charm mahsulotlari ishlab chiqarildi. Ushbu mahsulotlar turlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi umumiy sanoat hajmining 15,8%ni tashkil etdi (2015 yilning 9 oyligida 14,7%).

To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9%ga, kiyimlar – 22,3%ga, charm mahsulotlari ishlab chiqarish – 35,1%ga oshgan.

Ushbu tovar turlarini ishlab chiqarish bo'yicha respublikaning umumiy hajmidagi eng ko'p ulush asosan Andijon viloyati (12,2%), Toshkent shahri (11,9%), Farg'ona (11,8%), Samarqand (10,3%) va Toshkent (8,4%) viloyatlaridagi korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilibotgan chora-tadbirlar, aynan shu faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi korxonalarga ham barqaror rivojlanish imkonini berib, ularning ko'rsatkichlari o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 19,4%ga oshdi, bunda to'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, charm mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmida tadbirkorlik sub'yektlarining ulushi 66,1 %ni tashkil etdi.

Hozirgi kunda respublikada 3047 ta to'qimachilik korxonalari, 4774 ta tikuvchilik korxonalari, 691 ta charm mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. 2016 yil davomida ushbu faoliyat turlari bo'yicha 966 ta korxona yangidan tashkil etildi.

Asbobsozlik sanoati sohasida mashinasoziik uchun qirquv va olchov asboblari, slesarlilik-sozlash asboblari hamda moslamalar maxsus sexlarda ham miqdorda tayyorlanar edi. 1941-1945-yillarda Toshkent asbobsozlik zavodi, karborund va abraziv zavodlari ishga tushirildi. 1996-yilda bu zavodlarning ishlab chiqarish quvvati oshirildi, ularga maxsus asbobsozlik sexlari tushirildi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda aniq va murakkab mashinasozlik sohasini rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Albatta, mashinasozlikning taraqqiyoti asosan ilmiy-texnika yutuqlarini jalb qilish va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash asosida olib boriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari Toshkent shahri (aynan shu korxonalar umumiy hajmidan 18,9%), Toshkent (17,0%), Samarqand (13,8%), Andijon (6,7%) va Farg‘ona (6,2%) viloyatlaridagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda.

2016 yil kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yilning 9 oyiga nisbatan 18,7%ga oshirilib, sanoatning mazkur sektorida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning umumiy hajmida ularning ulushi 66,5%ni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 9 mingdan ortiq korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda, shu jumladan 2016 yilda 1232 ta korxonalar yangidan tashkil etildi.

O‘zbekistonda, shuningdek, kimyo va qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari ham sharoitdan kelib chiqqan holda shakllangan va mustaqillik yillarda islohotlar asosida rivojlanib bormoqda. Ularning taraqqiyoti xorijiy mamlakallar bilan (Turkiya, Italiya, Koreya, Germaniya, Gretsiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Shvetsiya va boshqa mamlakallar bilan) o‘zaro teng huquqli hamkorlik asosida olib borilishining natijasidir.

Qishloq xo‘jaligi. Qishloq xo‘jaligi respublika xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. U mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 25,0% ni yetkazib teradi. 1990-yilda 53,5% ni yetkazib berган.

Respublika aholisining 49% i qishloq joylarda yashaydi. Mehnatga yaroqli aholining 30,7% i qishloq va o‘rmon xo‘jalik tarmoqlarida mehnat qiladi.

Respublika qishloq xo‘jaligida dehqonchilik rivojlangan. Dehqonchilikda paxtachilik va g‘allachilik yetakchi tarmoqdir. Shu bilan birga sholikorlik, kanopchilik, mevachilik, tókchilik, sabzavot-polizchilik sohalari, chorvachilikda qoramolchilik, qo‘ychilik

(qorako‘lchilik), echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, pillachilik tarmoqlari ham rivojlangan. O‘zbekiston jahonda yalpi paxta hosili yetishtirish bo‘yicha 5-o‘rinda, paxta tołasi eksporti bo‘yicha 2-o‘rinda (AQSH dan so‘ng) turadi. Shuningdek, o‘zining sifatli paxtasi va qorako‘li bilan dunyoga mashhur.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi uzoq tarixiy yillar davomida shakllangan va taraqqiy etgan. Ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirilgan va shu bilan birga, regionimizda qishloq xo‘jaligida salbiy oqibatga olib keluvchi holatlar ham bo‘lgan. Jumladan, respublikada qishiloq xo‘jaligida paxta yakkahokimliglining qaror topishi oqibatida 1987-yilga kelib 2107,7 ming ga yoki jami sug‘oriadigan ekin maydonining 60% dan ko‘prog‘iga paxta ekildi. Natijada ilmiy asoslangan almashlab ekish tizmi e‘tibordan chetda qoldi, inson salomatligiga xavfli ta’sir etuvchi defoliantlar meyordan ortiqcha ishlataldi, mineral o‘g‘itlar haddan tashqari ko‘p qo‘llanildi. Oqibatda yarning meliorativ holati yomonlashdi, buzilgan yerlar maydoni ortib bordi va o‘ziga xos ekologik muammolar vujudga keldi.

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlarini takomillashtirish hamda rivojlantinshga qaratilgan bir qator farmoyish, qaror va qonunlar qabul qilindi. Jumladan, «Yer to‘g‘risida», «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida», «Xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari to‘g‘risida», «Tadbirkorlik to‘g‘risida», «Ijara to‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida» va boshqa qonun va qarorlar qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyot poydevorini yaratishga, paxta yakkahokimligini bartaraf etishga, ekin maydonlari tarkibini qaytadan tuzishga, aholini oziq-ovqat resurslari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlashga erishish vazifalari qo‘yildi va ulami amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilayotir.

Fermer xo‘jaliklari soni 2016-yil 17,6 mingtaga ko‘paydi va 101 mingtani tashkil etdi. Buning samarasida joriy yil birinchi yarmida 1,5 million tonna kartoshka (2015-yilning shu davriga nisbatan 109,1 foiz), 2,9 million tonna sabzavot (109,5 foiz), 176,6 ming tonna poliz mahsulotlari (108,3 foiz), 906,7 ming tonna meva va rezavorlar (108 foiz) va 26,6 ming tonna uzum (109,4 foiz) yetishtirildi. Qoramollar umumiy bosh soni 11,7 milliondan oshdi (105,6 foiz), 1008,1 ming tonna go‘sht (106,8 foiz), 4205,5 ming tonna sut (107,1 foiz), 3 065,8 million dona tuxum (109,1 foiz) va boshqa mahsulotlar tayyorlandi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish maqsadida 2016-yilning birinchi yarmida uzunligi 501,4 kilometrlik kollektor, 137,2 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 80 vertikal drenaj qudug‘i, 432 kuzatuv qudug‘i, 12 gidrotexnik inshoot barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

Jami kollektor-drenaj tarmoqlari uzunligi - 140,1 ming km.

SHundan:

- ✓ ochiq kollektorlar - 103,0 ming km;
- ✓ yopiq drenaj tarmoqlari - 37,1 ming km;
- ✓ tik meliorativ quduqlari - 3475 dona;
- ✓ meliorativ nasos stansiyalar - 301 dona;
- ✓ kuzatuv (quduqlar) tarmoqlar - 24 839 dona.

2008-2015 yillarda amalga oshirilgan meliorativ tadbirlar

O‘zlashtirilgan mablag‘ – 1 trln. 648 mlrd.so‘m.

Qurilgan va rekonstruksiya qilingan:

- ✓ kollektor tarmoqlari - 6,7 ming km;
- ✓ nasos stansiyalar - 170 dona;
- ✓ tik drenaj quduqlar - 1255 dona;
- ✓ kuzatuv quduqlari - 5593 dona.

Ta’mirlangan va tiklangan:

- ✓ kollektor tarmoqlari - 106,1 ming km;
- ✓ nasos agregatlari - 246 dona;
- ✓ tik drenaj quduqlari - 6751 dona;
- ✓ suv o‘lchash inshootlari - 348 dona.

2016-2017 yillarda amalga oshiriladigan tadbirlar

Qurish va rekonstruksiya qilish:

- ✓ 1445,0 km ochiq kollektor tarmoqlari;
- ✓ 500,0 km yopiq gorizontal drenaj tarmoqlari;
- ✓ 12 dona meliorativ nasos stansiyalar;
- ✓ 410 dona vertikal drenaj quduqlar;

Ta’mirlash-tiklash, (195,0 mlrd.so‘m):

- ✓ 32,0 ming km ochiq kollektor tarmoqlari;
- ✓ 2,5 ming km yopiq gorizontal drenaj tarmoqlari;
- ✓ 48 dona meliorativ nasos agregatlar;
- ✓ 1600 dona vertikal drenaj quduq;

Bundan tashqari “O‘zmeliomashlizing” DLK tomonidan 282 dona meliorativ texnikalar (116 ta ekskovator, 41 ta buldozer va boshqalar) harid qilinishi ko‘zda tutilgan.

2016-2020-yillarda meva-sabzavotlarni saqlash bo‘yicha moddiy-texnik bazani mustahkamlash va rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida 27,6 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 57 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va 250 tonna meva-sabzavot saqlanadigan 2 sovutish kamerasi modernizatsiya qilindi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mulkchilikning kooperativ (jamoa xo‘jaliklari, xo‘jaliklararo korxonalar, shirkatlar uyushmalari, jamoa mulkiga aylantirilgan fermalar va b.); davlat (davlat xo‘jaliklari, naslchilik zavodlari, o‘quv va tajriba xo‘jaliklari); xususiy (dehqon va fermer xo‘jaliklari, xususiylashtirilgan korxonalar); aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari sektorlati mavjud. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotlarning 99,5% i iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda (2005). Uning 60.2% dehqon xo‘jaliklarida, 15,3% i qishloq xo‘jaligi korxonalarida va 24,5% i fermer xo‘jaliklarida yaratilayotir.

Respublika qishloq xo‘jaligida islohotlari takomillashtirish bo‘yicha Respublika Prezidentining 1998-yil 18-martdagи farmoniga muvofiq respublika komissiyasi tuzildi va bu komissiya qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish dasturini ishlab chiqdi (1998-2000-yil uchun). Respublikada yer kadastrini ishlab chiqish va baholashga e’tibor berilmoqda. Mintaqada qishloq xo‘jalik majmuini (agrosanoat) moddiy-texnika, resurslari bilan ta’minlash va muhandislik xizmatini ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida «O‘zqishloqxo‘jalikta’mir» davlat-kooperativ qo‘mitasi tizimida «Agromashservis» aksiyadorlik uyushmasining xo‘jalik tuzilmalari: «Qishloqxo‘jalikmashta’mir» «Agromashehiytotqism», «Texchorvamontajservis», «Qishloq xo‘jalik jihozlash bozorlari» va boshqa zavodlar, birlashmalar, uyushmalar, bozorlar tashkil etilgan. Respublika qishloq xo‘jaligiga agrokimyoziy xizmat ko‘rsatishni «O‘zagrokimyo ta’moti» davlat-aksiyadorlik birlashmasi olib boradi. Respublika qishloq xo‘jaligining bazasi yetarli darajada.

Respublika hudud qishloq xo‘jaligi jihatidan 3 ta, ya’ni tog‘ va tog‘oldi, sug‘orma dehqonchilik va cho‘1 - yaylov mintaqalariga

bo‘linadi. Tog‘ va tog‘oldi mintaqasi respublika hududining 21% idan ortig‘ini tashkil etadi. Sug‘orma dehqonchilik mintaqasi respublika hududining qariyb 10% ini tashkil etadi. Bu mintaqaga Farg‘ona vodiysi Mirzacho‘l, Dalvarzin cho‘li, Chirchiq, Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vodiylari Quyi – Amudaryoni o‘z ichiga oladi. Cho‘l yaylov mintaqasi-Respublika hududining 70% ini tashkil etadi, asosan cho‘l sharoitiga ega va suvsiz tekisliklardan iborat. Buxoro, Qashqadaryo vohalari, Qoraqalpog‘iston va Farg‘ona vodiyisining markaziy qismida joylashgan.

O‘zbekiston katta yer resurslariga ega. Davlat yer fondi: yerdan foydalanuvchilar hududidagi barcha yerlarni-haydalma yerlar, daraxtzollar, yaylov, pichanzor, o‘rmonzor, qo‘riq yer qishloq xo‘jaligida foydalanilmagan yerlarning hammasini o‘z ichiga oladi. Respublikaning umumiy yer fondi 44890000 ga. Istiqbolda 10 mln ga yerni sug‘orib foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtida sug‘orishga yaroqli yerlar 5 mln ga, sug‘oriladigan yerlar 4279,0 ming ga. Barcha qishloq xo‘jalik yerlari 25687,4 ming ga atrofida, ekin yerlar 4049,0 ming ga.

Respublika qishloq xo‘jaligida dehqonchilik yetakchi o‘rinda tutradi. Dehqonchilikning qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi hissasi 49,7% ni tashkil etadi.

2005-yilda barcha ekin maydonlari 3646,0 mingni tashkil etgan. Shundan 1439,1 ming ga bug‘doy, 1472,0 ming ga paxta, 49,6 ming ga kartoshka, 137,4 ming ga sabzavot va poliz, 231,8 ming ga yemxashak ekinlari maydonidir. Respublikaning adir zonalarida lalmikor dehqonchilik (bug‘doy, arpa, zig‘ir, kunjut, no‘xat, ozuqabop ekinlar, bog‘dorchilik) bilan shug‘ullaniladi. Sug‘orma dehqonchilikda lalmikor dehqonchilikka qaraganda 3-5 marta ko‘p hosil olinadi. Sug‘oriladigan yerlarning asosiy qismi paxtachilikda foydalaniladi. 2005-yilda yalpi paxta hosili 3766,4 ming tonnaga yetdi.

O‘zbekistonning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda. o‘rta tolali, Namangan, Buxoro, Qashqadaryo va Surxonidaryo viloyatlari-da ingichka tolali (ipak) paxta yetishtiriladi.

Respublika hududida texnika ekinlaridan kanop, tamaki, qand lavlagi ham yetishtiriladi. Kanopchilik, asosan, Yuqori va Quyi Chirchiq tumanlarida, qisman O‘rta Chirchiq tumanida, tamaki, asosan, Samarqand viloyatlining Urgut tumanida, qisman Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz va Yakkabog‘ tumanlari xo‘jaliklarida etishtiriladi.

Respublika dehqonchiligidagi donchilik muhim o'rinda turadi. O'zbekistonda don uchun kuzgi va bahorgi g'alla ekinlari-bug'doy, arpa, javdar, suli, sholi, makkajo'xori, oq jo'xori, tariq, grechka, shuningdek, no'xat, mosh, loviya, yeryong'oq, moyli kunjut, soya, kanakunjut, maxsar, kungaboqar va boshqalar yetishtiriladi.

1995-yili g'alla mustaqilligiga erishish uchun jami ekin maydonining 40% iga g'alla ekilgan (1656,5 ming ga) bo'lsa, 2005-yilda uning maydoni 1615,2 ming ga ga yetdi va 6578,0 ming t don yetishtirildi. Undan 6047 ming t bug'doyga, 160,4 ming t sholiga, 162,5 ming t makkajo'xoriga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkich Respublikaning g'allaga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlaydi.

Respublikada sholi ekiladigan maydonlar 160 ming ga ga yetdi. Asosiy sholi ekiladigan tumanlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlaridadir. Makkajo'xori Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida ekiladi. Respublikamizda 162,5 ming t makkajo'xori doni yetishtirilgan. O'zbekiston dehqonchiligidagi paxlachilik bilan birga bog'dorchilik va uzumchilik tarmoqlari ham rivojlangan. Respublikada bog'laring umumiyligi maydoni 400 ming ga atrofida. Shundan meva bog'lari 158,9 ming ga, hosil beradigan tokzorlar 96,2 ming ga ni tashkil etadi. 2005-yilda 937,7 ming t meva va 632 ming uzum yetishtirildi. Uzumchilik Farg'ona, Samarqand, Toshkent viloyallarida yaxshi rivojlangan. Shuningdek, Andijon, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida ham bog'dorchilik va uzumchilik yaxshi rivojlangan.

Respublikada qishloq xo'jaligining ikkinchi va maxsus tarmog'i chorvachilikdir. O'zbekistonda qoramolchilik, qo'ychilik, parranda-chilik, quyonchilik, asalarichilik yaxshi rivojlangan. Shuningdek, yilqichilik, tuyachilik, pillachilik, baliqchilik ham muhim ahamiyatga egadir.

2013-yilda O'zbekistonda yirik qora mollarning soni 9,6 mln, qo'y va echkilar 16 mln dan ortiq, cho'chqalar 83,8 ming, otlar 150,9 ming, parrandalar 18726,9 ming boshga teng.

Qo'ychilikda qorako'l turi, go'sht-yog' va jun uchun boqiladigan tarmoqlar rivojlangan. Respublikada 120 ta qorako'lchilikka ixtisoslashgan xo'jalik mavjud. Hisori qo'ylar Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida boqiladi.

Qoramolchilik -respublika chorvachiligidagi asosiy o'rinni egallaydi. Respublikada go'sht, go'sht-sut yetishlirishga ixtisoslashgan qoramolchilik rivojlangan. Respublikada naslchilik xo'jaliklari Toshkent («Do'stlik»); Sirdaryo («Malik», «Yangiobod») va Andijon («Poytug'», «Savay») viloyatlarida mavjud. Respublikada qishloq xo'jaligining qadimiy va istiqbolli tarmoqlaridan biri pillachilikdir. U mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston dunyoda pillaning umumiy miqdori bo'yicha beshinchi, aholi jon boshiga pilla yetkazishda birinchi o'rinda turadi.

O'zbekistonda 2005-yilda 162111 (1980-yil 30,3 ming t) pilla, 2008 yilda jun, 1,06 mln t go'sht, 4554,7 ming t sut va 1966,4 ming dona tuxum yetishtirilgan. Respublikada sanoat asosida rivojlangan xo'jaliklarda tovuq, o'rdak, g'oz, bedana, kurka boqiladi. «O'zparandasanoat» respublika ishlab chiqarish birlashmasi tizimida tuxum, go'sht yetishtiradigan 71 ta parrandachilik fabrikasi, 12 ta naslchilik xo'jaligi mavjud. Kurkachilikni rivojlanlirish bo'yicha Isroilning «MAD» firmasi hududimizda faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tish davrida respublika agrar siyosati doirasida qishloq joylarda mehnat va tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, qishloq sanoati va infrastrukturasini rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalar. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining turmush darajasini ko'tarishda, ishlab chiqarish kuchlarini shakllantirish, rivojlantirish vajoylashtirishda transportning ahamiyati katta.

Respublikaning geosiyosiy mavqeini yaxshilashda transport tizimi va kommunikatsiyalar juda muhim rol o'ynaydi. Shu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov: «Kommunikatsiyalar tizimi haqida gapirganda O'zbekistonda geografik mavqeining o'ziga xosligi, bandargohlarga va eng katta transport tarmoqlariga chiqish yo'lining yo'qligi tufayli transport tarmoqlari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish masalalari ustuvor, strategik, hayotiy muhim ahamiyat kasb etishini ta'minlamoq darkor», degan edi.

Respublikamiz oldida bir-biridan muhim bo'lgan to'rtta yo'nalishda transport tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. 1) Rossiya, Yevropa mamlakatlari; 2) Xitoy, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari; 3). Zakavkaziya Respublikalari,

Eron, Turkiya mamlakatlari; 4) Afg'oniston va Pokiston mafrilakatlari yo'nalishida.

Bu borada respublikamizda transport kommunikatsiyasi bo'yicha hamkorlikda barqaror ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi TASIS dasturi donasida TRASEKA loyihasini ishlab chiqqan (Yevropa-Kavkaz-Osiyo transport koridori) bo'lib, uning asosiy mohiyati Yevropa va Markaziy Osiyo regionlarining transport-kommunikatsiya koridorlari tizimini bog'lashdan iboratdir. Shu bilan birga. Buyuk ipak yo'li marshrutini qaytadan tiklash maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, 1998-yil 8-sentabrda «Yevropa-Kavkaz-Markaziy Osiyo» transport koridori bo'yicha tranzit yuk tashishni kengaytirish bo'yicha Baku hamkorligiga asos solindi.

«Yevropa-Kavkaz-Markaziy Osiyo» (EKSA) hamkorligini rivojiantirish va uning barqarorligini ta'minlash regiondagi geosiyo-siy vaziyatining xarakteriga, shu mintaqalardagi davlatlarning qarashlariga bog'liq. Transport kommunikatsiya tizimida 1996-yil may oyida «Mashhad-Saraxs-Tajan» temir yo'l shoxobchasining ochilishi hamkorlikning ijobiy natijasi desak bo'ladi. Xitoy, Qozogiston, O'zbekiston, Turkmaniston. Eron va Turkiya davlatlarini bir butun temir yo'l tarmog'i bilan tutashtirildi ya transport infratizimi integratsiyasini yaratishga katta qadam qo'yildi. Natijada regiondagi mamlakatlar Xitoyning Tinch okeani qirg'oqbo'yidan Istampulgacha dengiz yo'li bilan olib kelinadigan yuklarning muddatlarini 1/3 ga qisqartirishga muvaffaq bo'ldilar.

Xalqaro munosabatlarning taraqqiyotida O'zbekiston, Qirg'iziston va Xitoy davlatlarning avtomobil, so'ng temir yo'l magistrallarini Andijon-O'sh-Torugarl-Qashqar marshrutida qurish bo'yicha kelishuvlari muhim o'rinni egallaydi. Bu yo'lning ishga tushirilishi bilan O'zbekiston qisqa masofada bir tomondan Xitoy orqali Osiyo-Tinch okean regionidagi davlatlar va Qora-qunun xalqaro avtomobil yo'li (shosse) orqali Pokiston, Hindiston davlatlari va Xind okeani bilan bog'lanadi.

Respublikada eksport-import yuklarini tashish o'tgan asrning 20-yillari boshlarida asosan to'rtta marshrut orqali amalga oshirilgan. Bular: Baltika bo'yi (Riga, Liyepaya, Tallin, Klaypeda, Sankt Peterburg); Qora dengiz (Odessa, Ilichevsk); Tinch Okean (Naxodka, Vladivostok); Chop va Brest chegara rayonlari; so'nggi yillarda Gruziya

(Poti, Batumi); Eron (Bender-Abbas). Birlashgan Arab Amirligi (Jebel Ali), Xitoy (Lyanyungan) portlari orqali yuklar tashilmoqda.

O'zbekiston hududini istiqbolda to'rtta asosiy yo'nalishdagi transport marshruti boshqa davlatlar hududi bilan bog'laydi:

TRASEKA xalqaro transport koridori;

O'zbekiston-Turkmaniston—Eron-Turkiya marshruti;

O'zbekiston-Qozog'iston-Xitoy marshruti;

Transsaafg'oniston marshruti.

2016 yilda transportning barcha turlarida 1173,8 mln.tn yuklar tashildi va bu o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 4,8 foizga ko'p demakdir. Shu bilan birga yuk aylanmasi 67,0 mlrd. tn-kmni tashkil etdi yoki 2015 yilning xuddi shu davriga nisbatan 5,7 foizga oshdi. Umumiy tashilgan yuklar hajmida avtomobil transportining ulushi 91,8 foizni (1077,3 mln.tn), temir yo'l transportining ulushi 4,3 foizni (50,8 mln.tn), quvur yo'li transportining ulushi 3,9 foizni (45,7 mln.tn) tashkil qildi. Respublikada transportning barcha turi-temir yol, avto-mobil, aviatsiya, shahar elektr transporti, daryo, truboprovod transporti mavjud.

Yuk aylanmasi tarkibida avtomobil transportining ulushi 37,3 foizni, quvur yo'li transportining ulushi 36,5 foizni, temir yo'l transportining ulushi 26,1 foizni tashkil etadi. Hisobot davrida transportning barcha turlarida 5 666,4 mln. yo'lovchi tashildi va 2015 yilning yanvar-sentyabriga nisbatan 4 foizga oshdi. Yo'lovchi aylanmasi 79,5 mlrd. yo'lovchi-kmga teng bo'ldi va 4,1 foizga ko'paydi.

Yo'lovchilarni tashishdagi eng katta ulush, ya'ni 99 foizi avtomobil transportiga to'g'ri keladi, yo'lovchi aylanmasida uning ulushi 89,5 foizga teng bo'ldi.

Temir yo'l transportida jo'natilgan yo'lovchilar soni 15,5 mln. kishini tashkil etdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 foizga o'sdi, yo'lovchi aylanmasi 2016 yil 2,9 foizga oshdi va 2 954,7 mln. yo'lovchi-kmni tashkil etdi.

**Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish
va yo'lovchi tashish aylanmasi
(2017-yil)**

| | |
|--|---------------|
| Tashilgan yo'lovchilar jami mln kishi | 8256,1 |
| temir yo'l | 21,1 |
| Avtomobil | 8165,8 |
| shahar elektr | 84,2 |
| Havo | 3,0 |
| Yo'lovchi aylanmasi mlrd yo'lovchi km | 122,5 |
| temir yo'l | 6,9 |
| Avtomobil | 106,0 |
| shahar elektr | 0,7 |
| Havo | 8,9 |

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk tashish aylanmasi
(2017-yil)**

| | |
|--|---------------|
| Jo'natilgan yuklar jami mln tonna | 1654,0 |
| temir yo'l | 69,2 |
| Avtomobil | 1432,8 |
| quvur yo'llari | 69,1 |
| havo, ming tonna | 27,5 |
| Yuk aylanmasi mlrd. m-km | 93,9 |
| temir yo'l | 23,9 |
| Avtomobil | 36,9 |
| quvur yo'llari | 34 |
| havo, ming tonna | 139,7 |

Mamlakatda temir yo'llarning umumiy uzunligi 6500 km bolib (4237,5 km foydalilanligan), shundan 827,7 km ga yaqini elektrlashtirilgan. Respublika hududida dastlabki temir yo'l qurilishi yilda Forob-Samarqand oralig'ida olib borildi, 1899-yilda uning qurilishi Andijon va Toshkentga yetkazilgan.

Ikkinci jahon urashi yillarigacha Farg'ona-Quvasoy, Asaka-Shahrixon, Qorasuv-O'sh, Uchqo'rg'on-Toshko'mir, Andijon-Tentak-

soy temiryo'llari qurilib ishga tushirilgan. Ikkinci jahon urushi yillarda Toshkent-Chirchiq, Toshkent-Angren temir yo'llari qurildi.

1952-1955-yillarda Chorjo'y-Qo'ng'irot, 1962-yilda Navoiy-Uchquduq, yilgacha Nukus-Chimboy, Tuya-mo'yin-To'rtko'I temir yo'llari qurilib ishga tushirildi. Mamlakat iqtisodiyotida 415 km li Qo'ng'irot-Beynov, shuningdek, Nukus-Uchquduq temir yo'llarining ahamiyati nihoyatda katta (2001 yil uzunligi 500 km). Respublika hududida temir yo'llarning zichligi va shu bilan birga viloyatlarda ulaming ta'minlanganlik darajasi bir xilda emas. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida bir oz yaxshi, Qoraqalpog'iston, Buxoro, Navoiy va Surxondaryoda bir oz orqada.

1995-yilda g'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini qurish (219,9 km) to'g'risida qaror qabul qilindi va qurilish ishlari hozirgi kunda davom etmoqda. Bu temir yo'l Sarosiyodan Qarshi stansiya-sigacha bo'lgan (eski masofani) masofani qariyb ikki barobar qis-qartiradi va respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Respublikaning taraqqiyotida Turkiston-Ibir (Turksib), Toshkent-Orenburg, Toshkent-Turkmanboshi, Toshkent-Tajan-Seraks-Mashliad temir yo'l magistrallarining ahamiyati ham nihoyatda katta.

Farg'ona vodiysi viloyatlarini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan to'g'ridan-to'g'ri temir yo'l orqali bog'laydigan, 19,2 kilometr uzunlikdagi noyob tunnelga ega 123,1 kilometrlik Angren-Pop elektrorashtirilgan temir yo'li ishga tushirildi.

2015 yil mobaynida 81,843 mln. tonna yuk va 20,1 mln. yo'lovchilar tashildi.

O'zbekiston temir yo'llarida 75 mingdan ortiq xodimlar ishlaydi.

Yillik yuktashish aylanmasi 22,9 mlrd. tonna-kmni, yo'lovchi tashish aylanmasi esa – 3793 kmni tashkil etadi.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida avtomobil transporti va avtomobil yo'llarining hissasi ham salmoqlidir. Uning umumiy uzunligi 42676,0 km dan ortiq bo'lib, shundan 3981,0 km avtomobil yo'li xalqaro ahamiyatga ega.

Ikkinci jahon urushigacha Farg'ona vodiysisidagi viloyat markazlari va katta shaharlarni bog' lab turuvchi aylanma yo'l qayta qurildi, O'zbekistouning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Toshkent-O'sh;

Samarqand-Ashhabat-Turkmanboshi, Nukus-g'uzor, Qo'ng'irot-Beynov avtomobil yo'llari, muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Angren-Pungon yo'nalishida avtomobil yolining qayta qurilishi, yo'l xavfsizligini ta'minlash maqsadida Qamchiq (890 m) va Rezak (368 m) tonellarining ishga tushirilishi respublika iqtisodiyotida katta imkoniyatlar yaratmoqda. Tounellardan bir kecha-kunduzda 3500 dan 12000 ga yaqin avtomobillar o'tish imkoniyatiga ega. Respublikamiz xalqaro avtomobil yo'llari qurilishida o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar avtomobil yoli bunga misol bo'ladi. Respublikada «O'rtaOsiyotrans» avtomobil firmasi tashkil etilgan. Mamlakatimizda xalqaro yo'nalishlarda yuklarni tashish bo'yicha uyushma mavjud bo'lib, bu uyyshma xalqaro avtomobil transporti tashkilotiga a'zo.

Mustaqillik yillarda havo transportining ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Dastlabki havo transporti respublikamizda 1924-yilda faoliyat boshlagan. Respublikamiz endilikda MDH mamlakatlaridagi 1000 dan ortiq shaharlar bilan havo yo'li orqali bog'langan.

1993-yilda «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi tashkil etildi, Natijada Toshkentdan Nyu-York, London, Parij, Pekin, Dehli, Seul, Jidda kabi va boshqa jahonning ko'pgina shaharlari havo yo'llari orqali bog'landi. Shuningdek, AQSH ning «Boing» kompaniyasi bilan shartnoma tuzildi. Shartnoma asosida 1996-yildan boshlab, Toshkent bilan Nyu-York, Afina, Jakarta, Singapur shaharlari orasida havo yo'li barpo etildi.

Hozirgi kunda katta shaharlarda zamonaviy aeroportlar qurilgan. Samarqand, Buxoro va Urganch, Nukus shaharlardagi aeroportlar xalqaro talabga javob beradigan ravishda qayta ta'mirlangan. Toshkent aeroporti esa zamonaviy yirik aeroportlardan hisoblanadi.

Respublikada quvur transport turi rivojlanib bormoqda. Asosiy (magstral) quvur yo'llarining uzunligi 14113,7 km dir. Dastlabki neft quvuri Chimyon neftini Oltiariq neftni qayta ishslash zavodiga yetkazib bergen. Hozirgi kunda Amu-Zang, g'arbiy Toshloq-Qashqadaryo bekati, Mingbuloq-Oqtosh, Ko'kdurmaloq-Qorovulbazar neft quvurlaridan neft tashilmoqda. Gaz quvurlarini qurish 1958-yildan boshlangan bo'lib, respublikaning barcha viloyatlari, Qozog'iston, Qирғизистон Respublikalarining ba'zi bir shaharlari gaz

bilan gaz quvurlari orqali ta'minlailgan. O'zbekiston hududidan Ros-siyaga gaz quvurlari tortilgan. Respublikadagi Jatqoq-Buxoro, Samarqand-Toshkent gaz quvutlari juda muhimdir.

O'zbekiston elektr energiyasi Markaziy Osiyo energiya tizimining bir qismi hisoblanadi. Chunki bu makonda bir butun energiya tizhni vujudga kelgan. Qayroqqa'm-Toshkent, Andijon-To'xtag'ul, Toshkent-Chimkent, Tursunzoda-G'uzor-Sirdaryo orasida elektr uzatkich yo'llari barpo etilgan bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotida bu transporlning hissasi ortib bormoqda.

O'zbekistonda suv transporti rayonlararo xalq xo'jaligiga xizmat qilmoqda. Respublikada suv yo'llarining umumiyligi 1000 km ga yaqin. Yuklar asosan Termiz-Xayraton, Sharlavuq-To'rtko'l. Xo'jayli-Beruniy, Qoratov-Taxiatosh yo'naliishlarida tashiladi. Portlar temir yo'llar bilan bog'langan.

Respublikada shahar yo'lovchilarini tashish transporti mavjud. Unda avtobus, tramvay, trolleybus, yer osti iransporti, yengil avtomobillar xizmat ko'rsatadi. Toshkentda metro qurilishi 1972-yilda boshlandi. Hozir sutkasiga 300000 dan ortiq yo'lovchi metro xizmatidan foydalanmoqda.

Tashqi iqtisodiy aloqalar. Mustaqillik yillarda tashqi siyosatimizni va tashqi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar tizimini shakllantirish va yo'lga qo'yishning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi va izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda ochiq demokratik davlatimizni qurish, bozor munosabatlarini vujudga keltirishda bir qator amaliy ishlar qilindi. Hozirgi kunda O'zbekistonni 165 dan ortiq davlat tan oldi. Dunyodagi 140 dan ortiq davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan. Toshkentda 35 dan ortiq mamlakatning elchixonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston to'la huquqli assosda eng obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar tarkibiga kirgan hamda o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Jumladan, 1992-yil 2-martda BMT ga a'zo bo'ldi. Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ish boshlagan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ning ixtisoslashgan muassasalari-YUNESKO (BMT ning ta'lim, fan va madaniyat qo'mitasi), Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti va boshqalar bilan keng hamkorlik qilinmoqda. O'zbekiston Respub-

likasi Jahon pochta Ittifoqi, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti, Osiyo va Tinch okean havzasи bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy hay'ati, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa Ittifoqi, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shimoliy Atlantika hamkorligi harakati, Yevropa Tiklanishi va taraqqiyot banki, qo'shilmaslik harakati, Bojxona hamdo'stligi Kengashi, Xalqaro olimpiya, qo'mitasi, Jahon meteorologiya tashkiloti, Atom energetikasi bo'yicha xalqaro agentlik, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi, 1995-yil NATO ning «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» dasturi va boshqa tashkilotlaming a'zosi hisoblanadi. O'zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining a'zosidir. Bu uyushmaga sobiq ittifoqning 11 ta respublikasi birlashgan. U 1991-yil 21-dekabrda tuzilgan. MDH ni tuzishdan maqsad, uzoq yillar bir davlat bo'lib yashagan respublikalararo iqtisodiy, madaniy, harbiy va boshqa aloqalarni yangi sharoitlarda mustaqil davlatlararo munosabatlар tarzida davom ettirilishiga qaratilgan. 1993-yil yanvarda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi bиринчи Prezidenti LA.Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Qozog'iston davlatlarining uchrashuvida Osiyo va Markaziy Osiyo yagona iqtisodiy makonini tashkil etishga kelishildi. O'zbekiston uning tashabbuskori va teng huquqli, a'zosidir. O'zbekiston keyingi yillarda Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gretsya, Chexiya, Slovakiya va shuningdek, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vietnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlab borayotir.

Respublikada tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va iqtisodiy faoliyatini yaxshilashning qonuniy asoslari mavjud. Ularning mazmuni tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, xorijiy investorlarni himoya qilishga, eksport imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ichki bozorni zarur tovarlar bilan to'ldirishga, qo'shimcha kapital, ilg'or texnologiya va boshqaruв tajribasini jalb etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi bilan savdo, iqtisodiy aloqalar olib boruvchi mamlakatlarning soni 140 tadan ortib ketdi. Bunday mamlakatlar qatoriga AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Rossiya, Qozog'iston, Ukrama va boshqa xorijiy davlatlar kiradi.

Mustaqillik yillari tashqi iqtisodiy aloqalarda eksport va importning hajmi o'zgardi. Ma'lum yillar davomida eksport hajmiga nisbatan import hajmining salmog'i ortiq borgan bo'lsa (masalan, 1997-yilda eksport 4387,5 mln AQSH dollariga teng bo'lgan holda import 4523,0 mln dollarni tashkil etgan), endilikda eksportning hissasi ortmoqda. Masalan, 2005-yil tashqi savdoda eksport 5408,8 mln dollarni. Import esa 4091,3 mln dollarni tashkil etdi.

O'zbekiston tashqi savdosida MDH tarkibidagi davlatlar va boshqa xorijiy mamlakatlar umumiyligi salmog'iда va eksport hamda import hajmida o'zgarishlar bo'lmoxda. Jumladan, 1999-yilda tashqi savdoning umumiyligi hajmida MDH mamlakatlarining hissasi 28,2% ni, boshqa mamlakatlar hissasi 71,8% ni tashkil eldi. Shuningdek, eksportda MDH mamlakatlari 30,4%. boshqa mamlakatlar 69,6% ni, importda esa tartib bilan 26,0% va 74,0% ga teng bo'ladi.

Mustaqillik yillarda respublikamiz tashqi iqtisodiy hamkorligida mahsulotlar tarkibi bo'yicha hamda eksport va import ko'rsatkichlarida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. O'zbekiston istiqlol tu-fayli xorijiy mamlakatlarga ko'proq paxta tolasi, oziq-ovqat mahsutotlari, kimyo mahsulotlari va plastmassalar, energiya, qora va rangli metallar, mashina va uskunalar eksport qilmoqda. O'zbekislonda import tarkibini ko'proq oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va plastmassalar, qora va rangli metallar (ayniqsa, qora metallar), mashinalar va uskunalar tashkil etadi.

Eksport hajmi bo'yicha Toshkent shahri va viloyati, Navoiy, Buxoro, Farg'onasi, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari yetakchilik qiladi.

2016-yil yangi eksport bozorlari soni 44 taga ko'paydi. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklari va Janubiy Afrika Respublikasiga yengil avtomobillar, Buyuk Britaniyaga kuch aggregatlari, dvigatellar tarkibiy qismlari, Latviyaga g'ildirak diskllari, Janubiy Koreyaga avtogenerateditorlar, Yaponiyaga vinomateriallar, AQSh va Isroilga vino-aroq mahsulotlari, XXR, Turkiya, Janubiy Koreya, Latviya, Afg'onistonga polietilen va polipropilen, Shvetsiya, Ruminiya, Bolgariya, Turkiya, Indoneziya, Moldova, Ozarbayjonga mineral o'g'itlar, Niderlandiyaga metall molibdeni va reniy, Hindiston va Eronga metall ruxi, Belarusga sport poyabzallari, Polsha va Janubiy Koreyaga charm buyumlari va boshqa mahsulotlar eksport qilindi.

Mamlakatimizda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilishi, jumladan, "O'zagroeksport" ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi tashkil etilgani natijasida 2016-yil birinchi yarmida 354 ming tonnadan ziyod yoki 2015-yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko'p ho'l meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari, jumladan, 270 ming tonna sabzavot, 130 ming tonnadan ortiq meva va uzum, 1,3 ming tonna poliz mahsulotlari eksportga yetkazib berildi.

O'zbekiston paxtachilik mashinalari, to'qimachilik jihozlari, paxta tolasi, qorako'l terisi eksport qilishda MDH davlatlarida birinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda MOD va Rossiya ga yengil avtomobillar ham eksport qilinmoqda. Xalqaro mehnat taqsimotida O'zbekiston paxta xomashyosi, paxtachilik, to'qimachilik va kimyo sanoatiari mahsulotlari, yerga ishlov berish va irrigatsiya uchun mashinalar, jihozlar va asbob-uskunalar yetkazib berishga ixtisoslashgan.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarda xalqaro mehnat taqsimotining afzalliklaridan unumli foydalanilmoqda. Chet elliq sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiy investitsiya muhiti yaratilmoqda. 1999-yilda respublikada taxminan 1,5 mlrd dollar atrofida xorijiy sarmoyalar o'zlashtirildi. Xorijiy firmalar, xalqaro tashkilotlar Respublikaning kimyo, gaz, neft sanoati, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarida ishtiroy etrnooda. Chet elliq investorlarga yordam ko'rsatish bo'yicha O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va muassasalar tarmog'i tashkil etiigan. Bular chet el investitsiyalari bo'yicha agentlik, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, «O'zbekinvest» Milliy eksport-import sug'urta kompaniyasıdir. AIG (AQSH) bilan birga siyosiy xavf-xatarlardan sug'urtalash bo'yicha qo'shma korxona «O'zbekinvest-Intemshil» ta'sis etilgan.. Uning qarorgohi Londonda joylashgan. lizing kompaniyasi tashkil etildi. Uning muassasaları - Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki, «Malayziya BENK BERXARD» (Malayziya) va bizning Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankimizdir. AQSH, Germaniya, Fransiya, Turkiya, «Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki» bilan katta hajmdagi eng yaxshi mashina va uskunalar hamda texnologiya-

lar importini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini markazlashtirilgan holda xarid qilishni, Ko'kdumaloq gaz-neft konini o'zlashtirish, loyihalaxni kreditlash bo'yicha bitim imzolandi. Ayniqsa, Buxoro neftni qayla ishslash zavodini qurish, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida neft konlarini o'zlashtirish bo'yicha Fransiya bilan munosabatlar faol rivojlanmoqda. 1992-yilda oltin qazib chiqarish bo'yicha «Zarafshon-Nyumont», «O'zbekiston-Amerika» qo'shma korxonasi tashkil etildi.

To'qimachilik sanoatida chet ellik investorlar ishtirokida o'nlab qo'shma korxonalar tashkil elilgan. «Kobul-O'zbek», «Teslayk», «Aksomtekstil» (Koreya), «Kateks», «Elteks», «Samjinteks» (Turkiya), «Superteks» (AQSH) va boshqalar shular j umlasidandir.

Agarda mamlakatimizning o'zaro tovar ayriboshlash va sarmoya kiritish borasidagi ro'yxatga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda Janubiy Koreyaning yetakchilik qilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davlatning O'zbekiston jami savdo aylanmasidagi ulushi 9,3 foizni tashkil etadi va kelgusida bu ko'rsatkich yana ortishi mumkin. Hozirda mamlakatimizda xorijiy investitsiya ishtirokida bir qancha qo'shma korxonalar tashkil topgan va ish olib bormoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalar Xitoy, Koreya, Yaponiya, AQSH, Rossiya, Gernaniya, Malayziya va boshqa davlatlardan jalb etilmoqda. Ulardan oqilona va samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Respublikaning iqtisodiy rayonlari va ma'muriy-hududiy boMinishi. Respublika hududida iqtisodiy rayonlarni belgilash muhim amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

Respublikada iqtisodiy rayonlashtirish masalalari bilan K.N. Bedrinsev, N.G. Sapenko, Z.M. Akromov, A. Soliyev va boshqa olimlar ijobiliy tadqiqot ishlari olib borganlar va samarali shug'ullanmoqdalar. O'zbekistonni iqtisodiy rayonlarga bo'lishda geografiya fanlari doklori, professor Z.M. Akromovning xizmallari katta va ular tomonidan taklif etilgan iqtisodiy rayonlar ajratmasi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan. Unga ko'ra respublikamiz hududida 8 ta iqtisodiy rayon mavjud. Ma'muriy-hududiy bo'linish davlat tomonidan qonun asosida ajratiladi. U subyektiv hosiladir. Respublika tar-kibida Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat bor. Ma'muriy-hududiy jihatdan respublikada viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar mavjud. Shuningdek, respublikaga, viloyatiga, tumanga bo'ysinuvchi shaharlarga ajratiladi.

FOYDALANISH UCHUN MA'LUMOTLAR

Markaziy Osiyoning chekka nuqtalari

Shimoliy burni: Ayirtov -53:8 sh.k.

Sharqiy burni: Qora irtish -85:6 shq.u.

Janubiy burni: Xarirud -34 sh.k.

G'arbiy burni: Tupqarag'ay -50: 3 shq.u.

CHO'LLARI

| | |
|----------------------|--------------------------|
| Markaziy Qoraqum | Turkmaniston |
| Orqounchuz Qoraqumi | Turkmaniston |
| Qoraqum | Turkmaniston |
| Qizilqum | O'zbekiston |
| Sandiqli qumlar | O'zbekiston-Turkmaniston |
| Orol bo'yli Qoraqumi | Qozog'iston |
| Betpaqdala | Qozog'iston |
| Mo'yinqum | Qozog'iston |
| Tovuqum Qumlari | Qozog'iston |
| Sariesik Atirov | Qozog'iston |
| Katta Bo'rsiq | Qozog'iston |
| Yozyavon | O'zbekiston |
| Sherobod | O'zbekiston |
| Qarshi -cho'li | O'zbekiston |
| Qarnob | O'zbekiston |
| Malik | O'zbekiston |
| Mirzacho'1 | O'zbekiston |
| Qimiraqqum | Turkmaniston |
| Shirshutur | Turkmaniston |
| Qoraqalpoq | O'zbekiston |
| Tosquduq | O'zbekiston |

PASTEKISLIK VA TEKISLIK

| Nomi | Joylashgan o‘rni |
|----------------------|-------------------------|
| Turon past | O‘zbekiston-Qozog‘iston |
| Qozoq mayda tepaligi | Qozog‘iston |
| To‘rg‘oy soyi | Qozog‘iston |
| Ustyurt platasi | O‘zbekiston |
| Qorabovur qirlari | Turkmaniston |
| Qorabel tepaligi | Turkmaniston |
| Bandi -Turkiston | Turkmaniston |
| Mong‘stov platosi | Qozog‘iston |
| Ko‘kchatov tepaligi | Qozog‘iston |
| Badxiz | Turkmaniston |
| To‘rg‘oy | Qozog‘iston |

KO‘LLARI

| Nomi | Joylashgan o‘rni |
|--------------|--------------------------|
| Balkash | Qozog‘iston |
| Sassiqko‘l | Qozog‘iston |
| Olako‘l | Qozog‘iston |
| Issiqko‘l | Qirg‘iziston |
| Sarigamish | Turkmaniston-O‘zbekiston |
| Orol dengiz | Qozog‘iston-O‘zbekiston |
| Tengiz | Qozog‘iston |
| Qoraqir | O‘zbekiston |
| Aydarko‘l | O‘zbekiston |
| Tuzkon | O‘zbekiston |
| Arnasoy | O‘zbekiston |
| Ayoz ko‘l | O‘zbekiston |
| Oyoqqog‘itma | O‘zbekiston |
| Dovutko‘l | O‘zbekiston |
| Kerney | Turkmaniston |
| Mashanko‘l | O‘zbekiston |
| Sudoche | O‘zbekiston |

SUV OMBORLARI

| Nomi | Joylashgan o'rni |
|----------------|------------------|
| Qapchig'oy | Ili |
| Shordara | Sirdaryo |
| Zeyd | Qoraqumdaryo |
| To‘xtag‘ul | Norin |
| Tuyabo‘g‘iz | Ohangaron |
| Ohangaron | Ohangaron |
| Chorvoq | Chirchiq |
| Karkidon | Isferamsoy |
| To‘rtko‘l | Isfara |
| Jizzax | Sangzor |
| To‘dako‘l | Quyimozor |
| Kattaqo‘rg‘on | Qoradaryo |
| Sho‘rko‘l | Zarafshon |
| Pachkamar | Qashqadaryo |
| Xisorak | Tanxozdaryo |
| Uchqizil | Zang |
| Oq tepa | Surxondaryo |
| Janubiy Surxon | Surxondaryo |
| To‘palang | To‘palang |
| Tuyamo‘yin | Amudaryo |
| Tuyamo‘yin | Amudaryo |
| Sultonsanjar | Amudaryo |
| Qo‘libuloq | Amudaryo |
| Quyimozor | Amudaryo |
| Andijon | Qoradaryo |
| Koson | Koson |
| CHimqo‘rg‘on | Qashqadaryo |
| Kosonsoy | Kosonsoy |
| Quyimozor | Zarafshon |

DARYOLARI

| | |
|---------------|-------------------------|
| Irgiz | Qozog‘iston |
| Sirdaryo | Qozog‘iston-O‘zbekiston |
| Amudaryo | Tojikiston -O‘zbekiston |
| Qoraqumdaryo | Turk man iston |
| Eire κ | Turkmaniston |
| Murg‘ob | Turkmaniston |
| Taj an | Turkmaniston |
| Panj | Лян* on iston |
| Vaxsh | Tojikiston |
| To‘rg‘oy | Qozog‘iston |
| Esil | Qozog‘iston |
| Tobil | Qozog‘iston . |
| Nura | Qozog‘iston |
| Sarisuv | Qozog‘iston |
| Shu | Qozog‘iston |
| lie | Qozog‘iston |
| Norin | Qirg‘iziston |
| Zarafshon | Tojikiston-O‘zbekiston |
| Lensi | Qozog‘iston |
| Tarim | Qirg‘iziston |
| Surxob | Tojikiston |
| Bartang | Tojikiston |
| Gint | Tojikiston |
| Qunduz | Afg‘oniston |
| Ko‘kcha | Afg‘oniston |
| Qoratok | Qozog‘iston |
| Ayagoz | Qozog‘iston |
| Emel | Qozog‘iston |
| Shagan | Qozog‘iston |
| Toshkirauiin | Qozog‘iston |
| Tundik | Qozog‘iston |
| Uli jilanshik | Qozog‘iston |

TOG‘ TIZMALARI

| | |
|--------------------|------------------------|
| Katbin tiz | Qozog‘iston |
| Saur niz | Qozog‘iston |
| Torbog‘atoy | Qozog‘iston |
| Jung‘oriya Olatovi | Qozog‘iston |
| Katmen tiz | Qozog‘iston |
| Narat | Xitoy |
| Kungoy Olatovi | Qirg‘iziston |
| Qirg‘iziston | Qirg‘iziston |
| Qoqshaltov | Qirg‘iziston |
| Tyanshan | Qirg‘iziston |
| Sariko‘l | Tojikiston |
| Voxan | Tojikiston |
| Hindikush | Afg‘oniston |
| Bandi -Turkiston | Afg‘oniston |
| Kopetdog‘ | Turkmaniston |
| Elburs | Turkmaniston |
| Turkiston | Tojikiston |
| Bebetog‘ | O‘zbekiston-Tojikiston |
| Zarafshon | O‘zbekiston-Tojikiston |
| Petr Bir | Tojikiston |
| Pomir | Tojikiston |
| Nurota | O‘zbekiston |
| Qoratov | Qozog‘iston |
| Talas Olatovi | Qirg‘iziston |
| Otoshi | Qirg‘iziston |
| Boro-xoro | Xitoy |
| Farg‘ona | Qirg‘iziston |
| Chotqol | Qirg‘iziston |
| Bo‘kantov | O‘zbekiston |

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI
NOMENKLATURASI DARYOLARI

| Nomi | Uzunligi (km) | Havzalarining maydoni (ming km²) | Qaysi davlat hududidan oqib o‘tishi |
|---------------|--------------------------|--|--|
| Sirdaryo | 3019 | 219 | O‘zbekiston |
| Amudariyo | 2540 | 309 | O‘zbekiston |
| Murg‘ob | 1300 | 63 | Turkmaniston |
| Ili | 1384 | 154 | Qozog‘iston |
| Chu | 1100 | 148 | Qozog‘iston |
| Zarafshon | 740 | 42 | O‘zbekiston |
| Norin | 578 | 59 | Qirg‘iziston |
| Sarisuv | 800- 1100 | 100 | Qozog‘iston |
| Chirchiq | 174 | 27 | O‘zbekiston |
| Tajan | 1124 | 78 | Turkmaniston |
| Qoradaryo | 180 | 30 | O‘zbekiston |
| Ohangaron | 236 | 5 | O‘zbekiston |
| Surxandaryo | 196 | 13 | O‘zbekiston |
| Sheroboddaryo | 186 | | O‘zbekiston |
| Qashqadyo | 332 | 29 | O‘zbekiston |
| So‘x | 130 | 12 | O‘zbekiston |
| Shohimardon | 77 | 9 | Qirg‘iziston |
| Sangzor | 123 | 13 | O‘zbekiston |
| Oqdaryo | 131 | 14 | O‘zbekiston |
| G‘uzordaryo | 68 | 3220 | O‘zbekiston |

SUV OMBORLARI

| Nomi | Qaysi daryo havzasida | Qaysi davlat hududida joylashganligi |
|---------------|------------------------------|---|
| To‘xtag‘ul | Norin | Qirg‘iziston |
| Qayroqqum | Sirdaryo | Tojikiston |
| Tuyamo‘yin | Amudaryo | O‘zbekiston |
| Norak | Vaxsh | Tojikiston |
| Tolimarjon | Amudaryo | Qozog‘iston |
| Qopchig‘ay | Ili | Qozog‘iston |
| Zeyd | Qoraqumdaryo | Turkmaniston |
| Kattaqo‘rg‘on | Zarafshon | O‘zbekiston |
| Chorvoq | Chirchiq | O‘zbekiston |
| Norak | Vaxsh | Tojikiston |
| Chimqo‘rg‘on | Qashqadaryo | O‘zbekiston |
| Kurpsoy | Norak | Qirg‘iziston |
| Shardara | Sirdaryo | Qozog‘iston |
| Andijon | Qoradaryo | O‘zbekiston, Qirg‘iziston |

TOG'LARI

| Nomlari | Baland nuqtalari | Qaysi davlat hududida joylashganligi |
|-----------------------|-----------------------------|---|
| Kopetdog' | 2723 | Turkmaniston |
| Hindikush | 7690 | |
| Pomir | 7495 | Tojikiston |
| Tyanshan | 7439 | Qirg'iziston |
| Torbog'atoy | 2992 | Qozog'iston |
| Jung'oriya Olatasi | 4622 | Qozog'iston |
| Xisor | 4643 | O'zbekiston |
| Turkiston | 4730 | Tojikiston |
| Boysun | 4425 | O'zbekiston |
| Piskan | 4299 | O'zbekiston |
| Qurama | 3769 | O'zbekiston |
| Qoratov | 2176 | Qozog'iston |
| Ugan | 4229 | O'zbekiston |
| Nurota | 2169 | O'zbekiston |
| Zarafshon | 2321 | O'zbekiston, Tojikiston |
| Bobotog' | 2289 | O'zbekiston |
| Qorjantog' | 2834 | Qozog'iston |
| Chaqchar | 3744 | O'zbekiston |
| Qirg'iz tizmasi | 3330 | Qirg'iziston |
| Oqtov | 1993 | O'zbekiston |
| Shunak | 1111 | Qozog'iston |
| Narat | 4604 | Qirg'iziston |
| Bias Olatov | 3520 | Qirg'iziston |
| Kolitangtov | 3137 | O'zbekiston |
| Tuyuntov tizmasi | 1319 | Tojikiston |

O'ZBEKISTONDAGI KANALLAR

| Kanallar nomi | Foyda- lanishga topshiril- gan yil | Daryodan suv olishi | Uzunligi km | Suv sarfi m3 /sek |
|------------------------|---|------------------------|----------------|----------------------|
| O'ng qirg'oq zarafshon | 19308 | Zarafshon | 72 | 107 |
| Miyongal -Xatirchi | 1964 | Zarafshon | 97 | 60 |
| Eski Anxor | 1955 | Zarafshon | 300 | 60 |
| Darg'om | 1931 | Zarafshon | 110 | 10 |
| Amu-Buhoro | 1965 | Amudaryo | 197 | 290 |
| Amu-Qorako'l | 1963 | Amudaryo | 52 | 42 |
| Amu-Qarshi | - | Amudaryo | 200 | 200 |
| Amu-zang | 1972 | Amudaryo | 56 | 200 |
| Qilishboy | 1935 | Amudaryo | 58 | 81 |
| Tosh soqa | 1940 | Amudaryo | 34 | 205 |
| Qiz ketgan | 1935 | Amudaryo | 25 | 214 |
| Paxta -Ama | 1931 | Amudaryo | 38 | 65 |
| Sherobod-mashina | 1971 | | 27 | 110 |
| Xazarboq' | 1929 | To'palangdaryo | 49 | 48 |
| Qumqo'rg'on | 1932 | Surxondaryo | 76 | 27 |
| Zang | 1966 | Surxondaryo | 90 | 85 |
| Konimex | - | Zarafshon | 28 | 16 |
| Morgunkov | 1930 | Chirchiq | 45 | 26 |
| Xandam | 1973 | Chirchiq-Qorasuv | 65 | 30 |
| Toshkent | 1941 | Chirchiq | 54 | 87 |
| Dalavarzin | 1930 | Sirdaryo | 46,6 | 78 |
| Qirov nomli | 1900 | Sirdaryo | 120 | 230 |
| Janubiy mirzachoi | 1960 | Sirdaryo | 127 | 300 |
| Oxunboboyev | 1940 | Sirdaryo | 50 | 50 |
| Janubiy Farg'ona | 1940 | Qoradaryo | 102 | 63 |
| U. Yusupov nomli | | Norin-Qoradaryo | | |
| Katta Farg'ona | 1940 | Norin | 270 | 240 |
| Shim Farg'ona | 1940 | Norin | 162 | 103 |
| Savay | 1930 | Qoradaryo | 53 | 22 |
| Katta Andijon | 1969 | Norin | 109 | 30 |
| Katta Namangan | 1970 | Norin | 135,3 | |
| Darg'om | 1931 | Zarafshon | 92 | 120 |
| Naφay | 1934 | Zarafshon | 105 | •60 |

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev Tanqidiy taxlil, qttiy tarbiya-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi zarur. “O‘zbekiston”2017
2. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon demokiratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. “O‘zbekiston” 2018
3. Sh.Mirziyoyev Buyuk kelajakni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2018
4. Sh.Mirziyoyev Qonun uxstuvorligi va inson manfaatlari ta’minalash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. “O‘zbekiston ” 20
5. I. Karimov. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlash-tirish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1995.
6. I. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O‘zbekiston». 1997.
7. I. Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O‘zbekiston» 1999.
8. G.P.Pardayev, I.A.Hasanov, P.N.G‘ulomov «Markaziy Osiyo geografiyasi». T. «Cho‘lpon» 2007.
9. A.Ro‘ziyev, K.Abirqulov. O‘zbekiston iqtisodiy geografiya-si. T., «Sharq», 2001.
10. A.Soliyev, L.Qarshiboyeva. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T., 1999.
11. V.L.Shuls, R.Mashrapov. Markaziy Osiyo gidrografiysi. T., «O‘qituvchi», 1969.
12. A.A.Qayumov, S.S.Umarov. Sh.A.Azimov va boshqalar. Iqtisodiy geografiya. Ma’ruzalar matni. T., 2001.
13. A.Qayumov, I.Safarov, M.Tillaboyeva. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi, sinf. T., «O‘qituvchi», 2002.
14. P.N.G‘ulomov. O‘zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari. T., 1990.
15. Rodriguez, J-P (ed). The Geography of Transport Systems. UK, London. Third Edition, Routledge. 416 pages. ISBN: 978-0-415-82254-1.
16. P.G‘ulomov, H.Vahobov, A.Hasanov. Markaziy Osiyo ta-biiy geografiyasi. 7-sinf. «Mehnat», 2001.

17. A.Ro'ziyev. «Markaziy Osiyo geografiyasi». Termiz, 2000.
18. 13.O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi. I-tom. Qomuslar bosh tahririyati.
19. Z.M.Akromov, P.G.Musayev. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf. T., «O'qituvchi». 2000.
20. M.Amanov, A.Abdurahmonov. O'zbekiston Respublikasi viloyatlari. Qoraqalpog'iston. T., 1995.
21. A.S.Soliyev, E.A.Ahmedov, R.Y.Mahamadaliyev va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. T., «Universitet», 2003.
22. N.To'xliyev. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. T., «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». 1998.
23. G'.R.Pardayev. Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. T., 2003.
24. R.U.Rahimbekov, Z.N.Donsova' Markaziy Osiyo tabiatini geografik o'rGANISH tarixi. T., «O'qituvchi», 1982.
25. I.A.Hasanov. Turkiston tabiiy geograf Vahobov H. Iqtisodiy geografiya asoslari. T., 2000.
26. Vahobov H. «Markaziy Osiyo tabiiy geografiya asoslari 7-sinf». T., 2000.
27. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M., Muxammedov Sh.N. Kasbiy ekologik ta'lif va tarbiya. «Iqtisodiyot-moliya» T. 2016. 8,6 b.t. UO'K: 61.4.(624).3 KBK 82.14(5Uzb)7 ISBN 978-9943-13-634-6.
28. Abdunazarov L.M. Milliy ta'lif tizimida ekologik ma'nnaviyatli shaxsni tarbiyalash // Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ilmiy axborotlari" Toshkent. № 1 (18) 2019 24-27 bet.
29. Abdunazarov L.M. National Education System of Ecological Education, Supply and Implementation It. International Journal of Research (IJR). India. Vol-06. Issue-04. April 2019 yil, ISSN:2348-6848. Impact Factor 3.541. -B. 141-145.
30. Abdunazarov L.M., Nizamiev A.G. Ekologik ta'lif – tarbiya berishda xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish. "O'zbekiston respublikasi oliy ta'limi –innovatsion rivojlanish yo'lida" mavzusidagi halqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy konferensiya, Qo'qon-2019y Aprel. -B. 178-182.
31. Nigmatov A.N., Abdunazarov L.M. Amaliy ekologiyaning ilmiy asoslari. "Oliy ta'lif tizimida tabiiy fanlar: ilmiy tadqiqot,

o‘qitish va malaka oshirish muammolari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiysi. Farg‘ona 2018 yil. –7 b.

32. Mamatqulov M. Safarov I. «Markaziy Osiyo geografiyası» maruzalar matni. T., 2000.

33. Strahler, Alan H, “Introducing physical geography”

34. Қазақстан республикасының президентінен жас түлекке сыйлық. мен – Қазақстан республикасының азаматымын. Қозғыстон -2019

35. V.Ettwein and M. Maslin. «Physical geography: fundamentals of the physical environment

36. A.Qayumov, E.Safarov, M.Tillaboyeva. «Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyası. 9-sinf» T., 2006.

37. L.Abdunazarov «Markaziy Osiyo geografiyası» maruzalar matni. Qo‘qon 2018.

38. G.R.Asanov. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar izohli lug‘ati. T., «O‘qituvchi», 1990.

39. <http://ru.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston>

40. <http://tr.wikipedia.org/wiki/Kazakistan>

41. <http://sv.wikipedia.org/wiki/Kirgizistan>

42. <http://en.wikipedia.org/wiki/Tajikistan>

43. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Туркмения>

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| SO'Z BOSHI..... | 4 |
| I-BOB. Markaziy Osiyo o'lkasining tabiatiga umumiy tavsif..... | 6 |
| Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari..... | 6 |
| Iqlimi va ichki suvlari..... | 41 |
| Tabiat zonaları..... | 65 |
| Markaziy Osyoning tabiiy resurslari..... | 72 |
| II BOB. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik tavsifi..... | 75 |
| Markaziy Osiyo mamlakatlarining aholisi..... | 75 |
| Markaziy Osyoning iqtisodiyoti..... | 80 |
| III-BOB. Markaziy Osiyo davlatlarining regional tavsifi.... | 98 |
| Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston respublikalari..... | 98 |
| Qozog'iston Respublikasi..... | 98 |
| Qirg'iziston Respublikasi..... | 113 |
| Tojikiston Respublikasi..... | 139 |
| Turkmaniston Respublikasi..... | 152 |
| O'zbekiston Respublikasi..... | 168 |
| Foydalanish uchun ma'lumotlar..... | 210 |
| Markaziy Osiyo davlatlari nomeklaturasi daryolari | 215 |
| Foydalanylган adabiyotlar..... | 219 |

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich

MARKAZIY OSIYO GEOGRAFIYASI

Darslik

| | |
|------------------------------|---------------------|
| Muharrir: | — I.T. Nishanbayeva |
| Musahhih: | — M.X. Mustafayeva |
| Musavvir" | — Z.F. Shoimov |
| Kompyuterda sahifalovchi: | — J.R. Azimov |

Noshirlik faoliyatini boshlagani haqida vakolatli
davlat organini xabardor qilgani to'g'risida

TASDIQNOMA

№ 3991

2020 yil 30 oktyabrda bosishga ruxsat etildi

Bichimi 60x84, 1/16. Times New Roman garniturasi.

Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 13, nashr bosma tobog'i 13.


Adadi 100 nusxada. 7-sonli buyurtma

“Shafoat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira-19

Telefon +99899 993-83-36

ISBN 978-9943-6739-3-9

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6739-3-9.

9 789943 673939